

TDIU HUZURIDAGI  
PEDAGOG KADRLARNI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING  
MALAKASINI OSHIRISH  
TARMOQ MARKAZI



O'QUV USLUBIY  
MAJMUA

TOSHKENT-2022

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**OLIV TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR  
KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING  
MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL ETISH BOSH ILMIY-  
METODIK MARKAZI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH  
TARMOQ MARKAZI**

**“BYUDJET NAZORATI VA G'AZNACHILIGI”  
yo'nalishi**

**“XORIJIY MAMLAKATLARDA G'AZNACHILIK  
TIZIMI”  
moduli bo'yicha**

**O'QUV-USLUBIY  
MAJMUA**

**TOSHKENT – 2022**

Modulning o'quv-uslubiy majmuasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020 yil "7" dekabrda 648-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan o'quv dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan.

**Tuzuvchi:** Tashmuxeamedova D.A.- TMI, dotsent v.b.

**Taqrizchi:** Kasimova G.A.. – TMI, professor

*Modulning ishchi dasturi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kengashining 2022 yil 25 yanvardagi 6-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.*

## MUNDARIJA

<b>I</b>	<b>ISHCHI DASTUR.....</b>	<b>4</b>
<b>II</b>	<b>MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI.....</b>	<b>11</b>
<b>III</b>	<b>NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI.....</b>	<b>16</b>
<b>IV</b>	<b>AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI.....</b>	<b>132</b>
<b>V</b>	<b>KEYSLAR BANKI.....</b>	<b>151</b>
<b>VI</b>	<b>GLOSSARIY.....</b>	<b>158</b>
<b>VII</b>	<b>ADABIYOTLAR RO'YXATI.....</b>	<b>185</b>

# I. ISHCHI DASTUR

## KIRISH

Ushbu dasturda uzviylik va uzluksizlik nuqtai-nazaridan mantiqiy ketma-ketlikda o'z aksini topgan byudjet tizimi byudjetlari g'azna ijrosining mohiyati, O'zbekiston Respublikasining davlat moliyaviy boshqaruvi tizimida g'aznachilikning tutgan o'rnini o'rganish Respublikamiz iqtisodiyotini modernizatsiyalash sharoitida byudjet tizimi byudjetlari g'azna ijrosining faoliyatini takomillashtirish xizmat qiladi. "Xorijiy mamlakatlar g'aznachilik tizimlari" fanini chuqur o'rganish moliya, soliq, bank ishi, sug'urta va boshqa sohalar muammolarini hal qilishda muhim rol o'ynaydi.

### I. O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni

Ushbu dastur "Xorijiy mamlakatlar g'aznachilik tizimlari" fanining predmeti, metodi va obykti, byudjet tizimi byudjetlarining xorijiy mamlakatlarda g'azna ijrosini tashkil etish uslubiyoti, ahamiyati hamda xususiyatlari, xorijiy davlatlar g'aznachilik organlari va uning xududiy bo'linmalari faoliyati, xorijiy mamlakatlar ilg'or tajribalari asosida mamlakatimizda g'aznachilik tizimi taraqqiyoti istiqbollari masalalarini qamraydi.

### II. O'quv fanning maqsad va vazifalari

"Xorijiy mamlakatlar g'aznachilik tizimlari" fanini o'qitishdan maqsad talabalarni:

– talabalarni xorijiy mamlakatlar g'aznachilik tizimi ijrosining uslubiy jihatlari yuzasidan ularning iqtisodiy bilimlarini chuqurlashtirish, fanni nazariy va amaliy jihatdan o'rganish va talabalardagi mazkur fan bo'yicha mustahkam bilim ko'nikmalarni shakllantirish;

–xorijiy g'aznachilik tizimlari g'aznachilik tizimi faoliyati jarayonida moliya organlari, g'aznachilik va uning xududiy bo'linmalari, davlat maqsadli jamg'armalari va byudjet tashkilotlarida byudjet g'azna ijrosini tashkil etishning uslubiy masalalari, davlat byudjeti g'azna ijrosining amal qilish asoslarining nazariy va tashkiliy jihatlari o'rgatishdan iboratdir.

"Xorijiy mamlakatlar g'aznachilik tizimlari" fani talabalarni rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda davlat moliyaviy boshqaruvi jarayonida g'aznachilik tizimi faoliyati yuzasidan nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, iqtisodiy hodisa va jarayonlarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish vazifalarini bajaradi.

Fanning vazifasi talabalarni turli masalalarni tahlil etishga, mustaqil fikrlashga, ixtisoslik fanlarini o'rganish uchun tayyorlashdan iborat.

"Xorijiy mamlakatlar g'aznachilik tizimlari" fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida talaba:

- xorijiy mamlakatlarda g'aznachilik tizimi sharoitida byudjet g'azna ijrosini tashkil etish;

- xorijiy g'aznachilik organlari faoliyatini tashkil etish va natijalarini baholash;
- xorijiy g'aznachilik tizimlari faoliyatining hozirgi zamon holati va rivojlanish qonuniyatlarini tahlil qilish;
- xorijiy g'aznachilik tizimlarida byudjet mablag'lari iste'molchilari majburiyatlarini bajarish;
- xorijiy g'aznachilik tizimlarida byudjet resurslarini boshqarishning asosiy usullarini;
- xorijiy mamlakatlar g'aznachilik tizimlarida moliyaviy faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida **tasavvurga ega bo'lishi**;
- makrodarajada va hududlar miqyosida g'aznachilik organlari faoliyatining amal qilishini;
- g'aznachilik tizimi faoliyatining tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlarini;
- g'aznachilik tizimi sharoitida byudjet mablag'larini investitsiya qilish tamoyillarini;
- g'aznachilik tizimi sharoitida o'rta muddatli byudjetni tuzish asoslarini;
- g'aznachilik tizimida byudjet daromadlarini shakllantirish va xarajatlarni optimallashtirishning kontseptual asoslarini;
- g'aznachilik tizimida byudjet tashkilotlarining byudjetdan ijrosinin tashkil etish asoslarini;
- g'aznachilik tizimida byudjet bo'g'inlari faoliyatini tartibga solish uslublarini;
- g'aznachilik tizimida turli darajadagi byudjetlarni shakllantirish va taqsimlashning optimal modelini shakllantira **bilishi va ulardan foydalana olishi**;
- g'aznachilik tizimi sharoitida byudjet bo'g'inlari faoliyatini tartibga solish;
- g'aznachilik tizimi sharoitida g'aznachilik xizmati faoliyatini tashkil etish;
- g'aznachilik tizimi ijrosi yuzasidan hisobotlarni tuzish va tahlil etish;
- g'aznachilikda byudjetdan mablag'lar oluvchilar moliyaviy rejalarini ishlab chiqish;
- g'aznachilik organlari faoliyatida zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanish;
- g'aznachilik tizimi amaliyotiga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlardan maqsadga muvofiq foydalanish;
- g'aznachilik tizimi rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash maqsadida ilmiy tadqiqotlarni o'tkazish bo'yicha ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

T/r	Fandan o'tiladigan mavzular	Jami soatlar	Shu jumladan		
			Ma'ruza	Amaliy mashg'ulot	Ko'chma mashg'ulot
1	“Xorijiy mamlakatlar g’aznachilik tizimlari” fanining predmeti, maqsadi va vazifalari		2	2	
2	Rivojlangan mamlakatlarda g’aznachilik tizimlarining xususiyatlari				2
3	AQSh G’aznachiligi faoliyati		2	2	
4	Frantsiya g’aznachilik tizimi			2	
5	Rossiya G’aznachiligining faoliyati			2	
6	Yevropa mamlakatlari g’aznachilik tizimlari		2	2	
<b>Jami:</b>		<b>18</b>	<b>6</b>	<b>10</b>	<b>2</b>

## ASOSIY QISM

### 1. Fanining nazariy mashg'ulotlari mazmuni

#### 1-mavzu. “Xorijiy mamlakatlar g’aznachilik tizimlari” fanining predmeti, maqsadi va vazifalari

Davlat moliyasini isloh qilish sharoitida g’aznachilik tizimi faoliyatini tashkil etishning zarurligi, maqsadi va vazifalari. Xorijiy mamlakatlar g’aznachilik tizimlari shakllantirishning nazariy va tashkiliy asoslarining shakllanishi. Xorijiy mamlakatlar g’aznachilik tizimlari shakllanishining asosiy masalalari: huquqiy jihatdan, tashkiliy jihatdan, uslubiy jihatdan, texnik va texnologik hamda shu kabi masalalarni hal etishda g’aznachilik fanining zarurligi. “Xorijiy mamlakatlar g’aznachilik tizimlari” fanining predmeti, maqsadi va asosiy vazifalari. “Xorijiy mamlakatlar g’aznachilik tizimlari” fanining iqtisodiy fanlar tizimida tutgan o’rni va ahamiyati. Uning boshqa fanlar bilan bog’liqligi.

#### 2-mavzu. Rivojlangan mamlakatlarda g’aznachilik tizimlarining xususiyatlari

**Rivojlangan mamlakatlarda byudjet tizimi va byudjet qurilishi.** Byudjet tizimi tamoyillari. Byudjet tizimini boshqarish organlari. G’aznachilik organlarining vakolatlari. Moliya vazirligining byudjet tizimini boshqarish sohasidagi vakolatlari. Byudjet jarayoni tushunchasi. Xorijiy mamlakatlarda byudjet jarayonini tashkil etilishi. Davlat byudjetini va davlat maqsadli jamg’armalari byudjetlarini tuzish, ko’rib chiqish, qabul qilish hamda tasdiqlash tartiblari va bu jarayonda ishtirok etuvchi organlar. Byudjet so’rovi. Byudjetnoma va uni taqdim etish. Byudjet tizimi byudjetlari ijrosini ta’minlash tartibi. Byudjet g’azna ijrosi. Byudjet g’azna ijrosini joriy etishning zaruriyati va shart-sharoitlari.

### **3-mavzu. AQSH G'aznachiligi faoliyati**

AQSh moliya tizimida G'aznachilik departamentining tutgan o'rni va ahamiyati. AQShda yagona g'azna hisobraqmini boshqarish. G'aznachilik departamentining byudjet jarayonidagi roli. Moliya tizimini boshqarish tartibi. Moliya bozorini boshqarish tartibi. G'aznachilik faoliyatini tashkil etishda davlatning ishtiroki. Budjet tizimi byudjetlari bo'g'inlarining g'azna ijrosini ta'minlash tartiblarini tashkil etilishi. G'aznachilik yagona hisobraqamining tashkil etilishi va yuritilishi. AQSh g'aznachilik tizimi faoliyatlarining ilg'or tajribalari

### **4-mavzu. Frantsiya g'aznachilik tizimi**

Frantsiya moliya va byudjet tizimini boshqarishning xususiyatlari. Frantsiyada G'aznachilik direktsiyasi va uning hududiy bo'linmalarining tuzilishi. G'aznachilikning asosiy vazifalari, bo'linmalarining funktsional vazifalari. G'aznachilikning davlat boshqaruv va ijroiya organlaribilan munosabatlarini tashkil etish. G'aznachilikni tashkil etishning huquqiy-me'yoriy asoslari.

Byudjet direktsiyasi byudjet jarayonini xalqaro amaliyot tajribalaridan kelib chiqqan holda tartibga solish, byudjet amaliyotida mavjud bo'lgan ziddiyatlarni bartaraf etish, eskirgan tartib-qoidalarni bekor qilish, byudjet jarayonini tashkil etishdagi me'yorlar, nizomlar va byudjet jarayoni ishtirokchilarining vakolatlarini tizimlashtirish asosi.

### **5-mavzu. Rossiya G'aznachiligining faoliyati**

Rossiyada G'aznachilik shakllanishining tarixi va xususiyatlari. G'aznachilik organlarining mamlakat moliya tizimini boshqarishdagi o'rni. Budjet tizimini yanada isloh qilish, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda byudjet mablag'larining maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni kuchaytirish, barcha darajalardagi byudjet daromadlari va xarajatlarini boshqarish samaradorligini oshirish maqsadida davlat byudjetining g'azna ijrosini tatbiq etishning zarurligi, shart-sharoitlari. G'aznachilik markaziy apparatining tashkiliy tuzilishi. G'aznachilik organlarining vakolatlari: funktsiyalari, vazifalari, huquqlari va majburiyatlari. Yagona g'azna hisobraqamidan federal byudjetining g'azna ijrosi bilan qamrab olingan byudjetdan mablag' oluvchilarning kassa xarajatlarini amalga oshirish tartibi. Federal g'azna hisobraqami va munitsipial g'azna hisobraqamlarini yuritish tartiblari. Rossiya G'aznachiligi faoliyatini optimallashtirish yo'llari.

### **6-mavzu. Yevropa mamlakatlari g'aznachilik tizimlari**

Germaniya moliya va byudjet tizimini boshqarishning xususiyatlari. Germaniya g'aznachilik organi va uning hududiy bo'linmalarining tuzilishi. G'aznachilikning asosiy vazifalari, bo'linmalarining funktsional vazifalari.



G'aznachilikning davlat boshqaruv va ijroiya organlaribilan munosabatlarini tashkil etish. G'aznachilikni tashkil etishning huquqiy-me'yoriy asoslari.

Buyuk Britaniya g'aznachilik tizimining byudjet jarayonini xalqaro amaliyot tajribalaridan kelib chiqqan holda tartibga solish, byudjet amaliyotida mavjud bo'lgan ziddiyatlarni bartaraf etish, eskirgan tartib-qoidalarni bekor qilish, byudjet jarayonini tashkil etishdagi me'yorlar, nizomlar va byudjet jarayoni ishtirokchilarining vakolatlarini tizimlashtirish asosi.

Pribaltika davlatlari moliya va byudjet tizimini boshqarishning xususiyatlari. Latviya g'aznachilik organi va uning hududiy bo'linmalarining tuzilishi. G'aznachilikning asosiy vazifalari, bo'linmalarining funksional vazifalari.

Litvada G'aznachilikning davlat boshqaruv va ijroiya organlaribilan munosabatlarini tashkil etish. G'aznachilikni tashkil etishning huquqiy-me'yoriy asoslari. Byudjet direktivasi byudjet jarayonini xalqaro amaliyot tajribalaridan kelib chiqqan holda tartibga solish, byudjet amaliyotida mavjud bo'lgan ziddiyatlarni bartaraf etish, eskirgan tartib-qoidalarni bekor qilish, byudjet jarayonini tashkil etishdagi me'yorlar, nizomlar va byudjet jarayoni ishtirokchilarining vakolatlarini tizimlashtirish asosi.

Italiyada g'aznachilik organlari tomonidan g'azna hisobraqamlarini qo'llash sharoitida davlat byudjeti va mahalliy byudjetlarning g'azna ijrosini amalga oshirish tartibi. Respublika g'azna hisobraqami va hududiy g'azna hisobraqamlarini yuritish tartiblari. byudjetdan mablag' oluvchilarning xarajatlar smetalarini va ularga o'zgartirishlarni g'aznachilik bo'linmalariga taqdim etish tartiblari, yuridik majburiyatlarni ro'yxatga olishning umumiy qoidalari, byudjetdan mablag' oluvchilarning byudjetdan tashqari mablag'lari hisobiga xarajatlarni amalga oshirish tartiblari.

## **2.Fanning amaliy mashg`ulotlari mazmuni**

### **1-mavzu. “Xorijiy mamlakatlar g'aznachilik tizimlari” fanining predmeti, maqsadi va vazifalari**

Davlat moliyasini isloh qilish sharoitida g'aznachilik tizimi faoliyatini tashkil etishning zarurligi, maqsadi va vazifalari. Xorijiy mamlakatlar g'aznachilik tizimlari shakllantirishning nazariy va tashkiliy asoslarining shakllanishi. Xorijiy mamlakatlar g'aznachilik tizimlari shakllanishining asosiy masalalari:huquqiy jihatdan, tashkiliy jihatdan, uslubiy jihatdan, texnik va texnologik hamda shu kabi masalalarni hal etishda g'aznachilik fanining zarurligi. “Xorijiy mamlakatlar g'aznachilik tizimlari” fanining predmeti, maqsadi va asosiy vazifalari. “Xorijiy mamlakatlar g'aznachilik tizimlari” fanining iqtisodiy fanlar tizimida tutgan o'rni va ahamiyati. Uning boshqa fanlar bilan bog'liqligi.

## **2-mavzu. Rivojlangan mamlakatlarda g'aznachilik tizimlarining xususiyatlari**

**Rivojlangan mamlakatlarda byudjet tizimi va byudjet qurilishi.** Budjet tizimi tamoyillari. Budjet tizimini boshqarish organlari. G'aznachilik organlarining vakolatlari. Moliya vazirligining byudjet tizimini boshqarish sohasidagi vakolatlari. Budjet jarayoni tushunchasi. Xorijiy mamlakatlarda byudjet jarayonini tashkil etilishi. Davlat byudjetini va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarini tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish hamda tasdiqlash tartiblari va bu jarayonda ishtirok etuvchi organlar. Budjet so'rovi. Budjetnoma va uni taqdim etish. Budjet tizimi byudjetlari ijrosini ta'minlash tartibi. Budjet g'azna ijrosi. Budjet g'azna ijrosini joriy etishning zaruriyati va shart-sharoitlari.

## **3-mavzu. AQSh G'aznachiligi faoliyati**

AQSh moliya tizimida G'aznachilik departamentining tutgan o'rni va ahamiyati. AQShda yagona g'azna hisobraqmini boshqarish. G'aznachilik departamentining byudjet jarayonidagi roli. Moliya tizimini boshqarish tartibi. Moliya bozorini boshqarish tartibi. G'aznachilik faoliyatini tashkil etishda davlatning ishtiroki. Budjet tizimi byudjetlari bo'g'inlarining g'azna ijrosini ta'minlash tartiblarini tashkil etilishi. G'aznachilik yagona hisobraqamining tashkil etilishi va yuritilishi. AQSh g'aznachilik tizimi faoliyatlarining ilg'or tajribalari

## **4-mavzu. Frantsiya g'aznachilik tizimi**

Frantsiya moliya va byudjet tizimini boshqarishning xususiyatlari. Frantsiyada G'aznachilik direktsiyasi va uning hududiy bo'linmalarining tuzilishi. G'aznachilikning asosiy vazifalari, bo'linmalarining funktsional vazifalari. G'aznachilikning davlat boshqaruv va ijroiya organlaribilan munosabatlarini tashkil etish. G'aznachilikni tashkil etishning huquqiy-me'yoriy asoslari.

Byudjet direktsiyasi byudjet jarayonini xalqaro amaliyot tajribalaridan kelib chiqqan holda tartibga solish, byudjet amaliyotida mavjud bo'lgan ziddiyatlarni bartaraf etish, eskirgan tartib-qoidalarni bekor qilish, byudjet jarayonini tashkil etishdagi me'yorlar, nizomlar va byudjet jarayoni ishtirokchilarining vakolatlarini tizimlashtirish asosi.

## **5-mavzu. Rossiya G'aznachiligining faoliyati**

Rossiyada G'aznachilik shakllanishining tarixi va xususiyatlari. G'aznachilik organlarining mamlakat moliya tizimini boshqarishdagi o'rni. Budjet tizimini yanada isloh qilish, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda byudjet mablag'larining maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni kuchaytirish, barcha darajalardagi byudjet daromadlari va xarajatlarini boshqarish samaradorligini oshirish maqsadida davlat byudjetining g'azna ijrosini tatbiq etishning zarurligi, shart-sharoitlari. G'aznachilik markaziy apparatining tashkiliy tuzilishi.

G'aznachilik organlarining vakolatlari: funktsiyalari, vazifalari, huquqlari va majburiyatlari. Yagona g'azna hisobraqamidan federal byudjetining g'azna ijrosi bilan qamrab olingan byudjetdan mablag' oluvchilarning kassa xarajatlarini amalga oshirish tartibi. Federal g'azna hisobraqami va munitsipial g'azna hisobraqamlarini yuritish tartiblari. Rossiya G'aznachiligi faoliyatini optimallashtirish yo'llari.

## **6-mavzu. Yevropa mamlakatlari g'aznachilik tizimlari**

Germaniya moliya va byudjet tizimini boshqarishning xususiyatlari. Germaniya g'aznachilik organi va uning hududiy bo'linmalarining tuzilishi. G'aznachilikning asosiy vazifalari, bo'linmalarining funktsional vazifalari. G'aznachilikning davlat boshqaruv va ijroiya organlaribilan munosabatlarini tashkil etish. G'aznachilikni tashkil etishning huquqiy-me'yoriy asoslari.

Buyuk Britaniya g'aznachilik tizimining byudjet jarayonini xalqaro amaliyot tajribalaridan kelib chiqqan holda tartibga solish, byudjet amaliyotida mavjud bo'lgan ziddiyatlarni bartaraf etish, eskirgan tartib-qoidalarni bekor qilish, byudjet jarayonini tashkil etishdagi me'yorlar, nizomlar va byudjet jarayoni ishtirokchilarining vakolatlarini tizimlashtirish asosi.

Pribaltika davlatlari moliya va byudjet tizimini boshqarishning xususiyatlari. Latviya g'aznachilik organi va uning hududiy bo'linmalarining tuzilishi. G'aznachilikning asosiy vazifalari, bo'linmalarining funktsional vazifalari.

Litvada G'aznachilikning davlat boshqaruv va ijroiya organlaribilan munosabatlarini tashkil etish. G'aznachilikni tashkil etishning huquqiy-me'yoriy asoslari. Byudjet direktsiyasi byudjet jarayonini xalqaro amaliyot tajribalaridan kelib chiqqan holda tartibga solish, byudjet amaliyotida mavjud bo'lgan ziddiyatlarni bartaraf etish, eskirgan tartib-qoidalarni bekor qilish, byudjet jarayonini tashkil etishdagi me'yorlar, nizomlar va byudjet jarayoni ishtirokchilarining vakolatlarini tizimlashtirish asosi.

Italiyada g'aznachilik organlari tomonidan g'azna hisobraqamlarini qo'llash sharoitida davlat byudjeti va mahalliy byudjetlarning g'azna ijrosini amalga oshirish tartibi. Respublika g'azna hisobraqami va hududiy g'azna hisobraqamlarini yuritish tartiblari. byudjetdan mablag' oluvchilarning xarajatlar smetalarini va ularga o'zgartirishlarni g'aznachilik bo'linmalariga taqdim etish tartiblari, yuridik majburiyatlarni ro'yxatga olishning umumiy qoidalari, byudjetdan mablag' oluvchilarning byudjetdan tashqari mablag'lari hisobiga xarajatlarni amalga oshirish tartiblari.

## II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI

### «Blum kubigi» metodi

**Metodning maqsadi:** Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va biliimlarni o'zlashtirilishini engillashtirish maqsadida qo'llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun "Ochiq" savollar tuzish va ularga javob topish mashqi vazifasini belgilaydi.

#### Metodni amalga oshirish tartibi:

1. Ushbu metodni ko'llash uchun, oddiy kub kerak bo'ladi. Kubning har bir tomonida ko'yidagi so'zlar yoziladi:

- **Sanab bering, ta'rif bering (oddiy savol)**
- **Nima uchun (sabab-oqibatni aniqlashtirovchi savol)**
- **Tushintirib bering (muammoni har tomonlama qarash savoli)**
- **Taklif bering (amaliyot bilan bog'liq savol)**
- **Misol keltiring (ijodkorlikni rivojlantirovchi savol)**
- **Fikr bering (tahlil kilish va baxolash savoli)**

2. O'qituvchi mavzuni belgilab beradi.

3. O'qituvchi kubikni stolga tashaydi. Qaysi so'z chiqsa, unga tegishli savolni beradi.

### “KWHL” metodi

**Metodning maqsadi:** Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va biliimlarni tizimlashtirish maqsadida qo'llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun mavzu bo'yicha qo'yidagi jadvalda berilgan savollarga javob topish mashqi vazifasini belgilaydi.

#### Izoh. KWHL:

*Know – nimalarni bilaman?*

*Want – nimani bilishni xohlayman?*

*How - qanday bilib olsam bo'ladi?*

*Learn - nimani o'rganib oldim?.*

“KWHL” metodi	
1. Nimalarni bilaman: -	2. Nimalarni bilishni xohlayman, nimalarni bilishim kerak:
3. Qanday qilib bilib va topib olaman:-	4. Nimalarni bilib oldim:

### “W1H” metodi

**Metodning maqsadi:** Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va biliimlarni tizimlashtirish maqsadida qo'llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun mavzu bo'yicha qo'yidagi jadvalda berilgan oltita savollarga javob topish mashqi vazifasini belgilaydi.

What?	Nima? (ta'rifi, mazmuni, nima uchun ishlatiladi)	
Where?	Qaerda (joylashgan, qaerdan olish mumkin)?	
What kind?	Qanday? (parametrlari, turlari mavjud)	
When?	Qachon? (ishlatiladi)	
Why?	Nima uchun? (ishlatiladi)	
How?	Qanday qilib? (yaratiladi, saqlanadi, to'ldiriladi, tahrirlash mumkin)	

### “SWOT-tahlil” metodi.

**Metodning maqsadi:** mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.



### “VEER” metodi

**Metodning maqsadi:** Bu metod murakkab, ko'ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o'rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo'yicha o'rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o'quvchilarning mustaqil g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Veer” metodidan ma'ruza mashg'ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar

mashg'ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

### Metodni amalga oshirish tartibi:



trener-o'qituvchi ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlariga ajratadi;



trening maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi



har bir guruh o'ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o'z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo'yicha tarqatmaga



navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o'z taqdimotlarini o'tkazadilar. Shundan so'ng, trener tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotlr bilan to'ldiriladi va mavzu

Muammoli savol					
1-usul		2-usul		3-usul	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi
<b>Xulosa:</b>					

### “Keys-stadi” metodi

«**Keys-stadi**» - inglizcha so'z bo'lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – o'rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o'rganish, tahlil qilish asosida o'qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o'rganishda foydalanish tartibida qo'llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin.

### “Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
<b>1-bosqich:</b> Keys va uning axborot ta’minoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish;</li> <li>✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda);</li> <li>✓ axborotni umumlashtirish;</li> <li>✓ axborot tahlili;</li> <li>✓ muammolarni aniqlash</li> </ul>
<b>2-bosqich:</b> Keysni aniqlashtirish va o’quv topshirig’ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muammolarni dolzarblik ierarxiasini aniqlash;</li> <li>✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash</li> </ul>
<b>3-bosqich:</b> Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o’quv topshirig’ining echimini izlash, hal etish yo’llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muqobil echim yo’llarini ishlab chiqish;</li> <li>✓ har bir echimning imkoniyatlari va to’siqlarni tahlil qilish;</li> <li>✓ muqobil echimlarni tanlash</li> </ul>
<b>4-bosqich:</b> Keys echimini echimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muqobil variantlarni amalda qo’llash imkoniyatlarini asoslash;</li> <li>✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash;</li> <li>✓ yakuniy xulosa va vaziyat echimining amaliy aspektlarini yoritish</li> </ul>

### “Assesment” metodi

**Metodning maqsadi:** mazkur metod ta’lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o’zlashtirish ko’rsatkichi va amaliy ko’nikmalarini tekshirishga yo’naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta’lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo’nalishlar (test, amaliy ko’nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo’yicha tashhis qilinadi va baholanadi.

#### **Metodni amalga oshirish tartibi:**

“Assesment”lardan ma’ruza mashg’ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o’rganishda, yangi ma’lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg’ulotlarda esa mavzu yoki ma’lumotlarni o’zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o’z-o’zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o’qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o’quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo’shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

Har bir katakdagi to’g’ri javob 5 ball yoki 1-5 balgacha baholanishi mumkin.



## Test

•

## Muammoli vaziyat

## Tushuncha tahlili (simptom)

## Amaliy vazifa

### “Insert” metodi

#### Metodni amalga oshirish tartibi:

- o'qituvchi mashg'ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan matni tarqatma yoki taqdimot ko'rinishida tayyorlaydi;
- yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta'lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko'rinishida namoyish etiladi;
- ta'lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o'z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda talabalar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

Belgilar	Matn
“V” – tanish ma'lumot.	
“?” – mazkur ma'lumotni tushunmadim, izoh kerak.	
“+” bu ma'lumot men uchun yangilik.	
“– ” bu fikr yoki mazkur ma'lumotga qarshiman?	

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta'lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo'lgan ma'lumotlar o'qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to'liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg'ulot yakunlanadi.



### **III. NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI**

#### **1-mavzu. “Xorijiy mamlakatlar g’aznachilik tizimlari” fanining mazmuni, predmeti va vazifalari**

##### **Reja:**

- 1. “Xorijiy mamlakatlar g’aznachilik tizimlari fanining mazmuni va maqsadi**
- 2. “Xorijiy mamlakatlar g’aznachilik tizimlari fanining predmeti va vazifalari**
- 3. “Xorijiy mamlakatlar g’aznachilik tizimlari fanining iqtisodiy fanlar tizimida tutgan o’rni va ahamiyati**

#### **1. “Xorijiy mamlakatlar g’aznachilik tizimlari fanining mazmuni va maqsadi**

O‘zbekiston Respublikasida davlat moliyasini boshqarish tizimida olib borilayotgan islohotlar, qator vazifalar bilan birgalikda, davlat byudjetining g’azna ijrosiga bosqichma-bosqich o‘tishni va uning faoliyat mexanizmlarini takomillashtirishni nazarda tutadi. Bunda zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida davlat mablag‘larining harakati to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni jamlash, qayta ishlash, uzatish usullarini o‘zlashtirish asosida davlat moliyasini boshqarishning samarali usul va vositalarini shakllantirish va muvofiq holda ishlashini ta‘minlash zarur bo‘ladi.

Mamlakatimizda davlat byudjetining g’azna ijrosini samarali tadbiiq etishga faqatgina barqaror rivojlanish ko‘rsatkichlariga erishganimizdan keyingina muvaffaq bo‘lindi. O‘zbekiston hukumati davlat moliyasini boshqarish tizimida ham kengqamrovli islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirib kelmoqda. Bu islohotlarning ijobiy natijalarini davlat byudjeti g’azna ijrosining muvaffaqiyatli joriy etilishida ko‘rishimiz mumkin.

Davlat byudjetining g’azna ijrosi davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg‘armalarining barcha daromadlarini, shuningdek, byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha tushumlarini yagona g’azna hisobraqamga jamlash va ularning barcha xarajatlarini shu hisobraqamdan amalga oshirishni nazarda tutadi. Bu esa

davlat byudjeti, byudjetdan tashqari fondlar, byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari, davlat qarzlari va ularga xizmat ko'rsatish jarayonlarining tezkor nazoratini va monitoringini olib borish, davlat mablag'larining samarali ishlatilishini ta'minlash, davlat moliyaviy resurslarining harakati to'g'risida operativ tarzda ma'lumotlarni jamlash imkonini beradi.

Taraqqiyotimizning bugungi sharoitida mamlakatimiz iqtisodiyotida sodir bo'layotgan tarkibiy o'zgarishlar, butun moliya tizimida, uning markaziy bo'g'ini bo'lgan davlat moliyasida amalga oshirilayotgan islohotlar davlat moliyasini boshqarish masalalarida muayyan bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish zarurligini talab qilmoqda. Bunday sharoitda nafaqat davlat moliyasi haqidagi ma'lum nazariy bilimlarga ega bo'lgan, balki davlat byudjeti g'azna ijrosi jarayonlarida vujudga keladigan holatlarni tushuna oladigan, byudjet ijrosi ishtirokchilari bo'lgan moliya organlari, g'aznachilik bo'linmalari, byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag' oluvchilar amaliy faoliyatini samarali tashkil qila oladigan, davlat mablag'larini samarali boshqarishga qaratilgan boshqaruv qarorlarini qabul qila oladigan zamonaviy mutaxassislar tayyorlash birinchi darajali ahamiyatga egadir. Shu sababli davlat moliyasi uchun tashabbuskor, ijodiy fikrleydigan mutaxassis kadrlarni tayyorlashda byudjet-moliya va byudjetning g'azna ijrosi nazariyasi va amaliyotini o'rganishga muhim o'rin beriladi.

Jamiyatning bu talabini anglagan holda, shuningdek, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining ta'lim tizimiga yangi avlod darsliklarini yaratish bo'yicha dasturiy vazifasini bajarish maqsadida mualliflar tomonidan oliy ta'limning tegishli yo'nalishlaridagi talabalar uchun "G'aznachilik" nomli darslik yaratildi. Ushbu darslikning maqsadi talabalarda davlat byudjeti g'azna ijrosini tashkil etish va g'aznachilik faoliyati haqidagi yaxlit bilimlar tizimini shakllantirish, g'aznachilik mexanizmlarining amal qilish xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiyalash sharoitida davlat moliyasi tizimida chuqur iqtisodiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlar, qator vazifalar bilan birgalikda, davlat moliyasini boshqarish samaradorligini oshirishni nazarda tutadi. Bunda davlat moliyasini boshqarish shakllari va usullarini

takomillashtirish, fan-texnika taraqqiyoti yutuqlari va boshqa texnik vositalar yordamida axborotni jamlash, qayta ishlash, uzatish qoidalari va usullarini o'zlashtirish asosida axborotlashtirishni yanada rivojlantirish talab etiladi.

Davlat moliyasini boshqarishdagi islohotlar sharoitida umumdavlat moliya tizimining bosh bo'g'ini – davlat byudjetini boshqarish, byudjet jarayonini tashkil etish tizimidagi islohotlar, xususan, byudjet ijrosida kassali tizimdan jahon amaliyotida sinalgan va o'zining ijobiy natijalarini bergan *byudjet tizimi byudjetlarining g'azna ijrosiga* o'tish amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda byudjet jarayonini samarali tashkil qilish ishlarini g'aznachilik nazoratisiz ta'minlash qiyin ekanligini olimlar va iqtisodchilar, qolaversa, soha mutaxassislari asosli ravishda e'tirof etmoqdalar. Chunki g'aznachilik nazorati byudjet daromadlari va xarajatlarini yagona g'azna hisobraqamiga jamlash, pul mablag'larini to'g'ri rejalashtirish, moliyaviy oqimlarning dastlabki va joriy nazoratini amalga oshirish hamda davlat byudjetini yuqori operativlikda ijro qilish imkonini beradi.

Ma'lumki, global jahon iqtisodiyotidagi jiddiy muammolar hamda ularning dunyodagi ko'plab mamlakatlar qatorida bizning mamlakatimiz iqtisodiyotiga ham ko'rsatayotgan salbiy ta'siriga qaramasdan, oxirgi yillarda respublikamizda yuqori va barqaror o'sish sur'atlarini saqlab, makroiqtisodiy barqarorlik va mutanosiblikning ta'minlanayotganligi o'ziga xos ijobiy ko'rsatkich bo'lmoqda .

Avvalo, byudjet jarayoni tushunchasining mazmuniga to'xtaladigan bo'lsak, byudjet jarayoni - byudjet loyihasini tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish va ijro etish, uning ijro etilishini nazorat qilish, ijrosi haqidagi hisobotni tayyorlash va tasdiqlash, shuningdek davlat byudjeti tuzilmasiga kiruvchi byudjetlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning qonun hujjatlariga muvofiq tartibga solinishi bilan bog'liq bo'lgan davlat hokimiyati va mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari hamda boshqa byudjet jarayoni ishtirokchilarining maqsadli faoliyatidir. Uning mazmuni mamlakatning davlat va byudjet qurilishi, tegishli vakolatli organlar va yuridik shaxslarning byudjet huquqlari bilan belgilanadi.

Byudjet jarayoni byudjetni rejalashtirishdan boshlanadi. Byudjetni rejalashtirish davlat moliyaviy siyosati talablariga muvofiqlashtirilgan moliyaviy rejalashtirishning muhim tarkibiy qismini tashkil qiladi. Bunday rejalashtirishning iqtisodiy vazifasi turli darajadagi byudjetlar va byudjetdan tashqari jamg'armalarni tuzish va ijro etish jarayonida mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning umummilliy dasturlari asosida yalpi ichki mahsulot va milliy daromad qiymatini moliya tizimi bo'g'inlari o'rtasida markazlashtirilgan tarzda qayta taqsimlash nisbatlarini to'g'ri belgilashdan iboratdir.

Mamlakatimizda davlat byudjetining g'azna ijrosiga o'tishgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va uning topshirig'iga muvofiq tijorat banklari *davlat byudjetining kassaviy ijrosini* amalga oshirib keldilar. 2000 yil 14 dekabrda qabul qilinib, 2014 yil 1 yanvarda Byudjet Kodeksi kuchga kiringunga qadar byudjet amaliyotining huquqiy asosini tashkil qilib kelgan "Byudjet tizimi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 37-moddasida "Davlat byudjetining kassa ijrosini tashkil etish, shuningdek uning davlat daromadlari va xarajatlarini hisobga olish O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan birgalikda amalga oshiriladi. Davlat byudjetining kassa ijrosi operatsiyalarini banklar Markaziy bankning topshirig'iga binoan bajaradi", - deb belgilab qo'yilgan edi. Byudjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlari ularning hisobvaraqlaridagi byudjet mablag'lari qoldiqlari doirasida to'lov topshiriqnomalari bo'yicha amalga oshirib kelindi.

Bu amaliyot bir necha o'n yillar mobaynida byudjet ijrosida ma'lum darajadagi samara bilan qo'llanib kelindi. Lekin keyingi yillarda davlat byudjetining kassaviy ijrosi davlat mablag'larini boshqarish, byudjet ijrosini tashkil qilish va nazoratini olib borish, mablag'larning samarali ishlatilishini ta'minlash masalalarida bir qator *muammolarni* keltirib chiqardi:

– byudjet daromadlari va xarajatlari to'g'risidagi axborotlarning etarli darajada operativ (tezkor) emasligi;

– daromadlarning bank hisobraqamlariga tushishi va byudjetning hisobraqamlarida aks ettirilishidagi uzilishlarning mavjudligi bois byudjet resurslarini boshqarishdagi tezkorlikning sustligi;

– soliq daromadlarining byudjet tizimi bo'g'inlari o'rtasida taqsimlanish jarayonlarini samarali tartibga solish va daromadlar tushumini jadallashtirishning zarurligi;

– byudjet ajratmalarining hajmlari bilan haqiqatda amalga oshirilgan to'lovlar summolari ko'rsatkichlarining tarqoqligi tufayli mablag'larning tushumi va sarflanishi ustidan yagona nazoratning murakkablashuvi;

– byudjet tashkilotlarining hisobraqamlarida ishlatilmayotgan byudjet mablag'larining turib qolishi;

– byudjet mablag'larining ajratilishi bilan ularning so'nggi iste'molchilarga etib borishigacha bo'lgan vaqtning uzoqligi;

– davlat mablag'lari harakatining murakkablashuvi va hajmlarining ortib borishi bilan ulardan oqilona foydalanish ustidan dastlabki nazoratning va joriy monitoringning zarurligi va boshqalar.

Sanab o'tilgan muammolar kecha yoki bugun yuzaga chiqmadi, ular yillar davomida yig'ilib, tezkor sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan jamiyat taraqqiyotiga halaqit bera boshladi. Byudjet ijrosi ustidan nazoratning sustligi, mablag'larni operativ boshqarish imkoniyatining kamayib borayotganligi, byudjet ijrosi to'g'risidagi tezkor va aniq ma'lumotlarni olish, jamlash, qayta ishlash va tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qilishdagi qiyinchiliklar davlat moliyasini boshqarish tizimida islohotlar qilishni, byudjet mablag'larini boshqarishning samarali usul va vositalarini izlab topib, tadbiq etishni talab etdi va davlat byudjetining kassaviy ijrosidan g'azna ijrosiga o'tishning **zarurligini** belgilab berdi.

G'azna ijrosini tashkil etishning *mazmuni* - davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalarining barcha daromadlarini, shuningdek, byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha tushumlarini yagona g'azna hisobraqamga jamlash va ularning barcha xarajatlarini shu hisobraqamdan amalga oshirishni nazarda tutadi. Bu esa davlat byudjeti, davlat maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalar, byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari, davlat qarzlariga xizmat ko'rsatish

jarayonlarining tezkor nazoratini va monitoringini olib borish, davlat mablag'larining samarali ishlatilishini ta'minlash, davlat moliyaviy resurslarining harakati to'g'risida operativ tarzda ma'lumotlarni jamlash, boshqarish va nazorat qilish imkonini beradi.

Shu narsa ma'lumki, O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy mamlakatlar bozor mexanizmlarini ko'r-ko'rona, sun'iylik bilan tadbiiq etib bo'lmaydi, chunki jamiyat a'zolari o'rtasida shunday an'anaviy ierarxik munosabatlar tizimi shakllanganki, ularni mensimaslik, keskin qarorlar qabul qilish chog'ida ularni e'tiborga olmaslik turli nohush holatlarga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, iqtisodiyotni boshqarishning jahon amaliyotida tan olingan bir qator mexanizmlarini iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish sharoitlarimizga tegishli tarzda moslashtirgan holda qo'llash va ijobiy foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Mamlakatda davlat moliyasini boshqarishni, jumladan davlat byudjetini ijro etishda asosiy mexanizmlardan hisoblangan G'aznachilik tizimini tashkil etish va shakllantirishda xorijiy mamlakatlarning tajribasi muhim o'rin egallaydi. O'zbekiston ular tajribasidan oddiy nusxa olmaydi, chunki mamlakatimiz davlat boshqaruvini tashkil etish, iqtisodiy va huquqiy munosabatlarni boshqarish sohasida o'ziga xos yo'nalishga ega. Biroq, bu hol g'aznachilik tizimini tashkil etish va rivojlantirish borasidagi xalqaro tajribani o'rganishning ahamiyatini umuman pasaytirmaydi<sup>1</sup>. Masalan, Frantsiyada barcha moliyaviy resurslar G'aznachilikning yagona hisobraqamida yig'iladi, bu mablag'larning miqdori Markaziy Bankda joylashgan barcha tushumlar va to'lovlar yig'iladigan shu hisobraqam bilan nazorat qilinadi. G'aznachilik organlari davlatning solikli va soliqsiz daromadlarini yig'ib oladi va kerakli nazorat ishlaridan keyin davlat mablag'larini sarflanishini amalga oshiradi. G'aznachilik organlari daromadlar tushumining va Davlat byudjeti xarajatlarining hisob-kitobini yuritadi. AQShda esa G'aznachilik to'g'ridan-to'g'ri Prezidentga bo'ysunadi va keng doiradagi iqtisodiy va moliyaviy funktsiyalarni bajaradi. Byudjet jarayonida byudjetni tayyorlashga javob beradigan Ma'muriy-byudjet boshqarmasi, auditga va nazoratga, hisob-kitob ishlariga javob beradigan

---

1. T.Eshnazarov. Davlat byudjetining g'azna ijrosini rivojlantirish omillari. "Byudjet ijrosiga g'aznachilik tizimini joriy etishning dolzarb muammolari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari to'plami. – Toshkent: «IQTISOD-MOLIYA» nashriyoti, 2011 y. – 225-bet.

Bosh byudjet-nazorat boshqarmasi kabi muassasalar qatnashadi, Soliq boshqarmasi va Bojxona boshqarmasi G'aznachilikning bir qismi hisoblanadi.

G'aznachilik barcha tushumlarni va to'lovlarni Nyu-Yorkdagi Federal rezerv bankida o'zining bosh hisobraqami orqali nazorat qiladi. G'aznachilik barcha soliqlarni va boj to'lovlarni yig'adi, markazlashgan holda barcha yig'implarning yig'ilishini va ba'zi muassasalarga xizmatlar ko'rsatishni ta'minlaydi. Tushumlarni yig'ishda bank tizimidan foydalaniladi.

Rivojlangan mamlakatlar amaliyotidagi davlat byudjetining g'azna ijrosi tajribasini<sup>1</sup> O'zbekistonda joriy etish va rivojlantirish, davlat moliyaviy resurslarini boshqarishning axborotlashtirilgan tizimini joriy etish davlat moliyasining holati to'g'risida tezkor va ishonchli axborotlar olish imkonini beradi, bu esa davlat moliyasini samarali boshqarishni ta'minlaydi. Ana shu holatlarning mavjudligi, shuningdek, davlat moliyasini boshqarishning mohiyat jihatdan yangi – *byudjet tizimi byudjetlarining g'azna ijrosi mexanizimini* joriy etish shart-sharoitlari, imkoniyatlari, afzalliklarini, g'aznachilikning ishlash mexanizmlarini o'rganishning zarurligi mazkur fanning kelib chiqishiga sabab bo'ldi.

Iqtisodiy islohotlar sharoitida davlat moliyasini boshqarish masalalarida muayyan bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish zarurligini talab qilmoqda. Bunday sharoitda nafaqat davlat moliyasi haqidagi ma'lum nazariy bilimlarga ega bo'lgan, balki davlat byudjeti g'azna ijrosi jarayonlarida vujudga keladigan holatlarni tushuna oladigan, byudjet ijrosi ishtirokchilari bo'lgan moliya organlari, g'aznachilik bo'linmalari, byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag' oluvchilar amaliy faoliyatini samarali tashkil qila oladigan, davlat mablag'larini samarali boshqarishga qaratilgan boshqaruv qarorlarini qabul qila oladigan zamonaviy kadrlar tayyorlash birinchi darajali ahamiyatga egadir.

Shu sababli “G'aznachilik” fanining maqsadi - talabalarda byudjet tizimi byudjetlarining g'azna ijrosini tashkil etish va g'aznachilik faoliyati haqidagi yaxlit bilimlar tizimini shakllantirish, byudjet tizimi byudjetlarining g'azna ijrosi haqida nazariy bilimlar berish, ularda mamlakatda amalga oshirilayotgan institutsional

---

<sup>1</sup> Steven M. Bragg. “TREASURY MANAGMENT” The Practitioner's Guide

islohotlarning bugungi bosqichida davlat moliya tizimida amalga oshirilayotgan o'zgarishlarning asosiy yo'nalishlari va g'aznachilikning samarali faoliyatini ta'minlash bo'yicha asosiy ko'nikmalar hosil qilish, g'aznachilikning tashkiliy tuzilmasi va uning ishlash mexanizmlarini o'rganish, ularni nazariy, amaliy va metodologik jihatdan takomillashtirishdan iborat.

Davlat moliyasini boshqarishdagi islohotlar sharoitida umumdavlat moliya tizimining bosh bo'g'ini - davlat byudjetini boshqarish, byudjet jarayonini tashkil etish tizimidagi islohotlar, xususan byudjet ijrosida kassali tizimdan jahon amaliyotida sinalgan va o'zining ijobiy natijalarini bergan *davlat byudjetining g'azna ijrosiga* o'tish amalga oshirilmoqda. Shu narsa ma'lumki, O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy mamlakatlar bozor mexanizmlarini ko'r-ko'rona, sun'iylik bilan tatbiq etib bo'lmaydi, chunki jamiyat a'zolari o'rtasida shunday an'anaviy iyerarxik munosabatlar tizimi shakllanganki, ularni mensimaslik, keskin qarorlar qabul qilish chog'ida ularni e'tiborga olmaslik turli noxush holatlarga olib kelishi mumkin.

Byudjet mablag'laridan oqilona va samarali foydalanishni ta'minlovchi shunday mexanizmlardan biri – davlat byudjeti ijrosining g'aznachilik tizimidir.

Rivojlangan mamlakatlar amaliyotidagi davlat byudjetining g'azna ijrosi tizimini O'zbekistonda ham joriy etish va rivojlantirish, davlatning moliyaviy resurslarini boshqarishning axborotlashtirilgan tizimini joriy etish, davlat moliyasining holati to'g'risida tezkor va ishonchli axborotlar olish imkonini beradiki, bu esa davlat moliyasini samarali boshqarishni ta'minlaydi. Lekin, bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida byudjet ijrosida bank tizimidan foydalanish bir qator *muammolarni* keltirib chiqardi:

- byudjet daromadlari va xarajatlari to'g'risidagi axborotlarning yetarli darajada operativ (tezkor) emasligi;

- daromadlarning bank hisobraqamlariga tushishi va byudjetning hisobraqamlarida aks ettirilishidagi uzilishlarning mavjudligi bois byudjet resurslarini boshqarishdagi tezkorlikning sustligi;

- soliq daromadlarining byudjet tizimi bo'g'inlari o'rtasida taqsimlanish jarayonlarini samarali tartibga solish va daromadlar tushumini jadallashtirishning zarurligi;



- byudjet ajratmalarining hajmlari bilan haqiqatda amalga oshirilgan to'lovlar summalari ko'rsatkichlarining tarqoqligi tufayli mablag'larning tushumi va sarflanishi ustidan yagona nazoratning murakkablashuvi;

- byudjet tashkilotlarining hisobraqamlarida ishlatilmayotgan byudjet mablag'larining turib qolishi;

- byudjet mablag'larining ajratilishi bilan ularning so'nggi iste'molchilarga yetib borishigacha bo'lgan vaqtning uzoqligi;

- davlat mablag'lari harakatining murakkablashuvi va hajmlarining ortib borishi bilan ulardan oqilona foydalanish ustidan dastlabki nazoratning va joriy monitoringning zarurligi va boshqalar<sup>1</sup>.

Sanab o'tilgan holatlar davlat byudjetining kassaviy ijrosidan g'azna ijrosiga o'tishning **zarurligini** belgilab berdi.

Byudjetni g'aznachilik tizimi asosida ijro etishning quyidagi **afzalliklari** mavjud:

- qisqa fursatlarda davlatning moliyaviy resurslarining real hajmini va uning istiqbol ko'rsatkichlarini aniqlash;

- davlat moliyasining holati to'g'risidagi tezkor axborotlarni yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish;

- davlat byudjetining ham daromadlari, ham xarajatlari qismini kassali ijrosining har kungi detallashtirilgan monitoringini o'tkazish;

- tasdiqlangan byudjet mablag'lari doirasida byudjet tashkilotlarini tovarlar va xizmatlar yetkazib beruvchilar oldida majburiyatlar qabul qilish bosqichida (shartnomalar, kontraktlar tuzish) dastlabki nazorat qilish;

- moliya organlari tomonidan byudjet xarajatlarini o'z vaqtida va manzilli moliyalashtirish bilan byudjet mablag'larini bosh taqsimlovchilari tomonidan suistemol qilish va noto'g'ri ishlatishning oldini olish maqsadida joriy nazorat qilish;

---

<sup>1</sup> Pulatov D.X., Nurmuxamedova B.I. G'aznachilik: Darslik . T.: Sano-standart, 2014 y. 372 b.

- byudjet tashkilotlari majburiyatlarini olgandan keyin pul mablag‘larini g‘aznachilik hisobraqamidan to‘g‘ridan to‘g‘ri ta‘minotchilarning hisobraqamiga o‘tqazish natijasida pul oqimlari harakati bo‘yicha jarayonlarni qisqartirish;

- g‘aznachilik tizimining bir pog‘onasidan ikkinchi pog‘onasiga pul mablag‘larini o‘tkazishni soddalashtirish natijasida g‘aznachilik tizimidagi byudjet mablag‘larini tezkor ishlatish.

Byudjet tizimi byudjetlari g‘azna ijrosining *asosiy tamoyillari* - kassaning yagonaligi hamda buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etishning yagonaligidan iborat. Byudjet tizimi byudjetlari g‘azna ijrosi qonun hujjatlarida belgilab qo‘yiladigan maxsus vakolatli moliya organi hamda uning Qorag‘alpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, tumanlar, shaharlardagi hududiy bo‘linmalari tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat moliyasini boshqarish - davlat o‘z vazifalarini samarali bajarishini ta‘minlash, moliyaviy resurslarni safarbar qilishda ma‘lum samaraga erishish, yagona tizim asosida moliyaviy resurslarni taqsimlash va ishlatish va nihoyat iqtisodiy barqarorlashtirish va jamiyat rivoji uchun sharoit yaratish borasida davlat tomonidan ko‘riladigan tadbirlar yig‘indisidir.

Davlat moliyasini boshqarishning institutsional tarkibida, boshqa vakolatli organlar bilan bir qatorda, G‘aznachilik ham alohida muhim o‘rin egallaydi. G‘aznachilik - byudjetdan mablag‘ oluvchilarning majburiyatlarini ijroga qabul qiladi va byudjet tashkilotlariga yetkazib berilgan tovar mahsulotlar, bajarilgan ishlar va ko‘rsatilgan xizmatlar uchun G‘aznachilik ularning nomidan va ularning topshirig‘iga binoan vakolatni o‘z zimmasiga oladi va byudjet mablag‘larining maqsadli ishlatilishini ta‘minlash va nazorat qilish asosida to‘lovlarni amalga oshiradi.

Davlat byudjeti g‘azna ijrosiga o‘tishgacha bo‘lgan davrda byudjet ijrosi jarayoni quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

- byudjet tushumlarini taqsimlash;

- tegishli byudjetlarda jamlangan mablag‘larni byudjetdan mablag‘ oluvchilarning ularga xizmat ko‘rsatuvchi banklarda ochilgan hisobraqamlariga o‘tkazish.

Davlat byudjeti ijrosining bunday tartibida byudjet mablag‘larining keyingi taqdiri butunlay foydalanuvchilarning ixtiyoriga bog‘liq bo‘lib qoldi. Davlat byudjeti mablag‘laridan qay darajada samarali va oqilona foydalanilganligini esa faqatgina buxgalteriya hisobotlari orqali so‘nggi nazorat usullaridan foydalangan holda tekshirish mumkin edi.

Mazkur muammolarni e‘tiborga olgan holda, Davlat moliyasini boshqarish tizimini isloh qilish tadbirlari doirasida O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tizimida byudjetni g‘aznachilik orqali ijro etish uchun mas‘ul bo‘lgan institutsional tuzilma shakllantirildi. Bu faoliyat bir necha bosqichlarda amalga oshirildi. Ularni xronologik jihatdan quyidagicha tavsiflash mumkin:

- *2002-yilda* “Davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish” loyihasi ma‘qullandi hamda uni tayyorlash va amalga oshirish bo‘yicha mas‘uliyat Moliya vazirligiga yuklatildi. Mazkur loyihaning maqsadi “davlat moliyasini boshqarishni takomillashtirish, zamonaviy kompyuterlar va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda byudjet mablag‘larining samarali sarflanishini ta‘minlash, byudjet ijrosining yangi tizimini yaratishdan iborat”<sup>1</sup> bo‘ldi.

- *2004-yilda* O‘zbekiston Respublikasining “Davlat byudjetining g‘azna ijrosi to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilindi. Bu Qonun byudjet xarajatlarini boshqarish va nazorat qilish jarayonlariga keskin o‘zgartirishlar kiritdi. Ushbu Qonunning maqsadi O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjetining (shu jumladan davlat maqsadli jamg‘armalarining) va byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag‘larining g‘azna ijrosi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat bo‘ldi. “Davlat byudjeti g‘azna ijrosi to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi o‘z navbatida byudjetdan mablag‘ oluvchilarning tovarlarni yetkazib beruvchilar o‘rtasidagi shartnomalarini ro‘yxatdan o‘tkazish hamda ularning

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish loyihasini amalga oshirishga tayyorlanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 144-son (26.04.2002) qarori. 3-band.

xarajatlarini to'lashga qaratilgan byudjet mablag'larining harakatini nazorat qilish tartibini aniqlash va belgilashni taqozo etadi.

– *2005-yilda* Moliya vazirligi tarkibida davlat byudjetining g'azna ijrosini joriy qilish uslubiyoti boshqarmasi tashkil etildi. Davlat byudjetining g'azna ijrosini joriy etish – keng qamrovli masala bo'lib, o'zaro bog'liq bo'lgan qator masalalarni hal qilishni talab etardi, xususan, g'aznachilik faoliyatining uslubiy asoslarini shakllantirish, hisob va hisobot tizimini qayta tuzish, yagona g'azna hisobvarag'ini ochish va shu kabi masalalar Uslubiyot boshqarmasi faoliyatining diqqat markazida bo'ldi va byudjetning g'azna ijrosi metodologiyasini yaratishga qaratildi.

– *2007-yilda* respublikaning barcha hududlarida davlat byudjetining g'azna ijrosi elementlari joriy etildi, davlat byudjeti xarajatlarining iqtisodiy tasnifiga ko'ra barcha guruhlarini bo'yicha ijrosi g'aznachilik bilan qamrab olindi.

– *2007-yilda* Davlat byudjetining g'azna ijrosini tatbiq etish hisobiga byudjet tizimini yanada isloh etish, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish holda byudjet mablag'larining maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni kuchaytirish, barcha darajalardagi byudjet daromadlari va xarajatlarini boshqarish samaradorligini oshirish maqsadida Moliya vazirligi Davlat byudjetining g'azna ijrosini tatbiq etish va uslubiyoti boshqarmasi hamda mahalliy moliya organlarining g'aznachilik bo'linmalari negizida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi va uning hududiy bo'linmalari tashkil etildi.

– *2009-yilda* davlat byudjeti bilan birgalikda, davlat maqsadli jamg'armalarining ham ijrosi G'aznachilikka o'tdi. Bu maqsadda davlat maqsadli jamg'armalari mablag'lari harakatini ta'minlovchi tegishli banklardagi ularning hisobraqamlari yopilib, G'aznachilikda ular uchun shaxsiy hisobraqamlar ochildi va ularning daromadlari tushumi va xarajatlari to'lovi shu hisobraqamlardan amalga oshirila boshlandi.

– *2010-yildan* boshlab tajriba tariqasida davlat byudjetining bojxona orqali tushuvchi daromadlari ijrosi g'aznachilik orqali amalga oshirila boshladi;

– *2011-yildan* boshlab yangi byudjet tasnifiga asoslangan, davlat byudjeti g‘azna ijrosini amalga oshirishga xizmat qiluvchi G‘aznachilik dasturiy majmui ishga tushirildi.

– *2011-yilning 7-fevralida* O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat xaridlari tizimini muqobillashtirish va ularga kichik biznes subyektlarini jalb qilishni kengaytirish to‘g‘risida”gi PQ-1475-sonli qarori qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorida ko‘rsatilgan vazifalarning bajarilishini ta‘minlash uchun Vazirlar Mahkamasi huzurida Davlat xaridlari bo‘yicha hukumat komissiyasi tashkil qilindi va uning ishchi organi O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G‘aznachiligi deb belgilandi. G‘aznachilik tashkiliy tuzilmasi tarkibida esa “Davlat xaridlarini amalga oshirish jarayoni monitoringi axborot-tahlil bo‘limi” tarkib topdi.

– *2012-yilning 1-yanvaridan* boshlab O‘zbekiston Respublikasi “Davlat byudjetining g‘azna ijrosi to‘g‘risida”gi qonuni talablaridan kelib chiqib, Davlat byudjetining daromadlari va xarajatlari G‘aznachilikning Yagona g‘azna hisobvarag‘idan amalga oshirila boshlandi. Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan davlat byudjetiga o‘tkaziladigan soliqlar va majburiy to‘lovlar banklar tomonidan qabul qilinadigan va belgilangan tartibda 23402-, 23403-, 23407-, 23409-, 20207-, 20205- va 23411-sonli balans hisobraqamlarda ochilgan shaxsiy hisobraqamlarga (ShHR) kirim qilinadigan va ular hisobidan tegishli byudjetlar va davlat maqsadli jamg‘armalari hisobiga belgilangan miqdorlarda ajratmalar amalga oshiriladigan tartib joriy etildi.

– *2014-yildan* Byudjet kodeksining amalga kiritilishi byudjet tizimi byudjetlari g‘azna ijrosini tashkil etishning qonuniy bazasini yanada mustahkamladi.

– *2016-yilda* respublikamiz bir necha yillardan buyon davlat moliyasini isloh etishda davlat byudjet daromadlarini g‘azna ijrosi bilan qamrab olish islohotlarning eng muhim bosqichi hisoblanadi. Shu munosabat bilan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 5-martdagi (ro‘yxat raqami №02-02/1-860, 2016-yil 14-mart) 1-sonli bayonnomasiga muvofiq, 2016-yilning 1-

aprelidan 1-iyuniga qadar byudjet tizimi byudjetlari daromadlarini yig'ishning amaldagi tartibini saqlab qolgan holda, O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi byudjetlari daromadlarini g'azna ijrosi mexanizmi bilan qamrab olishning sinov (test) jarayonini amalga oshirish, shuningdek Moliya vazirligi axborot tizimi hamda Markaziy bank, Davlat soliq qo'mitasi, Davlat bojxona qo'mitasi va daromadlarni yig'ishga vakolatli bo'lgan tegishli organlar va tashkilotlar axborot tizimlari o'rtasida ma'lumot almashinuvini yo'lga qo'yish, shuningdek, 2016-yilning 1-iyulidan boshlab O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi byudjetlari daromadlarini g'azna ijrosi mexanizmi bilan to'liq qamrab olish vazifasi yuklatildi. Bunda 2016-yil 1-iyulidan byudjet tizimining byudjetlari daromadlarini g'azna ijrosi mexanizmi bilan respublikaning barcha hududlarida joriy qilish nazarda tutilgan.

– *2017-yildan* byudjet tizimi byudjetlari g'azna ijrosini tashkil etish O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2016-yil 22-noyabrdagi 88-son [buyrug'iga](#) ko'ra O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2016-yil 22-dekabrda №2580 raqami bilan ro'yxatdan o'tkazilgan “O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi byudjetlarining g'azna ijrosi Qoidalari”da belgilangan mexanizm asosida tashkil etildi. Bunda byudjetdan mablag' oluvchilarning yuridik va moliyaviy majburiyatlarini ro'yxatdan o'tkazishda tegishli hujjatlarni UzASBO tizimi orqali G'aznachilik bo'linmalariga uzatish va O'RMVAT tizimida hisobga olishning amaldagi byurokratik tizimdan elektron tizimiga o'tilishi asosida davlat byudjeti ijrosining yanada samarali ijrosi ta'minlandi.

– *2017-va 2018-yillarda* davlat va korporativ xaridlar tizimini zamonaviy uslub va uslubiyot asosida tashkil etish chora-tadbirlari belgilandi. Bunda davlat xaridlarini samarali, korrupsiyadan xoli va shaffof tarzda tashkil etilishi maqsadida qonun hujjatlari shakllantirildi.

**O‘zbekiston Respublikasida davlat byudjeti g‘azna ijrosini tatbiq etish bosqichlari**

Yillar	Amalga oshirilgan tadbir	Asos
2002	Davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish loyihasini amalga oshirish boshlandi	O‘zR VMning “Davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish loyihasini amalga oshirishga tayyorlanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 144-son Qarori (26.04.2002)
2004	Davlat byudjeti g‘azna ijrosining qonuniy-huquqiy asosi yaratildi	O‘zbekiston Respublikasining “Davlat byudjeti g‘azna ijrosi to‘g‘risida”gi 664-II sonli Qonuni (26.08.2004)
2005	Samarqand, Toshkent viloyati va Toshkent shahrida g‘aznachilik tizimini joriy qilish bo‘yicha tajriba loyihasi boshlandi	O‘zR VMning “Davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish loyihasini amalga oshirishga tayyorlanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 144-son Qarori (26.04.2002)
2006	Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Buxoro, Namangan, Surxondaryo, Sirdaryo, Xorazm viloyatlari va Toshkent shahrida davlat byudjeti g‘azna ijrosi bosqichma-bosqich joriy qilindi	O‘zR Prezidentining “O‘zR ning 2006-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi PQ-244-sonli qarori (27.12.2005)
2007	Barcha hududlarda davlat byudjeti g‘azna ijrosi joriy qilindi, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G‘aznachiligi va uning hududiy bo‘linmalari tuzildi	O‘zR Prezidentining “Davlat byudjeti g‘azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-594 sonli Qarori (28.02.2007)
2009	Davlat maqsadli jamg‘armalari va boshqa byudjetdan tashqari fondlarning g‘azna ijrosi joriy qilindi, byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag‘lari bo‘yicha daromad va xarajatlari g‘azna ijrosi yo‘lga qo‘yildi	O‘zR Prezidentining “2009-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari va davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi 2008 yil 29-dekabr PQ-1024-son qarori
2010	Tajriba tariqasida davlat byudjetining bojxona orqali tushuvchi daromadlari ijrosi g‘aznachilik orqali amalga oshirila boshladi	O‘zR Prezidentining “2010-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari va davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi 2009-yil 22-dekabr PQ-1245-son qarori
2011	Davlat xaridlari bo‘yicha hukumat komissiyasining ishchi organi O‘zR MV G‘aznachiligi deb belgilandi.	O‘zR Prezidentining “Davlat xaridlari tizimini muqobillashtirish va ularga kichik biznes subyektlarini jalb qilishni kengaytirish to‘g‘risida”gi PQ-1475-sonli qarori (17.02.2011)

2012	Davlat byudjetining daromadlari va xarajatlari G'aznachilikning Yagona g'azna hisobvarag'idan amalga oshirila boshlandi	Tegishli normativ-huquqiy hujjatlar asosida
2014	Byudjet kodeksining amalga kiritilishi byudjet tizimi byudjetlari g'azna ijrosini tashkil etishning qonuniy bazasini yanada mustahkamladi	O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi. O'RQ-360-son. 26.12.2013.
2016	1 iyuldan byudjet tizimining byudjetlari daromadlarini g'azna ijrosi mexanizmi bilan respublikaning barcha hududlarida joriy qilindi	Tegishli normativ-huquqiy hujjatlar asosida
2017	byudjet tizimi byudjetlari g'azna ijrosini tashkil etish 2016-yil 22-dekabrda №2580 raqami bilan ro'yxatdan o'tkazilgan "O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi byudjetlarining g'azna ijrosi Qoidalari"da belgilangan mexanizm asosida tashkil etildi.	O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2016-yil 22-noyabrdagi 88-son <a href="#">buyrug'iga</a> ko'ra O'zbekiston Respublikasi adliya vazirligi tomonidan 2016-yil 22-dekabrda №2580 raqami bilan ro'yxatdan o'tkazilgan "O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi byudjetlarining g'azna ijrosi Qoidalari"
2017-2018	davlat va korporativ xaridlar tizimini zamonaviy uslub va uslubiyot asosida tashkil etish chora-tadbirlari belgilandi	2017-yil 23-avgustdagi PQ-3237 asosida



G'aznachilik tizimi faoliyat ko'rsatishi uchun uning beshta tashkiliy elementi mavjud bo'lishi va o'zaro bog'liqlikda amal qilishi zarur. Ular:

1. G'aznachilikning yagona hisobraqami;
2. G'aznachilikning bosh kitobi;
3. G'aznachilik organlari;
4. G'aznachilikning axborot tizimi;
5. G'aznachilikda davlat byudjeti mablag'larini boshqarish.

**G'aznachilikning yagona hisobraqami.** Byudjet tizimi byudjetlari ijrosini ta'minlashda solikli va soliqsiz davlat tushumlarini to'plash, saqlash va davlat xarajatlarini amalga oshirish uchun G'aznachilik tomonidan G'aznachilikning yagona hisobraqami ochiladi. Yagona g'azna hisobraqami G'aznachilik tomonidan boshqariladigan maxsus bank hisobraqami bo'lib, bu hisobraqamda Davlat byudjeti mablag'lari hamda byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari kiritiladi. Yagona g'azna hisobraqamidan davlat byudjetida mablag'lari nazarda tutilgan yuridik va jismoniy shaxslarning xarajatlari to'lanadi, shuningdek, davlat maqsadli jamg'armalarining xarajatlari amalga oshiriladi. G'aznachilik alohida operatsiyalarni, shuningdek, davlatning maqsadli fondlarining mablag'lari bilan operatsiyalarni amalga oshirish uchun g'aznachilikning yagona hisobraqami doirasida subschyotlarini ochish huquqiga ega. Bu subschyotlardagi qoldiqlar g'aznachilikning yagona hisobraqami qoldig'ining ajralmas qismi hisoblanadi.

**G'aznachilikning bosh kitobi.** G'aznachilikning bosh kitobi – byudjet ijrosi g'aznachilik usulining asosiy elementlaridan biridir. G'aznachilikning Bosh kitobi bilan hukumat resurslarining hisob-kitobi yuritiladi va moliya tizimining axborot tizimi faoliyat ko'rsatadi. G'aznachilikning Bosh kitobi byudjet operatsiyalari buxgalteriya hisobini yuritishning kompyuterlashtirilgan tizimidir. G'aznachilikning Bosh kitobida davlat muassasalari bilan bo'ladigan barcha moliyaviy operatsiyalar o'z ifodasini topadi. G'aznachilikning Bosh kitobi G'aznachilikning yagona hisobraqami va subschyotlari bilan bo'ladigan operatsiyalardagi barcha buxgalteriya provodkalarini aks ettiradi. G'aznachilikning Bosh kitobi ham respublika byudjetidan, ham mahalliy byudjetlardan

moliyalashtirish hisob-kitobining o'z vaqtida yuritilishini ta'minlaydi. G'aznachilikning Bosh kitobi o'z ichiga juda ko'p byudjet birliklarini birlashtiradi. G'aznachilikning Bosh kitobida byudjetning barcha daromadlari va xarajatlari ko'rinadi.

**G'aznachilik organlari.** G'aznachilik yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan, Moliya vazirligiga bo'ysunadigan davlat organi hisoblanadi. G'aznachilikning Qorag'alpog'iston Respublikasi G'aznachilik Boshqarmasi, Toshkent shahar va viloyatlar Boshqarmasi, shahar va tumanlarda G'aznachilik bo'limlari kabi hududiy organlari faoliyat yuratadi. G'aznachilikka O'zbekiston Respublikasi Moliya vaziri o'rinbosari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tayinlangan Davlat G'aznachisi rahbarlik qiladi. G'aznachilikning hududiy organlari huquqiy shaxs maqomiga ega emas. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining buyrug'iga muvofiq G'aznachilikning hududiy organlari tuziladi va tugatiladi. G'aznachilik organlarining xarajatlarini moliyalashtirish respublika byudjetidan amalga oshiriladi.

G'aznachilik organlari – Moliya vazirligining konsolidatsiyalashgan byudjetning kassa ijrosi uchun, davlat daromadlari va xarajatlari hisobini olib borilishi uchun, davlat xarajatlariga moliyaviy resurslarning yetarli bo'lishini ta'minlash uchun mas'ul bo'lgan tarkibiy bo'lim hisoblanadi.

Islohotlar jarayonida byudjet tashkilotlari, yuridik shaxs maqomini olgan tashkilotlar aniqlanadi. Har tomonlama axborot bilan ta'minlash uchun byudjet tasnifidan foydalaniladi. G'aznachilikning Bosh Boshqarmasi byudjetni shakllantiradi va barcha byudjet tashkilotlari faoliyatini boshqaradi. G'aznachilik byudjetdan mablag' oluvchilardan boshqarish funksiyalarini tortib olmaydi, byudjetning bajarilish jarayonini yaxshilash uchun ularni yanada kengroq axborotlar bilan ta'minlaydi. Byudjet tasnifi bo'yicha berilgan xarajatlar to'g'risidagi axborotlar butun yil bo'yi xarajatlar tendensiyasini va xarajatlarni amalga oshirish uchun qo'shimcha kerak bo'ladigan ehtiyojlarni aniqlashga yordam beradi. G'aznachilikning faoliyat ko'rsatishi naqd pullarni to'g'ri va samarali boshqarish yo'li bilan byudjetga ishonchni mustahkamlashga yordam

beradi. Darmomadlar rejasi bajarilmagan holatda boqimandalik muammosini yechishga harakat qiladi.

Xorijiy mamlakatlar tajribalari shuni ko'rsatadiki, g'aznachilikning asosiy vazifalari bir-biriga o'xshaydi:

1. Davlat byudjetining kassali ijrosini amalga oshirish.
2. Davlatning moliyaviy aktivlarini boshqarish.
3. Davlat qarzlarini boshqarish.
4. Davlatning moliyaviy resurslari hisob-kitobini yuritish, yig'ish, ishlash, tahlil qilish tizimining faoliyat ko'rsatishini ta'minlash.
5. Davlat moliyasining holati to'g'risida doimiy ravishda hisobotlarni tayyorlash va taqdim qilish.
6. Moliyaviy nazoratning qoidalarini va mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish.
7. Davlat moliyasi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq Moliya vazirligiga berilgan huquqlar doirasida byudjet tashkilotlari moliyaviy faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish<sup>5</sup>.

G'aznachilikning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Davlat byudjetining kassa ijrosi, jumladan tushadigan daromadlarni turli darajadagi byudjetlar o'rtasida taqsimlash, byudjetdan mablag' oluvchilarning xarajatlar smetalari ijrosi va Davlat byudjeti ijrosi to'g'risida hisobot tuzish;

- Davlat byudjeti mablag'larini yagona g'aznachilik hisobraqami, shuningdek tegishli byudjetlar daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi kassa uzilishlarining oldini olishni ta'minlaydigan hududiy g'aznachilik hisobraqamlarini joriy etish orqali boshqarish;

- byudjet tashkilotlarining tovarlar yetkazib beruvchilar (ishlarni bajaruvchilar, xizmatlar ko'rsatuvchilar) bilan shartnomalarini, shuningdek Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan kapital qurilish bo'yicha buyurtmachilarning shartnomalari xarajatlar smetasida ko'rsatilgan summalar va maqsadlarga qat'i muvofiq ravishda tuzilishi ustidan qattiq nazorat o'rnatish asosida mazkur shartnomalarni majburiy ro'yxatdan o'tkazish tartibini

---

<sup>5</sup>Pulatov D.X., Nurmuxamedova B.I. G'aznachilik: Darslik . T.: Sano-standart, 2014. 372 b.

joriy etish orqali byudjet tashkilotlarining maqsadga nomuvofiq, asossiz xarajatlarining oldini olish;

- byudjet tashkilotlarini, shu jumladan, mudofaa va xavfsizlik tuzilmalarini moliyalashtirishga yo'naltiriladigan byudjet mablag'laridan foydalanishni maqbullashtirish yuzasidan monitoring olib borish, bunda ular tomonidan tuzilayotgan shartnomalarning sifati ta'minlanishini, ularning maqsadga muvofiqligi va narx-navo yechimini nazarda tutish hamda qoidaga ko'ra, vositachilik xizmatlaridan voz kechish;

- xarajatlar smetasi va ro'yxatga olingan shartnomalarda nazarda tutilgan qat'i summalar doirasida tovarlar yetkazib beruvchilar (ishlarni bajaruvchilar, xizmatlar ko'rsatuvchilar)ning bevosita hisobraqamlariga byudjetdan mablag' oluvchilar nomidan va ularning topshirig'i bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish orqali to'lov intizomiga so'zsiz rioya etilishi ustidan ta'sirchan nazoratni ta'minlash;

- Davlat byudjeti g'azna ijrosining buxgalterlik hisobi va hisobotini yuritish, Davlat byudjeti ijrosi haqida axborotlarni to'plash, qayta ishlash va tahlil qilish, shuningdek O'zbekiston Respublikasining davlat ichki va tashqi qarzlariga xizmat ko'rsatish, O'zbekiston Respublikasi kafolatlarini ijro etish.

**G'aznachilikning axborot tizimi.** G'aznachilikka yagona axborot tizimi xizmat qiladi. Hozirgi kunda G'aznachilikning yagona axborot tizimi yaratilgan bo'lib, "Davlat mablag'larini boshqarishning axborot tizimi" (DMBAT) deb ataladi. "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi axborot tizimi" (O'RMV AT) — tegishli byudjetlarning byudjet jarayonini kompleks avtomatlashtirish, shu jumladan byudjet tizimi byudjetlari va boshqa maqsadli jamg'armalar byudjetlari ijrosi bilan bog'liq operatsiyalarni aks ettirish uchun mo'ljallangan axborot tizimi 2016-yildan faoliyati amalga oshirilmoqda<sup>6</sup>. G'aznachilik faoliyatini tashkil etishda «UzASBO» DM — byudjet tashkilotlari tomonidan byudjet hisobi va

---

<sup>6</sup> "O'zbekiston Respublikasi budjet tizimi budjetlarining g'azna ijrosi Qoidalari" O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2016-yil 22-noyabrdagi 88-son [buyrug'iga](#) ko'ra O'zbekiston Respublikasi adliya vazirligi tomonidan 2016-yil 22-dekabrda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami №2850.

hisobotining yuritilishini kompleks avtomatlashtirish uchun mo'ljallangan dasturiy majmuasi muhim ahamiyatga ega.

Byudjet operatsiyalari bo'yicha kodlashtirilgan va tasniflangan ma'lumotlar «UzASBO» DM orqali g'aznachilik organlariga yuborilib O'RMV ATga avtomatik ravishda yuklanadi, bu esa daromadlarni tasniflar, hududiy belgilari, byudjetdan mablag' oluvchi tashkilotlar bo'yicha aniqlash imkonini beradi. Daromadlar avtomatik ravishda tegishli byudjetlarga belgilangan normativlar asosida o'tkaziladi va boshqariladi.

***G'aznachilikda davlat byudjeti mablag'larini boshqarish*** shundan iboratki, G'aznachilik yagona g'azna hisobraqamidan va G'aznachilikning boshqa bank hisobraqamlaridagi davlat byudjeti mablag'larini, davlat byudjetining xarajatlarini belgilangan muddatlarda amalga oshirish uchun yo'naltirish, shuningdek, davlat byudjetining vaqtincha bo'sh turgan mablag'larini bank depozitlari va boshqa aktivlarga vaqtincha joylashtirish hamda ular hisobidan respublika byudjetiga, Qorag'alpog'iston Respublikasi byudjetiga, mahalliy byudjetlarga, shuningdek, davlat maqsadli jamg'armalariga byudjet ssudalari berish yo'li bilan boshqarib boradi. G'aznachilik tomonidan dotatsiyalar va ssudalarni o'tkazish yagona g'azna hisobraqamidan yoki G'aznachilikning boshqa bank hisobraqamlaridan davlat byudjetida mablag'lar ajratish nazarda tutilgan yuridik va jismoniy shaxslarning bank hisobraqamlariga o'tkaziladi.

*Agar davlat mablag'laridan maqsadli foydalanishni nazorat qilish ular ajratilgandan keyingina boshlansa, davlat byudjeti ko'p narsani boy beradi. Keyingi moliyaviy nazoratning samarasizligi shundaki, uning xulosalari byudjetdan mablag' oluvchi o'ziga ajratilgan mablag'larini amalda sarflab bo'lganidan keyin chiqariladi. Vaholanki, joriy nazoratni, ya'ni byudjet mablag'lari o'zlashtirilishi jarayonini nazorat qilishni ta'minlash muhimdir<sup>7</sup>.*

---

<sup>7</sup> Steven M. Bragg. Treasury management: The Practitioner's Guide /Published by John Wiley & Sons, Inc., Hoboken, New Jersey/ 2010.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, byudjetning kassali ijrosi g'aznachilik va bank orqali amalga oshiriladi. Iqtisodiy islohotlar sharoitida byudjet ijrosida bank tizimining qo'llanilishi quyidagi holatlarga olib keldi:

- ✓ daromadlarning tushishida pasayish yuz berdi, tartibga soluvchi soliqlarni qo'llashning yagona uslubining yo'qligi byudjet jarayonini boshqarishni qiyinlashtirdi;

- ✓ tushgan daromadlar va qilingan xarajatlar to'g'risida tezkor axborotlar olishga, zudlik bilan byudjetga oid boshqaruv qarorlarini qabul qilishga imkoniyat bermadi;

- ✓ tijorat banklari hisobraqamlarida byudjet mablag'larining o'rtacha qoldig'ining yuqori darajasi saqlanib qoldi;

- ✓ byudjet mablag'larining nazorati kamayib ketdi, amalda ularni maqsadsiz ishlatish hollari kelib chiqdi.

Buning asosiy sabablaridan biri joriy byudjet ijrosi tizimida, moliya organlari sust (passiv) rolga ega bo'lganligi va shu bilan bir vaqtda bank va byudjet tashkilotlariga yuklatilgan funksiyalarni mustaqil bajarib, moliya organlarini amalga oshirilgan byudjet jarayoni faktlaridan keyingina xabardor qilinadi. Buning natijasida mahalliy byudjetlarda mablag' yetishmovchiligi yuzaga kelib, yuqori turuvchi byudjetdan byudjet ssudasini olishga to'g'ri keladi.

Eng asosiysi, buning natijasida aholini ijtimoiy himoyalashga qaratilgan birinchi darajali xarajatlarni o'z vaqtida amalga oshirishni ma'lum muddatlarda kechikishiga olib kelmoqda. Bundan tashqari, hozirgi vaqtda mahalliy byudjetlar tarkibida, respublikamiz aholisiga qaratilgan o'ta muhim ijtimoiy tadbirlar bo'lganligi uchun dolzarb masalalaridan biri daromadlarning tushishi bilan xarajatlarni amalga oshirishi kerak bo'lgan vaqt o'rtasidagi nomutanosiblikni bartaraf etishdir.

Demak, davlat byudjeti ijrosining yangi mexanizmini amaliyotga kiritilganini bugungi kunda byudjet islohotlarining yirik yo'nalishlaridan biri desak xato bo'lmaydi, chunki davlat moliyasini samarali boshqarish zaruriyati mavjud, byudjet

mablag‘laridan samarali foydalanish uchun byudjet xarajatlarining nazoratini kuchaytirish talab etiladi.

Davlat moliya tizimida o‘tkazilayotgan islohotlar davlat xarajatlarini boshqarish samaradorligini oshirishni nazarda tutadi, Davlat iqtisodiyotni isloh qilish va bozor munosabatlarini rivojlantirish jarayonlarida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Bunda davlat byudjeti islohotlarning eng muhim dastaklaridan biri vazifasini bajaradi.

Shu sababli, yaqin kelajakda davlat byudjeti ijro etilishining g‘aznachilik tizimini izchil joriy etishni ta‘minlaydigan chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. *G‘aznachilik sharoitida byudjetning kassali ijrosi deganda har bir byudjetning daromadlari mazkur byudjetni ijro etuvchi tegishli kassada jamg‘arilishi tushuniladi*<sup>8</sup>. Shuningdek, ushbu byudjetdan mablag‘ bilan ta‘minlanuvchi barcha tashkilotlarga pul mablag‘lari ushbu kassa orqali beriladi.

Bunda konsolidatsiyalashgan byudjetni ijro qilish maqsadida va davlat moliyasi bilan qilinadigan barcha jarayonlarni o‘z vaqtida va aniq hisobini qilish uchun g‘aznachilikning hisob-kitob schyotlari davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarining tasnif tizimiga mos kelishi kerak. Byudjetning daromad qismini ijro etish yuridik va jismoniy shaxslardan soliq va soliqsiz to‘lovlar undirish hisobiga amalga oshiriladi. Bunda yuridik va jismoniy shaxslar tegishli to‘lovlarni qonunda belgilangan muddatlar va tartiblarda mustaqil ravishda hisoblaydilar va byudjetga to‘laydilar.

Byudjetning daromadlar qismi ijrosida soliq organlarining funksiyasi tartibga soluvchi soliqlarni taqsimlash, noto‘g‘ri to‘langan summalarni qaytarish va byudjet daromadlari tushumi hisobini olib borishdan iborat bo‘ladi.

Byudjetning tushumlar bo‘yicha ijrosini tashkil etib, G‘aznachilik organlari tushumlar tushishining qisqa muddatli prognozi va byudjetning daromadlar qismi ijrosining tahlilini amalga oshiradi. Mamlakatda moliyaviy va iqtisodiy barqarorlikni

---

<sup>8</sup> Steven M. Bragg. Treasury management: The Practitioner’s Guide /Published by John Wiley & Sons, Inc., Hoboken, New Jersey/ 2010.

saqlash, narxlar va ichki valyuta bozorini bosqichma-bosqich erkinlashtirish byudjet tizimini izchil va tizimli tarzda rivojlantirishni ta'minlaydi.

G'aznachilik – davlat byudjeti ijrosini ta'minlashning bir shakli bo'lib, unda maxsus idora davlat soliqlari yig'imi va ulardan foydalanishni ta'minlaydi, mablag'lar ustidan nazorat amalga oshiriladi, shuningdek, davlat tashqi va ichki qarzlarni boshqaradi hamda byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalar, byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari pul oqimlari monitoringini olib boradi.

Bugungi kunga kelib, barchasida ushbu tizim joriy qilindi va ayni paytda mutaxassislar mavjud tizimni takomillashtirish ishlari bilan band.

Yuqoridagi fikrlarimizga xulosa shuki, davlat moliyasi boshqaruvining tuzilishini tarixiy rivojlantirishda nainki ilmiy, balki amaliy tajribalarga ham tayaniladi.

O'zbekistonda davlat byudjeti g'azna ijrosini joriy etishdan ko'zlangan maqsad quydagilardan iborat:

- byudjet mablag'laridan samarali foydalanish;
- byudjet nazoratini kuchaytirish;
- byudjet ijrosi yuzasidan hisobot muddatlarini qisqartirish.

G'aznachilik joriy etish byudjet daromadlarining to'liq va o'z vaqtida tushishini va xarajatlar qismida byudjet mablag'larining maqsadli sarflanishining nazoratini kuchaytirish va pul oqimlarini samarali boshqarish imkonini beradi. Mazkur tizimni joriy etish orqali byudjet bajarilishini kuzatish, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda qulaylik yaratish, byudjet mablag'larini maqsadsiz sarflanishidan himoyalash va byudjetni rivojlantirish va prognozlashtirish sifatini oshirish mumkin.

Konsolidatsiyalashgan byudjetni ijro qilish va davlat byudjeti mablag'lari hisobiga moliyalashtirilayotgan barcha jarayonlarni o'z vaqtida va aniq hisobini yuritish maqsadida G'aznachilik hisob-kitoblar schetlari davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarning tasnif tizimi bilan moslashtiriladi.

G'aznachilik tizimini joriy qilish bilan bog'liq bo'lgan asosiy ishlar quyidagilardan tashkil topadi:



- byudjet daromadlari va xarajatlari bo'yicha barcha operatsiyalar turli banklarda ochilgan ko'plab byudjet hisobraqamlari o'rniga markaziy bankda ochiladigan Moliya vazirligining yagona G'azna hisobvarag'iga jamlanadi;

- byudjet tashkilotlari xarajatlarini hisobga olish va byudjet mablag'laridan foydalanishni nazorat qilish, hamda hisobotlar tayyorlash uchun ularning shaxsiy hisobvaraqlari G'aznachilikda ochiladi va yuritiladi;

- tijorat banklar ijrosi o'rniga G'aznachilik tomonidan byudjetning kassa ijrosini amalga oshirilishi va byudjet jarayonining barcha bosqichlari, ya'ni daromadlar tushumi, byudjet mablag'lari ajratishdan tortib byudjet ijrosi hisobotini tayyorlashgacha bo'lgan ishlar birlashtiriladi;

- zamonaviy axborot texnologiyalari va dasturiy ta'minotni qo'llagan holda G'aznachilikning yagona axborot tizimi shakllantiriladi va u davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari kassa ijrosining kundalik monitoringini ta'minlaydi, barcha darajadagi byudjetlar holati haqida ma'lumotlarni tezkor yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish imkonini beradi.

Rivojlangan mamlakatlar amaliyotidagi G'aznachilik tizimini O'zbekistonda ham joriy etish va rivojlantirish, davlatning moliya – axborot tizimini joriy etish, davlat moliyasining holati to'g'risida tezkor va ishonchli axborotlar olish imkonini beradiki, bu esa davlat moliyasini samarali boshqarishni ta'minlaydi.

Mamlakatimizda davlat byudjetining g'aznachilik tizimini joriy etilishi quyidagi ijobiy natijalarga erishish imkonini beradi:

- davlat moliyaviy resurslarining real hajmini va uning istiqbol ko'rsatkichlarini doimiy nazorat qilish;

- davlat moliyasining holati to'g'risida tezkor va muntazam ravishda axborotlarni yig'ish, ishlov berish va tahlil qilish;

- davlat byudjetining daromadlar va xarajatlar qismlarining kassa ijrosini har kungi aniqlashtirilgan monitoringini o'tkazish;

- tasdiqlangan byudjet mablag'lari doirasida byudjet tashkilotlarining tovarlar va xizmatlar yetkazib beruvchilar oldidagi majburiyatlarini qabul qilish bosqichida dastlabki nazoratni amalga oshirish;

-moliya organlari tomonidan byudjet xarajatlarini o'z vaqtida va manzilli moliyalashtirish bilan birga, byudjet mablag'larini bosh taqsimlovchilari tomonidan suiiste'mol qilish va noto'g'ri ishlatishning oldini olish maqsadida joriy nazorat olib borish;

- byudjet tashkilotlari majburiyatlarni olgandan keyin pul mablag'larini G'aznachilik hisobraqamida to'g'ridan to'g'ri tovar yetkazib beruvchilar hisobraqamiga o'tkazish orqali pul oqimlari harakatini tezlashtirish va o'z vaqtida to'lovni amalga oshirish orqali ta'minotchilarning moliyaviy imkoniyatlarini yaxshilash;

- g'aznachilik tizimining bir pog'onasidan ikkinchi pog'onasiga pul mablag'lari o'tkazishni tezlashtirish orqali byudjet mablag'larini tezkor harakat qilishini ta'minlash.

## **2. “Xorijiy mamlakatlar g'aznachilik tizimlari fanining predmeti va vazifalari**

O'zbekiston Respublikasida davlat moliyasini boshqarish tizimida olib borilayotgan islohotlar, qator vazifalar bilan birgalikda, davlat byudjetining g'azna ijrosiga bosqichma-bosqich o'tishni va uning faoliyat mexanizmlarini takomillashtirishni nazarda tutadi. Bunda zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida davlat mablag'larining harakati to'g'risidagi ma'lumotlarni jamlash, qayta ishlash, uzatish usullarini o'zlashtirish asosida davlat moliyasini boshqarishning samarali usul va vositalarini shakllantirish va muvofiq holda ishlashini ta'minlash zarur bo'ladi.

Mamlakatimizda davlat byudjetining g'azna ijrosini samarali tadbqiq etishga faqatgina barqaror rivojlanish ko'rsatkichlariga erishganimizdan keyingina muvaffaq bo'lindi. O'zbekiston hukumati davlat moliyasini boshqarish tizimida ham kengqamrovli islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirib kelmoqda. Bu islohotlarning ijobiy natijalarini davlat byudjeti g'azna ijrosining muvaffaqiyatli joriy etilishida ko'rishimiz mumkin.

Davlat byudjetining g'azna ijrosi davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalarining barcha daromadlarini, shuningdek, byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha tushumlarini yagona g'azna hisobraqamga jamlash va

ularning barcha xarajatlarini shu hisobraqamdan amalga oshirishni nazarda tutadi. Bu esa davlat byudjeti, byudjetdan tashqari fondlar, byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari, davlat qarzlari va ularga xizmat ko'rsatish jarayonlarining tezkor nazoratini va monitoringini olib borish, davlat mablag'larining samarali ishlatilishini ta'minlash, davlat moliyaviy resurslarining harakati to'g'risida operativ tarzda ma'lumotlarni jamlash imkonini beradi.

Taraqqiyotimizning bugungi sharoitida mamlakatimiz iqtisodiyotida sodir bo'layotgan tarkibiy o'zgarishlar, butun moliya tizimida, uning markaziy bo'g'ini bo'lgan davlat moliyasida amalga oshirilayotgan islohotlar davlat moliyasini boshqarish masalalarida muayyan bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish zarurligini talab qilmoqda. Bunday sharoitda nafaqat davlat moliyasi haqidagi ma'lum nazariy bilimlarga ega bo'lgan, balki davlat byudjeti g'azna ijrosi jarayonlarida vujudga keladigan holatlarni tushuna oladigan, byudjet ijrosi ishtirokchilari bo'lgan moliya organlari, g'aznachilik bo'linmalari, byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag' oluvchilar amaliy faoliyatini samarali tashkil qila oladigan, davlat mablag'larini samarali boshqarishga qaratilgan boshqaruv qarorlarini qabul qila oladigan zamonaviy mutaxassislar tayyorlash birinchi darajali ahamiyatga egadir. Shu sababli davlat moliyasi uchun tashabbuskor, ijodiy fikrlaydigan mutaxassis kadrlarni tayyorlashda byudjet-moliya va byudjetning g'azna ijrosi nazariyasi va amaliyotini o'rganishga muhim o'rin beriladi.

“Xorijiy mamlakatlar g'aznachilik tizimlari” fanini o'qitishdan *maqsad* – talabalarga davlat byudjetining g'azna ijrosi haqida nazariy bilimlar berish, ularda mamlakatda amalga oshirilayotgan institutsional islohotlarning bugungi bosqichida davlat moliya tizimida amalga oshirilayotgan o'zgarishlarning asosiy yo'nalishlari va g'aznachilikning samarali faoliyatini ta'minlash bo'yicha asosiy ko'nikmalar hosil qilish, g'aznachilikning tashkiliy tuzilmasi va uning ishlash mexanizmlarini o'rganish, ularni nazariy, amaliy va metodologik jihatdan takomillashtirishdan iborat.

Shuningdek, fanni o'rganishda talabalar davlat byudjeti g'azna ijrosini tashkil etish va g'aznachilik faoliyati haqidagi yaxlit bilimlar tizimini

shakllantirishda g'aznachilik mexanizmlarining amal qilish xususiyatlarini, davlat byudjeti g'azna ijrosining mohiyati va ahamiyati, g'aznachilik faoliyatining tashkiliy elementlarini joriy etish bosqichlari, g'azna ijrosini tashkil etish xususiyatlari va tamoyillari, g'aznachilik faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari, uning amal qilish mexanizmlari, milliy iqtisodiyotning rivojlanishida davlat byudjeti g'azna ijrosining o'rni va ahamiyati kabi masalalarni o'rganadilar.

“G'aznachilik” fani zamonaviy sharoitda davlat byudjeti g'azna ijrosini tashkil etishning nazariy asoslari, g'aznachilik faoliyatini tadbiq etish va rivojlanish tarixi, samarali byudjet siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish orqali byudjetning g'azna ijrosi mexanizmlaridan maqsadga muvofiq foydalanish imkoniyatlari, davlat moliyasini boshqarish va davlat mablag'larining maqsadli ishlatilishi ustidan ta'sirchan nazoratni tashkil qilish masalalarini o'rgatadi.

Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda mazkur fan o'z predmetini o'rganish uchun quyidagi *vazifalarni* qo'yadi:

- g'aznachilik faoliyatining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va ahamiyatini o'rganish;
- davlat byudjeti g'azna ijrosining amal qilish asoslarini o'rganish;
- g'aznachilik faoliyatini boshqarishning tashkiliy asoslarini o'rganish;
- davlat byudjeti daromadlarini g'aznachilik orqali shakllantirish mexanizmini o'rganish;
- davlat byudjeti xarajatlarini g'aznachilik orqali ijro etish va tarkibini o'rganish;
- g'aznachilik organlari tomonidan amalga oshiriladigan nazorat tizimi asoslarini o'rganish;
- g'aznachilik faoliyatini samarali yuritish yuzasidan xorij tajribalarini o'rganish;
- davlat byudjeti g'azna ijrosini tadbiq etishning shart-sharoitlari, uning afzalliklari va o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish;
- davlat byudjeti g'azna ijrosining amal qilish mexanizmlarini takomillashtirish va h.k.

### **3. “Xorijiy mamlakatlar g’aznachilik tizimlari” fanining iqtisodiy fanlar tizimida tutgan o’rni va ahamiyati**

O‘zbekiston Respublikasida davlat moliyasini boshqarish tizimida olib borilayotgan islohotlar, qator vazifalar bilan birgalikda, davlat byudjetining g’azna ijrosiga bosqichma-bosqich o‘tishni va uning faoliyat mexanizmlarini takomillashtirishni nazarda tutadi. Bunda zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida davlat mablag‘larining harakati to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni jamlash, qayta ishlash, uzatish usullarini o‘zlashtirish asosida davlat moliyasini boshqarishning samarali usul va vositalarini shakllantirish va muvofiq holda ishlashini ta‘minlash zarur bo‘ladi.

Mamlakatimizda davlat byudjetining g’azna ijrosini samarali tadbiriq etishga faqatgina barqaror rivojlanish ko‘rsatkichlariga erishganimizdan keyingina muvaffaq bo‘lindi. O‘zbekiston hukumati davlat moliyasini boshqarish tizimida ham kengqamrovli islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirib kelmoqda. Bu islohotlarning ijobiy natijalarini davlat byudjeti g’azna ijrosining muvaffaqiyatli joriy etilishida ko‘rishimiz mumkin. Hozirgi davrga kelib g’aznachilik rivojlanib, axborot texnologiyalari va dasturlarni qo‘llagan holda Davlat byudjetining daromadlari va xarajatlarini kassa ijrosini amalga oshirmoqda. Davlat byudjetining holati va monitoringini olib borishda g’aznachilik tizimidan foydalanilmoqda. Bu boradagi islohotlar davlat moliyasi, davlat byudjeti va byudjet jarayonini boshqarish va tartibga solish organlari faoliyatining samaradorligini oshirishni ko‘zda tutadi. Shu sababli ular faoliyatini amalga oshirilayotgan iqtisodiy va demokratik islohotlar talablariga moslashtirish, so‘nggi ijobiy natijalarni ko‘zlagan holda muvofiqlashtirish, shaklan va mazmunan yangi sifat pog‘onasiga ko‘tarish talab etilmoqda<sup>9</sup>.

Bu borada dastlab O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish loyihasini amalga oshirishga tayyorlanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2002-yil 26-aprelda 144-son Qarori qabul qilindi. Mazkur loyihani amalga oshirishga Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki tomonidan 400,0 ming AQSh

---

<sup>9</sup>Davlat moliyasini isloh etishning dolzarb muammolari. Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari (20.12.2009). T.: HUMOYuN ISTIQLOL MO‘JIZASI, 2009. 87-88 b.

dollari miqdorida mablag‘ ajratildi. Qarorda aytilishicha, “Yaponiya hukumati tomonidan O‘zbekiston Respublikasida moliya axborot tizimining funksional va texnikaviy tuzilmasini ishlab chiqishga”<sup>10</sup> 500,0 ming AQSh dollari miqdorida grant berilishi bildirildi.


Mazkur loyihaning maqsadi davlat moliyasini boshqarishni takomillashtirish, zamonaviy kompyuterlar va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda byudjet mablag‘larining samarali sarflanishini ta’minlash, byudjet ijrosining yangi tizimini yaratishdan iboratdir. Ko‘rsatib o‘tilgan loyihani amalga oshirish yuzasidan mas’uliyat O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga yuklatildi.

Loyihani tayyorlash va amalga oshirish maqsadida Muvofiqlashtiruvchi kengash tuzildi. Bu kengashning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi:

- loyihani tayyorlash va amalga oshirish bo‘yicha monitoring olib borish;
- loyiha doirasida jalb etiladigan vakolatli organlar, konsalting kompaniyalari faoliyatini muvofiqlashtirish;
- loyihani tayyorlash va amalga oshirish uchun jalb etiladigan mablag‘lardan samarali foydalanish ustidan nazoratni ta’minlash;
- tender savdolari o‘tkazish bo‘yicha qarorlar qabul qilish va ularning natijalarini ma’qullash, tegishli tender komissiyalari tarkibini tasdiqlash;
- ekspertizalar o‘tkazish va jalb etilayotgan konsultantlar va ekspertlar hisobotini ma’qullash.

---

<sup>10</sup> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish loyihasini amalga oshirishga tayyorlanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 144-son (26.04.2002) Qarori, 1-band.



**1-rasm. Davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish loyihasi yo'nalishlari**

O'zbekiston Respublikasida davlat moliyasini isloh qilish bo'yicha muhim qadamlardan biri "Davlat byudjetining g'azna ijrosi to'g'risida"gi Qonunining qabul qilinishi bo'ldi. Ushbu Qonunning maqsadi O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining (shu jumladan davlat maqsadli jamg'armalarining) va byudjet tashkilotlari byudjetdan tashqari mablag'larining g'azna ijrosi sohasidagi munosabatlarini tartibga solishdan iborat. Mazkur qonunda davlat byudjeti g'azna ijrosini tashkil etish va g'aznachilik faoliyati bilan bog'liq quyidagi holatlar o'zining huquqiy asosiga ega bo'ldi:

- davlat byudjeti g'azna ijrosining asosiy prinsiplari;
- davlat byudjetining g'azna ijrosi muddatlari;
- G'aznachilikning asosiy vazifalari;
- G'aznachilikning boshqa organlar va tashkilotlar bilan o'zaro munosabatlari;
- G'aznachilikning bank hisobvaraqlari;
- davlat byudjetining xarajatlarini amalga oshirish;
- davlat byudjeti mablag'larini boshqarish;

- davlat byudjeti g‘azna ijrosining buxgalteriya hisobi;
- davlat byudjetining ijrosi to‘g‘risidagi hisobot va boshqalar.

“Davlat byudjetining g‘azna ijrosi to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi o‘z navbatida byudjetdan mablag‘ oluvchilar bilan ularga tovar (xizmat, ish)larni yetkazib beruvchilar o‘rtasidagi shartnomalarni ro‘yxatdan o‘tkazish hamda ularning xarajatlarini to‘lab berishga qaratilgan byudjet mablag‘larining harakatini nazorat qilish tartibini aniqlash va belgilashni taqozo etadi.

Shu maqsadda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 63-son (05.05.2005) buyrug‘i bilan tasdiqlangan va O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 1475-raqam (21.05.2005) bilan ro‘yxatga olingan “Moliya organlarida byudjetdan mablag‘ oluvchilar bilan tovar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchilar o‘rtasidagi shartnomalarni ro‘yxatdan o‘tkazish va ularning xarajatlari to‘lovini nazorat qilish tartibi haqida Vaqtinchalik nizom” qabul qilindi. Ushbu Nizom tajriba tariqasida Samarqand viloyatida, shu jumladan respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan ayrim byudjet tashkilotlarida byudjetdan mablag‘ oluvchilar bilan mol yetkazib beruvchilar o‘rtasidagi shartnomalarni tegishli moliya organlarida ro‘yxatdan o‘tkazish va byudjet mablag‘larini ularning xarajatlarini to‘lashga o‘tkazish ustidan nazorat qilish tartibini belgilab berdi.

Davlat byudjetining g‘azna ijrosini tatbiq etish hisobiga byudjet tizimini yanada isloh etish, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda byudjet mablag‘larining maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni kuchaytirish, barcha darajalardagi byudjetlar daromadlari va xarajatlarini boshqarish samaradorligini oshirish maqsadida 2007-yil 28-fevralda “Davlat byudjeti g‘azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-594 sonli Qarori qabul qilindi.

Ushbu qarorga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Davlat byudjetining g‘azna ijrosini tatbiq etish va uslubiyot boshqarmasi hamda mahalliy moliya organlarining g‘aznachilik bo‘linmalari negizida O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G‘aznachiligi va uning hududiy bo‘linmalari tashkil etildi. Shuningdek, mazkur Qaror bilan G‘aznachilikning asosiy vazifalari belgilab



berildiki, ular “Davlat byudjetining g‘azna ijrosi to‘g‘risida”gi Qonunda aks etgan G‘aznachilikning vazifalariga yanada aniqlik kiritdi. Davlat byudjetining g‘azna ijrosini tatbiq etish hisobiga byudjet tizimini yanada isloh qilish, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda byudjet mablag‘larining maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni kuchaytirish, barcha darajalardagi byudjet daromadlari va xarajatlarini boshqarish samaradorligini oshirish maqsadida qarorda qator vazifalar belgilandi:

- O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Moliya vazirligi Davlat byudjetining g‘azna ijrosini tatbiq etish va uslubiyoti boshqarmasi hamda mahalliy moliya organlarining g‘aznachilik bo‘linmalari negizida O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G‘aznachiligini va uning hududiy bo‘linmalarini moliya organlari bo‘yicha belgilangan boshqaruv xodimlari soni doirasida tashkil etish;

- G‘aznachilik tomonidan davlat byudjetining kassa ijrosi, jumladan, tushadigan daromadlarni turli darajadagi byudjetlar o‘rtasida taqsimlash, byudjetdan mablag‘ oluvchilarning xarajatlar smetalari ijrosi va Davlat byudjeti ijrosi to‘g‘risida hisobot tuzish;

- Davlat byudjeti mablag‘larini yagona g‘aznachilik hisobraqami, shuningdek tegishli byudjetlar daromadlari va xarajatlari o‘rtasidagi kassa uzilishlarining oldini olishni ta‘minlaydigan hududiy g‘aznachilik hisobraqamlarini joriy etish orqali boshqarish;

- byudjet tashkilotlarining tovar (ish, xizmat)lar yetkazib beruvchilar bilan shartnomalarini, shuningdek Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan kapital qurilish bo‘yicha buyurtmachilarning shartnomalari xarajatlar smetasida ko‘rsatilgan summalar va maqsadlarga qat‘i muvofiq ravishda tuzilishi ustidan qattiq nazorat o‘rnatish asosida mazkur shartnomalarni majburiy ro‘yxatdan o‘tkazish tartibini joriy etish orqali byudjet tashkilotlarining maqsadga nomuvofiq, asossiz xarajatlarining oldini olish;

- byudjet tashkilotlarini, shu jumladan mudofaa va xavfsizlik tuzilmalarini moliyalashga yo‘naltiriladigan byudjet mablag‘laridan foydalanishni maqbullashtirish ustidan monitoringni amalga oshirish, bunda ular tomonidan

tuzilayotgan shartnomalarning sifati ta'minlanishini, ularning maqsadga muvofiqligi va narx-navo yechimini nazarda tutish hamda vositachilik xizmatlaridan voz kechish;

- xarajatlar smetasi va ro'yxatga olingan shartnomalarda nazarda tutilgan qat'i summalar doirasida tovar (ish, xizmat)lar yetkazib beruvchilarning bevosita hisobraqamlariga byudjet mablag'lari oluvchilar nomidan va ularning topshirig'i bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish orqali to'lov intizomiga so'zsiz rioya etilishi ustidan ta'sirchan nazoratni ta'minlash;

- Davlat byudjeti g'azna ijrosining buxgalterlik hisobi va hisobotini yuritish, Davlat byudjeti ijrosi haqida axborot yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish, shuningdek O'zbekiston Respublikasining davlat ichki va tashqi qarzlariga xizmat ko'rsatish, O'zbekiston Respublikasi kafolatlarini ijro etish.

Shuningdek, ushbu qaror asosida Osiyo taraqqiyot banki (OTB) va boshqa xalqaro moliya tashkilotlarining qarz mablag'larini jalb etgan holda Davlat byudjetining barcha daromadlarini yagona g'azna hisobraqamiga jamlash va undan xarajatlar to'lovini amalga oshirish imkonini beruvchi Davlat byudjeti g'azna ijrosining yagona integratsiyalashgan axborot tizimini tashkil etish bo'yicha chora-tadbirlar kompleksining qabul qilinishi belgilandi.

O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bilan birgalikda belgilangan tartibda respublikaning barcha shahar va tumanlarini qamrab olgan holda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tizimining ma'lumotlar tarmog'ini tashkil etish uchun yer usti raqamli aloqa kanallarini berish choralari belgilandi.

Moliya organlarining byudjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetasini bajarish funksiyalari G'aznachilikka berilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va tijorat banklariga byudjet mablag'lari oluvchilarga xizmat ko'rsatish bilan band bo'lgan bank xodimlari sonini maqbullashtirish va qisqartirish choralari ishlab chiqildi.

2007- yil 20- martda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 53-sonli Qarori bilan "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G'aznachiligi

to'g'risida Nizom" qabul qilindi. Mazkur Nizom "Davlat byudjeti g'azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-594 sonli (27.02.2007) qaroriga muvofiq ishlab chiqildi hamda G'aznachilikning asosiy vazifalari, funksiyalari, vakolatlari va javobgarligini belgilab berdi.

2007-yil 30-avgustda O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining 119-sonli buyrug'i bilan "Davlat byudjeti g'azna ijrosi bo'yicha funksiyalarini chegaralash to'g'risida Nizom" tasdiqlandi. Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasi respublika byudjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlarning g'azna ijrosini tashkil etish borasida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Markaziy apparati tarkibiy bo'linmalari (G'aznachilikdan tashqari) hamda hududiy moliya organlari zimmalaridagi funksiyalar bilan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi va uning hududiy bo'linmalari zimmalariga qo'yilgan funksiyalarini chegaralab berdi. Bu esa byudjet siyosatini amalga oshirishga mutasaddi bo'lgan bir nechta davlat moliyasini boshqarish organlarining faoliyati bir-birini takrorlamasligini ta'minladi.

Shuni alohida ta'kidlash zarurki, byudjet qonunchiligini yanada rivojlantirish va takomillashtirish asosida byudjet faoliyatini rivojlantirish davlat moliyasini boshqarish tizimini isloh qilishning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ma'lumki, 2000-yil 14-dekabrda "Byudjet tizimi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining qabul qilinganidan beri o'tgan davr mobaynida byudjet amaliyotida bir qator o'zgarishlar sodir bo'ldi, ular:

- davlat byudjeti g'azna ijrosining joriy etilishi;
- bir qator davlat maqsadli jamg'armalari va boshqa nobyudjet fondlarining tuzilishi va amal qilishi;
- byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari qo'shimcha mablag'larni jalb qilish manbalarining kengayishi va ular ustidan nazoratni yaxshilash zarurligi;
- byudjet tasnifi, byudjet hisobi va hisoboti tizimining takomillashuvi;

– yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining qabul qilinishi va amalga kiritilishi va boshqa holatlar bilan bog‘liq bo‘lib, byudjet qonunchiligini yanada takomillashtirish zarurligini taqozo etdi.

Natijada amaldagi “Byudjet tizimi to‘g‘risida”gi hamda “Davlat byudjetining g‘azna ijrosi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunlarida belgilangan normalar mukammal tarzda qayta ishlangan holda Byudjet Kodeksida o‘z aksini topdi.

Byudjet tizimidagi islohotlar doirasida 2014-yildan boshlab O‘zbekiston Respublikasida amalga kiritilayotgan *yangi Byudjet Kodeksi* davlat moliyasini boshqarishning huquqiy asoslarini yanada mustahkamlash, byudjet siyosatining ustuvorliklarini belgilab olish, byudjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligini oshirish va davlat xizmatlarini taqdim etish sifatini oshirishga qaratilgan. Ushbu kodeks O‘zbekiston Respublikasining byudjet tizimi byudjetlarini shakllantirish, tuzish, ko‘rib chiqish, qabul qilish, tasdiqlash, ijro etish, davlat tomonidan mablag‘ jalb qilish va byudjet to‘g‘risidagi qonun hujjatlari ijrosini nazorat qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi.

Byudjet Kodeksi byudjet jarayonini xalqaro amaliyot tajribalaridan kelib chiqqan holda tartibga solish, byudjet amaliyotida mavjud bo‘lgan ziddiyatlarni bartaraf etish, eskirgan tartib-qoidalarni bekor qilish, byudjet jarayonini tashkil etishdagi me‘yorlar, nizomlar va byudjet jarayoni ishtirokchilarining vakolatlarini tizimlashtirish maqsadida ishlab chiqildi. Byudjet Kodeksining g‘aznachilik faoliyati bilan bog‘liq alohida qismi davlat byudjeti g‘azna ijrosini tashkil etish, yuridik va moliyaviy majburiyatlarni ro‘yxatga olish, byudjetdan mablag‘ oluvchilar xarajatlari to‘lovini amalga oshirish, davlat xaridlarini tashkil qilish, G‘aznachilikning yagona g‘azna hisobraqamini yuritish kabi masalalarni tartibga solishga qaratilgan.

Davlat byudjetining g‘azna ijrosi davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg‘armalarining barcha daromadlarini, shuningdek, byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha tushumlarini yagona g‘azna hisobraqamga jamlash va ularning barcha xarajatlarini shu hisobraqamdan amalga oshirishni nazarda tutadi. Bu esa

davlat byudjeti, byudjetdan tashqari fondlar, byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari, davlat qarzlari va ularga xizmat ko'rsatish jarayonlarining tezkor nazoratini va monitoringini olib borish, davlat mablag'larining samarali ishlatilishini ta'minlash, davlat moliyaviy resurslarining harakati to'g'risida operativ tarzda ma'lumotlarni jamlash imkonini beradi.

Byudjet tizimi byudjetlarining g'azna ijrosini joriy etish – keng qamrovli masala bo'lib, o'zaro bog'liq bo'lgan qator masalalarni hal qilishni talab etadi, xususan:

*Huquqiy jihatdan* – byudjet tizimi byudjetlarining g'azna ijrosiga o'tish va amal qilishining qonuniy-huquqiy asosini yaratish va takomillashtirish;

*tashkiliy jihatdan* – Moliya vazirligi tarkibida maxsus ixtisoslashgan g'aznachilik boshqarmasini, shuningdek, uning hududiy va mahalliy bo'linmalarini tashkil etish va vakolatlarini shakllantirish;

*uslubiy jihatdan* – g'aznachilik faoliyatining uslubiy asoslarini shakllantirish, hisob va hisobot tizimini qayta tuzish, Yagona g'azna hisob varag'ini, shaxsiy g'azna hisobraqamlarini ochish va yuritish;

*texnik va texnologik jihatdan* – davlat moliyasi bo'yicha katta hajmdagi axborotni to'plash va qayta ishlashga imkon beradigan samarali faoliyat qiluvchi integratsiyalashgan avtomatlashtirilgan tizimni yaratish va joriy qilish, takomillashtirish.

Nazariy jihatdan ham, amaliy jihatdan ham, metodologik hamda tashkiliy jihatdan davlat byudjetining g'azna ijrosini tushunish hamda bevosita ijro etish ancha murakkab jarayondir. Ana shu jihatlar "G'aznachilik asoslari" fanining ham murakkabligini belgilab beradi. Fan sifatida mavjud bo'lishi uning boshqa maxsus fanlar bilan nazariy jihatdan bog'liqlikda bo'lishini talab etadi. Davlat byudjetining g'azna ijrosi ishtirokchilari: moliya organlari, byudjet tashkilotlari, banklar, g'aznachilik bo'linmalari, mol etkazib beruvchilar va boshqalar faoliyatining xususiyatlari uning boshqa iqtisodiy fanlar bilan mantiqan uzviylikda bo'lishini va bog'liqligini belgilab beradi.

“Xorijiy mamlakatlar g’aznachilik tizimlari” fani qator maxsus fanlar, jumladan, “G’aznachilikda moliyaviy nazorat”, “Byudjet ijrosi g’aznachilik tizimi”, “G’aznachilik axborot tizimlari”, “Byudjet tasnifi”, “G’azna ijrosi byudjet hisobi”, “G’aznachilik hisoboti”, “Byudjet tizimi” kabi fanlarni o’zlashtirish uchun nazariy-uslubiy asos bo’lib xizmat qiladi.

## **2-mavzu. RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA G’AZNACHILIK TIZIMLARINING XUSUSIYATLARI**

### **Reja:**

- 1. Xorijiy mamlakatlar g’aznachilik tizimlarining xususiyatlari**
- 2. Byudjet tizimini boshqarishda g’aznachilik mexanizmining modellari**
- 3. Xorijiy tajribalar asosida g’aznachilik tizimini takomillashtirish yo’nalishlari**

### **1. Xorijiy mamlakatlar g’aznachilik tizimlarining xususiyatlari**

O’zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning misolida, davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish sohasidagi amalga oshirilayotgan yutuqlar qatorida, g’aznachilik tizimining joriy qilinishi va bu borada qo’lga kiritilayotgan yutuqlar islohotlar samarasining dalolatidir. G’aznachilik tizimining joriy qilinishi byudjet ijrosining samarasini keskin oshirishni ta’minlamoqda.

Byudjetning g’azna ijrosiga oid xorijiy adabiyotlarda g’aznachilik tizimiga quyidagicha ta’rif beriladi, ”G’aznachilik tizimi byudjetdan mablag’ oluvchilarning majburiyatini ijroga qabul qiladi. Keyin taqdim qilingan mahsulotlar va ko’rsatilgan xizmatlar uchun g’aznachilik ularning nomidan va ularning topshirig’iga binoan vakolatni o’ziga oladi. Byudjet mablag’larini maqsadli ishlatilishini ta’minlash asosida to’lovni amalga oshiradi. G’aznachilik bo’linmalari byudjet tashkilotlari va boshqa byudjetdan mablag’lar oluvchilarga naqd pul to’lash uchun banklarning vakolatli muassasalarida maxsus tranzit g’aznachilik hisobraqami ochadi. Har bir tranzit hisobraqamga joylashuv o’rniga bog’liq tarzda naqd pul mablag’lari oluvchi byudjet tashkilotlari birlashtirilishi lozim. Banklarning vakolatli muassasalari G’aznachilik tomonidan yozib berilgan

chek asosida mazkur tranzit hisobraqamlardan byudjet tashkilotlariga naqd pul mablag'leri berishni amalga oshiriladi"<sup>11</sup>.

“Byudjet ijrosining g'aznachilik tizimini bosqichma-bosqich joriy qilish byudjet mablag'larini to'liq va samarali ishlatilishining dastlabki va joriy nazoratini ta'minlaydi: Dastlabki nazorat - shartnomalarni ro'yxatga olish jarayonida, joriy nazorat byudjetdan mablag' oluvchilarni xarajatlariga mablag'ni to'lashda amalga oshiriladi"<sup>12</sup>.

Jahon tajribalari shuni ko'rsatadiki, byudjetning kassali ijrosi ikki usulda: g'aznachilik va bank tizimi orqali amalga oshiriladi. G'aznachilik tizimining faoliyati birinchi bosqichda nafaqat moliyaviy resurslarni safarbar qilish orqali mahalliy byudjet xarajatlarini muntazam ravishda boshqarish imkonini yaratadi, balki ular ustidan samarali nazorat qilish imkonini ham beradi.

“G'azna” inglizcha “treasure trove” co'zidan olingan bo'lib, insonlar tomonidan ma'lum bir maqsadlarda erga ko'milgan oltin va kumushning topilishi hamda bu topilma podsholarga tegishli bo'lganligini anglatadi. Boshqa iqtisodiy adabiyotlarda “g'aznachilik” – terminiga iqtisodiy kategoriya sifatida ikki xil ta'rif beriladi. G'aznachilik – davlat byudjeti kassasini ta'minlaydigan va davlat moliyasini boshqaradigan maxsus davlat organidir. G'aznachilik – mamlakatning moliya siyosatiga va iqtisodiyotni boshqarishga javob beradigan vazirlikdir.

G'aznachilik - Maxsus davlat moliya organi bo'lib davlat byudjetining ijrosini ta'minlaydi, o'zida yagona markazlashgan pul fondlarini shakllantiradi, shuningdek davlat tomonidan soliqlari yig'ish va ulardan foydalanishni ta'minlaydi. Ko'pchilik hollarda g'aznachilik Moliya vazirligi tarkibiga kiruvchi yagona tamoyillarga asoslangan tizimdir. AQSh, Avstraliya, Braziliya kabi davlatlarda byudjet ijrosi g'aznachilik orqali amalga oshiriladi.

Davlat byudjeti kassa ijrosiga bank tizimida davlat dasturlarida ishtirok etayotgan tashkilot va muassasalar tarkibining oshishi natijasida byudjet

---

<sup>11</sup> Steven M. Bragg. Treasury management: The Practitioner's Guide /Published by John Wiley & Sons, Inc., Hoboken, New Jersey/ 2010.

<sup>12</sup>Pulatov D. Voprosi sovershenstvovaniya gosudarstvennogo finansovogo kontrolya v Uzbekistane. // Perspectives of Innovations, Economics and Business Volume 2. 2009.P -50.

mablag'larining bosh taqsimlovchisi, ya'ni Moliya Vazirligining ushbu mablag'lar xarakati va ularning maqsadli ishlatilishi ustidan olib borayotgan nazoratini ma'lum darajada cheklashga olib kelgan. Moliya Vazirligiga byudjetning daromadlar qismi to'g'risida ma'lumotlarni o'z vaqtida etib kelmasligi byudjet mablag'larini tezkor sur'atlarda samarali ishlatilishiga to'sqinlik qildi.

“G'aznachilik-davlatning moliyaviy resurslarini boshqarishning yangi usulidan foydalanishdir. Davlat byudjetining barcha daromadlarini jamlash va taqsimlashdagi yangicha tamoyil va mexanizmlarni amalga qo'llashdir. Qolaversa, byudjetning xar bir so'mini oqilona ishlatishni ta'minlovchi yangicha mexanizmdir. Hozirgi kunda ko'plab horijiy davlatlarda, jumladan, Frantsiya, Shvetsiya, AQSh, Germaniya, Buyuk Britaniya, Rossiya Federatsiyasi va boshqa mamlakatlar byudjet ijrosini g'aznachilik tizimi orqali amalga oshiriladi”<sup>13</sup>. G'aznachilik faoliyatini tashkil etishning dastlabki bosqichdagi chora-tadbirlari mahalliy byudjetlardan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlariga hamda respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlariga byudjetdan mablag'lar oluvchilar bilan mahsulot etkazib beruvchilar o'rtasidagi shartnomalarni g'aznachilik organlarida ro'yxatdan o'tkazish va tuzilgan shartnomalarga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritishni nazorat qilish bilan boshlandi.

Xorijiy mamlakatlarda Markaziy bankning paydo bo'lishi va tijorat banklari tizimining takomillashuvi g'aznachilik tizimining quyidagi o'zgarishlariga olib keldi:

tangalar yasash va pul emissiyasi Markaziy banklar zimmasiga o'tdi;

qarz majburiyatlarini tasdiqlovchi qimmatbaho qog'ozlar miqdorini boshqarish ham Markaziy Bankka berildi;

---

<sup>13</sup> Steven M. Bragg. Treasury management: The Practitioner's Guide /Published by John Wiley & Sons, Inc., Hoboken, New Jersey/ 2010.



bank tizimining poytaxtdan boshqa savdo va sanoat markazlariga tarmoq yoyishi, davlat tomonidan to'lovlar olish va berish funksiyalari ham banklarga topshirildi;

“G’azna” aholi omonotlarini qabul qiluvchi bank muassasasiga aylandi.

Davlat byudjetining kassa ijrosi jarayonida g’aznachilik tizimining modellari turlicha bo’lib, ularning vazifalari bir-biridan farqlanadi. G’aznachilikda byudjet mablag’lari xarajatlari uch bosqichga bo’linadi:

1-bosqich. Tarmoq, vazirliklar va idoralar hisobraqamiga tushadigan byudjet mablag’larining hajmini tasdiqlash.

2-bosqich. Soliq organlari orqali byudjetning daromad qismini amalga oshirish va tasdiqlangan xajmlariga binoan byudjet oluvchilarning tijorat banklaridagi hisob raqamlariga etkazib berish.

3-bosqich. Byudjetdan mablag’ oluvchilarning kassa xarajatlarini amalga oshirilishi. Byudjetdan mablag’ oluvchilarning tijorat banklaridagi hisobraqimiga tushgan mablag’ Moliya vazirligi va uning joylardagi moliya organlarining nazorati doirasidan tashqarida amalga oshiriladi. Bu mablag’larning nazorati tijorat banklarining o’ziga yuklatiladi. Tijorat banklarining hisobraqamlaridagi shu davr ichida ishlatilmagan byudjet tashkilotlarining qoldiq mablag’lari tijorat banklarining resurs mablag’lari vazifasini bajaradi hamda to’lov muddati kelgunga qadar o’sha bank tomonidan tijorat maqsadida ishlatilishi mumkin. Bunda tijorat tavakalchiligi bilan bog’liq xatarlar ushbu mablag’lar zimmasiga tushishi tabiiy.(1-rasm)

Xalqaro Valyuta Fondi ekspertlari Barri Potter va Jek Daymont fikricha, “Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti 14 tarkibidagi ko’pchilik mamlakatlar davlat moliyasini boshqarishda g’aznachilik tizimiga suyanishadi va bunda g’aznachilik tizimining Moliya vaziri tomonidan boshqarilishi davlat mablag’larini ishlatilish samaradorligini va ularning o’z vaqtida va maqsadli ishlatilishi ustidan nazorat etish sifatini ham sezilarli darajada oshiradi”<sup>15</sup>.

---

<sup>14</sup> rganization for Economic Cooperation and Development (OECD)

<sup>15</sup> Barry Potter, Jack Diamond. Building Treasury Systems.1999 r3.

G'aznachilik tizimi davlatning markaziy hukumati va xududlardagi boshqaruv organlarining asosiy moliyaviy xizmatlarini ta'minlaydi. Bu xizmatlar qatorida: davlat mablag'lari to'lovlarini amalga oshirish, mablag'lar harakati hisobi va hisobotini ta'mimlashi, fiskal hisobot va boshqalar ko'rsatiladi. Rivojlangan davlatlar moliya vazirligi va boshqa tarmoq vazirliklari uchun davlat moliyasini shakllantirish, ijro qilish va nazorati bo'yicha funktsional bog'liq tarzda kompyuter tizimini tuzadi va doimiy ravishda takomillashtiradi. Shu bilan birga, bu yaxlit – integrallashgan tizim, ixtisoslashtirilgan kompyuter dasturlari, byudjetning barcha darajadagi mahalliy byudjetlarga ishlov berish, davlat qarzini boshqaruv vazifalarini optimallashtirish, byudjetdan tashqari fondlarni shakllantirish va birlashtirish, mahalliy moliya organlari va boshqa tashkilotlarining moliyasini boshqarish funktsiyalari uchun alohida ixtisoslashgan dasturlarni o'z ichiga oladi.

Ilmiy adabiyotlarda g'aznachilik tizimining turli ta'riflari uchraydi. Quyida shu ta'riflardan birini keltiramiz:

“G'aznachilik tizimida byudjetdan mablag' oluvchilar topshirig'iga ko'ra to'lov majburiyatlarini ijroga qabul qilib olish, va tovarlar etkazib berilishi, bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlar uchun bevosita to'lovlarni amalga oshirilishni g'aznachilik amalga oshiradi va, bunda byudjet mablag'laridan maqsadli foydalanishni ta'minlaydi”<sup>16</sup>.

Xalqaro Valyuta Fondi ekspertlari Barri Poter va Jek Daymondning ta'riflarishicha:

---

<sup>16</sup>Ivanova N. G., Makovnik T.D., Kaznacheyskaya sistema ispolneniya byudjetov. «Piter»Sankt-Peterburg. 2001. str.29

“Davlat moliyasini boshqarish maqsadida integrallashgan axborot tizimi – yoki g’aznachilik tizimi – bu to’lovlar, hisobot va moliya boshqaruvini amalga oshiruvchi tizimki unga moliya vazirligi, g’aznachilik, tarmoq vazirliklari va byudjet tashkilotlari bevosita bog’lanish huquqiga egadir”<sup>17</sup>.

Davlat byudjeti g’aznachilik ijrosi, yana bir ta’rifga ko’ra, ijroiya organi tarafidan byudjet mablag’larini jalb qilish va sarflanishini ta’minlaydi, bunda, ushbu organ maxsus vakolatlariga ko’ra tushumlar ro’yxati bo’yicha, Yagona Hisobraqamidan amalga oshiriladigan to’lovlar va zimmasidagi byudjet majburiyatlarining vaqti va hajmini tartibga soladi<sup>18</sup>.

Xorijiy mamlakatlar G’aznachilik bo’yicha o’tkazilgan taqqoslashdan ko’rinib turibdiki, byudjetning banklar orqali ijrosi sharoitida byudjet mablag’larining bosh taqsimlovchisi - Moliya Vazirligining byudjet mablag’larining tezkorligi ta’minlashda, davlat byudjetinig daromad qismiga tushadigan mablag’larining kuzatishda ham, byudjet oluvchi tashkilotlarga mablag’larni taqsimlab etkazish borasida ham funktsiyalari chegaralangan edi. Byudjet ijrosining g’azna tizimida bosh taqsimlovchisi barcha mablag’larni Yagona g’azna hisobvarag’iga tushgan vaqtdan mablag’ oluvchiga bu summa to’langunga qadar shafofligini ta’minlash imkonini bu tizim kengaytiradi. Barcha mablag’larining Yagona g’azna hisobvarag’iga tushishini tartibga solib turadi, ulardan vaqt tejash bo’yicha foydalanishning eng qulay variantini tanlaydi. Buning hisobiga Davlat byudjeti ijrosi samaradorligini keskin oshiradi.

---

<sup>17</sup>Barry Potter, Jack Diamond. Building Treasury Systems. 1999 r6.

<sup>18</sup>Rudovol I. P. Pravovoe regulirovanie kaznacheyskogo ispolneniya byudjeta. // Finansi. № 8, 2009. str. 25.

G'aznachilik tizimida byudjet jarayonlarini amalga oshirilishi<sup>19</sup>

Xarajatlar aylanish davri	Byudjet jarayonlarini amalga oshirilishi	
	Bank tizimidagi holat	G'azna tizimidagi holat
Ajratmalar	Byudjet boshqarmalari-hududiy moliya organlari	Byudjet boshqarmalari-hududiy moliya organlari
Taqsimlash (smeta-yoyilma)	Byudjet boshqarmalari-hududiy moliya organlari	Byudjet boshqarmalari-hududiy moliya organlari
Byudjetni yil ichida qayta ko'rib chiqish	Byudjet boshqarmalari-hududiy moliya organlari	Byudjet boshqarmalari-hududiy moliya organlari
Majburiyatlar (shartnoma, buyurtma)	Byudjet tashkilotlari buxgalteriya bilan birgalikda kreditor qarzlari va haqiqiy xarajatlardan farq qiladigan majburiyatlar hisobotlarda ko'rsatilmaydi	Byudjet tashkilotlari buxgalteriya bilan birgalikda g'aznachilikda ro'yxatdan o'tkazish kerak. A. har oylik hisobot
Verifikatsiyalash (etkazib berish)	Byudjet tashkilotlari buxgalteriya bilan birgalikda choraklik hisobotlar	Byudjet tashkilotlari buxgalteriya bilan birgalikda. G'aznachilikda ro'yxatdan

<sup>19</sup> Kolesov A.S. Budjetniy protsess: sushchnost i sovershenstvovanie. – Finansi № 11. 2010. –s 8.

		o'tkaziladi. Mumkin bo'lgan ro'yxatga olish rejimlari: majburiyatlarga nisbatan. V. har oylik hisobot
Kassa limitlari (masalan, yo'riqnoma/sertifikatlar)		G'azna har oylik/har kunlik hisobotlar
To'lov xabarnomalari		G'azna va byudjet tashlolarini buxgalteriya bilan birgalikda har oylik / har kunlik hisobotlar
To'lovlar (bankka jo'natiladigan xarajatlarni amalga oshirish ruxsatnomalari)	Banklar: kassa balansi: har kunlik hisobot Byudjet tasnifi-tarmoq-paragraf: har oylik hisobot	G'aznachilikda har oylik/har kunlik hisobotlar Byudjetdan mablag' oluvchi tashkilotlar (axborot g'aznaga elektron yo'l bilan uzatiladi) D. har oylik/har kunlik hisobotlar. Kassa balanslari haqida kunlik hisobotlar

Buni o'zlashtirish uchun shuni nazarda tutish kerakki, byudjetning g'aznachilik ijrosida turli malakaga ega, davlat boshqaruvi va mahalliy boshqaruv tizimlarining turli pog'onalarida ishlayotgan mutaxassislar faol qatnashadi. Davlat byudjetining g'aznachilik ijrosiga doir asosiy tamoyillar, byudjet ijrosi bilan bog'liq jarayonlarni va harakatlarda shu tizim qatnashchilari tamoyillarga rioya qilishni o'zaro kelishib olinmagunga qadar, tizim faoliyatining samarasi yuqori

bo'la olmaydi. Shu nuqtai nazardan bu tizimga umumiy va tushunarli yagona tamoyillar joriy qilinmasa turli muammolarni olib kelishi mumkin. Bu vaziyatda byudjetning g'azna ijrosida quyidagi tamoyillar keltiriladi:

1. Byudjetning g'aznachilik ijrosiga doir eng muhim tamoyil - daromadlar va harajatlar Yagona kassadan amalga oshirilishi. Bunda byudjet takchiligini yopish uchun byudjet tushumlari va byudjetning barcha daromadlari Yagona G'aznachilik hisobidan amalga oshiriladi.

2. Ikkinchi muhim tamoyil - Davlat byudjeti ijrosining hisoboti va buxgalteriya hisobini umumiy (yagona) tasnifga asoslangan tizimini yaratilishi. Bu tamoyil Davlat byudjeti g'aznachilik ijrosi tizimini o'zida mujassamlashtirgan hisobotlar va shu jarayonga tegishli barcha standartlarni joriy qilinishini bildiradi. Bunga davlat byudjeti ijrosi bo'yicha hisob va hisobotlar, davlatning byudjetdan tashqari maqsadli fondlari, uzoq muddatli dasturlari, byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jalb qilingan mablag'lari kiradi. Bu borada tashkilotlarning yagona buxgalteriya hisobi standartlari va hisobotlari faqatgina O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligida emas balki byudjet tashkilotlarida ham yagona byudjet tasnifi, buxgalteriya hisobi plan schyotlari va buxgalteriya hisobi hujjatlari bilan amalga oshirilishi ko'zda tutiladi. Bu tamoyil g'aznachilik organlari va byudjet tashkilotlaridan tashqari, yagona tasnifga asoslangan hisob va buxgalteriya hisobi tizimi soliq va bojxona organlaridan tushadigan davlat byudjeti daromadlari, byudjetdan tashqari fondlarning daromadlariga tushadigan mablag'lar, daromadlarni mahsus yig'uvchilarga hamda davlatning maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchilarga qo'llaniladi.

3. Byudjet ijrosining banklar oraqali amalga oshiriluvchi kassali ijrosidan farqli ravishda g'aznachilik tizimida byudjet ijrosida tushumlarning Yagona g'azna hisobraqamiga kelib tushishidan oxirgi pul mablag'larni oluvchiga etib borgunga qadar kuchli moliyaviy nazorat qilinishini ta'minlanadi. Bu "tiniqlik" tamoyilini amalga oshirish imkonini yaratadi. Jamiyatni demokratiyalashtirish va fuqarolik jamiyati taraqqiyoti natijasida, siyosiy partiyalar, turli harakatlar va nodavlat tashkilotlari davlat byudjetini rejalashtirish jarayonida bir-birlari bilan muhokama

qilishi va dolzarb yo'nalishlarni aniqlash jarayonida mazkur tamoyildan foydalanishlari tarraqiy etgan davlatlarda tabiiy hol. O'zbekiston Respublikasida "tiniqlik" tamoyilini amalga oshirish byudjet jarayoni uchun asos bo'lib, qolaversa, davlat byudjeti mablag'larining samaradorligi oshishiga hizmat qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, shuni e'tiborga olish kerakki, alohida ekspertlar va xalqaro tashkilotlar "tiniqlik" tamoyili ma'nosida Davlat byudjeti ijrosini boshqa davlatlar byudjet ijrosi bilan solishtirishga urinib, haqqoniylikka erishadi.

O'zbekistonning iqtisodiy islohotlari "shok terapiyani" o'zida mujassamlashtirmagan, islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilib, oldingi bosqichning samarali amalga oshirilishiga qarab, aholini maksimal ijtimoiy himoyalagan holda amalga oshirishi tamoyili asosida o'zgarishlar bo'lmoqda. Lekin, rivojlangan va qo'shni davlatlarda amalga oshirilayotgan islohotlar va byudjet bilan bog'liq hal qilinayotgan masalalar, bizning mamlakatimizdagi Davlat byudjeti maqsadlaridan sezilarli farq qilinishini inobatga olishimiz kerak. Hattoki, erkin va dekmokratik hisoblangan davlatlarda davlat byudjetining ba'zi "backdoor Spending"<sup>20</sup> deb nomlangan xarajatlari mavjudki, ularning maqsad va mohiyatining mahfiyligi hech kimda qiziqish, va halqaro tashkilotlarda va "malakali ekspertlar" doiralarida e'tiroz va yoki tushunmovchilik uyg'otmaydi.

Xalqaro tajribalar ko'rsatadiki, g'aznachilik tizimining ustunlik qiladigan bironta modeli yo'q. G'aznachilikning bo'lim va boshqarmalar soni va ularning aniq funktsiyalari har bir mamlakatning o'ziga xos xususiyatlarga bog'liq, shu bilan birga bu funktsiyalar malakatlarning rivojlanishiga bog'liq holda o'zgaradi.

## **2. Byudjet tizimini boshqarishda g'aznachilik mexanizmining modellari**

O'zbekistonda optimal Davlat byudjetining g'azna ijrosi tizimini yaratish maqsadida Frantsiya, AQSh, Rossiya va boshqa rivojlangan davlatlar misolida bu

---

<sup>20</sup> Allen Schick, Robert Keith, Edward Davis. Manual on the Federal Budget Process. CRS Report for the Congress. 1991. P 115

sohadagi ilg'or xalqaro tajriba o'rganildi. Turli davlatlarda g'aznachilik funksiyalariga oid xalqaro tajribani batafsilroq ko'rib chiqamiz.


Xorijiy davlatlarda byudjet tuzilmasi davlatning tuzilishi, hududiy-ma'muriy bo'linishi, iqtisodiyotining rivojlanishi darajasi, uning tarkibiy belgilariga bog'liq holda o'ziga xos xususiyatlarga ega. Davlat boshqaruvining ikkita shakli ma'lum: yagona (unitar) va federativ.

Unitar davlatlarda (Buyuk Britaniya, Frantsiya, Italiya, Yaponiya) boshqarishning ikki bo'g'ini - markaziy va hududiy bo'g'inlar mavjud.

Federativ davlatlarda (AQSh, Kanada, GFR, Shveytsariya) boshqarish uchta bo'g'indan iborat - markaziy, federatsiya a'zolari va hududiy.

Xalqaro tajribalarning ko'rsatishicha, iqtisodiy rivojlangan davlatlarda moliyani boshqarish, odatda, G'aznachilik yoki bir nechta davlat boshqaruv organlari tomonidan amalga oshiriladi. Rossiya Federatsiyasida moliyani boshqarish Moliya vazirligi, Rossiya Federatsiyasi Markaziy banki va Federal G'aznachiligi tomonidan amalga oshiriladi.






**1-rasm. Xorijiy mamlakatlarda g'aznachilik tizimining modellari<sup>21</sup>**

Amerika Qo'shma Shtatlarida Moliya vazirligi G'aznachiligi bevosita Prezidentga bo'ysunadigan bo'linma bo'lib, keng doiradagi iqtisodiy va moliyaviy funksiyalarni bajaradi. Jarayonda ishtirok etayotgan boshqa muassasalar: byudjetni tayyorlash uchun mas'ul Ma'muriy - byudjet boshqarmasi (BMB) va qator hisob-kitob va audit funksiyalari uchun mas'ul Byudjet - nazorat bosh boshqarmasi (BNBB)dir. Soliq va bojxona boshqarmalari G'aznachilikning bir qismi hisoblanadi.

<sup>21</sup> Qosimova G. G'aznachilik. O'quv qo'llanma. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”. 2013. - 476 b.

Byudjetning xarajatlar bo'yicha ijrosi Byudjet direktorati tomonidan nazorat qilinadi. Byudjet derektorati o'z tizimiga qarashli moliyaviy nazoratchilar yordamida mablag'larni xarajat qilishni nazorat qiladi. Xarajatlar juda qattiq nazorat qilinadi: Frantsiyadagi G'aznachilik Avstraliyadagi G'aznachilik kabi davlatning ichki va tashqi qarzlarni boshqaradi, muomalaga qimmatli qog'ozlarni chiqarishni nazorat qiladi, ularni hajmiga, to'lov muddatiga va tarkibiga bog'liq masalalarni echadi. Frantsiyada ham davlat moliya axborot tizimi samarali faoliyat ko'rsatadi. Mazkur tizimda byudjetni tayyorlash, byudjet xujjatlarini nashr qilish va byudjet ijrosi amalga oshiriladi. Shuningdek, Byudjet derektorati va tarmoq vazirliklarini bog'laydigan boshqa tizimlar ham mavjud. Buxgalteriya yozuvlari (provodkalar) asosida yagona hisobraqamdagi mablag'lar to'g'risida to'liq axborot olish uchun bir kun ketadi, har hafta to'liq kengaytirilgan ma'lumotlar olish mumkin. Davlat moliyasini boshqarish uni hisob-kitobini yuritish mablag' jalb qilish bilan olib boriladi. U davlat majburiyatlarini boshqaradi, ichki va tashqi mablag'ni jalb qiladi, ularning hisob-kitobini yuritadi va har yilgi davlat qarzlari to'g'risidagi hisobotni tayyorlaydi.



## **2-rasm. Frantsiyaning g'aznachilik tizimida daromadlarni yig'ish**

Frantsiyaning Davlat byudjeti daromadlari yig'ish funksiyalarni bajarish uchun solikli to'lovlar va to'lovlarni yig'ishning avtomatlashtirilgan protseduralari ishlab chiqilgan. Qo'shimcha qiymat solig'ini to'laydigan 2000 ga yaqin soliq

to'lovchilar to'lovlarni to'g'ridan-to'g'ri Markaziy bankning yagona hisobraqamga o'tkazadi, qolgan soliqlarning 50 foizi Tushumlar Direktorati tomonidan, 35 foizi Davlatning hisob-kitob yuritish bosh derektsiyasi tomonidan, 15 foizi Bojxona xizmati tomonidan yig'iladi. Frantsiyadagi g'aznachilik tizimi faoliyatining eng muxim tomonlaridan biri shundaki, kadrlar masalasiga alohida e'tibor beriladi. Frantsiyada o'tgan yillar mobaynida Davlat G'aznasi Bosh Boshqarmasi kadrlarni sifatli tanlash va xodimlarni samarali boshqarishga alohida e'tibor berdi.

2-jadval.

**Frantsiyaning Davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari to'g'risida  
ma'lumot<sup>22</sup> (mlrd. frankda)**

Davlat daromadlari	Miqdori	Davlat xarajatlari	Miqdori
Jami tushumlar	1281	Mahalliy hokimiyat organlari byudjeti-ning taqsimlanishi	1194
Davlat byudjeti	870	Kommunalar	38.4%
Mahalliy hokimiyat organlari byudjeti	366	Davlat tashkilotlari	11.9%
Audio yig'img'lar	13	Departamentlar	19.9%
Ijtimoiy yig'img'lar	31	Mintaqalar	6.6%
		Davlat sog'liqni saqlash muassasalari	23.2%
Davlat xarajatlari	2055	Bosh g'aznachilar	108ta

<sup>22</sup>Praktika gosudarstvennogo upravleniya vo Frantsii: Gosudarstvennoe kaznacheystva. Sbornik dokumentov Franko-Rossiyskogo sotrudnichestva №8. str. 19.

Joriy xarajatlar	1887	G'aznachilar	3800 ta
Kapital xarajatlar	168	mintaqaviy ax-borot markazlarida 58 000dan ortiq xodim	30ta
G'aznachilikning yagona hisobraqami	580	Pensionerlar soni	2227404
Pensiya to'lovlari	198	Harbiy pensionerlar	486362
Boshqa to'lovlar	432	Boshqa pensionerlar	1741078

Frantsiyada g'aznachilik tizimi 1998 yildan talab darajasida kasb xodimlarini tayyorlashga yo'naltirilgan kadrlarni tayyorlashni modernizatsiyalash amalga oshirildi. Xodimlar guruhlarga qarab taqsimlandi:

A guruhi: rahbarlik funktsiyalarini bajarishga tayyorlanayotgan darajali (litsenziyaga ega) davlat xizmatchilari;

B guruhi: o'rta maxsus ma'lumotga ega, o'rta rahbarlik funktsiyalarini bajarishga tayyorlanayotgan davlat xizmatchilari;

S guruhi: maxsus kasb ma'lumoti to'g'risida diplomga ega davlat xizmatchilari.

Frantsiyada g'aznachilik tizimi orqali Markaziy Hukumat va mahalliy hokimiyat organlarining harajatlariga mablag' o'tkazilayapdi. Frantsiya Hukumati qo'yidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha davlat xarajatlarini amalga oshirishning strategik rivojlanish siyosatini o'tkazmoqda:

Hokimiyat boshqaruvidagi nomarkazlashtirish (detsentralizatsiya).

Davlat G'aznasi Bosh Boshqarmasi tomonidan g'aznachilik operatsiyalarni o'tqazish vaqtini qisqartirish.

G'aznachilikda (xavfli bo'lgan) operatsiyalarni, masalan, xarajatlarning ayrim yo'nalishlari davlat xaridlari, dotatsiyalar, subvensiyalar kabi katta

miqdordagi xarajatlarni tanlab nazorat qilinishiga e'tibor qaratiladi. Bugungi kunda davriy va kam miqdorda bo'lgan to'lovlar (~ 100-200 Evro) amalda nazoratga olinmaydi. Lekin barcha to'lovlar faqat mahsulotlar qabul qilingandan keyin amalga oshiriladi. Byudjet ijrosi bo'yicha ish vaqti aniq belgilandi. Mahalliy hokimiyat organlari xarajat operatsiyalarini o'tkazish to'la davri hisob varaqasidagi mablag'larni qabul qilingan paytdan kassali xarajat qilish paytgacha bo'lgan davr – 11ish kuni. Markaziy xukumatning xarajat operatsiyalarini o'tkazishning to'la davri – 8 kun. Muddatlarni jiddiy qisqartirish markaziy hukumat amaldorlariga bog'liq. Davlat xaridlari uchun Yevropa birlashmasi tomonidan direktiv tarzda 45 kun muddat qo'yilgan.

### 3. Byudjet va xisobot ma'lumotlarini tayyorlash.

Markaziy Hukumatining daromadlari va xarajatlarini xisobga olishi Frantsiya Davlat G'aznasining 3500 ta bo'limlari tomonidan amalga oshirilmoqda. Jami Frantsiya markaziy xukumati va maxalliy xokimiyat organlarining byudjet tashkilotlari soni 110 mingga teng. Barcha ma'lumotlar har kuni Markaziy ro'yxatga olish agentligiga (ASST) tushadi.

Quyidagi davriy xisobotlar mavjud:

yillik "ochiq" hisobot;

Frantsiya Iqtisod, moliya va sanoat vaziriga beradigan kundalik operativ hisobot,

Frantsiya Iqtisod, moliya va sanoat vazirlik boshqaruviga hamda parlamentga taqdim qiladigan choraklik hisobot.

### 4.Konsalting

G'aznachilik amaldorlari byudjet tashkilotlari va mahalliy xokimiyat organlarga moliyaviy konsultantlar bo'lib chiqadi. Ular beradigan maslaxatlar byudjet ijrosi protseduralari, soliq maoshlariga tegishli 7000ga yaqin rasmiy maslahatlar berildi. Moliyaviy sohasidagi mutaxassislar bilan ta'minlash jiddiy muammolarga ega bo'lgan Frantsiyada 36 ming kommunalar mavjudligini nazarga olgan holda, shu konsultantlar byudjetning huquqiy munosabatlari sub'ektlari uchun juda ham muhimdir. Buning uchun informatsion texnologiyalardan unumli

ravishda foydalaniladi. Ikkita ixtisoslashtirilgan dastur mahsulotlari hamda Frantsiya Davlat G'aznasining ommabop sayiti mavjud.

Frantsiya Davlat G'aznasi uchun mazkur konsultantlar printsiplial ahamiyatga ega, chunki mahalliy hokimiyat organlari byudjetni bajarish jarayonida xosil bo'ladigan noqonuniy holatlar uchun Frantsiya Davlat G'aznasining amaldorlari ma'muriy va jinoiy javobgarlikka tortiladi.

5. Umumiy mablag'larni va jamg'armalarni boshqarish

Frantsiya Davlat G'aznasida quyidagi moliyaviy resurslar ishlatiladi:

Markaziy Hukumatning moliyaviy resurslari;

mahalliy hokimiyat organlarining moliyaviy resurslari;

notariuslarning moliyaviy resurslari;

vasiylikda bo'lgan jismoniy shaxslarning moliyaviy resurslari.

Frantsiyada g'aznachilik funktsiyalari Frantsiya Davlat G'aznasi va Byudjet vazirligi Davlat hisob-kitobi bosh direktsiyasi (DHKBD) o'rtasida bo'lingan. Ularning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat.

Frantsiya Davlat G'aznasi faoliyatini koordinatsiya qilish.

Davlat ro'yxatga olish amaliyotining qoidalarini modernizatsiya qilish.

Mahalliy hokimiyat organlariga iqtisodiy islohotlarda yordam ko'rsatish.

Frantsiya Davlat G'aznasi kadrlarini boshqarish.

Davlat moliyasini ro'yxatga olish boshqarmasi.

Markaziy apparatning tashkiliy tuzilmasi.

Buyuk Britaniyada davlat moliyasini boshqarish, tashqi qarzni boshqarish G'aznachilik va hisob-kitoblar olib borayotgan va mablag'larni ro'yxatdan o'tkazayotgan Bosh g'aznachi mahkamasi o'rtasida taqsimlangan.

Ispaniyada g'aznachilik funktsiyalari, Moliya vazirligining tarkibidagi Moliya bo'yicha Kotib (MK) o'rinbosari devonxonasi va G'aznachilikning bosh direktorati tomonidan amalga oshiriladi.

Braziliyada g'aznachilik funktsiyalari Moliya vazirligi tarkibidagi Federal daromadlari kotibiyati, G'aznachilik kotibiyati va Federal nazorati kotibiyati bo'linmalari kabi tarkibiy bo'linmalar tomonidan amalga oshiriladi.

Avstraliyada G'aznachilik departamenti vazirlik maqomiga ega bo'lib, hukumatga bo'ysunadi. Uning asosiy funktsiyasi - makroiqtisodiy siyosat va tushumlarni yig'ish. G'aznachilik departamenti tarkibiga Soliq boshqarmasi kiradi, Soliq boshqarmasi orqali G'aznachilik tashqi tushumlardan tashqari, barcha soliq to'lovlarini yig'adi.

Yaponiyada g'aznachilik funktsiyalari Moliya vazirligining Qarzni boshqarish boshqarmasi, G'aznachilik bo'limi va moliya bo'limlari o'rtasida taqsimlangan.

Xalqaro tajribaning ko'rsatishicha, turli iqtisodiy rivojlanish bosqichlarida turgan va turli ijtimoiy-siyosiy tuzilmaga ega bo'lgan aksariyat mamlakatlarda davlat byudjetining ijrosi g'aznachilik organlari orqali amalga oshiriladi. Frantsiyada g'aznachilik funktsiyalari quyidagilardan iborat. Frantsiyaning barcha moliyaviy resurslari yagona g'aznachilik hisob raqamida to'planadi. U Markaziy bankda joylashgan ushbu hisob raqami bo'yicha tushumlarni va to'lovlarni nazorat qiladi. G'aznachilik oylik taqsimot bilan o'zgaruvchan moliyaviy grafikni tayyorlaydi.

Frantsiya Davlat G'aznasi tashqi va ichki qarzlarni boshqaradi. U davlat qimmatli qog'ozlarini chiqarishni nazorat qiladi va ularning hajmi, muddati bilan bog'liq masalalarni hal qiladi. Frantsiyada davlat moliya axborot tizimi samarali qo'llanilmoqda. Ushbu tizimda byudjetni tayyorlash, byudjet hujjatlarini e'lon qilish va uning ijrosi amalga oshiriladi. Frantsiyada Yagonahisob raqami bo'yicha jamlama ma'lumotni olish bir kun vaqt oladi, batafsil ma'lumot har kun kelib turadi.

Buyuk Britaniyada g'aznachilik funktsiyalari aniq belgilangan. Buyuk Britaniyada byudjet g'aznachilik tomonidan tayyorlanadi. G'aznachilikning yagona hisob raqami sifatida ishlatilayotgan jamlama fondga umumiy tushumlarni tushishi ni g'aznachilik nazorat qiladi. Tushumlar va xarajatlar balansini ta'minlash maqsadida G'aznachilik har oyda moliyaviy rejani ishlab chiqadi. U qisqa muddatli moliyalashtirishdagi ehtiyojlarni aniqlashda qo'llaniladi. Jamlama fondan amalga oshirilayotgan to'lovlar g'aznachilikning nazoratida bo'ladi.

Davlat moliyaviy aktivlarini ham g'aznachilik nazorat qiladi. Davlat qarzini boshqarish g'aznachilik funksiyasiga kiradi. G'aznachilik davlat qimmatli qog'ozlarini chiqarish hajmi, muddati va tarkibini belgilaydi.

Buyuk Britaniya G'aznachiligi hisob-kitob uslubiyotini belgilaydi. Hisob-kitob tizimi kassa printsipli asosida olib boriladi, ammo asta-sekin hisoblash printsipligiga o'tilmoqda.

Buyuk Britaniyada davlat moliya axborot tizimi g'aznachilik tasarrufidir, unda byudjetni tayyorlash va xarajatlarni ro'yxatga olish amalga oshiriladi. Davlat boshqarish sektori bo'yicha jamlama ma'lumotni olish uchun 14 kunga yaqin vaqt kerak bo'ladi.

Ispaniyada Markaziy bankda yagona g'aznachilik hisob raqami mavjud. Byudjet xarajatlari qismida G'aznachilik majburiy oylik yoki choraklik to'lovlar grafigini belgilaydi. G'aznachilik davlat qimmatli qog'ozlarning ikkilamchi bozorini tartibga solish bo'yicha keng vakolatlarga ega. Mamlakatda davlat moliya axborot tizimi amalda bo'lib, uning uchun javobgarlik Moliya vazirligiga yuklangan. Istisnosiz barcha byudjet jarayonlari byudjet ijrosining oltita bosqichini qayd etadigan ushbu tizim orqali o'tishi kerak: byudjetdan rejalashtirilgan xarajatlar, olingan majburiyatlar, tekshirish, to'lov talabnomasi, to'lov topshiriqnomasi va mablag'larning haqiqiy ajratilishi.

Avstraliyada mamlakatning davlat mablag'lari G'aznachilikning yagona hisob raqamida o'planadi. Byudjet Moliya departamenti tomonidan tayyorlanadi. G'aznachilik jamlama darajadagi o'zgaruvchan moliyaviy grafikni tayyorlaydi. Moliya departamenti moliya xarajatlari rejasini, xarajatlarning turiga qarab choraklik yoki oylik taqsimotini tayyorlaydi.

Avstraliyada davlat moliya axborot tizimi amal qilmoqda. Unda byudjetni tayyorlash, ijro qilish, yig'ilgan tushumlarning ro'yxatga olish va ularning hisob-kitobi amalga oshiriladi. Integrallangan moliya tizimining mavjudligi davlat resurslar bo'yicha jamlama ma'lumotlarni tezkor olishga imkon beradi.

Yaponiyada davlat moliyasini boshqarish tor ixtisosga ega bo'lgan bo'linmalarga yuklatilgan. G'aznachilik bo'limi kunlik taqsimoti bilan moliyaviy



rejani tuzadi. Byudjet ijrosi bo'limi bilan birgalikda Yaponiya bankidagi davlat hisob raqami bo'yicha tushumlarni nazorat qiladi. Barcha davlat mablag'lari Yaponiya bankidagi jamlama hisob raqamida yig'iladi. Mablag'larning sarflanishi Byudjet ijrosi bo'limi tomonidan tasdiqlangan to'lovlar grafigi asosida amalga oshiriladi. Yaponiyada ikkita asosiy axborot tizimi mavjud. Ular byudjetni tayyorlash, byudjyot hujjatlarini e'lon qilish, byudjetni ijro etish va buxgalteriya hisob-kitobini olib borish uchun ishlatiladi. Jamlama ma'lumotlarni tayyorlash muddatlari hisobotning murakkabligiga bog'liq. Kassa jarayonlari bo'yicha jamlama ma'lumot har kuni tayyorlanadi.

Rivojlangan mamlakatlarning davlat moliyaviy tuzilmasini o'rganish shuni ko'rsatmoqdaki, odatda, milliy g'aznachilik, moliyaviy boshqarishda faol rol uynaydi. Shu bilan birga, G'aznachilik funksiyalari turli mamlakatlarda bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. G'aznachilik organlarning ichki tuzilmasi ham jiddiy farqlarga ega. Bu holat tarixiy sabablar bilan hamda mamlakatlarning ob'ektiv xususiyatlari bilan izohlanadi.

Budjet kodeksini ishlab chiqish va qabul qilishdan asosiy maqsad – Budjet jarayonini tartibga soluvchi hamda amaldagi qarama-qarshi va eskirgan me'yorlarni bartaraf qiluvchi yagona qonun hujjatini ishlab chiqish va budjet jarayoni ishtirokchilarining vakolatlarini tizimlashtirishdan iboratdir.

Respublikamizda budjetlararo munosabatlarni tartibga solish va boshqarishda huquqiy jihatdan budjet jarayonida :

### **3.Xorijiy tajribalar asosida g'aznachilik tizimini takomillashtirish yo'nalishlari**

Milliy g'aznachilik tizimining asosiy vazifalaridan biri davlat moliyaviy resurslaridan foydadanish samaradorligini oshirishdir. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, davlat moliyasi tarkibkta kiruvchi, "g'aznachilik" deb ataluvchi organ o'ziga yuklatilgan funksiyadan kelib chiqib, turli majburiyatlarni bajaradi. G'aznachilikning tuzilishi va vazifalari mamlakatning tarixiy va madaniy urf-odatlaridan, shuningdek, iqtisodiy holatidan kelib chiqib belgilanadi.

G'aznachilik ayrim mamlakatlarda passiv ahamiyatga ega. U faqat tasdiqlangan byudjet mablag'larini ajratish bilan shug'ullansa, majburiyatlar limitini belgilash va xarajatlar to'lovini amalga oshirsa yoki oldindan belgilangan mezonlar asosida alohida xarajatlarni ishlab chiqishga ruxsat bersagina, faol ahamiyatga ega. G'aznachilik davlat qarzlarini boshqarishning turli darajalarida ishtirok etadi va nihoyat, hisob funktsiyasi bajarilishiga ham javob berishi mumkin. Davlat moliyasini boshqarishning va g'aznachilik tashkiliy tuzilishining yagona modeli mavjud emas, g'aznachilikning bo'limlari, boshqarmalari va aniq funktsiyalari turli mamlakatlarda farqlanadi. G'aznachilik funktsiyasi vaqt o'tishi bilan o'zgarishi mumkin. Uning tashkiliy tuzilishi agarda AQShda Moliya vazirligi Departamenti, Frantsiyada Moliya vazirligi Boshqarmasi, Angliyada mustaqil mahkama, Avstraliyada esa vazirlik darajasida ko'rinishiga ega.

Berilgan jadval ma'lumotlardan ko'rishimiz mumkinki, qayd etilgan mamlakatlarning barchasida to'lovlar nazorati g'aznachilikning yagona hisobraqami orqali amalga oshiriladi. Bu hisobraqamning aniq ko'rinishi turli mamlakatlarda turlichadir. Yuqorida qayd etilgan mamlakatlarning qariyb barchasida g'aznachilik amalga oshirilgan xarajatlari nazoratini markaziy bankda ochilgan yagona hisobraqami orqali, ya'ni bosh kitobi tizimi orqali nazorat qiladi. Bu mamlakatlarda davlat to'lovlari -jadvalda aks ettirilgan tartibda amalga oshiriladi.

<b>Rivojlangan mamlakatlarning davlat to'lovlari pi amalga oshirish uslubi yati<sup>23</sup></b>	
Mamlakatlar	Tavsiflar
Avstraliya	Moliya vazirligi to'lovlarni cheklar chiqarish yoki mablag'larni g'aznachilikning yagona hisobraqami (G'YaH) - Avstraliya uyushmasining davlat hisobraqamidan chiqarish orqali amalga oshiradi.
Frantsiya	Moliya vazirligining davlat hisob xizmati hududiy kassa boshqarmalariga to'lovlarni chek chiqarish yoki pul mablag'larini G'YaHdan ko'chirish orqali amalga oshiradi.
Germaniya	Xuddi Frantsiya amaliyotiga o'xshaydi, lekin mablag'larni o'tkazish elektron shaklda amalga oshiriladi.
Yaponiya	Tarmok vazirliklarining nazoratchilari to'lovlarni cheklar yoki Yaponiya bankida ochilgan G'YaHdan ko'chirish orqali amalga oshiradi.
Angliya	Tarmoq vazirliklari to'lovlarni cheklar yoki G'YaHdan ko'chirish orqali (Angliya bankidagi bosh g'azna hisobraqami orqali) amalga oshiradi.
AQSh	AQSh G'aznachiligi to'lovlarni cheklar chiqarish yoki mablag'larni G'YaH - Nyu-York Federal zahira bankining g'azna hisobraqami orqali amalga oshiradi.

Yuqorida keltirilgan mamlakatlar G'aznachilik Yagona Hisobraqami tuzilishi jadvalda keltirilgan.

<sup>23</sup> Eshnazarov T. G'aznachilikning yagona hisobvaragi: nazariya va amaliyot. \ Moliya. 2009 yil. 1-son. 41 bet.

Berilgan jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Frantsiya va Germaniyada G'aznachilik Yagona Hisobraqami hududiy kassa boshqarmalari hisobraqamini o'z ichiga oladi, Yaponiya G'aznachilik Yagona Hisobraqami Yaponiya bankining hisobraqamini qamrab oladi. Angliyada tarmoq vazirliklari G'aznachilik Yagona Hisobraqami mablag'dan to'la hajmda foydalana oladi, ammo jamlanma daromad fondidan bu hisobraqamlarga mablag'larni ko'chirish, jamlanma har kunlik balans va ularning hisobi g'aznachilik nazorati ostida bo'ladi.

Angliyada AQSh kabi soliq-byudjet sohasidagi asosiy javobgarlik to'g'ridan-to'g'ri g'aznachilikka yuklatilgan. Germaniyadan tashqari boshqa barcha mamlakatlarda byudjet muassasalari o'z hisobini yuritadi, ammo ularning tizimi to'lik markaziy hisob tizimiga birlashtirilgan, bu tizim Moliya vazirligi tomonidan boshqariladi. Mamlakatda Moliya vazirligi barcha byudjet muassasalariga hisob yuritish borasida to'liq xizmat ko'rsatadi. Bu xizmat to'lovlarni amalga oshirishning barcha bosqichlarini o'z ichiga oladi. Yaponiya banki hukumat uchun paralel ravishda byudjet-soliq sohasidagi barcha hisob-kitoblarni yuritadi, shuningdek, Moliya vazirligi umumiy buxgalteriya hisobi va hisobotini boshqarish va tartibga solish bo'yicha javobgar. Bu borada Yaponiya dunyoda yagona davlat hisoblanadi.

## 5-jadval.

### Rivojlangan mamlakatlar G'aznachilik yagona hisobraqami tuzilishi<sup>24</sup>

#### Mamlakatlar

	G'aznachilik yagona hisobraqami tuzilishi
Avstraliya	Yagona hisobraqam
Frantsiya	Yagona hisobraqam, hududiy hisobraqam
Germani	Yagona hisobraqam, hududiy xisobraqam
Yaponiya	Yagona hisobraqam. U bir vaqtning o'zida davlat boshqaruvi organlari bilan bog'liq bo'lgan moliya muassasalariga xizmat

---

<sup>24</sup> Eshnazarov T. G'aznachilikning yagona hisobvaragi: nazariya va amaliyot. \ Moliya. 2009 yil. 1-son. 43 bet.

	ko'rsatadi
Angliya	Yagona hisobraqam
AQSh	Yagona hisobraqam, tijorat banklaridagi g'aznachilik, soliq va ssuda hisobraqamlari

Ko'rib chiqilayotgan mamlakatlar g'aznachiligining institutsional asoslarini o'rganishda qanday byudjet masalalariga javob berishini va byudjet ijrosini kim nazorat qilishini aniqlab olishimiz lozim. Bu borada Angliyaning amaldagi modeli e'tiborni tortadi. Mamlakatda g'aznachilik byudjet masalalarining barcha jihatlariga javob beradi, kadrlar masalalari bilan shug'ullanadi, byudjet ijrosi bo'yicha nazoratni tashkil etish, shuningdek, mavjud resurslar boshqaruvi jarayonini ham o'z ichiga oladi.

Tadqiqot jarayonida o'rganilgan davlatlarning barchasida moliyaviy aktivlarni boshqarish siyosati tarmoq departamentlari, boshqarmalari va vazirliklari tomonidan amalga oshiriladi. Mazkur davlatlarda byudjet ijrosi quyidagilarni nazarda tutadi:

solliqlar va boshqa tushumlarni yig'ishni;

bank bilan o'zaro aloqani (tushumlarni bank orqali yig'ishda);

daromad tushumlari nazoratini;

turli darajadagi davlat boshkaruv organlari o'rtasida tushumlarni taqsimlashini.

AQSh va Avstraliyada davlat byudjeti daromadi ijrosida g'aznachilik faol rol o'ynaydi. U o'zining soliq va bojxona boshqarmalari orqali bank tizimi bilan o'zaro aloqada bo'lib, barcha soliq va bojxona bojlarni yig'ishga javob beradi.

G'aznachilik Avstraliyada soliq boshqarmasi solliqlar to'lovlari bo'yicha tushumlarni ta'minlaydi. Angliya va Frantsiyada g'aznachilik solliqlar va bojxona to'lovlarni yig'ishda ishtirok etmaydi. U faqatgina jamlanma fondga va g'aznachilikning yagona hisobraqamiga kelib tushgan jami tushumlarni kuzatadi.

Byudjetning xarajat bo'yicha ijrosida AQSh, Avstraliya va Angliya g'aznachiligi passiv rol o'ynaydi. Bunda byudjet assignovaniyalari doirasida to'lovlarni va nazoratni tarmoq departamentlari amalga oshiradi. Frantsiyada

byudjetning xarajat qismi bo'yicha nazoratni Byudjet direktorati olib boradi. Fikrimizcha, byudjetning joriy holatida, agar xarajatlar xuddi majburiyatlar va to'lov topshiriqnomalarini kabul qilish, to'lovlarni amalga oshirish bosqichlaridagidek qattiq nazorat qilinsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

G'aznachilikni struktura sifatida byudjet ijrosi bilan bog'liq holda ko'rib chiqishda quyidagilarni ta'kidlash kerak: g'aznachilik byudjet ijrosi bilan bog'liq masalalarga to'g'ridan-to'g'ri aralashmaydi, u faqatgina byudjet muassasalariga dasturlarni amalga oshirish uchun mablag' ajratadi yoki byudjet ijrosi jarayonida ancha faol ishtirok etishi mumkin. Masalan, u majburiyatlar chegaralarini o'rnatishga va xarajatlar to'lovini yoki oldindan belgilangan mezon asosida aniq xarajatlarni ishlab chiqishga ruxsat berish hukuqiga ega.

G'aznachilikka moliyaviy boshqaruv bo'yicha asosiy majburiyatlar yuklatilgan. Mablag'larni boshqarish uning muhim va asosiy faoliyati hisoblanadi. U hukumatning hisobraqamiga barcha tushumlar va to'lovlarni shuningdek, tushumlarni yig'ish jarayonidagi operatsion faoliyatni va to'lovlarni amalga oshirish jarayoni nazoratini ta'minlaydi. AQSh va Angliyada g'aznachilik buxgalteriya hisobi metodikasini o'rnatadi, umumiy hisob, muassasalarga yo'riqnoma, oylik va yillik moliyaviy hisobotlarni tayyorlash uchun javob beradi. Ko'rib chiqilgan davlatlarning barchasida g'aznachilik ichki nazorat va audit bilan shug'ullanadi.

Sanoati rivojlangan mamlakatlar (AQSh, Angliya, Frantsiya, Germaniya va boshkalar) g'aznachilik tizimi tahlili shuni ko'rsatadiki, G'YaHni Markaziy bankda ochish g'aznachilikni tashkil etishning asosiy talablaridan biridir. Milliy bankda G'YaHidan foydalanish davlatning bo'sh turgan mablag'larini bir joyga yig'ish, ulardan samarali foydalanish, nakd pul oqimlarini boshqarish va kassa to'lovlarini vaqtida hech qanday majburiyatlar jalb qilmasdan amalga oshirish imkonini beradi.

Rossiyada Rossiya Federatsiyasi Prezidenti tomonidan 2008 yildan boshlab "Axborotlashgan Jamiyatni rivojlantirishi Strategiyasi" joriy etilmoqda. Mazkur strategiyani maqsadi Rossiya Federatsiyasining iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy madaniy

va diniy jihatdan jamiyatini rivojlantirish, aholining turmush darajasini oshirish, davlat boshqaruv tizimi zamonaviy axborot va telkommunikatsiya texnologiyalarini ko'llash orqali takomillashtirishdir.

Kanadada «Elektron xukumat» asosiy vazifasi xarajatlarni o'z vaqtida moliyalashtirish va byudjet mablag'laridan foydalanishda samaradorlikka erishishdan iborat. Shuning uchun bu borada taraqqiy etgan mamlakatlar, jumladan, Kanadada joriy etilgan «Elektron xukumat» axborot tizimini o'rganish muhimdir. O'zbekiston uchun Kanadaning «Elektron hukumat» tajribasini o'rganishning ahamiyati katta. «Elektron hukumat»ni tuzish uchun Kanada hukumati tomonidan 2000 -2006 yillarda 34ta vazirlik va idoralar qamrab olingan. Dasturining asosiy yo'nalishlari quyidagilar:

fuqarolarga 130 dan ortiq hukumat xizmatlarini elektron ko'rinishda takdim etishi;

foydalanuvchilarga elektron xizmatlarga cheksiz foydalanish imkoni berish; xizmatchilarni tezkor etkazish va o'tkazuvchi loyihalarni ishlab chikish;

shaxsiy ma'lumotlarni va axborotlarni himoyalash infrastrukturasini yaratish;

«Elektron hukumat» faoliyati uchun standart va me'yoriy cheklovlar ishlab chiqish.

Kanadada 2003 yil sentyabrdan mazkur dasturni boshqarish ishlarini G'aznachilik Soveti va Hukumat xizmatlari va jamoatchilik ishlari vazirligi bajardi. 2001 yil sentyabrdan dasturni boshqarish uchun G'aznachilik Soveti boshchiligida maslahatlar guruhi jalb etildi, uning tarkibiga Kanada iqtisodiyotining turli sohalaridan vakillar kiritildi.

Dasturni boshqarishining asosiy e'tibori, uni amalga oshirish rejasi va amalga oshirish jarayonini monitoring qilishdir. 2003 yilga qadar bu va axborot texnologiyalari boshqarmasi amalga oshirgan bo'lsa, keyinchalik hukumat xizmatlari vazirligiga o'tdi. Ular «Elektron xukumat»ning aniq bir tashkilotda amalga oshirilishiga javobgardirlar.

Hozirgi paytda devonxona asosiy e'tiborni olti yil davomida to'plangan tajribalarni targ'ib etish yakuniy natijaga yo'naltirilgan tadbiq etish vositalarini topishga qaratmoqda, davlat sektorida axborot va axborot texnologiyalarini boshqarish masalalari bo'yicha vakolatni kengash va davlat sektori xizmatlarini tashkil etish masalalari bo'yicha kengashdan iborat. Dasturning samaradorligini baholash uchun 11 turdagi ko'rsatgichlar ishlab chiqildi, bu ko'rsatkichlar uch asosiy yo'nalishga bo'lingan: axborot sifati; elektron xizmat sifati; elektron aloqa sifati. Rossiya Federatsiyasida 2007 yil 6 martda "Federal g'aznachilik va uning hududiy organlari axborotlariga ruxsat berilishini ta'minlash xaqida" gi Federal g'aznachilik buyrug'i bilan federal g'aznachilik faoliyatiga doir axborotlarga fuqarolar va tashkilotlarning kirishi umumiy talablar asosida o'rnatilgan.

**6-jadval.**

**“Elektron hukumat” dasturini baholash ko'rsatkichlari<sup>25</sup>**

Axborot

Xizmat Etkazib berish

Qulaylik Zaruriy xizmatning Himoyalanganlik mavjudligi

Ochiqlilik Samaradorlilik

Ishonchlilik Foydalilik va qulaylilik Innovatsiyaviyligi

Kanada tajribasi asosida Federal G'aznachilik fuqarolarga hujjatlarning skaner tasvir texnologiyasi asosida xizmat qiladi. Bu texnologiyaning qulayligi shundan iboratki, fuqarolar hujjatining aynan haqiqiy nusxasini olishadi. Barcha xujjatlar Rossiya Federatsiyasi Moliya vazirligi, Federal G'aznachilikdan hujjatlarni skaner qilish orqali olinadi va ularning 100 % “tiniq”ligiga erishiladi. Kanadaning “Elektron hukumat” tajribasi shuni ko'rsatadiki global elektron axborot tizimini yaratish uzoq mudatga mo'ljallangan strategik rejalarni ishlab

<sup>25</sup> Qo'chqorov T., Xaydarov M. “Davlat byudjeti g'azna ijrosining axborot tizimi”. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”. 2010. -82 b.



chiqishni talab etadi. Moliya vazirligi G'aznachiligida asosiy e'tibor g'aznachilikda axborot ochiqligini ta'minlovchi turli uslub va texnologiyalarni yaratilishiga qaratiladi.

Kanada internet saytlarini monitoring qilish uslubini respublikamizda keng qo'llanishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu texnologiya Moliya vazirligi G'aznachiligining hududiy organlarida internet saytida axborotlar ochiqligini yagona yondoshuv asosida monitoring qilish imkoniyatini beradi.

G'aznachilik organlari tomonidan bajariladigan vazifalarning murakkabligi va ko'p qirraligi shundaki, g'aznachilik faoliyatini joriy qilish bilan g'aznachilik organlari o'z ishlarida zamonaviy avtomatlashtirilgan axborot texnologiyalaridan foydalanadi. Bu esa byudjet ijrosi jarayonida nafaqat bank tizimini bog'laydi, balki, bu jarayonlarda turli darajadagi moliya organlari, byudjet tashkilotlari, tarmoq idoralari, davlat maqsadli jamg'armalari va byudjetdan tashqari fondlar, bank, bojxona, soliq organlarining o'zaro aloqasi o'rnatiladi. G'aznachilik O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga har kunlik asosida yagona g'aznachilik hisob raqamida va hududiy g'aznachilik hisobraqamlarida mablag'larning harakati to'g'risidagi axborotni elektron shaklda taqdim etadi. Byudjetdan mablag' oluvchilarga ular uchun G'aznachilikda yoki uning hududiy bo'linmalarida ochilgan shaxsiy hisob raqamlaridan ko'chirmalar, ularning xarajatlarini qoplashga byudjet mablag'lari o'tkazilganligini tasdiqlaydigan to'lov hujjatlari va boshqa hujjatlarni taqdim etadi va manbalar bo'yicha tegishli byudjetlar daromadlari tushumi hisobini yuritiladi. Moliya organlarining topshirig'i bo'yicha yuqori byudjetlarda nazarda tutilgan rejali dotatsiyalar, subventsiyalar, byudjet ssudalari summasini va boshqa to'lovlarni quyi byudjetlarning g'aznachilik hisob raqamlariga o'tkazadi.

Rivojlanish strategiyasini amalga oshirish hujjatining loyihasiga binoan G'aznachilik Davlat byudjeti ijrosi tizimiga asta-sekin o'tish, G'aznachilik va uning joylardagi bo'linmalari tizimini rivojlantirishga oid tadbirlarni rejalashtirildi. Bu tadbirlar byudjetning daromad va xarajat qismlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan

holda aniq bosqichlarga bo'linishi mumkin. Mazkur strategiyani amalga oshirish quyidagilarni nazarda tutadi:

a) byudjet daromadlari ijrosi sohasida:

bajarilayotgan ish hajmidan va bu bo'linmalarining qo'shimcha xodimlarga bo'lgan ehtiyojidan kelib chiqqan holda G'aznachilikning hududiy bo'linmalari tashkiliy tuzilmasini yanada takomillashtirish; davlat byudjeti g'azna ijrosi elementlari sonini ko'paytirish maqsadida respublika mintaqalarida bu elementlarni joriy qilish natijalarini tahlil qilish va o'rganish, xususan, byudjet daromadlarini ijrosi g'aznachilik tizimining funktsional tartibini yanada takomillashtirish. Buning uchun dasturiy ta'minotni va normativ-huquqiy hujjatlarning hamda boshqa uslubiy hujjatlarni mukammallashtirish; g'aznachilik bo'linmalarini kerakli kompyuter va boshqa texnik vositalar, aloqa vositalari hamda dasturiy mahsulotlar bilan ta'minlashini kuchaytirish; daromadlarni byudjetning turli darajalari o'rtasida taqsimot qilish funktsiyalarini bank muassasalaridan bosqichma-bosqich G'aznachilik bo'linmalariga o'tkazish; Davlat byudjetiga tushadigan soliq va bojxona tushumlarini Davlat byudjeti g'azna ijrosiga o'tkazish; G'aznachilik bilan soliq organlari va banklarning o'zaro harakatini aniq tartibini ishlab chiqish; Davlat maqsadli fondlariga daromadlarni tushish ustidan nazoratni olib boruvchi tashkilotlarni G'aznachilik bilan o'zaro harakat tartibini ishlab chiqish hamda ular o'rtasida axborot almashuvi dasturiy ta'minotini yanada takomillashtirish; amalda faoliyat ko'rsatayotgan byudjetdan tashqari fondlar va davlat maqsadli jamg'armalari nazoratni tashkil etish;

b) byudjet xarajatlari ijrosi sohasida:

byudjetdan mablag' oluvchilarning banklardagi hisobvaraqlarini yopish va ularning shaxsiy hisobvaraqlarini Davlat byudjeti g'azna ijrosining axborot tizimida ochish; G'aznachilik bo'linmalarining byudjetdan mablag' oluvchilarga naqd pul berish bo'yicha maxsus hisobvaraqlar bilan ishlaydigan banklar bilan o'zaro munosabatlar tartibini yanada takomillashtirish; g'aznachilikda tarmoqli va hududiy boshqarish organlariga Davlat maqsadli fondlar mablag'larini sarf qilish bo'yicha shaxsiy hisobvaraqlarni ochish; Davlat byudjeti g'azna ijrosi

elementlarini joriy qilish natijalarini umumlashtirish va Davlat byudjeti g'azna ijrosi tartibini va dasturiy komplekslarni ko'paytirish; byudjet majburiyatlari (shartnomalar va byudjetdan mablag' oluvchilarning hamkorlari oldida paydo bo'ladigan yuridik majburiyatlarini asoslovchi hujjatlar) hisobini olib borish tizimini yanada takomillashtirish hamda byudjetdan mablag' oluvchilarning moliyaviy majburiyatlari hisobini olib borishni mukammallashtirish; O'zbekiston Respublikasi byudjeti hisobvaraqlardagi pul mablag'larini kundalik jamlama balansini tuzish bilan markazlashtirilgan holda boshqarish tizimini yaxshilash.

Xorijiy mamlakatlar tajribalaridan shuni xulosa qilish mumkinik, g'aznachilikning «amerika modeli» davlat pul mablag'larini, davlat qarzlarini, moliyaviy aktivlarini boshqarishda, byudjetni ijro etishda, nazorat funksiyasini amalga oshirishda ancha keng vakolatga ega. AQShdagi g'aznachilik modelini o'rganib, g'aznachilikning «o'zbek modeli»ni yaratish va buni uzoq muddatli dastur sifatida qabul qilish lozim.

### **3-mavzu. AQSH G'AZNACHILIGI FAOLIYATI**

#### **Reja:**

- 1. AQSh G'aznachiligi faoliyatining tashkil etilishi**
- 2. AQSh G'aznachiligi organi faoliyati**
- 3. AQSh G'aznachiligi faoliyatining xususiyatlari**

#### **1. AQSh G'aznachiligi faoliyatining tashkil etilishi**

AQSh Senat Kongressining qaroriga muvofiq, g'aznachilik moliyani boshqaruvchi doimiy organ hisoblanadi. Uning barcha vazifalarini quyidagi organlar bajaradi. G'aznachilik sekretarlari - bosh idora, kontroler, auditor, g'aznachilik inspektori va g'aznachilik sekretariat yordamchisi. G'aznachilik sekretari lavozimiga birinchi bo'lib A.Gaminton tayinlangan bo'lib, u 1789 yil 11 sentyabrdan 1795 yilgacha ushbu vazifani bajardi. O'n yillar mobaynida g'aznachilik funksiyasi kengaytib va murakkablashib bordi. Bugungi kunda G'aznachilik AQShda hisob siyosati, pul belgilarini yaratish, iqtisodiy siyosat loyihalarini ishlab chiquvchi yagona muassasasidir. AQShda g'aznachilik uchta asosiy funksiyani bajaradi:

1. Mamlakat Prezidentining ichki va tashqi moliya siyosatini ishlab chiqish, soliq siyosatini yuritish va davlat qarzlarini boshqarish bo'yicha asosiy iqtisodiy maslaxatchisidir.

2. G'aznachilik davlatga moliya xizmati ko'rsatish bo'yicha funksiyalarni bajaradi:

- davlat pul mablag'larini hisobga olish;
- omonat obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarni chiqarish;
- soliq to'lovlari va bojxona bojlarini yig'ish;
- milliy banklar faoliyatini nazorat qilish;
- tangalar zarb qilish, qog'oz pullar va pochta markalari chiqarish.

3. Qonunni ijro etuvchi tashkilotchisi sifatida g'aznachilik Prezident, Vitse prezident ularning oilasi, ushbu lavozimga nomzodlar xavfsizligini ta'minlaydi. U firibgarlar, kontrabandist, butlegerlar, davlat chek va qimmatbaxo qog'ozlarini

qalbakilashtirgan shaxslarni qidirish, jazolash, o'q otar qurollar savdosini nazorat qilish va qonun nazorati bo'yicha kadrlar tayyorlovchi 60 dan ortiq federal tashkilotlarni nazorat qiladi. Yuqoridagilarga qo'shimcha ravishda g'aznachilik AQSh hukumatining tashqi aloqalar bo'yicha vakilidir. AQSh tomonidan XVF, XTTB, Amerika tarakiyot bankining boshqaruvchisidir. Shuningdek AQSh G'aznachiligi ko'p sonli qo'mita va uyushma, sug'urta fondining a'zosidir.

G'aznachilik milliy omonat muassasalari faoliyatini nazorat qiladi, ularga litsenziyalar beradi va omonat xolding kompaniyalarini faoliyatini nazorat qiladi. Xolding – aktsiyadorlik kompaniyasi hisoblanadi, o'z mablag'ini boshqa kompaniyalar nazorat paketini sotib olishga sarflaydi va ularni nazorat qiladi.

G'aznachilik Kongressga mamlakatning moliyaviy xolati bo'yicha yillik hisobot tayyorlaydi va taqdim etadi. G'aznachilik tomonidan doimiy nashr etiladigan hisobotlar g'aznachilikning kunlik hisoboti, AQShning ichki qarzi bo'yicha oylik hisobot, AQShning daromad va xarajatlari bo'yicha oylik hisobot va muomaladagi pul mablag'lari bo'yicha oylik hisobotni o'z ichiga oladi. Shuningdek g'aznachilik oylik byudjetni ham chop etadi. Oylik byudjetda quyidagi ma'lumotlar beriladi:

- ✓ Federal hukumatning moliyaviy operatsiyalari;
- ✓ Federal hukumatning pul majburiyatlari;
- ✓ G'aznachilik hisobvarag'idagi fereral va qarz mablag'lari statistikasi;
- ✓ davlat qarzlarini moliyalashtirish;
- ✓ davlat omonat obligatsiyalari;
- ✓ davlat qimmatli qog'ozlaring bozor kotirovkasi;
- ✓ davlat qimmatli qog'ozlarning egalik tarkibi;
- ✓ tijorat banklardagi g'aznachilik mulki tarkibi;
- ✓ uzoq muddatli obligatsiyalarining daromadlilik darajasi;
- ✓ xalqaro moliyaviy statistika;
- ✓ kapital harakatlar statistikasi.
- ✓ valyuta rezervlari;
- ✓ davlat agentliklari va fondlarining moliyaviy operatsiyalari.

## 2. AQSH G'aznachiligi organi faoliyati

AQSh G'aznachiligi Nyu-Yorkdagi Federal jamg'arma bankidagi o'zining yagona hisob raqami bo'yicha barcha tushumlarni va to'lovlarni nazorat qiladi hamda hukumatning bankdagi hisob raqamlarini nazorat qiladi. G'aznachilik tushumlarini yig'ish uchun bank tizimidan foydalanadi. G'aznachilik 4-6 oyga kunlik taqsimoti bilan, o'zgaruvchan moliyaviy grafikni tayyorlaydi va uni har oyda yangilaydi.

AQSh G'aznachiligi o'z vakolatlari doirasida :

- davlat qimmatli qog'ozlarini chiqarishni nazorat qiladi va hajmi, muddatlari va auktsionlarda joylashtirish bilan bog'liq masalalarni hal qiladi.
- kimmatli qog'ozlarining ikkilamchi bozori uchun tartib- qoidalarni belgilaydi;
- barcha soliq va bojxona bojlarini yig'adi va ayrim muassasalar uchun foydalanganlik va xizmatlar uchun to'lovlarni markazlashgan tarzda yig'ishni ta'minlaydi.
- xarajatlarga byudjet birligi talabnomasi bo'yicha byudjet ajratmalari doirasida amalga oshiriladi. Ajratmalar tuzilmasi G'aznachilik va Ma'muriy - byudjet boshqarmasi tomonidan nazorat qilinadi;
- buxgalteriya hisob-kitobida tashkilotlarga yo'riqnomalarni tayyorlash, ularning talabnomalarini olish, har oylik hisobotlarni va yillik moliyaviy qaydnomalarni tayyorlash uchun javob beradi.

Dunyoning rivojlangan kapitalistik davlati - AQShda davlat byudjetini tayyorlash va ijrosini tashkil etilishiga mamlakat prezidentining Ma'muriyatiga kiruvchi Byudjet Boshqaruvi Idorasi (**Office of Management and Budget**) (**BB**) javob beradi. AQSh Kongresi tomonidan ajratmalar xarajatlari haqidagi qarorlar Prezident ma'muriyatidagi tarmoqlar departamentlari orqali nazorat qilinadi.

Nodavlat moliyaviy nazorati ichki (byudjet tashkiloti, g'aznachilik, firma, korporativ) va tashqi (auditorlik) nazoratlariga bo'linadi. Nazoratning davlat va nodavlat turlari o'tkazish usullariga ko'ra o'xshash bo'lishi bilan birgalikda oxirgi

maqsadlari bo'yicha bir biridan keskin farq qiladi. Nodavlat moliyaviy nazoratining asosiy maqsadi esa- xo'jalik sub'ektlari tomonidan davlat hisobiga soliqlar va boshqa iqtisodiy agentlarga qilinadigan xarajatlarni minimallashtirish hisobiga quyilgan kapitallar hisobiga foyda normasini oshirish hisoblanadi.

AQSh g'aznachiligi (Treasure Department) hamma davlat tushumlari va to'lovlar tizimi ustidan nazoratni amalga oshiradi. G'aznachilik tarkibiga Soliq boshqaruvi va Bojxona boshqaruvi kiradi. Shu bo'linmalar orqali G'aznachilik, hamma soliq va bojxona yig'implari va davlat bojlari hamda ayrim muassasalar xizmatlari evaziga tushumlarni yig'ib oladi. G'aznachilikning bosh hisobraqami Federal rezerv tizimida (AQSh Markaziy bankida) yuritiladi. Shu bilan birga g'aznachilik hukumat hisob raqamini nazorat qiladi. Daromadlar va tushumlar yig'imi bank tizimi orqali amalga oshiriladi.

Davlat mablag'lari xarajatini hisobi va auditini Bosh Nazoratchi boshchiligidagi Bosh Hisob Boshqarmasi (BHB) (**General Accounting Office**) ta'minlaydi. Byudjet ijrosi to'g'risidagi hisobot ma'lumotlari va prognozi Internet tizimida AQSh G'aznachiligining saytida chop etiladi. Chop etilgan ma'lumotlarning maxsus bo'limi kassa operatsiyalari va majburiyatlarni bajarish operatsiyalariga bag'ishlangan. Kongresning taqdimotiga va Prezident tasdiqlagan ajratmalarga asoslangan ravishda byudjet mablag'larini oluvchilar G'aznachilikka rasmiy talabnoma taqdim qilishadi. G'aznachilik departamentlarga ajratilgan ulushni Byudjet Boshqaruvi Idorasi bilan birgalikda nazorat qiladi. Shu bilan birga, BBI departamentlar xarajatlari tarkibiga umumiy holda javob beradi.

### 3-jadval

#### AQSh davlat moliyasi boshqarmasining qatnashchilari <sup>26</sup>

	Byudjet ijrosi va hisoboti	Auditor bahosi	Moliya boshqaruvi tizimi
Kongress	Qo'shimcha, muddati uzaytirilgan, bekor qilingan xarajatlar va qayta dasturlangan xarajatlar to'g'risidagi qonun. Dasturlar	Moliyaviy hisobotlarga so'ralganlarni aniqlash. Nazorat o'tqazilishi.	Ajratilgan vositalarga hisobot tarkibini tuzish. Moliya va boshqaruv vositalari to'g'risidagi qonunni

<sup>26</sup>Allen Schick, Robert Keith, Edward Davis. Manual on the Federal Budget Process. CRS Report for the Congress. 1991. P 172.

	monitoringi.	GUBU(rus) va bashqalarda audit va ko'rib chiqishlar talabnomasi.	qabul qilish.
Byudjet Boshqarmasi Idorasi (BBI)	Byudjet vakolatini taqsimlash. Muddati uzaytirilgan va bekor qilinganlar bo'yicha takliflar tayyorlash. Taklif qilingan qo'shimcha xarajatlarni qayta ishlash. Agentlik faoliyati natijalarini kuzatish.	Byudjet inspektorlari tomonidan nazorat. Agentlikning baholanishi.	Agentlikning ma'muriy vositalar nazorati nizomining tasdiqlanishi. Moliyaviy menejmentning xarid bo'yicha joriy muammolari aylanishini ishlab chiqish.
Departamentlar Agentliklar	Byudjet ijrosi. Ijro monitoringi. Markaziy agentlikning hisoboti. Markaziy agentliklarga hisobotlar. Kundalik operatsiyalar boshqaruvi.	Ichki audit va baholashni o'tqazilishi. Ijro organlari va Kongress talabnomalariga javoblar tayyorlash.	Moliyaviy bshqaruv tizimni ishlab chiqish va joriy qilish. Ichki va tashqi maqsadlar uchun moliyaviy hisobotlarni tayyorlash.
G'aznachilik	Hukumat bankiri. Kassa ijrosi va majburiyatlarini boshqarish. Mablag'lar boshqaruvini amalga oshirish. Agentlikning xarajatlarini ularning xarajat xaquqlari bilan taqqoslash.	O'tqazmaslik.	Umumdavlat hisob tizimini qo'llab quvatlash. Umumdavlat moliyaviy hisobotini tayyorlash.
BHB	Hisobot Mablag'lar xarajatlarini ushlab qolinishi va bu xaqqida hisobot berish. Davolar o'tqazilishini muvofiqlashtirish.	Federal programmalarni va operatsiyalarni ko'rinishi. Davlat korporatsiyalarining moliyaviy hisoboti auditi va Kongressning ishga doir faolligi auditi.	Hisob tamoyillari va standartlari farmoyishi. Agentlikning uchyot sistemasini tasdiqlanishi. Federal fiskal, byudjet programmalariga tegishli bo'lgan standartlar ishlovining sharoiti.

Rasmiy to'lov talabnomalari va to'lov hujjatlariga asosan g'azna taqdim qilingan talabnomalarni to'lab beradi. Odatda to'lov vositalari sifatida cheklar ishlatiladi. Lekin oxirgi yillarda ularning o'rnini elektron to'lovlar egallamoqda. Quyidagi jadvalda AQSh davlat moliya boshqarmasi tizimi byudjet jarayoni qatnashchilari javobgarligi va majburiyatlari ko'rsatilgan. AQShda davlat byudjeti ijrosi G'aznachilik va Byudjet Boshqaruvi Idorasi bilan izchil hamkorlikga



asoslangan holda amalga oshiriladi. Byudjet Boshqarmasi Idorasi hisobot yilidagi Byudjet ijrosi qonuniga asosan Prezident ma'muriyatining turli departamentlararo xarajatlar smetasi, shuningdek xarajatlar hisobi taqsimlanishini amalga oshiradi. G'aznachilik makroiqtisodiy holat istiqbollarning belgilanganligiga asosan, davlat g'aznachiligiga daromadlar tushumining hisobini taminlaydi. G'aznachilik xarajatlar oqimini hamda daromad tushumlari oqimini ta'minlaydi. Shu maqsadda G'aznachilik Departamenti va tarmoklar departamentlari orasida doimiy maslahatlar olib boriladi. Tushumlar bilan belgilangan xarajatlar qoplanmagan taqdirda AQSh G'aznachiligi, unga berilgan vakolatdan foydalanib, yangi qarz majburiyatlarini chiqarishni va hisobini tashkil etadi.

1) Kongress, BBI, G'aznachilik Departamenti, va BHB xarajatlar siyosati uchun umumdavlat oldida javobgardir. Shuningdek agentlik o'zining moliyaviy resurslarini boshqaruvida ham javobgar hisoblanadi.

2) Kongress Federal dasturlari nazoratini olib boradiva tez-tez BHBB va boshqalardan baholashni talab qiladi.

3) BBI agentliklararo mablag'larni taqsimlaydi, xarajatlar va faoliyat natijalarini kuzatadi. Moliyaviy menejment bo'yicha turli xil yo'riqnomalarni chiqaradi. Agentliklar xarajatlar rejalarini ishlab chiqadi va o'zlarining resurslarini boshqaradi. Ular o'zlarining moliyaviy operatsiyalari bo'yicha hisobotlar tayyorlashadi va ichki nazorat tizimini me'yorda saqlaydilar.

4) Agentliklar o'zlarining xarajatlari yuzasidan amalga oshirilgan operatsiyalar bo'yicha hisobot tayyorlab, ichki nazorat tizimini me'yorida saqlaydilar.

5) G'aznachilik Departamenti markaziy ajratmalar va schyot fondlari bilan shug'ullanib, majburiyatlari va mavjudligi boshqaruviga javob beradi.

6) BHB federal dasturlarga baho beradi va davlat korporatsiyalari moliyaviy hisoboti auditi o'tkazilib, standart va buxgalteriya hisobi tamoyillari va standartlarini o'rnatilib, agentlikning buxgalteriya hisobi sistemasini tasdiqlab beradi. Davlat xarajatlari mablag'larini hisobi va auditi Bosh Nazoratchi boshchiligida ta'minlash Bosh Hisob Boshqarmasi ta'minlaydi.

G'aznachilik qimmatli qog'ozlarning (**T-Bills**-g'aznachilik majburiyatlari). chiqarilishi va aylanishini to'liq nazoratini ta'minlaydi Bu erda davlat majburiyatlari qaysi muddatda chiqarilish hajmi kabi savollar ko'rib chiqiladi. Davlatning uzoq muddatli majburiyatlarini samarali tashkillashtirish, g'aznachilik qimmatli qog'ozlarini ikkilamchi bozorida o'rnatishga yordam beradi.

### **3.AQSh G'aznachiligi faoliyatining xususiyatlari**

AQSh Federal hukumati pul mablag'larining barcha kassa oqimlarini G'aznachilikning AQSh Federal Rezerv tizimida ochilgan hisobidan o'tadi. Uning vazifasiga G'aznachilikning hisobini olib borish va elektron to'lov tizimi orqali to'lovlarni o'tkazishni ta'minlash kiradi. Dunyodagi boshqa mamlakatlarning Markaziy banklaridek, Federal rezerv tizimi monetar siyosatni va bank faoliyatini boshqarishni amalga oshiradi hamda iqtisodiy statistikasi olib boradi.

AQSh G'aznachiligi:

- federal byudjetning yagona hisob raqamidagi jarayonlarni boshqaradi;
- Federal byudjet mablag'larini prognozlashtiradi va kassa rejalarini tuzadi;
- Federal byudjet mablag'lari bosh boshqaruvchilari, boshqaruvchilari va federal byudjetdan mablag' oluvchilarning jamlama reestrlarini olib boradi;
- Rossiya Federatsiyasi qonunchiligiga asosan, byudjet tizimidagi byudjetlar o'rtasida federal soliqlar va yig'imlar to'langanidan tushgan mablag'lar taqsimotini amalga oshiradi;
- AQSh Federal byudjetining ijrosi to'g'risida dastlabki ma'lumotlarni va hisobotlarni tuzadi va Rossiya Federatsiyasi Moliya vazirligiga taqdim etadi.

AQSh G'aznachiligi funksiyalari:

- Federal byudjeti ijrosini ta'minlash;
- byudjet tizimidagi byudjetlar ijrosiga kassa xizmatini ko'rsatish;
- Federal byudjet mablag'lari bilan bosh boshqaruvchilari, taqsimotchilari va federal byudjetdan mablag' oluvchilar tomonidan turli operatsiyalar ustidan dastlabki va joriy nazoratni o'rnatish.

Byudjet xarajatlari sohasida barcha byudjet bo'g'inlari mablag'larini moliya organlari hisob raqamlariga taqsim qilishdagi tezkor ma'lumotga ega edilar, lekin

mablag' oluvchilar va ularni kassa xarajatlari to'g'risida tezkor ma'lumot olish imkoni mavjud emasdi. Shu tarzda ushbu operatsiyalarni samarali nazorat qilinmadi. Byudjet mablag'lari tushumi va sarflanishi ustidan nazoratning susayishi, ularning aniq hisob tizimining mavjud emasligi byudjet intizomining susayishiga olib keldi. Byudjet intizomi – tashkilot, korxonalar va muassasalar, shuningdek, rahbar va jismoniy shaxslar tomonidan byudjetga to'lanadigan to'lovlarni o'z vaqtida to'lash hamda byudjet mablag'larini belgilangan yo'nalishlarga muvofiq maqsadli sarflashdir. Bundan tashkari byudjet mablag'larining taqchilligi ushbu mablag'larni eng muhim maqsadlar uchun ratsional sarflashga yo'naltirishni talab etadi, lekin mavjud tizim buning ilojini topa olmadi.

Rossiya Federatsiyasi Byudjet Kodeksi byudjetning g'azna ijrosi tizimida moliviy nazoratning asosiy shakllari ko'rsatildi.

1. Nazorat – taftish boshqarmalari amalga oshiradigan nazorat. U byudjet mablag'lari oluvchilari, taqsimlovchilari o'rtasida amalga oshiriladi.

2. G'aznachilik amalga oshiriladigan moliviy nazorat – joriy dastlabki va yakuniy nazorat bo'lishi mumkin. Bu nazorat byudjet mablag'lari bosh taqsimlovchilari va mablag' oluvchilar, kredit tashkilotlari va byudjet jarayonining boshqa ishtirokchilari o'rtasida amalga oshiriladi.

3. Byudjet mablag'lari bosh taqsimlovchilari tomonidan amalga oshirilib mablag'larning maqsadli sarflanishi, byudjet ijrosi bo'yicha hisobot taqdim etilishi nazorat qilinadi.

4. Moliya organlari amalga oshiriladigan moliviy nazorat bo'lib, mahalliy organlarning mustaqil byudjet mablag'lari sarflash jarayonida bo'ladi. Byudjet mablag'larining maqsadli sarflanishi quyidagilarda ifodalanadi:

*G'aznachilik organlari rahbarlari quyidagi majburlovchi choralar qo'llash xuquqiga ega:*

– maqsadsiz sarflangan mablag'larni musodara etish, to'lov muddati o'tib ketgan to'lovlarni qaytarib olish:

– to'lov muddati etib kelgan, qaytarish lozim mablag'larga foiz hisoblash.

– muddati etib kelgan byudjet mablag'lari uchun peniyalar hisoblash;

– qarzdor shaxslar hisob raqamlarni to'xtatib qo'yish.

Rossiya Federatsiyasi G'aznachiligi maxsus davlat moliyasi organi bo'lib, Rossiya Federatsiyasi Moliya vazirligi tarkibiga kiruvchi va uning ma'muriy hududiy bo'linishi tamoyiliga asosan tuzilgan, yagona markazlashgan tizimdir.

G'aznachilikning tashkil etilishi va joriy etilish eng avvalo byudjet mablag'larini qayta taqsimlash, moliyaviy oqimlarni boshqarishda ko'p organ va tuzilmalar o'rtasida vakolatlar taqsimlanishi bilan bog'liq bir qator kamchiliklarga duch keladi. Mazkur tizim barcha g'aznachilik organlaridan iborat yaxlit organdir. Uning tashkiliy tuzilmasi markazlashgan, ko'p darajalidir. Tashkiliy tizilishi Rossiya Federatsiyasi ma'muriy xududiy bo'linishga mos keladi.

Barcha g'aznachilik organlari yuridik shaxs sifatida ijro etuvchi hokimiyat organi hisoblanadi. Ular o'z faoliyatini Rossiya Federatsiyasi Prezidenti, Rossiya Federatsiyasi Moliya vazirligi, Rossiya Federatsiyasi hukumati bilan kelishilgan holda boshqa organlar tasdiqlagan me'yoriy xuquqiy hujjatlar asosida olib boriladi. G'aznachilik organlarining asosiy vazifalari va funksiyalari taraqqiyotning zamonaviy bosqichida iqtisodiy munosabatlar rivojlantiriladi.

G'aznachilik organlari nazorat taftish funksiyalariga ko'ra dastlabki, joriy va yakuniy nazoratni olib borishadi. Bu funktsiya byudjet mablag'lari taqsimlovchilari, oluvchilar, banklar, kredit tashkilotlari va boshqa byudjet ijrosi jarayonining ishtirokchilarining byudjet mablag'lari bilan bog'liq operatsiyalarda amalga oshadi. Bugungi kunda g'aznachilik texnologiyasi zamonaviy talablarga javob beradi. Shu munosabat bilan g'aznachilik, soliq, bojxona, bank, byudjet mablag'lari taqsimlovchilari va oluvchilari o'rtasida axborot va huquqiy aloqalarni sifatli va yuqori darajada tashkil etish muammolari o'z yechimini topmoqda.

Rossiya Federatsiyasi G'aznachiligining tarkibi va tuzilishi bilan tanishamiz. Rossiya Federatsiyasi Moliya vazirligida yagona markazlashgan g'aznachilik organi tashkil etilgan bo'lib, Federal G'aznachilik Bosh Boshqarmasi, 89 ta

g'aznachilik boshqarmasi va 2311 ta g'aznachilik bo'linmalaridan iborat. G'aznachilik tizimi yaxlit g'aznachilik organlari faoliyatini birlashtiradi. G'aznachilik organlarining tashkiliy tuzilmasi markazlashgan, ko'p darajali va ierarxiya shaklda bo'ladi. Tuzilishi Rossiya Federatsiyasi ma'muriy hududiy bo'linishiga mos keladi. Tashkiliy funktsional tuzilmasi 3 ta ierarxiyadan iborat: 1 – daraja – Rossiya Federatsiyasi Federal G'aznachilik Bosh Boshqarmasi. 2 – daraja – Moskva, Sankt Peterburg shahar oblastlar, avtonom respublikalar bo'yicha federal g'aznachilik boshqarmalari. 3 – daraja tuman va shahar bo'yicha g'aznachilik bo'linmalari.

Rossiya Federatsiyasi Federal G'aznachilik Bosh Boshqarmasi mamlakatning Moliya vazirligi o'rinbosari darajasidagi boshliq bajaradi. Uning asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat:

- Federal byudjetning daromad va xarajatlarning jamlanma hisobini yuritish;
- g'aznachilik hisobraqamlarida mablag'lar harakatini boshqarish;
- byudjet ijrosini yuqori ijro etuvchi organlarga va qonunchilik organlarga etkazish.
- quyi darajadagi g'aznachilik organlarini boshqarish va ulardan Federal byudjet daromadlari va xarajatlari to'g'risida tezkor ma'lumotlar tayyorlash;
- quyi g'aznachilik organlarida mavjud qonunchilikning ijrosini ta'minlash.

Rossiya Federatsiyasi tarkibidagi respublikalar, oblastlar, o'lkalar, avtonom tuzilmalar, Moskva, Sankt Peterburg shaharlari g'aznachilik boshliqlarini Federal G'aznachilik Bosh Boshqarmasi boshlig'i tavsiyasiga ko'ra Moliya vaziri lavozimiga tayinlaydi. Federal g'aznachilik boshqarmalarining asosiy funksiyasi quyi g'aznachilik organlarida daromadlarning bajarilishi va xarajatlarni amalga oshirilishini ta'minlashdir. Federal G'aznachilikning shaharlar, tuman va shahar tumanlari bo'yicha bo'linmalari boshliqlari Federal G'aznachilikning tegishli boshqarma boshliqlari tomonidan tayinlanadi. Ularning asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat:

- Federal byudjet daromadlarining tegishli hududda bajarilishini ta'minlash;
- byudjetdan mablag' oluvchilarining maqsadli moliyalashtirishini ta'minlash;
- g'aznachilik hisobvaraqlarida mablag'lar harakati hisobini yuritish;
- yuqori g'aznachilik organlariga Federal byudjet ijrosi bo'yicha tezkor ma'lumot taqdim etish.

Barcha g'aznachilik organlari – yuridik shaxs sifatida ijro etuvchi hokimiyat organi hisoblanadi va RF prezidenti RF hukumati, Moliya vazirligi tasdiqlagan me'yoriy-huquqiy asosida faoliyat yuritadi. Boshqa xar qanday vazirlik va idora hujjatlari Federal byudjet ijrosi bo'yicha taalluqli bo'lmaydi va g'aznachilik organlari boshqaruviga aloqador bo'lmaydi. Shu tarzda g'aznachilik organlari faqat federal byudjet ijrosi bo'yicha qabul qilingan hujjatlar asosida faoliyat olib boradi va o'zlariga tegishli bo'lmagan hujjatlar asosida qaror qabul qilish huquqiga ega emas. G'aznachilikka o'tishda Federal byudjet ijrosi bilan bog'liq quyidagi muammolarni yechimini topish bilan o'zini oqlaydi:

- Federal byudjet mablag'lari yagona davlat organi hisobvaraqlarida to'planadi;
- Rossiya Federatsiyasi byudjeti daromadlarining daromadlar tasnifi bo'yicha tushumi xaqida tezkor axborot to'plash imkoni yaratiladi;
- tezkor nazorat o'rnatish byudjet mablag'lari sarflanishi va ularning maqsadsizligi eng kam darajaga keltiriladi;
- Federal ijrosi bo'yicha tezkor ma'lumotning mavjudligi xarajatlarning moliyalashtirilishi, kassa xarajatlarining byudjet hisobvaraqlari qoldig'ining xarajatlar tasnifi bo'yicha aniqligi oshadi.

Barcha g'aznachilik organlari – yuridik shaxs sifatida ijro etuvchi hokimiyat organi hisoblanadi va RF prezidenti RF hukumati, Moliya vazirligi tasdiqlagan me'yoriy-huquqiy asosida faoliyat yuritadi. Boshqa xar qanday vazirlik va idora hujjatlari Federal byudjet ijrosi bo'yicha taalluqli bo'lmaydi va g'aznachilik organlari boshqaruviga aloqador bo'lmaydi. Shu tarzda g'aznachilik organlari faqat

federal byudjet ijrosi bo'yicha qabul qilingan hujjatlar asosida faoliyat olib boradi va o'zlariga tegishli bo'lmagan hujjatlar asosida qaror qabul qilish huquqiga ega emas. G'aznachilikka o'tishda Federal byudjet ijrosi bilan bog'liq quyidagi muammolarni yechimini topish bilan o'zini oqlaydi:

- Federal byudjet mablag'lari yagona davlat organi hisobvaraqsida to'planadi;
- Rossiya Federatsiyasi byudjeti daromadlarining daromadlar tasnifi bo'yicha tushumi xaqida tezkor axborot to'plash imkoni yaratiladi;
- tezkor nazorat o'rnatish byudjet mablag'lari sarflanishi va ularning maqsadsizligi eng kam darajaga keltiriladi;
- Federal ijrosi bo'yicha tezkor ma'lumotning mavjudligi xarajatlarning moliyalashtirilishi, kassa xarajatlarning byudjet hisobvaraqlari qoldig'ining xarajatlar tasnifi bo'yicha aniqligi oshadi.

## **5-mavzu. ROSSIYA G'AZNACHILIGINING FAOLIYATI**

### **Reja:**

- 1. Rossiya G'aznachiligining shakllanishi.**
- 2. Rossiya G'aznachiligining vakolatlari.**
- 3. Rossiya G'aznachiligining faoliyatining tajribalari.**

#### **1. Rossiya G'aznachiligining shakllanishi.**

Rossiyada XV asrda g'azna palatalari deb nomlangan guberniya organlari tashkil qilingan bo'lib, 1775 yil 7 noyabrda amalga oshirilgan imperator Ekoterina II farmoni Butun Rossiya imperiyasini guberniyalarini boshqaruvchi tashkilot bilan g'azna palatalari tashkil etildi. G'azna palatasi to'g'risidagi farmonda ko'rsatilganidek, ularga barcha xazina vositalari, pullar, gerbli qog'ozlar, pasportlar, g'azna do'konlaridan tuz va vino, bojxona va boshqalar kiritildi. G'azna daromadlarini o'ziga yig'ish, sarflash xuquqiga ega emas, barcha tillalarni saqlashni tartibga solingan holda kirim-chiqim kitobini yuritishlari kerak. Guberniya g'aznachiligi va ularga buysinuvchi uezd g'aznachiligi kirim, pul mablag'larini saqlash va tarqatish bilan shug'ullangan. Barcha g'azna daromadlari boshqarmaning qaysi bo'linmasida va qaysi manbadan kelib tushishidan qat'iy nazar g'aznachilikka tegishlidir, har qanday ortiqcha sarf -xarajat ruxsatsiz amalga oshirilmasligi kerak.

Rossiya Federatsiyasi G'aznachiligi:

federal byudjetning yagona hisob raqamidagi jarayonlarni boshqaradi;

Federal byudjet mablag'larini prognozlashtiradi va kassa rejalarini tuzadi;

Federal byudjet mablag'lari bosh boshqaruvchilari, boshqaruvchilari va federal byudjetdan mablag' oluvchilarning jamlama reestrlarini olib boradi;

Rossiya Federatsiyasi qonunchiligiga asosan, byudjet tizimidagi byudjetlar o'rtasida federal soliqlar va yig'imlar to'langanidan tushgan mablag'lar taqsimotini amalga oshiradi;

Rossiya Federatsiyasi Federal byudjetining ijrosi to'g'risida dastlabki ma'lumotlarni va hisobotlarni tuzadi va Rossiya Federatsiyasi Moliya vazirligiga taqdim etadi.



1821 yilda Moliya vazirligi tarkibida davlat G'aznachilik Departamenti tashkil etildi va bu departament 1918 yil 1 noyabrgacha amal qilib keldi. Shu tarzda g'aznachilik va markaziy emissiya organlari funksiyalari aralashtirib yuborildi. Bozor munosabatlarini rivojlantirishning zamonaviy Rossiya iqtisodiyotida markazlashtirish va ko'p sonli tijorat banklarining paydo bo'lishiga olib keldi. Bu davrda Rossiya banki pul-kredit munosabatlarini kuchaytirishga ko'proq e'tiborga qaratdi va byudjet tizimi bo'g'inlarida byudjet ijrosi masalalari e'tibordan chetda qolib ketdi. Natijada byudjet mablag'larining bank hisobi susayib ketdi, tijorat banklari esa byudjet mablag'lari sarflanishda nazoratdan cheklab qo'yishdi va shuningdek bunday nazorat yo'qligi bilan ham qiziqishmadi.

Rossiya Federatsiyasi G'aznachiligi funksiyalari:

Federal byudjeti ijrosini ta'minlash;

byudjet tizimidagi byudjetlar ijrosiga kassa xizmatini ko'rsatish;

Federal byudjet mablag'lari bilan bosh boshqaruvchilari, taqsimotchilari va federal byudjetdan mablag' oluvchilar tomonidan turli operatsiyalar ustidan dastlabki va joriy nazoratni o'rnatish.

Byudjet xarajatlari sohasida barcha byudjet bo'g'inlari mablag'larini moliya organlari hisob raqamlariga taqsim qilishdagi tezkor ma'lumotga ega edilar, lekin mablag' oluvchilar va ularni kassa xarajatlari to'g'risida tezkor ma'lumot olish imkoni mavjud emasdi. Shu tarzda ushbu operatsiyalarni samarali nazorat qilinmadi. Byudjet mablag'lari tushumi va sarflanishi ustidan nazoratning susayishi, ularning aniq hisob tizimining mavjud emasligi byudjet intizomining susayishiga olib keldi. Byudjet intizomi – tashkilot, korxonalar va muassasalar, shuningdek, rahbar va jismoniy shaxslar tomonidan byudjetga to'lanadigan to'lovlarni o'z vaqtida to'lash hamda byudjet mablag'larini belgilangan yo'nalishlarga muvofiq maqsadli sarflashdir. Bundan tashkari byudjet mablag'larining taqchilligi ushbu mablag'larni eng muhim maqsadlar uchun ratsional sarflashga yo'naltirishni talab etadi, lekin mavjud tizim buning ilojini topa olmadi.

Rossiya Federatsiyasi Byudjet Kodekisi byudjetning g'azna ijrosi tizimida moliviy nazoratning asosiy shakllari ko'rsatildi.

1. Nazorat – taftish boshqarmalari amalga oshiradigan nazorat. U byudjet mablag'lari oluvchilari, taqsimlovchilari o'rtasida amalga oshiriladi.

2. G'aznachilik amalga oshiriladigan moliviy nazorat – joriy dastlabki va yakuniy nazorat bo'lishi mumkin. Bu nazorat byudjet mablag'lari bosh taqsimlovchilari va mablag' oluvchilar, kredit tashkilotlari va byudjet jarayonining boshqa ishtirokchilari o'rtasida amalga oshiriladi.

3. Byudjet mablag'lari bosh taqsimlovchilari tomonidan amalga oshirilib mablag'larning maqsadli sarflanishi, byudjet ijrosi bo'yicha hisobot taqdim etilishi nazorat qilinadi.

4. Moliya organlari amalga oshiriladigan moliviy nazorat bo'lib, mahalliy organlarning mustaqil byudjet mablag'lari sarflash jarayonida bo'ladi.

## **2. Rossiya G'aznachiligining vakolatlari.**

G'aznachilik organlari rahbarlari quyidagi majburlovchi choralar qo'llash xuquqiga ega:

maqsadsiz sarflangan mablag'larni musodara etish, to'lov muddati o'tib ketgan to'lovlarni qaytarib olish:

to'lov muddati etib kelgan, qaytarish lozim mablag'larga foiz hisoblash.

muddati etib kelgan byudjet mablag'lari uchun peniyalar hisoblash;

qarzdor shaxslar hisob raqamlarni to'xtatib qo'yish.

Rossiya Federatsiyasi G'aznachiligi maxsus davlat moliyasi organi bo'lib, Rossiya Federatsiyasi Moliya vazirligi tarkibiga kiruvchi va uning ma'muriy hududiy bo'linishi tamoyiliga asosan tuzilgan, yagona markazlashgan tizimdir.

G'aznachilikning tashkil etilishi va joriy etilish eng avvalo byudjet mablag'larini qayta taqsimlash, moliyaviy oqimlarni boshqarishda ko'p organ va tuzilmalar o'rtasida vakolatlar taqsimlanishi bilan bog'liq bir qator kamchiliklarga duch keladi. Mazkur tizim barcha g'aznachilik organlaridan iborat yaxlit organdir.

Uning tashkiliy tuzilmasi markazlashgan, ko'p darajalidir. Tashkiliy tizilishi Rossiya Federatsiyasi ma'muriy xududiy bo'linishga mos keladi.

Barcha g'aznachilik organlari yuridik shaxs sifatida ijro etuvchi hokimiyat organi hisoblanadi. Ular o'z faoliyatini Rossiya Federatsiyasi Prezidenti, Rossiya Federatsiyasi Moliya vazirligi, Rossiya Federatsiyasi hukumati bilan kelishilgan holda boshqa organlar tasdiqlagan me'yoriy xuquqiy hujjatlar asosida olib boriladi. G'aznachilik organlarining asosiy vazifalari va funksiyalari tarraqqiyotning zamonaviy bosqichida iqtisodiy munosabatlar rivojlantiriladi.

G'aznachilik organlari nazorat taftish funksiyalariga ko'ra dastlabki, joriy va yakuniy nazoratni olib borishadi. Bu funktsiya byudjet mablag'lari taqsimlovchilari, oluvchilar, banklar, kredit tashkilotlari va boshqa byudjet ijrosi jarayonining ishtirokchilarining byudjet mablag'lari bilan bog'liq operatsiyalarda amalga oshadi. Bugungi kunda g'aznachilik texnologiyasi zamonaviy talablarga javob beradi. Shu munosabat bilan g'aznachilik, soliq, bojxona, bank, byudjet mablag'lari taqsimlovchilari va oluvchilari o'rtasida axborot va huquqiy aloqalarni sifatli va yuqori darajada tashkil etish muammolari o'z yechimini topmoqda.

Rossiya Federatsiyasi G'aznachiligining tarkibi va tuzilishi bilan tanishamiz. Rossiya Federatsiyasi Moliya vazirligida yagona markazlashgan g'aznachilik organi tashkil etilgan bo'lib, Federal G'aznachilik Bosh Boshqarmasi, 89 ta g'aznachilik boshqarmasi va 2311 ta g'aznachilik bo'linmalaridan iborat. G'aznachilik tizimi yaxlit g'aznachilik organlari faoliyatini birlashtiradi. G'aznachilik organlarining tashkiliy tuzilmasi markazlashgan, ko'p darajali va ierarxiya shaklda bo'ladi. Tuzilishi Rossiya Federatsiyasi ma'muriy hududiy bo'linishiga mos keladi. Tashkiliy funktsional tuzilmasi 3 ta ierarxiyadan iborat: 1 – daraja – Rossiya Federatsiyasi Federal G'aznachilik Bosh Boshqarmasi. 2 – daraja – Moskva, Sankt Peterburg shahar oblastlar, avtanom respublikalar bo'yicha federal g'aznachilik boshqarmalari. 3 – daraja tuman va shahar bo'yicha g'aznachilik bo'linmalari.

Rossiya Federatsiyasi Federal G'aznachilik Bosh Boshqarmasi mamlakatning Moliya vazirligi o'rinbosari darajasidagi boshliq bajaradi. Uning asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat:

Federal byudjetning daromad va xarajatlarning jamlanma hisobini yuritish;

g'aznachilik hisobraqamlarida mablag'lar harakatini boshqarish;

byudjet ijrosini yuqori ijro etuvchi organlarga va qonunchilik organlarga etkazish.

quyi darajadagi g'aznachilik organlarini boshqarish va ulardan Federal byudjet daromadlari va xarajatlari to'g'risida tezkor ma'lumotlar tayyorlash;

quyi g'aznachilik organlarida mavjud qonunchilikning ijrosini ta'minlash.

Rossiya Federatsiyasi tarkibidagi respublikalar, oblastlar, o'lkalar, avtonom tuzilmalar, Moskva, Sankt Peterburg shaharlari g'aznachilik boshliqlarini Federal G'aznachilik Bosh Boshqarmasi boshlig'i tavsiyasiga ko'ra Moliya vaziri lavozimiga tayinlaydi. Federal g'aznachilik boshqarmalarining asosiy funksiyasi quyi g'aznachilik organlarida daromadlarning bajarilishi va xarajatlarni amalga oshirilishini ta'minlashdir. Federal G'aznachilikning shaharlar, tuman va shahar tumanlari bo'yicha bo'linmalari boshliqlari Federal G'aznachilikning tegishli boshqarma boshliqlari tomonidan tayinlanadi. Ularning asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat:

Federal byudjet daromadlarining tegishli hududda bajarilishini ta'minlash;

byudjetdan mablag' oluvchilarining maqsadli moliyalashtirishini ta'minlash;

g'aznachilik hisobvaraqlarida mablag'lar harakati hisobini yuritish;

yuqori g'aznachilik organlariga Federal byudjet ijrosi bo'yicha tezkor ma'lumot taqdim etish.

Barcha g'aznachilik organlari – yuridik shaxs sifatida ijro etuvchi hokimiyat organi hisoblanadi va RF prezidenti RF hukumati, Moliya vazirligi tasdiqlagan me'yoriy-huquqiy asosida faoliyat yuritadi. Boshqa xar qanday vazirlik va idora hujjatlari Federal byudjet ijrosi bo'yicha taalluqli bo'lmaydi va g'aznachilik organlari boshqaruviga aloqador bo'lmaydi. Shu tarzda g'aznachilik organlari faqat federal byudjet ijrosi bo'yicha qabul qilingan hujjatlar asosida faoliyat olib boradi

va o'zlariga tegishli bo'lmagan hujjatlar asosida qaror qabul qilish huquqiga ega emas. G'aznachilikka o'tishda Federal byudjet ijrosi bilan bog'liq quyidagi muammolarni yechimini topish bilan o'zini oqlaydi:

Federal byudjet mablag'lari yagona davlat organi hisobvaraqsida to'planadi;

Rossiya Federatsiyasi byudjeti daromadlarining daromadlar tasnifi bo'yicha tushumi xaqida tezkor axborot to'plash imkoni yaratiladi;

tezkor nazorat o'rnatish byudjet mablag'lari sarflanishi va ularning maqsadsizligi eng kam darajaga keltiriladi;

Federal ijrosi bo'yicha tezkor ma'lumotning mavjudligi xarajatlarning moliyalashtirilishi, kassa xarajatlarning byudjet hisobvaraqlari qoldig'ining xarajatlarni tasnifi bo'yicha aniqligi oshadi.

### **3. Rossiya G'aznachiligining faoliyatining tajribalari.**

Xorijiy mamlakatlarda g'aznachilik har chorakda turli darajadagi davlat boshqaruv organlarining qoplanmagan qarzlarni, byudjet tashkilotlarining va davlat muassasalarining qarzlarni qo'shib, barcha qoplanmagan qarzlarni ro'yxatini tasdiqlaydi va nashr qiladi. Bunday ro'yxat har bir qarzlarni bo'yicha quyidagi axborotlarni beradi:

qarzdor nomi;

shart-nomadagi boshlang'ich summa;

qoplanmagan qismining hajmi;

foiz stavkasi; to'lov muddati;

joriy moliya yilida qarz uchun oylik to'lovlar hajmining prognozi;

kelgusi moliya yilida qarz uchun oylik to'lovlarning hajmi prognozi;


boshqa zarur axborotlar.

G'aznachilik har chorakda davlat zayomlari bo'yicha qarzlarni ro'yxatini tasdiqlaydi va nashr qiladi. Bunday ro'yxat har bir qarzlarni bo'yicha quyidagi axborotlarni beradi:

qarzdor nomi;

zayomning boshlang'ich summasi;  
tolanmagan qismining hajmi;  
foiz stavkasi;  
to'lov muddati;  
joriy moliya yilida qarz uchun oylik to'lovlar hajmining prognozi;  
kelgusi moliya yilida qarz uchun oylik to'lovlar hajmining prognozi;  
boshqa zarur axborotlar.

Mazkur hisobotlarni tayyorlash uchun barcha davlat boshqaruvi organlari va davlat tashkilotlari g'aznachilik tomonidan belgilangan shaklda va muddatda zarur axborotlarni g'aznachilikka taqdim qiladi. Federal byudjetning daromadlari va xarajatlari ijrosida byudjet ijrosi jarayonidagi g'aznachilik texnologiyasi tahlil qilindi, davlat moliyasini boshqarish tizimining mintaqa darajasida g'aznachilik organlari faoliyatida qator omillar aniqlandi. Federal G'aznachilik organlari faoliyatiga ta'sir ko'rsatadigan qator omillar tizimlashtirildi.



**7-rasm. Rossiya Federatsiyasi Federal G'aznachiligida byudjet ijrosi jarayoniga ta'sir etuvchi omillar<sup>27</sup>**

Rossiya Markaziy banki, Moliya vazirligi va Federal G'aznachilik Bosh Boshqarmasi birgalikda Rossiya Federatsiyasi Hukumatiga taqdim qilish uchun

<sup>27</sup> Jdanchikov P. A. Kaznacheystvo. Avtomatizirovannie biznes-texnologii upravleniya finansovimi potokami. Uchebnoe posobie. – M.: «Vishey shkoli ekonomiki». 2010. - 363 s

2000-yilda «Elektron raqamli imzo to'g'risida» va «Elektron hujjat to'g'risida» Federal qonun qabul qilindi. Bu loyihalarda «Elektron raqamli imzo» tushunchasining huquqiy mazmuni ochildi. Ko'rsatilgan loyihalarda «Elektron raqamli imzo» tushunchasi elektron ma'lumotlarning bir qismi va o'zida hujjat rekvizitlarni mujassamlashtirgan hujjat sifatida aniqlandi. Bu qonunlar qabul qilinishi bilan turli sohalardagi faoliyatlarda elektron hujjatlardan keng miqyosda foydalanish, davlatning boshqaruv va moliya-kredit sohasida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish uchun umumiy qonuniy bazani shakllantirish yakunlandi.

Rossiya Federatsiyasida G'aznachilikni turli bo'linmalari faoliyatini avtomatlashtirish uchun daromadlar hisobini yuritishda, soliq to'lovchilardan tushgan tushumlarni turli darajadagi byudjetlar o'rtasida taqsimlashda davlat byudjeti ijrosini «Kazna» PPP (paket prikladnix programm) daromad moduli yaratilgan va amaliyotga kiritildi. Rossiya Federatsiyasi G'aznachiligining asosiy vazifalari va funksiyalari quyidagilardan iborat:

- byudjet va byudjetdan tashqari fondlarni holati to'g'risida yuqori ijro organlariga hisobot berish borasida axborot tizimida ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish;
- turli darajadagi byudjetlarni tashkillashtirish, amalga oshirish va nazorat qilishni kassaning yagonaligi prinsipiga asosan g'aznachilik hisob raqamlarida daromadlar va xarajatlarni boshqarish;
- byudjetlararo munosabatlar hamda byudjetdan tashqari jamg'armalarning moliyaviy munosabatlarini tartibga solish, jamg'arma mablag'larining tushumi va ularning ijrosi yuzasidan nazorat qilish;
- davlat moliyaviy resurslarining qisqa muddatli prognozi hamda ushbu resurslardan tasdiqlangan byudjet parametrlari doirasida axborot tizimida tezkor boshqaruvni amalga oshirish;
- Rossiya Federatsiyasining Banki va boshqa biriktirilgan banklari bilan birgalikda ichki va tashqi qarzlarni boshqarish va ularga xizmat ko'rsatish;
- g'aznachilikka oid tegishli qo'llanma va yo'riqnomalarni ishlab


chiqish, byudjet tasnifi loyihasini tayyorlash.

### **Budjet tizimini boshqarish quyidagilarni nazarda tutadi:**

-Budjet tizimining asosiy tamoyillariga amal qilgan holda budjet munosabatlarini boshqarish

- Barcha darajadagi budjetlarni shakllantirish, ko'rib chiqish, qabul qilish, ijro etish jarayonlarini boshqarish

- Budjet jarayonida ishtirok etuvchi sub'ektlar, organlar va budjet mablag'larini oluvchilar faoliyatini boshqarish



**1-rasm. Boshqarish elementlari**

Budjet tizimini boshqarish tushunchasi sub'ektiv tushuncha. Budjet tizimini boshqarish alohida vakolatli organlar tomonidan amalga oshiriladi, ularning vakolatlari «Budjet kodeksi»da tegishli boshqaruv organlari Nizomlari va boshqa me'yoriy-huquqiy xujjatlar bilan belgilab berilgan.

Qonun chiqaruvchi organlar (idoralar) – shahar konsulliklari, maktab kengashlari, shtat qonun organlari va congress ba'zida nisbatan kuchsizroq organ bo'lganliklari uchun mav'qega ega bo'ladilar (ularga berilgan kuch va ular tomonidan qilingan da'vo shartlari evaziga) lekin bu tushuncha oxirgi yillarda ancha o'zgardi. Davlatning barcha darajasidagi Qonun chiqaruvchi organlar siyosat belgilash uchun o'zlarining vakolatlarini qayta ma'qullashmoqda va ularga



berilgan vakolatlarga ega bo'lish qobiltayini oshirish maqsadida chora-tadbirlarni ishlab chiqmoqdalar. Bunda davlat budjeti bo'yicha qonun chiqaruvchi organlar muhokamasi uchun mavjud muhitga ta'sir etadigan ko'zga tashlanuvchi xarakterlar va ijobiy o'zgarishlar mavjuddir. Bular;

qonun chiqaruvchi organlarning birinchi va eng muhim vakillik organi sifatidagi o'rni;

huquqshunoslar o'zlarining ishlari uchun qanday jarayonda tanlanishi bo'yicha tendensiyalar;

qonuniy nuqtai nazardan kelib chiqqan holda harakat qilish va;

mamlakat bo'ylab rivojlantiruvchi tarafdorlarning chuqur bo'linishi<sup>28</sup>.

Moliyaviy ishlar vazirligini budjet tizimidagi o'rni (Hindiston)

Hindistonning nazoratchi bosh auditori.

A) Kelib chiqishi

Buxgalteriya va audit tajribalari Hindlarga tarixiy davrlardan ma'lumdir. Kautilyaning Arshastra asari Mauryan davrlaridagi buxgalteriya va audit faoliyati jarayonlari va mexanizmlarini yaqqol yoritib beruvchi davlat arboblari haqidagi tarixiy kitobdir.

Mukerj Guptaning fikriga ko'ra boshqaruvchilar mukammal va tartibli tizimlarni joriy qilishgan ya'ni hozirgi bosh hisobchi lavozimiga o'xshash tarzda buxgalteriya tashkilotini alohida vazifalarga joylashtirib chiqqan va davrlar mobaynida auditda hisob-kitobning amaliy tajribalari saqlanib kelgan. Gupta sulolasi davrida Maurya namoyondalari davrida bo'lgani singari hisob kitoblar saqlanib qolgan va davrlar mobaynida auditga va maqullangani topshirilgan, keyinchalik, hisob boshqarmasi vakili va vazirlar kengashida o'z harakatlari uchun javobgar hozirgi bosh hisobchiga to'g'ri keluvchi keng ravishda talqin qilinganda Patyuoarika deb nomlanuvchi so'zdan foydalanish yuzaga keldi. O'rta asrlarda Dehlida Mushrif va Mustafilar saltanati buxgalteriyaga va auditga

---

<sup>28</sup>Public budjeting systems ninth edition Robert d. Lee, jr., Ronald w. Johnson., Philip g. Joyce. 2013 y.

javobgar bo'lishgan. Muhgal boshqaruvchilari daromadlarni yig'ish va auditorlik ishlarini olib borishga o'z diqqatlarini qaratishgan. Vazir yoki Devon Muhgal davrida moliya boshqarmasi vakili sifatida faoliyat yuritgan. Shunga qaramay buxgalteriyaning va auditning yangi zamonaviy tizimlarini Hindiston hududida amaliyotga joriy qilinishi Britanlar hukmronligi davriga borib taqaladi. Qirolchaning 1858 yildagi hisobchilarni tayyorlash va yakka tartibdagi auditorlarni tayinlash tog'risidagi qarori Hindiston bosh hisobchilari idorasida yangi lavozimni vujudga keltirdi. 1860 yilda buxgalteriya va auditorlik vazifalari birlashtirildi va bosh auditor singari bosh hisobchi ham qayta shakllantirildi. 1919 yilgi Hindiston hukumat qonuni bosh auditorga yuqori davlat maqomi berdi va 1935 yildagi qonunga ko'ra, 166 dan 171 chi moddagacha bosh auditor idorasini kuchaytirishga qaratilgan. 1950 yil Hindiston konstitutsiyasi mustaqilligidan so'ng bosh auditor bosh nazoratchi auditor deb qayta nomlandi.

(B) BNA ning konstitutsiyaviy o'rni

BNA ning vazifalari Hindiston konstitutsiyasi va mustaqil konstitutsaviy tashkilot tomonidan belgilanadi. BNA qonun hujjatlari orqali ruxsat etilgan har bir harakatga ketgan har bir sarf-meyori ustidan nazorat qiluvchi shaxsdir. Konstitutsiya BNA mustqilligini kafoltlaydi va hech kimga yon bosmasdan, qo'rqmasdan, mehr oqibat qilmasdan moliyaviy birdamlikni, odamlarni qiziqishini qonunan himoya qilish va qonun bilan mutanosibligiga ko'maklash vazifalarini talab qiladi. BNA ning o'rni Hindiston konstitutsiyasininng 5 qismi va 5 bo'limida 148 moddada keltirib o'tilgan.

(1) Hindiston nazoratchi va bosh auditori prezident tomonidan uning qo'li va muhri asosida ma'lum muddatga tayinlanadi va idoradagi o'zini tutishi va faoliyati yuzasidan faqatgina oliy sud tomonidan o'z lavozimidan chetlatilishi mumkin.

(2) Nazoratchi va bosh auditor etib tayinlangan har bir shaxs, ishga kirishdan avval prezidentdan avval kimnidir o'z vakili sifatida aniqlaydi va tavsiya etadi va shu shaxs 3 tartibga muvofiq bu shaxs rozilik bildiradi va qasamyod qiladi.

(3) Bosh auditor va nazoratchining xizmatining oylik maoshi va boshqa shart-sharoitlar qonun orqali Parlament tomonidan belgilab berilishi mumkin va o'zlari hohlaguncha ikkinchi tartib bo'yicha belgilanadi. Shuni inobatga olish kerakki, na Bosh auditorning oyligi na nazoratchining oyligi ishni tark etish, pensiyaga, yosh nuqtai nazaridan nafaqaga chiqish yuzasidan kelishuvdan keyin uning kamchiliklaridan farqlanmaydi.

(4) Bosh auditor yoki nazoratchi ishni to'xtatgandan so'ng Hindiston hukumatda yoki boshqa davlat hukumat idoralarida ortiq faoliyatini davom ettira olmaydi.

(5) Bu qonun yoki parlament tomonidan yaratilgan qonunlarning amal qilinishi masalasi, shaxslarning Hind auditorlik tashkilotida yoki buxgalteriya boshqarmasida xizmat qilish shart-sharoitlari va Bosh auditorning va nazoratchining boshqaruv vazifalari nazoratchi va bosh auditor bilan surishtiruv ishlari olib borilgandan so'ng prezident qoidalari asosida ko'rsatib beriladi.

(6) Nazortchi bosh auditor idorasining boshqaruv xarajatlari oyliklar, mukofot pullari va nafaqa to'lovlari yoki shaxsning idoradagi xizmati Hindiston barqaror fondi tomonidan to'lanadi.

#### (C) Nazoratchining va bosh auditorning burch va vazifalari

Nazoratchi va bosh auditor parlament tomonidan chiqarilgan qonunlar asosida davlat hisob organlari va hisob birlashmasi yoki boshqa davlat organlari bilan aloqada o'z burch va vazifalarini bajaradi bu konstitutsiya amal qilishdan avval, vakil qilib tayinlangan shaxs hisob birlashmasi va davlat hisob boshqarmasi bilan bog'langan tarzda Hindiston hisob boshqarmasi va viloyatlar boshqarmalarida bosh auditor tomonidan tan olinishi bilanoq zudlik bilan bu kabi burch va vazifalarni amalga oshiradi. Hisob birlashmasi va davlat hisob boshqarmasi prezident tomonidan nazoratchi va bosh auditorning taklifi asosida faoliyat yuritadi.

(1) Auditorlik hisobotlari. Nazoratchi va Hindiston bosh auditorning hisob birlashmasiga oid hisobotlari prezidentga ko'rib chiqishi uchun topshiriladi va president uni parlamentning har bir palatasiga topshiradi.

### C) CAG ning majburiyat va vakolatlari

Hinsitonning hokimliklari va viloyatlar hisobvaraqaqlari bilan aloqadorlikda Konsitutsiya boshlanishidan oldin CAG ayrim majburiyatlarni va vakolatli faoliyatlarni Uyushma, Davlat va boshqa davlat vakolatli organlari hisob raqamlari bilan aloqadorlikda amalga oshiradi va qabul qilingan har qanday qonun Parlament nazorati ostida yoki uning yordamida tayinlanadi va CAG ayrim majburiyatlarni va vakolatli faoliyatlarni Uyushma, Davlat hisobotlari bilan aloqadorlikda Hindistonning Umumiy Auditorlikdan foydalangan holda amalga oshiradi.

Auditorlik bayonoti Hindistonning Moliya va Umumiy Auditorlik Uyushma hisob raqamlariga tegishli bayonotlarni Prezidentga taqdim etadi, Prezident bayonotlarni Parlament Uyiga taqdim etishga tayyorlaydi.

Hindistonning Moliya va Umumiy Auditorligi mamlakat hisob raqamlariga tegishli bayonotlarni mamlakat gubernatoriga taqdim etadi. Mamlakat gubernatori bayonotlarni mamlakat qonun chiqaruvchi organiga taqdim etishga tayyorlaydi.

D) CAG majburiyatlari, vakolatlari va servis hizmatidagi holati. 1971-yildagiga 1976, 1984, 1987 va 1994 yillarda o'zgartirishlar kiritilgan.

Hindistonning Moliyaviy va auditorlik ishlari bo'yicha funksiyasi Hindistonning konsitutsiyasining asosan 149 dan 151 gacha bo'lgan bo'limida keltirib o'tilgan. 149 chi bo'limda Hinsitonning hokimliklari va viloyatlar hisobvaraqaqlari bilan aloqadorlikda Konsitutsiya boshlanishidan oldin CAG ayrim majburiyatlarni va vakolatli faoliyatlarni Uyushma, Davlat va boshqa davlat vakolatli organlari hisobotlari bilan aloqadorlikda amalga oshiradi va qabul qilingan har qanday qonun Parlament nazorati ostida yoki uning yordamida tayinlanadi va CAG ayrim majburiyatlarni va vakolatli faoliyatlarni Uyushma, Davlat hisobotlari bilan aloqadorlikda Hindistonning Umumiy Auditorlikdan foydalangan holda amalga oshiradi.

Bu o'tish dasturlari mobaynida, Moliya va Umumiy Auditorlik(CAG) ozining majburiyatlari va vakolatli faoliyatlarini 1936 yil Hindiston hukumati tomonidan qabul qilingan (Audit va hisobvaraqaqlar) buyruq, asosida uyushgan va shtat hisobotlari bilan muvofiqlikda bajarishni davom ettiradi. Bu buyruq 1936-yil

Hindiston hukumati tomonidan qabul qilingan (Audit va hisobvaraqlar) buyruq, 1971 yildan Moliyaviy va Umumiy Auditorlik ( majburiyat, vakolat va servis holati) qonuni sifatida Parlamentda tasdiqlandi. 1971 yil 15 dekabrda kuchga kiritildi va 1976,1984,1987, 1994 yil unga o'zgartirishlar kiritildi. Bu qarorning negizi konstitutsiyaning 148(3) va 149 bo'limida berib o'tilgan. Unga ko'ra (a) CAG servisi sohasida ishlovchilar uchun oylik maosh va boshqa imkoniyatlar va (b) CAG ning majburiyatlari va vakolatlari, Uyushma, Davlat va boshqa davlat vakolatli organlari hisobotlari va auditorlik hisobotlari bilan aloqadorlikda tayinlanishi keltirib o'tilgan. Davlatning boshqa qonunlari CAG ning yoki vakillarining majburiyatlarini belgilamaydi va ularning vakolatlarini taqsimlamaydi. Shu bilan birga CAG ning majburiyat va vakolatlarini Parlament chiqargan qonunlar asosida tayinlanadi, Davlatning qonun chiqaruvchi organi tomonidan bu qonunlarga qisqartirish va o'zgartirish kiritilishi mumkin emas.

E) CAG ning hisob raqamlar bilan bog'liqlikdagi majburiyatlari:

Qonunning 10 dan 12 bo'limigacha Moliya va Umumiy Auditorlik(CAG)ning Uyushma, Davlat va Uyushgan Territoriyalar qonun chiqaruvchi organlar bilan aloqadorlikda hisobotlarni to'plash majburiyatlarini ochib beradi.

Bu 10 bo'limning (1)qismida bo'lgan birinchi ehtiyot chorasi prezidentning CAG ga u bilan maslahatdan so'ng, farmoyish orqali, quyidagicha ko'rsatish mumkin:

Uyushma hisob raqamlari ( bir marta yoki bosqichma-bosqich bir necha buyruqlar berish orqali),

ma'lum bir servis hisobotlari yoki Uyushma idoralari hisobotlarini to'plash mas'uliyati bo'lganidan, yordam berish vakolatiga ega.

Bu 10 bo'limning qismida bo'lgan ikkinchi ehtiyot chorasi mamlakat gubernatorining CAG ga, prezidentning birinchi maqullashi va CAG bilan maslahatdan so'ng , farmoyish orqali, quyidagi

Mamlakat hisobotlari( bir marta yoki bosqichma-bosqich bir necha buyruqlar berish orqali),

(ii) ma'lum bir servis hisobotlari yoki Mamlakat idoralari hisobotlarini to'plash mas'uliyati bo'lganidan, yordam berish vakolatiga ega. Prezidentning CAG ga u bilan maslahatdan so'ng, farmoyish orqali, har qanday toifadagi va o'ziga xos hisobotlarni saqlash mas'uliyati bo'lganidan, yordam berish vakolatiga ega.

Prezident 1978-yil 20-iyunda nazoratchi va auditorlarni 1977-1988 yillardan boshlab hukumatning moliyaviy hisobotlarini tayyorlash ma'suliyatini kamaytirish bo'yicha qaror qabul qildi. C&AG ham Prezidentning 1989-yil 10-aprelda ishlab chiqilgan qaroriga ko'ra 1988-1989-yillardan boshlab Pondicherry hududlari birlashmasining maqsadlari uchun yillik kirim va chiqim hisobotlarini tegishli qoidalar asosida har yili namoyish qilish tayyorgarliklari ma'suliyatidan ozod qilindi. Prezidentning 27-iyun 1989 yildagi qarori va Gao shtati Gubernatori tomonidan ishlab chiqilgan qarorga muvofiq u ham 1988-1989 yillardan boshlab Gao shtati maqsadlari uchun yillik kirim va chiqim hisobotlari va tegishli qoidalar asosida har yili taqdim etish javobgarliklaridan ozod qilindi. Yuqoridagi hujjatlarga muvofiq Bosh auditor va nazoratchi moliyaviy hisobotlarni tayyorlash majburiyatidan ozod qilinganligi haqida qayd etilgan lekin u Prezident\Gubernator\Administrator oldida Parlament\Shtat qonunchiligi asosida hisobot topshirishga javobgar hisoblanadi.

Prezidentning ilgari qabul qilingan Bosh auditor va nazoratchi to'g'risidagi qaroriga asosan bosh auditor va nazoratchi shtatlarning moliyaviy hisobotlarini tayyorlash ma'suliyatidan ozod qilinishi talab etilgan. Bosh auditor va nazoratchi majburiyati bilan bog'liq aktning 12 bo'limi ular hukumat birlashmasiga, shtat hukumatiga va hududiy birlashmaga moliyaviy hisobot tayyorlashda qonun chiqaruvchi organlar bilan ma'lumot berish va yordam berish bilan bog'liqdir.

F) CAGning audit bilan bog'liq vazifasi aktning 13,21,23 va 24 bo'limlarini o'z ichiga oladi. Aktning 13 bo'limi CAG dagi vazifasi Hindistonning jamlanma fondidan, har bir shtat va har bir qonun chiqaruvchi organlarga ega bo'lgan hududiy birlashmalardan ajratiladigan xarajatlarni audit qilish va hisobotlarda ko'rsatilgan

mablag'larni qonuniy asosda va murojaat etilgan xizmat yoki maqsadlar uchun to'g'ri taqsimlanganligi va hukumat boshqaruviga xarajatlarni mos kelishini aniqlashdir.

Xarajatlar auditi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- fond ta'minoti auditi;
- doimiy audit;
- mulk auditi;
- samaradorlik-mahsuldorlik auditi;
- tizimlar auditi.

Hisobotlarning aniq va to'liq tekshirilishi to'lov dalillari va voucher haqiqiylikida namoyon bo'ladi. Fond ta'minoti auditining maqsadi hisobotlarda ko'rsatilgan mablag'larni qonuniy asosda to'langan yoki murojaat qilingan xizmat yoki maqsadlar to'g'ri taqsimlanganiga ishonch hosil qilish hisoblanadi.

Hukumat birlashmalarining, shtat hukumatlarining va hududiy birlashma hokimiyatlarining o'zlashtirma hisobotlari tegishli hukumatlar tomonidan tuziladi va saqlanadi. Nazoratchi va bosh auditor tomonidan ko'rib chiqiladi va audit qilinadi. Qolgan shtat hukumatlarining o'zlashtirma hisobotlari yuqorida qayd etilgan hisobotlar yordamida nazoratchi va bosh auditor tomonidan tuziladi va saqlanadi. Bu audit jarayonida xarajatlarning hukumat boshqaruviga mos kelishida namoyan bo'ladi (Doimiy audit).

Audit mulkni ijro etish harakatini ham tekshiradi va mulk xarajatlaridagi halollik, iqtisodiy va qonunchilik belgilari, xarajatlar sabablari, yo'qotishlar, behuda va foydasiz xarajatlar to'grisidagi mulohazalar va ularni rasmiylashtirilishini ko'rib chiqadi (Mulk auditi).

Samaradorlik va mahsuldorlik auditi rivojlantirish dasturlarining bajarilish samaradorligi va jarayonini har tomonlama baholash hisoblanadi. Bu audit qay darajada va baholash va soliq yukini aniqlashda urinib ko'riladi, ijtimoiy va iqtisodiy maqsadlar ko'rib chiqiladi, erishilishi kerak bo'lgan narx darajasi; bo'lim yoki agentlik qay darajada o'zining moliyaviy majburiyatlarini bajaryabdi va ularning iqtisodiy faoliyati dasturga muvofiq amalga oshirilganligiga ishonch hosil

qilish. Tizimli auditda tashkilot va tizimlar boshqarish, hisob berish, hisoblash va ichki nazorat tahlil qilinadi va sifat standartlari va ijro etish baholanadi. Actning 13 bo'limida nazoratchi va bosh auditor birlashmaning, shtatlarning va qonun chiqaruvchi organlarga hududiy birlashmaning barcha operatsiyalari auditlashi hamda tasodifiy fondlar va ijtimoiy hisoblarga bog'liq va savdo ishlab chiqarish, foyda, yo'qotishlar hisobotlari va balans varaqasi, boshqa qo'shimcha hisobotlar birlashmalar, shtat yoki hududiy birlashma bo'linmalarida saqlanishi va auditlanishi qayd etilgan. 13 bo'limda nazoratchi va auditor tomonidan audit qilingan hisobotlar, operatsiyalar, xarajatlar haqida hisob berish ham nazoratchi, auditor vazifasi hisoblanadi<sup>29</sup>.

G'aznachilik yuridik va jismoniy shaxslarga ular tomonidan ortiqcha to'langan soliqlar, yig'imlar va boshqa majburiy to'lovlar summalari, qonun xujjatlarida belgilangan tartibda yagona g'azna hisobraqamidan yoki G'aznachilikning boshqa bank hisobraqamlaridan qaytarilishini amalga oshiradi.

Qonun chiqaruvchi qo'mitalardan ekstensiv foydalanish butun bir qo'mitasi amaliy emas holda harakat qilishda muhim hisoblanadi, lekin komissiya tuzilmalar parchalanishiga kiritiladi. Qo'mitalar o'zlarining huquqlari doirasida kichik qonun chiqaruvchi organlar hisoblanadi. Qo'mita tuzulmalari barqarorligini hisobga olgan holda AQSH Deputatlar palatasida 435 nafar azo va Senatida esa 100 nafar a'zolar mavjud. Shtatlar ichida yangi Hamsipair 424 a'zo bilan eng yirik qonun chiqaruvchi hisoblansa Nebraska 49 a'zolar bilan eng kichigidir. 50 ta shtatdan 42 tasida kamida 100 nafardan qonun chiqaruvchi deputatlar mavjud.

Ko'p palatali qonun chiqaruvchi organlarda qonunlarni ishlab chiqish har bir palatadagi qarama-qarshi qo'mitalar tomonidan amalga oshiriladi. Bunday qo'mitalar quyi palata va senatning to'liq a'zoliqi orqali ustida deb harakat qilinadigan chiquvchi xarajatlarni xabarini berib boradi. Har ikkala xarajatlar o'rtasida farqlar mavjud bo'lganda, konferensiya qo'mitasi odatda ikkala palata tomonidan boshqatdan qayta tiklangan xarajatlar deb qaraluvchi xabarlarni

---

<sup>29</sup>Makarand A.Paithankar. Public Budgeting theory and practice. CreateSpace Independent Publishing Platform (4 Jun. 2016) USA.



tayinlaydi. Agar palatalar bir marta bir xil xarajatlarni o'tkazib yuborsa, qonun chiqaruvchi organ gubernator yoki prezident tomonidan maqullanishiga yoki rad etilishiga tayyor turadi.

Mahalliy darajada, kam palatalilik ustunlik qilgan joyda budjet qo'mitasi ko'pincha shahar konsulliklari yoki maktab kengashlari kabi to'liq qonun chiqaruvchi organlarga qator tavsiyalar taqdim etish uchun va ijro etuvchi organlar budjet tasdiqini qayta ko'rib chiqish va o'zgartirishlar kiritish uchun asosiy ma'sulyatni o'z zimmasiga oladi<sup>30</sup>.

---

<sup>30</sup>Makarand A.Paithankar. Public Budgeting theory and practice. CreateSpace Independent Publishing Platform (4 Jun. 2016) USA.

## **6-mavzu. YEVIROPA MAMLAKATLARI G'AZNACHILIK TIZIMLARI**

### **Reja:**

- 1. Yevropa mamlakatlari g'aznachilik tizimlari tuzilishi va uning modellari.**
- 2. Yevropa mamlakatlari davlat tuzilishi shakllarida g'aznachilik tizimining amal qilishi.**
- 3. G'aznachilik tizimlari tashkil etilishida Yevropa mamlakatlari tajribalari.**
- 4. Yevropa mamlakatlari g'aznachilik tizimlari tuzilishi va uning modellari.**

Oksford lug'atida keltirilishicha, budjet – ma'lum davr uchun daromad va xarajatni hisoblash degan ma'noni anglatadi: Moliya Vaziri tomonidan yillik daromad va xarajatlarni muntazam baholash ya'ni oldinga qo'yilgan maqsadga muvofiq kerakli pul mablag'ini anglatadi. Merrayam-Vebster lug'atiga ko'ra, Budjet qanday qilib sarflanishi rejalashtirilganligiga bog'liq holda sarflanishga qodir bo'lgan pul mablag'i miqdoridir ya'ni, pul miqdorini qancha sarflanishi mumkinligini va kelajakda qancha sarflanishidir. Bu hukumat tomonidan belgilangan davr ichida qancha sarflanishi rejalashtirilganligi va xarajatlari uchun qancha to'lanishi haqidagi rasmiy ma'lumot. Rene Stourmning fikriga ko'ra: "budjet – davlatning yillik tushumi va xarajatlarni prognoz qiladi va tasdiqlaydi"<sup>31</sup>.

Davlatning budjet tuzilishi turli darajadagi Budjetlarning turlarini, har bir Budjet bo'g'inining tayinlanishini, turli pog'onadagi Budjetlar o'rtasida daromad va xarajatlarning taqsimlanishini, ularning amal qilish tamoyillarini, markaziy hukumat va mahalliy hokimiyat organlarining Budjet tizimini boshqarishdagi vakolatlarini belgilab beruvchi yuridik me'yorlarga asoslanadi. Budjet tizimi mamlakatda amal qiluvchi barcha darajadaga Budjetlar yig'indisini bildiradi.

Budjet tuzilishining qanday tuzilganligi mamlakatning ma'muriy-hududiy tuzilishiga va hukumat organlarining vakolatlari taqsimotiga bog'liq bo'ladi. Markaziy hukumat bilan mamlakatning ma'muriy-hududiy tuzilmalari (shtatlar, provinsiyalar, oblastlar, o'lkalar kabi) o'rtasida hokimiyat vakolatlarning

---

<sup>31</sup> Makarand A.Paithankar. Public Budgeting theory and practice, CreateSpace USA, 2016. p. 15

taqsimlanishiga ko'ra barcha davlatlar unitar va federativ (federativ davlatlarda davlat tuzilishining ikki shakli – federativ va konfederativ davlat tuzilishi mavjud) davlatlarga bo'linadi. Unitar va federativ (konfederativ) davlat tuzilishining o'ziga xos xususiyatlari quyidagi chizmada aks ettirilgan.

Unitar (yagona) davlat – bu tarkibidagi ma'muriy-hududiy birliklar (tuzilmalar) o'z davlatchiligiga yoki muxtoriyatiga ega bo'lmaydigan davlat tuzilishidir. Mamlakatda yagona konstitutsiya, hamma uchun umumiy bo'lgan huquq tizimi va yagona hokimiyat organlari, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy jarayonlarni markazlashtirilgan boshqarish tizimi amal qiladi.


Budjet tuzilishining qanday tuzilganligi mamlakatning ma'muriy-hududiy tuzilishiga va hukumat organlarining vakolatlari taqsimotiga bog'liq bo'ladi. Markaziy hukumat bilan mamlakatning ma'muriy-hududiy tuzilmalari (shtatlar, provinsiyalar, oblastlar, o'lkalar kabi) o'rtasida hokimiyat vakolatlarning taqsimlanishiga ko'ra barcha davlatlar unitar va federativ (federativ davlatlarda davlat tuzilishining ikki shakli – federativ va konfederativ davlat tuzilishi mavjud) davlatlarga bo'linadi. Unitar va federativ (konfederativ) davlat tuzilishining o'ziga xos xususiyatlari quyidagi chizmada aks ettirilgan.

Unitar (yagona) davlat – bu tarkibidagi ma'muriy-hududiy birliklar (tuzilmalar) o'z davlatchiligiga yoki muxtoriyatiga ega bo'lmaydigan davlat tuzilishidir. Mamlakatda yagona konstitutsiya, hamma uchun umumiy bo'lgan huquq tizimi va yagona hokimiyat organlari, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy jarayonlarni markazlashtirilgan boshqarish tizimi amal qiladi.

Unitar davlatlarda ikki pog'onali budjet tizimi amal qiladi:

Mahalliy budjetlar

Davlat byudjeti (bu bo'g'in turli mamlakatlarda turlicha nomlanadi, masalan, markaziy byudjet, respublika byudjeti, hukumat byudjeti kabi)



### **1-rasm. Ikki pog'onali budjet tizimi amal qiladigan Unitar davlatlar.**

Unitar davlatlarga Qozog'iston, Yaponiya, Shvetsiya, Fransiya, Polsha, O'zbekiston kabi davlatlar kiradi.

Federativ asosda tarkib topgan davlatlarda uch pog'onali Budjet tizimi amal qiladi:

federal Budjet (turli mamlakatlarda turlicha nomlanadi, masalan: davlat Budjeti, markaziy Budjet, federal Budjet);

federatsiya sub'ekt(a'zo)larining Budjetlari;

mahalliy (munitsipal) Budjetlar.

Federativ tipdagi davlatlarga Rossiya Federatsiyasi, Germaniya Federativ Respublikasi, AQSh, Kanada, Meksika, Avstriya kabi davlatlar kiradi.

Jahon amaliyotida davlat tuzilishining shakllariga mos ravishda bir qancha Budjet tuzilishi modellari amal qiladi:

markazlashmagan model;

markazlashgan model;

aralash model.

Budjet tuzilishining markazlashmagan modelida markaziy va mahalliy Budjetlar avtonom (mustaqil) bo'lib, ularning har biri o'z xarajatlarini to'liq qoplay oladigan daromad manbalariga ega bo'ladi.

Markazlashgan model barcha darajadagi Budjetlarni yagona davlat Budjetida birlashtirishni nazarda tutadi, bunda markaziy Budjet barcha mahalliy Budjetlar uchun (daromadlilik darajasini) tartibga soluvchi vazifani bajaradi.

Budjet tuzilishining aralash modeli barcha darajadagi Budjetlarni yagona davlat Budjetida birlashtirishni nazarda tutadi, lekin bunda har bir yuqori turuvchi Budjet quyi Budjetlarning daromadlilik darajasini tartibga solish vazifasini bajargani holda, har bir mahalliy Budjetning ham o'z xarajatlarini qoplashga mo'ljallangan o'z daromad manbalari mavjud bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining Budjet tuzilishi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining har yili qabul qilinadigan "O'zbekiston Respublikasining davlat Budjeti to'g'risidagi" Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va davlat Budjeti parametrlari prognozlari to'g'risida"gi Qarorlari va boshqa qonun hujjatlari asosida belgilanadi.

"Budjet birinchi navbatda aniq olingan vaqt davomida daromadlar va xarajatlarni prognoz qiladi. U shu bilan birga asosli huquqlar asosida xarajatlarni qilish va daromadlarni yig'ish demakdir. Davlat budjeti o'zining resurslari hisobi va bu resurslarni ma'muriy va ijtimoiy talablar uchun katta miqdordagi xarajatlarning qoplanishidir. E.Bukning fikriga ko'ra, budjet 3 ta komponentdan tashkil topgan: moliyaviy reja; bajariladigan ish tartibini tuzish, tasdiqlash, rejani ijro etish va nazorat qilish; va ayrim hukumat vakillari bu har bir rejani bajarishga va shu tartibda ijro etishga ma'suldirlar."2

#### Budjet xususiyatlari:

Bu o'tgan tajriba asosida ishlab chiqilgan tizimli, tashkiliy va ijroiyy reja va dasturdir. Bu aniq reja emas, lekin amaliy ish uchun qonuniy metoddir. Budjet hisobi taxminiy farazlarga asoslanmasligi va xolisona haqiqiy hisob-kitoblarga asoslangan holda bo'lishi lozim. Hukumatning barcha yillik daromadi va xarajatlarini qadamba-qadam tizimli ko'rsatishi lozim. Budjet muvofiqlashtirilgan mukammal hisob-kitobdir. Umuman, bu moliya yili bilan mos keluvchi yillik rejadir. Budjet tayyorgarligi va taqdimotini xususiy bo'lmagan a'zo budjetni qonuniy taqdim etish imtiyoziga ega. Parlamentar demokratik budjet qonuniy sanksiyalardan oldin qo'yiladi. Sanksiyalar e'loni xarajatlarni samarali boshqaradi

Budjet tizimi quyidagi printsiplarga asoslanadi:

Budjet tizimining yagonaligi;

Budjet tizimining O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy tuzilishiga muvofiqligi;

Budjet tizimi Budjetlarining balansliligi va o'zaro bog'liqligi;

Budjet tizimi Budjetlari daromadlarini prognoz qilish va xarajatlarini rejalashtirish;

Budjet tizimi Budjetlari mablag'laridan foydalanishning aniq yo'naltirilganligi va maqsadlilik xususiyati;

Budjet tizimi Budjetlarining mustaqilligi;

Budjet tizimi Budjetlari mablag'laridan foydalanishning natijadorligi;

kassaning yagonaligi;

Budjet jarayoni ishtirokchilarining javobgarligi;

ochiqlik.

Budjet tizimining yagonaligi printsipti Budjet hujjatlari va Budjet hisobotlarining shakllari, Budjet tasnifi yagona bo'lishi hamda Budjet tizimi Budjetlarining daromadlari va xarajatlarini shakllantirish hamda ijro etish, Budjet hisobini yuritish va Budjet hisobotini tuzishning yagona tartibini nazarda tutishini anglatadi.

Budjet tizimining O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy tuzilishiga muvofiqligi printsipti Budjet tizimi O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishiga muvofiq bo'lishi lozimligini anglatadi.

Budjet tizimi Budjetlarining balansliligi va o'zaro bog'liqligi printsipti:

Budjet tizimi Budjetlarida nazarda tutilgan xarajatlar hajmi ularning daromadlari va taqchillikni qoplash manbalari yig'indisining hajmiga muvofiq bo'lishi kerak;

Budjet tizimi Budjetlarini tuzish va ijro etishda Budjetlarning mablag'lari mazkur Budjetlarning balansliligini ta'minlash uchun ular o'rtasida qayta taqsimlanishi mumkin.

Budjet tizimi Budjetlari daromadlarini prognoz qilish va xarajatlarini rejalashtirish printsipti.

Budjet tizimi Budjetlarini tuzishda Budjet tasnifiga muvofiq, daromadlar ularning aniq manbalari bo'yicha prognoz qilinadi, xarajatlar esa yo'nalishlar bo'yicha rejalashtiriladi.

Budjet tizimi Budjetlari mablag'laridan foydalanishning aniq yo'naltirilganligi va maqsadlilik xususiyati printsipti. Budjet tizimi Budjetlarining mablag'lari muayyan Budjet tashkilotlari va Budjet mablag'lari oluvchilarga ushbu mablag'lardan belgilangan maqsadlarni moliyalashtirishda foydalanish uchun ajratiladi

Budjet tizimi Budjetlarining mustaqilligi printsipti.

Budjet tizimi Budjetlari mustaqildir.

Budjet tizimi Budjetlari mablag'laridan foydalanishning natijadorligi printsipti. Budjet jarayoni ishtirokchilari Budjet tizimi Budjetlarini tuzish va ijro etishda o'zlariga berilgan vakolatlar doirasida Budjet tizimi Budjetlarining belgilangan hajmdagi mablag'laridan foydalangan holda natijaga erishish zaruriyatidan kelib chiqadi.

Kassaning yagonaligi printsipti. Budjet tizimi Budjetlarining barcha daromadlari Yagona g'azna hisobvarag'iga kiritiladi va ularning xarajatlarini to'lash ushbu hisobvaraqdan amalga oshiriladi.

Budjet jarayoni ishtirokchilarining javobgarligi printsipti.

Budjet jarayoni ishtirokchilarining javobgarligi printsipti Budjet jarayonining har bir ishtirokchisi Budjet jarayonining har bir bosqichida o'z harakatlari uchun javobgar bo'lishidan iboratdir.

Ochiqlik prinsipi:

Davlat Budjetini va davlat maqsadli jamg'armalari Budjetlarini ko'rib chiqish hamda qabul qilish tartib-taomillarining jamiyat va ommaviy axborot vositalari uchun ochiqligini;

tasdiqlangan Davlat Budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari Budjetlari to'g'risidagi axborotning ommaviy axborot vositalarida va O'zbekiston

Respublikasi Moliya vazirligining rasmiy veb-saytida e'lon qilinishini (chop etilishini);

Davlat Budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari Budjetlari ijrosining borishi to'g'risidagi axborot ommaviy axborot vositalarida chop etilishini, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining rasmiy veb-saytida joylashtirilishi va yangilab borilishini anglatadi.

Budjet tizimi murakkab mexanizm bo'lib, muayyan mamlakatning o'ziga xos xususiyatlari, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va boshqa xususiyatlari asosida va ta'sirida shakllanadi.

Budjet tizimini professorlar T.S.Malikov va N.X.Haydarovlar quyidagicha ta'riflaganlar: «Budjet tizimi bu turli darajadagi Budjetlar va Budjet mablag'lari oluvchilar yig'indisini, Budjetlarni tashkil etishni va tuzish tamoyillarini ifodalaydigan, Budjet jarayonida ular o'rtasida, shuningdek Budjetlar hamda Budjet mablag'lari oluvchilar o'rtasida vujudga keladigan o'zaro munosabatlar majmuidir. Ko'pchilik hollarda, soddaroq tarzda, Budjet tizimi deyilganda, mamlakatdagi mavjud Budjetlar to'plami (majmui) tushuniladi»[3].

Keng ma'noda Budjet tizimi – iqtisodiy munosabatlarga asoslangan, davlat tuzilishining shakliga mos ravishda tuzilgan, huquq normalari bilan tartibga solinadigan markaziy va mahalliy Budjetlar yig'indisidan, shuningdek, har bir Budjet bo'g'iniga tegishli bo'lgan soliq va yig'imlar yig'indisidan, xarajat vakolatlari hamda Budjetlararo transfertlar yig'indisidan iboratdir. Tor ma'noda Budjet tizimi mamlakatda amal qiluvchi barcha darajadagi Budjetlar yig'indisidir.

Soddaroq qilib aytganda, Budjet tizimi bu iqtisodiy munosabatlarga, davlat tuzilishiga va qonun normalariga asoslangan davlat, ma'muriy-hududiy tuzilishlarning, Budjet munosabatlarida mustaqil bo'lgan Budjet tashkilotlari muassasalari va maqsadli davlat fondlarining majmuidir.

Budjet tizimi mamlakatdagi turli darajadagi Budjetlarni o'zida ifoda etadi. Boshqacha ma'noda, Budjet tizimi Budjetning o'zaro bog'liqlikda bo'lgan bo'g'inlarining o'zaro yig'indisidan iboratdir. Mamlakatning Budjet tizimi



jamiyatning siyosiy tuzilishiga, davlatning iqtisodiy tizimiga va uning ma'muriy-hududiy bo'linishiga bevosita bog'liq.

Mamlakatning Budjet tizimi ikki yoki uch bo'g'inli bo'lishi mumkin. Unitar davlatlar deb yuritiladigan mamlakatlarda Budjet tizimi ikki bo'g'indan (markaziy va mahalliy Budjetlar), federativ davlatlar deb yuritiladigan mamlakatlarda esa uch bo'g'indan (markaziy Budjet, federatsiya a'zolari Budjetlari va mahalliy Budjetlar) iborat bo'lishi mumkin.

Shuningdek, ba'zi unitar davlatlarda Budjetning markazlashtirishdan chiqarilish darajasi, hududlar hukumat organlarining vakolatlari bilan belgilanadigan ko'p darajali Budjet tizimiga ega bo'lishi mumkin. Masalan, markazlashtirishdan chiqarilgan unitar davlat - Fransiya to'rt darajali Budjet tizimiga, mahalliy hokimiyatlarning soliqqa oid vakolatlari konstitutsiya bilan belgilangan markazlashgan unitar davlat - Shvetsiya uch darajali Budjet tizimiga ega.

Biz yuqorida hokimiyatning markaz va ma'muriy-hududiy birliklar o'rtasida taqsimlanishi darajasiga ko'ra barcha davlatlar unitar, federativ va konfederativ davlatlarga bo'linishi, ularning hususiyatlarini ta'kidlab o'tdik. Shunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi unitar davlatdir.

Unitar davlat sifatida O'zbekiston Respublikasi davlat Budjet tuzilmasi ikki bo'g'indan – respublika Budjeti va mahalliy Budjetlardan tashkil topadi. Bu Budjetlar mamlakatimizdagi davlat Budjeti amal qilishining tashkiliy shakli bo'lib xizmat qiladi. Davlat Budjeti o'z ichida respublika Budjetini, Qoraqalpog'iston Respublikasi Budjetini va kengtarmoqli mahalliy Budjetlarni birlashtiradi.

Umumiy qilib aytganda ko'pchilik demokratik davlatlarda budjet 4 ta bosh maqsadni amalga oshirishi lozim:

Bugungi kunda davlat Budjetida davlatning Budjetdan tashqari maqsadli fondlari ham konsolidatsiyalashadi (jamlanadi), ular davlat Budjeti bilan birgalikda jamlanma Budjetni (konsolidatsiyalashgan Budjet) tashkil qiladi.

Budjetlashtirish tizimning bir turi sifatida tushunilishi mumkin, ya'ni “ular o'rtasida munosabatlar bilan bog'lanuvchi tarmoq”. Budjet qaror qabul qilish

ma'muriy xodimlar harakatini tashkil etadi (ikkala markaziy tashkilotda ham boshqaruv xodimi yoki hokim shtati va ma'muriy agentlik yo`nalishlarida), qonuniy xodimlar, tashkillashtirilgan manfaatli guruhlar va birgalikda tashkil etilgan manfaatlar, ya'ni davlat ehtiyojlari va soliqlar haqida davlat masalasini umumiy tushunish orqali namoyon bo`luvchi manfaatlardir. Keltirilgan hamma holatlar va budjetlashtirishni anglab yetish o`zaro munosabatlarni tushninishni bildiradi. Bunday tushunish umumiy tizimlar jihatidan o`ylash orqali a'lo darajada erishiladi.

Umumiy ijtimoiy tizim shaxslar, ijro etilgan normalar va ushbu elementlar o`rtasidagi munosabatlar tomonidan tashkil etilgan tashkilotlar, shaxslar va qiymatliklarni ifodalaydi. Tizim turli qismlar orqali qabul qilinuvchi xabarlarining ko`pgina qismlarini tashkil etgan alohida tarmoq sifatida tushuniladi. Tizim elementlarining natijalari va o`zaro ta'sir tizimi ishlab chiqarish uchun bir biriga ta'sir ko`rsatadi, huddi shu yo`nalishdagi natijalar orqali turli xil yo`nalishlar shaklida bo`lishi mumkin. Budjet tizimlari siyosiy qatnashchilar, iqtisodiy va ijtimoiy nazariyalar, bir qancha institutsional tuzilmalar va raqobatchi normalar va qiymatlarni o`z ichiga oladi, faqatgina budjet hujjatlarini o`rganishdan bevosita ochiq bo`lmagan shakldagi mahsulot ishlab chiqaruvchilarning hammasini o`z ichiga oladi.

2. Yevropa mamlakatlari davlat tuzilishi shakllarida g'aznachilik tizimining amal qilishi.

Milliy g'aznachilik tizimining asosiy vazifalaridan biri davlat moliyaviy resurslaridan foydadanish samaradorligini oshirishdir. Jahon tajribasi shuni ko`rsatadiki, davlat moliyasi tarkibkta kiruvchi, "g'aznachilik" deb ataluvchi organ o`ziga yuklatilgan funksiyadan kelib chiqib, turli majburiyatlarni bajaradi. G'aznachilikning tuzilishi va vazifalari mamlakatning tarixiy va madaniy urf-odatlaridan, shuningdek, iqtisodiy holatidan kelib chiqib belgilanadi.

G'aznachilik ayrim mamlakatlarda passiv ahamiyatga ega. U faqat tasdiqlangan byudjet mablag'larini ajratish bilan shug'ullansa, majburiyatlar limitini belgilash va xarajatlar to'lovini amalga oshirsa yoki oldindan belgilangan

mezonlar asosida alohida xarajatlarni ishlab chiqishga ruxsat bersagina, faol ahamiyatga ega. G'aznachilik davlat qarzlarini boshqarishning turli darajalarida ishtirok etadi va nihoyat, hisob funksiyasi bajarilishiga ham javob berishi mumkin. Davlat moliyasini boshqarishning va g'aznachilik tashkiliy tuzilishining yagona modeli mavjud emas, g'aznachilikning bo'limlari, boshqarmalari va aniq funksiyalari turli mamlakatlarda farqlanadi. G'aznachilik funksiyasi vaqt o'tishi bilan o'zgarishi mumkin. Uning tashkiliy tuzilishi agarda AQShda Moliya vazirligi Departamenti, Frantsiyada Moliya vazirligi Boshqarmasi, Angliyada mustaqil mahkama, Avstraliyada esa vazirlik darajasida ko'rinishiga ega.

### 1-jadval.

#### Rivojlangan mamlakatlarning davlat to'lovlaripi amalga oshirish uslubiyati

Mamlakatlar	Tavsiflar
Frantsiya	Moliya vazirligining davlat hisob xizmati hududiy kassa boshqarmalariga to'lovlarni chek chiqarish yoki pul mablag'larini G'YaHdan ko'chirish orqali amalga oshiradi.
Germaniya	Xuddi Frantsiya amaliyotiga o'xshaydi, lekin mablag'larni o'tkazish elektron shaklda amalga oshiriladi.
Latviya	Tarmok vazirliklarining nazoratchilari to'lovlarni cheklar yoki Latviya bankida ochilgan G'YaHdan ko'chirish orqali amalga oshiradi.
Angliya	Tarmoq vazirliklari to'lovlarni cheklar yoki G'YaHdan ko'chirish orqali (Angliya bankidagi bosh g'azna hisobraqami orqali) amalga oshiradi.
Avstriya	Avstriya G'aznachiligi to'lovlarni cheklar chiqarish yoki mablag'larni G'YaH - Federal zahira bankining g'azna hisobraqami orqali amalga oshiradi.

Qayd etilgan mamlakatlarning barchasida to'lovlar nazorati g'aznachilikning yagona hisobraqami orqali amalga oshiriladi. Bu hisobraqamning aniq ko'rinishi turli mamlakatlarda turlichadir. Yuqorida qayd etilgan mamlakatlarning qariyb barchasida g'aznachilik amalga oshirilgan xarajatlari nazoratini markaziy bankda ochilgan yagona hisobraqami orqali, ya'ni bosh kitobi tizimi orqali nazorat qiladi. Bu mamlakatlarda davlat to'lovlari 4-jadvalda aks ettirilgan tartibda amalga oshiriladi.

Berilgan jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Frantsiya va Germaniyada G'aznachilik Yagona Hisobraqami hududiy kassa boshqarmalari hisobraqamini o'z ichiga oladi, Yaponiya G'aznachilik Yagona Hisobraqami Yaponiya bankining hisobraqamini qamrab oladi. Angliyada tarmoq vazirliklari G'aznachilik Yagona Hisobraqami mablag'dan to'la hajmda foydalana oladi, ammo jamlanma daromad fondidan bu hisobraqamlarga mablag'larni ko'chirish, jamlanma har kunlik balans va ularning hisobi g'aznachilik nazorati ostida bo'ladi.

Angliyada soliq-byudjet sohasidagi asosiy javobgarlik to'g'ridan-to'g'ri g'aznachilikka yuklatilgan. Germaniyadan tashqari boshqa barcha mamlakatlarda byudjet muassasalari o'z hisobini yuritadi, ammo ularning tizimi to'lik markaziy hisob tizimiga birlashtirilgan, bu tizim Moliya vazirligi tomonidan boshqariladi. Mamlakatda Moliya vazirligi barcha byudjet muassasalariga hisob yuritish borasida to'liq xizmat ko'rsatadi. Bu xizmat to'lovlarni amalga oshirishning barcha bosqichlarini o'z ichiga oladi. Yaponiya banki hukumat uchun paralel ravishda byudjet-soliq sohasidagi barcha hisob-kitoblarni yuritadi, shuningdek, Moliya vazirligi umumiy buxgalteriya hisobi va hisobotini boshqarish va tartibga solish bo'yicha javobgar. Bu borada Yaponiya dunyoda yagona davlat hisoblanadi.

## 2-jadval.

### Rivojlangan mamlakatlar G'aznachilik yagona hisobraqami tuzilishi

Mamlakatlar	G'aznachilik yagona hisobraqami tuzilishi
Avstraliya	Yagona hisobraqam
Frantsiya	Yagona hisobraqam, hududiy hisobraqam
Germaniya	Yagona hisobraqam, hududiy hisobraqam
Latviya	Yagona hisobraqam. U bir vaqtning o'zida davlat boshqaruvi organlari bilan bog'liq bo'lgan moliya muassasalariga xizmat ko'rsatadi
Angliya	Yagona hisobraqam
Avstriya	Yagona hisobraqam, tijorat banklaridagi g'aznachilik, soliq va ssuda hisobraqamlari

Ko'rib chiqilayotgan mamlakatlar g'aznachiligining institutsional asoslarini o'rganishda qanday byudjet masalalariga javob berishini va byudjet ijrosini kim nazorat qilishini aniqlab olishimiz lozim. Bu borada Angliyaning amaldagi modeli e'tiborni tortadi. Mamlakatda g'aznachilik byudjet masalalarining barcha jihatlariga javob beradi, kadrlar masalalari bilan shug'ullanadi, byudjet ijrosi bo'yicha nazoratni tashkil etish, shuningdek, mavjud resurslar boshqaruvi jarayonini ham o'z ichiga oladi.

Tadqiqot jarayonida o'rganilgan davlatlarning barchasida moliyaviy aktivlarni boshqarish siyosati tarmoq departamentlari, boshqarmalari va vazirliklari tomonidan amalga oshiriladi. Mazkur davlatlarda byudjet ijrosi quyidagilarni nazarda tutadi:

solliqlar va boshqa tushumlarni yig'ishni;

bank bilan o'zaro aloqani (tushumlarni bank orqali yig'ishda);

daromad tushumlari nazoratini;

turli darajadagi davlat boshkaruv organlari o'rtasida tushumlarni taqsimlashini.

AQSh va Avstraliyada davlat byudjeti daromadi ijrosida g'aznachilik faol rol o'ynaydi. U o'zining soliq va bojxona boshqarmalari orqali bank tizimi bilan o'zaro aloqada bo'lib, barcha soliq va bojxona bojlarni yig'ishga javob beradi.

G'aznachilik Avstraliyada soliq boshqarmasi solliqlar to'lovlari bo'yicha tushumlarni ta'minlaydi. Angliya va Frantsiyada g'aznachilik solliqlar va bojxona to'lovlarni yig'ishda ishtirok etmaydi. U faqatgina jamlanma fondga va g'aznachilikning yagona hisobraqamiga kelib tushgan jami tushumlarni kuzatadi.

Byudjetning xarajat bo'yicha ijrosida AQSh, Avstraliya va Angliya g'aznachiligi passiv rol o'ynaydi. Bunda byudjet assignovaniyalari doirasida to'lovlarni va nazoratni tarmoq departamentlari amalga oshiradi. Frantsiyada byudjetning xarajat qismi bo'yicha nazoratni Byudjet direktorati olib boradi. Fikrimizcha, byudjetning joriy holatida, agar xarajatlar xuddi majburiyatlar va to'lov topshiriqnomalarini kabul qilish, to'lovlarni amalga oshirish bosqichlaridagidek qattiq nazorat qilinsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

G'aznachilikni struktura sifatida byudjet ijrosi bilan bog'liq holda ko'rib chiqishda quyidagilarni ta'kidlash kerak: g'aznachilik byudjet ijrosi bilan bog'liq masalalarga to'g'ridan-to'g'ri aralashmaydi, u faqatgina byudjet muassasalariga dasturlarni amalga oshirish uchun mablag' ajratadi yoki byudjet ijrosi jarayonida ancha faol ishtirok etishi mumkin. Masalan, u majburiyatlar chegaralarini o'rnatishga va xarajatlar to'lovini yoki oldindan belgilangan mezon asosida aniq xarajatlarni ishlab chiqishga ruxsat berish hukuqiga ega.

G'aznachilikka moliyaviy boshqaruv bo'yicha asosiy majburiyatlar yuklatilgan. Mablag'larni boshqarish uning muhim va asosiy faoliyati hisoblanadi. U hukumatning hisobraqamiga barcha tushumlar va to'lovlarni shuningdek, tushumlarni yig'ish jarayonidagi operatsion faoliyatni va to'lovlarni amalga oshirish jarayoni nazoratini ta'minlaydi. AQSh va Angliyada g'aznachilik buxgalteriya hisobi metodikasini o'rnatadi, umumiy hisob, muassasalarga yo'riqnoma, oylik va yillik moliyaviy hisobotlarni tayyorlash uchun javob beradi. Ko'rib chiqilgan davlatlarning barchasida g'aznachilik ichki nazorat va audit bilan shug'ullanadi.

Sanoati rivojlangan mamlakatlar (AQSh, Angliya, Frantsiya, Germaniya va boshkalar) g'aznachilik tizimi tahlili shuni ko'rsatadiki, G'YaHni Markaziy bankda ochish g'aznachilikni tashkil etishning asosiy talablaridan biridir. Milliy bankda G'YaHidan foydalanish davlatning bo'sh turgan mablag'larini bir joyga yig'ish, ulardan samarali foydalanish, nakd pul oqimlarini boshqarish va kassa to'lovlarini vaqtida hech qanday majburiyatlar jalb qilmasdan amalga oshirish imkonini beradi.

Rossiyada Rossiya Federatsiyasi Prezidenti tomonidan 2008 yildan boshlab "Axborotlashgan Jamiyatni rivojlantirishi Strategiyasi" joriy etilmoqda. Mazkur strategiyani maqsadi Rossiya Federatsiyasining iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy madaniy va diniy jihatdan jamiyatini rivojlantirish, aholining turmush darajasini oshirish, davlat boshqaruv tizimi zamonaviy axborot va telkommunikatsiya texnologiyalarini ko'llash orqali takomillashtirishdir.

Kanadada «Elektron xukumat» asosiy vazifasi xarajatlarni o'z vaqtida moliyalashtirish va byudjet mablag'laridan foydalanishda samaradorlikka erishishdan iborat. Shuning uchun bu borada taraqqiy etgan mamlakatlar, jumladan, Kanadada joriy etilgan «Elektron xukumat» axborot tizimini o'rganish muhimdir. O'zbekiston uchun Kanadaning «Elektron hukumat» tajribasini o'rganishning ahamiyati katta. «Elektron hukumat»ni tuzish uchun Kanada hukumati tomonidan 2000 -2006 yillarda 34ta vazirlik va idoralar qamrab olingan. Dasturining asosiy yo'nalishlari quyidagilar:

fuqarolarga 130 dan ortiq hukumat xizmatlarini elektron ko'rinishda takdim etishi;

foydalanuvchilarga elektron xizmatlarga cheksiz foydalanish imkoni berish;  
xizmatchilarni tezkor etkazish va o'tkazuvchi loyihalarni ishlab chikish;  
shaxsiy ma'lumotlarni va axborotlarni himoyalash infrastrukturasi yaratish;

«Elektron hukumat» faoliyati uchun standart va me'yoriy cheklovlar ishlab chiqish.

Kanadada 2003 yil sentyabrdan mazkur dasturni boshqarish ishlarini G'aznachilik Soveti va Hukumat xizmatlari va jamoatchilik ishlari vazirligi bajardi. 2001 yil sentyabrdan dasturni boshqarish uchun G'aznachilik Soveti boshchiligida maslahatlar guruhi jalb etildi, uning tarkibiga Kanada iqtisodiyotining turli sohalardan vakillar kiritildi.

Dasturni boshqarishining asosiy e'tibori, uni amalga oshirish rejasi va amalga oshirish jarayonini monitoring qilishdir. 2003 yilga qadar bu va axborot texnologiyalari boshqarmasi amalga oshirgan bo'lsa, keyinchalik hukumat xizmatlari vazirligiga o'tdi. Ular «Elektron xukumat»ning aniq bir tashkilotda amalga oshirilishiga javobgardirlar.

### **3. G'aznachilik tizimlari tashkil etilishida Yevropa mamlakatlari tajribalari.**

Hozirgi paytda devonxona asosiy e'tiborni olti yil davomida to'plangan tajribalarni targ'ib etish yakuniy natijaga yo'naltirilgan tatbiq etish vositalarini topishga qaratmoqda, davlat sektorida axborot va axborot texnologiyalarini boshqarish masalalari bo'yicha vakolatni kengash va davlat sektori xizmatlarini tashkil etish masalalari bo'yicha kengashdan iborat. Dasturning samaradorligini baholash uchun 11 turdagi ko'rsatgichlar ishlab chiqildi, bu ko'rsatkichlar uch asosiy yo'nalishga bo'lingan: axborot sifati; elektron xizmat sifati; elektron aloqa sifati. Rossiya Federatsiyasida 2007 yil 6 martda "Federal g'aznachilik va uning hududiy organlari axborotlariga ruxsat berilishini ta'minlash xaqida" gi Federal g'aznachilik buyrug'i bilan federal g'aznachilik faoliyatiga doir axborotlarga fuqarolar va tashkilotlarning kirishi umumiy talablar asosida o'rnatilgan.

i. Barcha hujjatlar Rossiya Federatsiyasi Moliya vazirligi, Federal G'aznachilikdan hujjatlarni skaner qilish orqali olinadi va ularning 100 % "tiniq"ligiga erishiladi. Kanadaning "Elektron xukumat" tajribasi shuni ko'rsatadiki global elektron axborot tizimini yaratish uzoq mudatga mo'ljallangan strategik rejalarni ishlab chiqishni talab etadi. Moliya vazirligi G'aznachiligida asosiy e'tibor g'aznachilikda axborot ochiqligini ta'minlovchi turli uslub va texnologiyalarni yaratilishiga qaratiladi.



**“Elektron hukumat” dasturini baholash ko’rsatkichlari<sup>32</sup>**

Axborot	Xizmat	Yetkazib berish
Qulaylik	Zaruriy xizmatning mavjudligi	Himoyalanganlik
Ochiqlilik		Samaradorlilik
Ishonchlilik	Foydalilik va qulaylilik	Innovatsiyaviyligi

Kanada internet saytlarini monitoring qilish uslubini respublikamizda keng qo’llanishi maqsadga muvofiq bo’ladi. Bu texnologiya Moliya vazirligi G’aznachiligining hududiy organlarida internet saytida axborotlar ochiqligini yagona yondoshuv asosida monitoring qilish imkoniyatini beradi.

G’aznachilik organlari tomonidan bajariladigan vazifalarning murakkabligi va ko’p qirraligi shundaki, g’aznachilik faoliyatini joriy qilish bilan g’aznachilik organlari o’z ishlarida zamonaviy avtomatlashtirilgan axborot texnologiyalaridan foydalanadi. Bu esa byudjet ijrosi jarayonida nafaqat bank tizimini bog’laydi, balki, bu jarayonlarda turli darajadagi moliya organlari, byudjet tashkilotlari, tarmoq idoralari, davlat maqsadli jamg’armalari va byudjetdan tashqari fondlar, bank, bojxona, soliq organlarining o’zaro aloqasi o’rnatiladi. G’aznachilik O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga har kunlik asosida yagona g’aznachilik hisob raqamida va hududiy g’aznachilik hisobraqamlarida mablag’larning harakati to’g’risidagi axborotni elektron shaklda taqdim etadi. Byudjetdan mablag’ oluvchilarga ular uchun G’aznachilikda yoki uning hududiy bo’linmalarida ochilgan shaxsiy hisob raqamlaridan ko’chirmalar, ularning xarajatlarini qoplashga byudjet mablag’lari o’tkazilganligini tasdiqlaydigan to’lov hujjatlari va boshqa hujjatlarni taqdim etadi va manbalar bo’yicha tegishli byudjetlar daromadlari tushumi hisobini yuritiladi. Moliya

<sup>32</sup> Qo’chqorov T., Xaydarov M. “Davlat byudjeti g’azna ijrosining axborot tizimi”. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”. 2010. -82 b.

organlarining topshirig'i bo'yicha yuqori byudjetlarda nazarda tutilgan rejali dotatsiyalar, subvensiyalar, byudjet ssudalari summasini va boshqa to'lovlarni quyi byudjetlarning g'aznachilik hisob raqamlariga o'tkazadi.

Rivojlanish strategiyasini amalga oshirish hujjatining loyahasiga binoan G'aznachilik Davlat byudjeti ijrosi tizimiga asta-sekin o'tish, G'aznachilik va uning joylardagi bo'linmalari tizimini rivojlantirishga oid tadbirlarni rejalashtirildi. Bu tadbirlar byudjetning daromad va xarajat qismlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda aniq bosqichlarga bo'linishi mumkin. Mazkur strategiyani amalga oshirish quyidagilarni nazarda tutadi:

a) byudjet daromadlari ijrosi sohasida:

bajarilayotgan ish hajmidan va bu bo'linmalarning qo'shimcha xodimlarga bo'lgan ehtiyojidan kelib chiqqan holda G'aznachilikning hududiy bo'linmalari tashkiliy tuzilmasini yanada takomillashtirish;

davlat byudjeti g'azna ijrosi elementlari sonini ko'paytirish maqsadida respublika mintaqalarida bu elementlarni joriy qilish natijalarini tahlil qilish va o'rganish, xususan, byudjet daromadlarini ijrosi g'aznachilik tizimining funktsional tartibini yanada takomillashtirish. Buning uchun dasturiy ta'minotni va normativ-huquqiy hujjatlarning hamda boshqa uslubiy hujjatlarni mukammallashtirish;

g'aznachilik bo'linmalarini kerakli kompyuter va boshqa texnik vositalar, aloqa vositalari hamda dasturiy mahsulotlar bilan ta'minlashini kuchaytirish;

daromadlarni byudjetning turli darajalari o'rtasida taqsimot qilish funksiyalarini bank muassasalaridan bosqichma-bosqich G'aznachilik bo'linmalariga o'tkazish;

Davlat byudjetiga tushadigan soliq va bojxona tushumlarini Davlat byudjeti g'azna ijrosiga o'tkazish;

G'aznachilik bilan soliq organlari va banklarning o'zaro harakatini aniq tartibini ishlab chiqish;

Davlat maqsadli fondlariga daromadlarni tushish ustidan nazoratni olib boruvchi tashkilotlarni G'aznachilik bilan o'zaro harakat tartibini ishlab chiqish

hamda ular o'rtasida axborot almashuvi dasturiy ta'minotini yanada takomillashtirish;

amalda faoliyat ko'rsatayotgan byudjetdan tashqari fondlar va davlat maqsadli jamg'armalari nazoratni tashkil etish;

b) byudjet xarajatlari ijrosi sohasida:

byudjetdan mablag' oluvchilarning banklardagi hisobvaraqlarini yopish va ularning shaxsiy hisobvaraqlarini Davlat byudjeti g'azna ijrosining axborot tizimida ochish;

G'aznachilik bo'linmalarining byudjetdan mablag' oluvchilarga naqd pul berish bo'yicha maxsus hisobvaraqlar bilan ishlaydigan banklar bilan o'zaro munosabatlar tartibini yanada takomillashtirish;

g'aznachilikda tarmoqli va hududiy boshqarish organlariga Davlat maqsadli fondlar mablag'larini sarf qilish bo'yicha shaxsiy hisobvaraqlarni ochish;

Davlat byudjeti g'azna ijrosi elementlarini joriy qilish natijalarini umumlashtirish va Davlat byudjeti g'azna ijrosi tartibini va dasturiy komplekslarni ko'paytirish;

byudjet majburiyatlari (shartnomalar va byudjetdan mablag' oluvchilarning hamkorlari oldida paydo bo'ladigan yuridik majburiyatlarini asoslovchi hujjatlar) hisobini olib borish tizimini yanada takomillashtirish hamda byudjetdan mablag' oluvchilarning moliyaviy majburiyatlari hisobini olib borishni mukammallashtirish;

O'zbekiston Respublikasi byudjeti hisobvaraqlardagi pul mablag'larini kundalik jamlama balansini tuzish bilan markazlashtirilgan holda boshqarish tizimini yaxshilash.

Xorijiy mamlakatlar tajribalaridan shuni xulosa qilish mumkinik, g'aznachilikning «amerika modeli» davlat pul mablag'larini, davlat qarzlarni, moliyaviy aktivlarini boshqarishda, byudjetni ijro etishda, nazorat funksiyasini amalga oshirishda ancha keng vakolatga ega. AQShdagi g'aznachilik modelini o'rganib, g'aznachilikning «o'zbek modeli»ni yaratish va buni uzoq muddatli dastur sifatida qabul qilish lozim.

Takrorlash uchun savollar

Rivojlangan davlatlarda byudjet g'azna ijrosini qanday tashkil etilgan?

Byudjetning xarajatlari ijrosida G'aznachilik organlarining roli nimalardan iborat?

Xorijiy mamlakatlarda G'aznachilik tizimini samarali tashkil etishning qanday chora-tadbirlari amalga oshiriladi?

G'aznachilik tizimi mexanizmining qanday shart-sharoitlari yaratiladi?

Xorijiy g'aznachilik tizimlarining qanday modellari mavjud?

Frantsiya g'aznachilik usulining afzalliklari nimalardan iborat?

G'aznachilikning AQSh byudjet ijrosidagi o'rnini ko'rsating?

Yaponiyada g'aznachilik tizimini joriy etish kontseptsiyasini tushuntiring?

Rivojlangan davlatlarda g'aznachilik faoliyatining muammolari nimalardan iborat?

Rossiya Federatsiyasida g'aznachilikning ijobiy tomonlarini aytib bering?

Rossiyada g'aznachilik tizimini moliyalashtirish muammolari qanday hal qilinadi?

Qozog'iston g'aznachilik tizimining byudjet ijrosini amalga oshirish mexanizmi qanday?

Qozog'iston g'aznachilik tizimining o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsating?

Ilg'or xorijiy tajribalar asosida O'zbekistonda g'aznachilik tizimini samarali tashkil etish uchun qanday tadbirlar amalga oshirish kerak?

Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar

Xorijiy mamlakatlar g'aznachilik tizimlari xususiyatlarini aks ettiruvchi chizma tayyorlang va izoh yozing.

G'aznachilik tizimlari modellarini, funksiyalarini, mustaqil daftaringizga aks ettiring, Yagona g'azna hisobraqamida daromadlarni kiritish va xarajatlarni to'lash tartibini aks ettiruvchi chizma tayyorlang va ularni izohlovchi xulosa yozing.

Davlat byudjeti yagona g'azna hisobraqamini yuritishning jahon tajribalarini o'rganing va xulosalaringizni mustaqil ta'lim daftaringizda aks ettiring.

## IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

### 1-MAVZU. “XORIJIY MAMLAKATLAR G'AZNACHILIK TIZIMLARI” FANINING MAZMUNI, PREDMETI VA VAZIFALARI

Rivojlangan mamlakatlar amaliyotidagi G'aznachilik tizimini O'zbekistonda ham joriy etish va rivojlantirish, davlatning moliya – axborot tizimini joriy etish, davlat moliyasining holati to'g'risida tezkor va ishonchli axborotlar olish imkonini beradiki, bu esa davlat moliyasini samarali boshqarishni ta'minlaydi.

“Xorijiy mamlakatlar g'aznachilik tizimlari” fanini o'qitishdan *maqsad* – talabalarga davlat byudjetining g'azna ijrosi haqida nazariy bilimlar berish, ularda mamlakatda amalga oshirilayotgan institutsional islohotlarning bugungi bosqichida davlat moliya tizimida amalga oshirilayotgan o'zgarishlarning asosiy yo'nalishlari va g'aznachilikning samarali faoliyatini ta'minlash bo'yicha asosiy ko'nikmalar hosil qilish, g'aznachilikning tashkiliy tuzilmasi va uning ishlash mexanizmlarini o'rganish, ularni nazariy, amaliy va metodologik jihatdan takomillashtirishdan iborat.

#### **Takrorlash uchun savollar**


1. “Xorijiy mamlakatlar g'aznachilik tizimlari” fanining shakllanish va rivojlanish shart-sharoitlari va zarurligini qanday holatlar bilan izohlash mumkin?
2. Xorijiy mamlakatlar davlat moliyasini boshqarish deganda nimani tushunasiz?
3. “Davlat moliyasini boshqarish tizimini isloh qilish” loyihasining strategik yo'nalishlari nimalardan iborat?
4. “Xorijiy mamlakatlar g'aznachilik tizimlari” fanining boshqa fanlar bilan uzviy bog'liqligi qanday omillar bilan bog'liq?
5. Fanning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?

#### **Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar**

1. “Xorijiy mamlakatlar g'aznachilik tizimlari” fanining boshqa iqtisodiy fanlar bilan bog'liqligini hamda maqsad va vazifalarini aks ettiruvchi chizma tayyorlang va izoh yozing.

## 2-MAVZU. RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA G'AZNACHILIK TIZIMLARINING XUSUSIYATLARI

“G’azna” inglizcha “treasure trove” so’zidan olingan bo’lib, insonlar tomonidan ma’lum bir maqsadlarda erga ko’milgan oltin va kumushning topilishi hamda bu topilma podsholarga tegishli bo’lganligini anglatadi. Boshqa iqtisodiy adabiyotlarda “g’aznachilik” – terminiga iqtisodiy kategoriya sifatida ikki xil ta’rif beriladi. G’aznachilik – davlat byudjeti kassasini ta’minlaydigan va davlat moliyasini boshqaradigan maxsus davlat organidir. G’aznachilik – mamlakatning moliya siyosatiga va iqtisodiyotni boshqarishga javob beradigan vazirlikdir.



**1-rasm. Xorijiy mamlakatlarda g’aznachilik tizimining modellari**

### **Takrorlash uchun savollar**

1. Rivojlangan davlatlarda byudjet g'azna ijrosini qanday tashkil etilgan?
2. Byudjetning xarajatlar ijrosida G'aznachilik organlarining roli nimalardan iborat?
3. Xorijiy mamlakatlarda G'aznachilik tizimini samarali tashkil etishning qanday chora-tadbirlari amalga oshiriladi?
4. G'aznachilik tizimi mexanizmining qanday shart-sharoitlari yaratiladi?
5. Xorijiy g'aznachilik tizimlarining qanday modellari mavjud?
6. Fransiya g'aznachilik usulining afzalliklari nimalardan iborat?
7. G'aznachilikning AQSh byudjet ijrosidagi o'rnini ko'rsating?
8. Yaponiyada g'aznachilik tizimini joriy etish kontseptsiyasini tushuntiring?
9. Rivojlangan davlatlarda g'aznachilik faoliyatining muammolari nimalardan iborat?
10. Rossiya Federatsiyasida g'aznachilikning ijobiy tomonlarini aytib bering?
11. Rossiyada g'aznachilik tizimini moliyalashtirish muammolari qanday hal qilinadi?
12. Qozog'iston g'aznachilik tizimining byudjet ijrosini amalga oshirish mexanizmi qanday?
13. Qozog'iston g'aznachilik tizimining o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsating?
14. Ilg'or xorijiy tajribalar asosida O'zbekistonda g'aznachilik tizimini samarali tashkil etish uchun qanday tadbirlar amalga oshirish kerak?

### **Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar**

1. Horijiy mamlakatlar g'aznachilik tizimlari xususiyatlarini aks ettiruvchi chizma tayyorlang va izoh yozing.
2. G'aznachilik tizimlari modellarini, funktsiyalarini, mustaqil daftaringizga aks ettiring, Yagona g'azna hisobraqamida daromadlarni kirim qilish va xarajatlarni to'lash tartibini aks ettiruvchi chizma tayyorlang va ularni izohlovchi xulosa yozing.
3. Davlat byudjeti yagona g'azna hisobraqamini yuritishning jahon tajribalarini o'rganing va xulosalaringizni mustaqil ta'lim daftaringizda aks ettiring.
4. Rossiya G'aznachiligi yagona g'azna hisobraqamiga o'tish davrida amalga oshirilgan tadbirlar va qabul qilingan me'yoriy hujjatlar sharhini keltiring.
5. AQSh G'aznachilik departamentining faoliyati sharhini keltiring.

### 3-MAVZU. AQSH G'AZNACHILIGI FAOLIYATI

AQSH Senat Kongressining qaroriga muvofiq, g'aznachilik moliyani boshqaruvchi doimiy organ hisoblanadi. Uning barcha vazifalarini quyidagi organlar bajaradi. G'aznachilik sekretarlari - bosh idora, kontroler, auditor, g'aznachilik inspektori va g'aznachilik sekretariat yordamchisi. G'aznachilik sekretari lavozimiga birinchi bo'lib A.Gaminton tayinlangan bo'lib, u 1789 yil 11 sentyabrdan 1795 yilgacha ushbu vazifani bajardi. O'n yillar mobaynida g'aznachilik funksiyasi kengaytib va murakkablashib bordi. Bugungi kunda G'aznachilik AQShda hisob siyosati, pul belgilarini yaratish, iqtisodiy siyosat loyihalarini ishlab chiquvchi yagona muassasasidir. AQShda g'aznachilik uchta asosiy funksiyani bajaradi:

1. G'aznachilik davlatga moliya xizmati ko'rsatish bo'yicha funksiyalarni bajaradi:

- davlat pul mablag'larini hisobga olish;
- omonat obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarni chiqarish;
- soliq to'lovlari va bojxona bojlarini yig'ish;
- milliy banklar faoliyatini nazorat qilish;
- tangalar zarb qilish, qog'oz pullar va pochta markalari chiqarish.

#### **Amaliy mashg'ulotda ishlash tartibi va reglament**

1. Guruhda ishlash va prezentatsiyani yozish - 20 minut.
2. Ishning natijalarini taqdimot etish - 5 minut.
3. Jamoa bo'lib muhokama qilish va guruhni baholash - 5 minut.

#### **Guruh bilan ishlash qoidalari**

##### **Guruh a'zolarining har biri**

- o'z sheriklarining fikrlarini xurmat qilishlari lozim;
- berilgan topshiriqlar bo'yicha faol, hamkorlikda va mas'uliyat bilan ishlashlari lozim;
- o'zlariga yordam kerak bo'lganda so'rashlari mumkin;
- yordam so'raganlarga ko'mak berishlari lozim;
- guruhni baholash jarayonida ishtirok etishlari lozim;
- "Biz bir kemadamiz, birga cho'kamiz yoki birga qutilamiz" qoidasini yaxshi bilishlari lozim.



Diqqat topshiriq: quyidagi jadvalni to'ldiring.

### G'aznachilik tizimini rivojlantirish


<b>№</b>	<b>Xususiyatlari</b>	<b>Rossiya Federatsiyasi</b>	<b>Qozog'iston</b>	<b>AQSH</b>	<b>Frantsiya</b>
<b>1</b>	G'aznachilik tizimining huquqiy-me'yoriy asoslarini takomillashtirish				
<b>2</b>	G'aznachilik mexanizmining axborot tizimini takomillashtirish				
<b>3</b>	Davlat tomonidan mablag' jalb qilish va qarzlarni boshqarishni takomillashtirish				
<b>4</b>	O'zbekiston Respublikasining «Byudjet Kodeksi»ga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish				
<b>5</b>	G'aznachilik tizimini takomillashtirish masalalari				

### Guruhlariga bo'linib ishlash uchun topshiriqlar:

1. G'aznachilik faoliyatini tashkil etishning xorijiy tajribalari to'g'risida gapirib bering.
2. Avstraliya g'aznachilik Departamenti va Yaponiya g'aznachilik bo'limi faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini gapirib bering.
3. Fransiya davlat g'aznasi faoliyati to'g'risida gapirib bering.

#### 4- FRANTSIYA G'AZNACHILIK TIZIMI

Frantsiyaning Davlat byudjeti daromadlari yig'ish funksiyalarni bajarish uchun soliqli to'lovlar va to'lovlarni yig'ishning avtomatlashtirilgan protseduralari ishlab chiqilgan. Qo'shimcha qiymat solig'ini to'laydigan 2000 ga yaqin soliq to'lovchilar to'lovlarni to'g'ridan-to'g'ri Markaziy bankning yagona hisobraqamga o'tkazadi, qolgan soliqlarning 50 foizi Tushumlar Direktorati tomonidan, 35 foizi Davlatning hisob-kitob yuritish bosh derektsiyasi tomonidan, 15 foizi Bojxona xizmati tomonidan yig'iladi. Frantsiyadagi g'aznachilik tizimi faoliyatining eng muxim tomonlaridan biri shundaki, kadrlar masalasiga alohida e'tibor beriladi. Frantsiyada o'tgan yillar mobaynida Davlat G'aznasi Bosh Boshqarmasi kadrlarni sifatli tanlash va xodimlarni samarali boshqarishga alohida e'tibor berdi.



2-rasm. Frantsiyaning g'aznachilik tizimida daromdlarni yig'ish<sup>33</sup>

1-jadval. Frantsiyaning Davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari to'g'risida ma'lumot (mlrd. frankda)

Davlat daromadlari	Miqdori	Davlat xarajatlari	Miqdori
Jami tushumlar	1281	Mahalliy hokimiyat organlari byudjeti-ning taqsimlanishi	1194
Davlat byudjeti	870	Kommunalar	38.4%
Mahalliy hokimiyat organlari byudjeti	366	Davlat tashkilotlari	11.9%
Audio yig'imlar	13	Departamentlar	19.9%
Ijtimoiy yig'imlar	31	Mintaqalar	6.6%
		Davlat sog'liqni	23.2%

		saqlash muassasalari	
Davlat xarajatlari	2055	Bosh g'aznachilar	108ta
Joriy xarajatlar	1887	G'aznachilar	3800 ta
Kapital xarajatlar	168	Mintaqaviy axborot markazlarida 58000dan ortiq xodim	30ta
G'aznachilikning yagona hisobraqami	580	Pensionerlar soni	2227404
Pensiya to'lovlari	198	Harbiy pensionerlar	486362
Boshqa to'lovlar	432	Boshqa pensionerlar	1741078

### **Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar**

1. Horijiy mamlakatlar g'aznachilik tizimlari xususiyatlarini aks ettiruvchi chizma tayyorlang va izoh yozing.

2. G'aznachilik tizimlari modellarini, funktsiyalarini, mustaqil daftaringizga aks ettiring, Yagona g'azna hisobraqamida daromadlarni kirim qilish va xarajatlarni to'lash tartibini aks ettiruvchi chizma tayyorlang va ularni izohlovchi xulosa yozing.

3. Davlat byudjeti yagona g'azna hisobraqamini yuritishning jahon tajribalarini o'rganing va xulosalaringizni mustaqil ta'lim daftaringizda aks ettiring.

4. Rossiya G'aznachiligi yagona g'azna hisobraqamiga o'tish davrida amalga oshirilgan tadbirlar va qabul qilingan me'yoriy hujjatlar sharhini keltiring.

5. AQSh G'aznachilik departamentining faoliyati sharhini keltiring.


### **5-MAVZU. ROSSIYA G'AZNACHILIGINING FAOLIYATI**

Rossiyada XV asrda g'azna palatalari deb nomlangan guberniya organlari tashkil qilingan bo'lib, 1775 yil 7 noyabrda amalga oshirilgan imperator Ekoterina II farmoni Butun Rossiya imperiyasini guberniyalarini boshqaruvchi tashkilot bilan g'azna palatalari tashkil etildi. G'azna palatasi to'g'risidagi farmonda ko'rsatilganidek, ularga barcha xazina vositalari, pullar, gerbli qog'ozlar, pasportlar, g'azna do'konlaridan tuz va vino, bojxona va boshqalar kiritildi. G'azna daromadlarini o'ziga yig'ish, sarflash xuquqiga ega emas, barcha tillalarni saqlashni tartibga solingan holda kirim-chiqim kitobini yuritishlari kerak. Guberniya g'aznachiligi va ularga buysinuvchi uezd g'aznachiligi kirim, pul

mablag'larini saqlash va tarqatish bilan shug'ullangan. Barcha g'azna daromadlari boshqarmaning qaysi bo'linmasida va qaysi manbadan kelib tushishidan qat'iy nazar g'aznachilikka tegishlidir, har qanday ortiqcha sarf -xarajat ruxsatsiz amalga oshirilmasligi kerak.



**2-rasm. Rossiya Federatsiyasi Federal G'aznachiligida byudjet ijrosi jarayoniga ta'sir ctuvchi omillar<sup>34</sup>**



**3-rasm. Boshqarish elementlari**

<sup>34</sup> Jdanchikov P. A. Kaznacheystvo. Avtomatizirovannie biznes-texnologii upravleniya finansovimi potokami. Uchebnoe posobie. – M.: «Visshey shkoli ekonomiki». 2010. - 363 s

## Savollarga javob bering

1. Rossiya G'aznachilik tizimining mazmuni, afzalliklari va ishlash prinsiplarini tushuntirib bering.
2. Rossiya G'aznachiligida yagona buxgalteriya hisobini yuritishning kompyuter dasturini tatbiq etishning ijobiy tomonlari nimada?
3. Byudjet tasnifi nima, uning davlat byudjeti g'azna ijrosini samarali tashkil qilishdagi ahamiyati nimalarda namoyon bo'ladi?
4. G'aznachilik dasturiy majmualarining mohiyati, zarurligi va ahamiyati nimalarda namoyon bo'ladi?

## 5. Amaliy mashg'ulotda ishlash tartibi va reglament

1. Guruhda ishlash va prezentatsiyani yozish - 20 min.
2. Ishning natijalarini taqdimot etish - 5 min.
3. Jamoa bo'lib muhokama qilish va guruhni baholash - 5 min.
4. Guruh bilan ishlash qoidalari

## Mavzu bo'yich besh daqiqalik esse yozing

**Esse-** o'rganilayotgan mavzu bo'yicha olingan bilimlarni umumlashtirish, mushoxada qilish maksadida o'quv mashg'ulotida oxirida 5 daqiqa oralig'ida olib boriladi.

## Test savollari

### 1. Byudjet tashkilotlarining tasdiqlangan xarajatlar smetasini ro'yxatdan o'tkazish muddati:

A.-Tegishli byudjet parametrlari tasdiqlangan paytdan boshlab 30 kun muddatdan kechiktirmay

B.-Tegishli byudjet parametrlari tasdiqlangan paytdan boshlab 40 kun muddatdan kechiktirmay

C.-Tegishli byudjet parametrlari tasdiqlangan paytdan boshlab 20 kun muddatdan kechiktirmay

D.-Tegishli byudjet parametrlari tasdiqlangan paytdan boshlab 10 kun muddatdan kechiktirmay

### 2. Byudjet tashkilotlariga o'tgan yildagi debitorlik qarzlarning qaytarilgan summasi ...

A.-byudjet tashkilotlarining Rivojlantirish jamg'armasiga o'tkaziladi

B.-tegishli byudjetlar daromadiga o'tkaziladi

C.-byudjet tashkilotlarining "Boshqa xarajatlar" guruhidagi xarajatlarga yo'naltiriladi

D.-byudjet tashkilotlarining I va II guruh xarajatlarini qoplash uchun yo'naltiriladi.

**3. Byudjet tashkilotlarining IV-guruh "Boshqa xarajatlar" hisobiga uyali telefonlar, import ofis mebellarini sotib olish qaysi organ bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi?**

- A.-Tegishli viloyat Moliya boshqarmasi, tuman (shahar) moliya bo'limlari
- B.-Moliya vazirligi G'aznachiligi
- C.-O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi
- D.-Boshqa organlar bilan kelishilmaydi.

**4. Xarajatlar smetalarining turlari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?**

- A.-Yakka, jamlanma, byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha
- B.-Sodda, murakkab
- C.-Yakka, birlashgan
- D.-Yakka, umumlashgan, yig'ma.

**5. Byudjet tashkilotlarining ishlab chiqilgan va ro'yxatdan o'tkazish uchun kiritiladigan smetalari va shtatlar jadvalining to'g'riligi va asoslanganligi uchun kim javobgar?**

- A.-Byudjet tashkilotining rahbari, byudjet tashkilotining bosh hisobchisi
- B.-Hokimliklar
- C.-O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tizimidagi vakolatli xodimlar
- D.-O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi tizimidagi vakolatli xodimlar

**6.Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan tashkilotlarning tasdiqlangan xarajatlar smetalari va shtat jadvallari qaysi organ tomonidan ro'yxatdan o'tkaziladi?**

- A.-O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi
- B.-Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi
- C.-O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
- D.-Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

**7. Ro'yxatdan o'tkazilgan xarajatlar smetasi mavjud bo'lmagan taqdirda...byudjet tashkiloti xarajatlar smetasi ro'yxatdan o'tkazilguniga qadar to'xtatib turiladi**

- A.-joriy yilning 1 apreldan boshlab byudjet tashkiloti xarajatlarini to'lab berish to'xtatiladi
- B.-o'tgan yilda tasdiqlangan smetaga ko'ra xarajatlar to'lab boriladi
- C.-joriy moliya yilining 1 apreldan e'tiboran byudjet tashkiloti xarajatlar smetasi ro'yxatdan o'tkazilguniga qadar to'xtatib turiladi

**8. Kelgusi moliya yilining birinchi choragi uchun byudjet tashkilotlarining vaqtinchalik xarajatlar smetalari qaysi muddatlarda tuziladi?**

A.-joriy moliya yilining 30 dekabrigacha tuziladi, tasdiqlanadi va ro'yxatdan o'tkaziladi

B.-joriy moliya yilining 25 dekabrigacha tuziladi, tasdiqlanadi va ro'yxatdan o'tkaziladi

C.-kelgusi yilning 10 yanvarigacha tuziladi

D.-kelgusi yilning 1 aprelogacha tuziladi, tasdiqlanadi va ro'yxatdan o'tkaziladi

**9. Byudjet tashkilotlarining xarajatlar smetasi kim tomonidan imzolanadi va tasdiqlanadi? Tashkilot bosh buxgalteri (uning o'rinbosari) va moliya-iqtisod bo'linmasi boshlig'i (shtat jadvaliga muvofiq moliyaviy-iqtisodiy masalalar bo'yicha mutaxassis) tomonidan imzolanadi hamda tashkilot rahbari yoki u vakolat bergan shaxs tomonidan tasdiqlanadi**

A.-Yuqori turuvchi tashkilot bosh buxgalteri (uning o'rinbosari) va moliya-iqtisod bo'linmasi boshlig'i tomonidan imzolanadi hamda yuqori turuvchi tashkilot (masalan, vazirlik) rahbari tomonidan tasdiqlanadi

B.-Tegishi moliya bo'limi rahbari tomonidan imzolanadi va tasdiqlanadi

C.-Tegishi G'aznachilik bo'linmasi rahbari tomonidan imzolanadi va tasdiqlanadi

**10. Xarajatlar smetasiga qanday hujjatlar ilova qilinadi?**

A.-xarajatlarning moddalari bo'yicha to'rtinchi guruh xarajatlari yoyilmasi

B.-davlat ehtiyojlari uchun ustuvor ravishda kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) guruhlarining ro'yxati bo'yicha xarajatlar yoyilmasi

C.-xarajatlarning moddalari bo'yicha birinchi guruh xarajatlari yoyilmasi

D.-to'rtinchi guruh xarajatlari yoyilmasi hamda davlat ehtiyojlari uchun ustuvor ravishda kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) guruhlarining ro'yxati bo'yicha xarajatlar yoyilmasi

**6-MAVZU. YEVROPA MAMLAKATLARI G'AZNACHILIK TIZIMLARI**

**Rivojlangan mamlakatlarning davlat to'lovlaripi amalga oshirish uslubiyati**

Mamlakatlar	Tavsiflar
Frantsiya	Moliya vazirligining davlat hisob xizmati hududiy kassa boshqarmalariga to'lovlarni chek chiqarish yoki pul mablag'larini G'YaHdan ko'chirish orqali amalga oshiradi.

<b>Germaniya</b>	Xuddi Frantsiya amaliyotiga o'xshaydi, lekin mablag'larni o'tkazish elektron shaklda amalga oshiriladi.
<b>Latviya</b>	Tarmok vazirliklarining nazoratchilari to'lovlarni cheklar yoki Latviya bankida ochilgan G'YaHdan ko'chirish orqali amalga oshiradi.
<b>Angliya</b>	Tarmoq vazirliklari to'lovlarni cheklar yoki G'YaHdan ko'chirish orqali (Angliya bankidagi bosh g'azna hisobraqami orqali) amalga oshiradi.
<b>Avstriya</b>	Avstriya G'aznachiligi to'lovlarni cheklar chiqarish yoki mablag'larni G'YaH - Federal zahira bankining g'azna hisobraqami orqali amalga oshiradi.

### **Rivojlangan mamlakatlar G'aznachilik yagona hisobraqami tuzilishi**

<b>Mamlakatlar</b>	<b>G'aznachilik yagona hisobraqami tuzilishi</b>
<b>Avstraliya</b>	Yagona hisobraqam
<b>Frantsiya</b>	Yagona hisobraqam, hududiy hisobraqam
<b>Germaniya</b>	Yagona hisobraqam, hududiy hisobraqam
<b>Latviya</b>	Yagona hisobraqam. U bir vaqtning o'zida davlat boshqaruvi organlari bilan bog'liq bo'lgan moliya muassasalariga xizmat ko'rsatadi
<b>Angliya</b>	Yagona hisobraqam
<b>Avstriya</b>	Yagona hisobraqam, tijorat banklaridagi g'aznachilik, soliq va ssuda hisobraqamlari

### **Takrorlash uchun savollar**

1. Rivojlangan davlatlarda byudjet g'azna ijrosini qanday tashkil etilgan?
2. Byudjetning xarajatlar ijrosida G'aznachilik organlarining roli nimalardan iborat?
3. Xorijiy mamlakatlarda G'aznachilik tizimini samarali tashkil etishning qanday chora-tadbirlari amalga oshiriladi?
4. G'aznachilik tizimi mexanizmining qanday shart-sharoitlari yaratiladi?
5. Xorijiy g'aznachilik tizimlarining qanday modellari mavjud?
6. Frantsiya g'aznachilik usulining afzalliklari nimalardan iborat?
7. G'aznachilikning AQSh byudjet ijrosidagi o'rmini ko'rsating?
8. Yaponiyada g'aznachilik tizimini joriy etish kontseptsiyasini tushuntiring?
9. Rivojlangan davlatlarda g'aznachilik faoliyatining muammolari nimalardan iborat?
10. Rossiya Federatsiyasida g'aznachilikning ijobiy tomonlarini aytib



bering?

11. Rossiyada g'aznachilik tizimini moliyalashtirish muammolari qanday hal qilinadi?

12. Qozog'iston g'aznachilik tizimining byudjet ijrosini amalga oshirish mexanizmi qanday?

13. Qozog'iston g'aznachilik tizimining o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsating?

14. Ilg'or xorijiy tajribalar asosida O'zbekistonda g'aznachilik tizimini samarali tashkil etish uchun qanday tadbirlar amalga oshirish kerak?

## V. KEYSLAR BANKI

### 1. Tashkiliy ta'minot

#### 1.1. Vaziyat

Davlat byudjeti daromadlari cheklanganligi sababli byudjet xarajatlarini samarali boshqarish zarur. Vaziyatdan chiqishning turli variantlarini topish zarur.

#### 1.2. Muammo

G'aznachilik usulida O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetini samarali boshqarishni ta'minlash.

#### 1.3. Vazifalar

1. Davlat byudjeti daromadlarini samarali boshqarish omillarini aniqlash.
2. Byudjet xarajatlarini moliyalashtirish mexanizmi variantlarini tanlash.
3. Byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish yo'llarini ko'rsatish.
4. Samarali variantni tanlash.

### Yechish algoritmi

1.4.1. Davlat byudjet daromadlarini prognozlash metodlarni tadbiq etish.

1.4.2. Byudjet xarajatlarini rejalashtirish metodlarini yaxshilash.

1.4.3. Byudjet tashkilotlarini shartnomalarini nazorat qilish, xarajatlarni to'lovini amalga oshirish va to'lovni nazorat qilish protseduralarini mukammallashtirish.

1.4.4. Davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan xarajatlarni moliyaviy nazoratini takomillashtirish.

1.4.5. Byudjet tashkilotini rivojlantirish jamg'armasini tashkil etish va boshqarish.

1.4.6. Talabalarning qo'shimchalari.

#### 1.5. Maslahat va tavsiyalar

1. Keltirilgan barcha ma'lumotlarni diqqat bilan o'qib chiqing.

2. O'qiyotganingzda darhol tahlil qilishga shoshilmang. Sizga asosiy bo'lgan abzatlarni ajrating.
3. Vaziyatni xarakterlashga intiling. Asosiy muammoni mohiyatini tushuning. Asosiy muammoni va ikkinchi darajali muamolarni yozing.
4. Mazkur muammoga taaluqli faktlarni belgilang.
5. Taklif kilingan qarorni to'g'riligini asoslaydigan mezonlarni shakllantiring.
6. Qarorning maqbul variantini topishga intiling.
7. Sizning qaroringizni amalga oshirilishi uchun chora-tadbirlarini ishlab chiqing.

### Vaziyatni tahlil qilish varag'i

Tahlil bosqichi nomi	Tahlil bosqichi mazmuni	Tahlil natijasi	Baholash ko'rsatkichlari va mezon	
			kursatkich	mezon %da
Vaziyat tahlili	1. Berilgan vaziyatni o'rganish va masalani echish uchun zarur ma'lumotlarni aniqlash? 2. Keysdagi holatlarni oydinlashtirish: Nima yuz berayapti? Nima kutilyapti?		<b>lundalik</b>	5 %
2. Muammoni shakllantirish	Muammo mazmunini so'zlarda aks ettirish		Maksimal darajada qisqa ifodalash, 9-10 ko'p bo'lmagan so'z	10 %
3. E'tibor qaratilgan muammoni aniqlash	Davlat byudjetini samarali boshqarish uchun nimalarni o'zgartirishi mumkinligini aniqlash		Maksimal darajada qisqalik	10%
4. Kontseptual e'tibor qaratilgan muammoni aniqlash			Aniqlik	40%
5. Vaziyatdagi mantiqiy holatlarni belgilash			Aniqlik	15%
6. Qarorlarning alternativ qarorlarni	Avval boshdanoq			10%

niqlash va eng aqbulini tanlash	yaroqsiz bo'lgan texnologiyani ajratib olish. Optimal echimga olib keladigan strategiyani tanlash.			
7. Echimni shakllantirish	Har tomonlama to'g'ri echimni ishlab chiqib, qaror qabul qilish.		Aniqlik, qarorni asoslanganligi	10%

### “Insert” usuli

**Insert** - samarali o'qish va fikrlash uchun belgilashning interfaol tizimi hisoblanib, mustaqil o'qib-o'rganishda yordam beradi. Bunda ma'ruza mavzulari, kitob va boshqa materiallar oldindan talabaga vazifa qilib beriladi. Uni o'qib chiqib, «V; +; -; ?» belgilari orqali o'z fikrini ifodalaydi.

### Matnni belgilash tizimi

(v) - men bilgan narsani tasdiqlaydi.

(+) - yangi ma'lumot.

(-) - men bilgan narsaga zid.

(?) - meni o'ylantirdi. Bu borada menga qo'shimcha ma'lumot zarur.

### Insert jadvali

Tushunchalar	V	+	-	
Byudjet ijrosining g'aznachilik tizimi				
G'aznachilik				
Davlat moliyasini bosh masalasi				
Davlat moliyaviy resurslarini shakllantirish				
Davlat qarzlariga oid iqtisodiy qonunlar				
Davlat qarzlariga oid iqtisodiy kategoriyalar				
Davlat byudjetiga keladigan va davlat byudjetidan ketadigan pul oqimlari				
Davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarini reilashtirish ushblari				

G'aznachilikda davlat qarzlari boshqarish				
G'aznachilik tomonidan davlat qimmatli qog'ozlarini chiqarish				

### **Amaliy mashg'ulotda ishlash tartibi va reglament**

1. Guruhda ishlash va prezentatsiyani yozish - 20 min.
2. Ishning natijalarini taqdimot etish - 5 min.
3. Jamoa bo'lib muhokama qilish va guruhni baholash - 5 min.

### **Guruh bilan ishlash qoidalari**

Guruhning har bir a'zosi:

- o'z sheriklarining fikrlarini xurmat qilishlari lozim;
- berilgan topshiriqlar bo'yicha faol, hamkorlikda va mas'uliyat bilan ishlashlari lozim;
- yordam kerak bo'lganda so'rashlari mumkin;
- so'raganlarga ko'mak berishlari lozim;
- guruhni baholash jarayonida ishtirok etishlari lozim.

### **Takrorlash uchun savollar**

1. Davlat qarzlarning mohiyati nimadan iborat va qanday shakllari mavjud?
2. Davlat qarzlari boshqarishning qanday vazifalarini bilib oldingiz vazifalari va usullari?
3. Davlat ichki va tashqi qarzlari boshqarishning qanday hozirgi zamon muammolari mavjud ?
4. Davlat qarzlari boshqarishda g'aznachilik tizimi oldiga qanday vazifalar qo'yilgan ?
5. Davlat kafolatlarini boshqarilishi tartibi qanday amalga oshiriladi?
6. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga investitsiyalarni yo'naltirish amaliyoti bo'yicha jadval tuzing va izohlang.
7. O'zbekiston Respublikasida xalqaro moliya institutlari mablag'laridan foydalanishda g'aznachilik operatsiyalarni qanday tartibda amalga oshirilishini tavsiflang.

## Kategoriyalarni tavsiflashni o'tkazish qoidasi

### *Pinbord texnikasi*

(inglizchadan: pin – mahkamlash, board- doska ma'nosini bildiradi ) muammoni hal qilishga oid fikrlarni tizimlashtirish va guruhlashni amalga oshirishga, kollektiv tarzda yagona yoki qarama-qarshi pozitsiyani shakllantirishga imkon beradi. **Pinbord**

1. O'qituvchi taklif etilgan muammo bo'yicha o'z nuqtai nazarlarini bayon qilishni so'raydi. To'g'ridan-to'g'ri yoki ommaviy aqliy to'fon (mozgovoy shturm) boshlanishini tashkil qiladi.

2. Fikrlarni taklif qiladilar, muhokama qiladilar, baholaydilar va eng optimal fikrni tanlaydilar. Ularning xulosasi (2 so'zdan kam bo'lmasligi kerak) alohida qog'ozlarga yozadilar va doskaga mahkamlaydilar.

3. Guruh sardorlari doskaga chiqadilar, maslahatlashadilar va:

❖ yaqqol xato bo'lgan yoki takrorlanayotgan fikrlarni olib tashlaydilar;

❖ bahsli bo'lgan fikrlarni oydinlashtiradilar;

❖ fikrlarni tizimlashtirish mumkin bo'lgan belgilarni aniqlaydilar;

❖ shu belgilar asosida doskadagi barcha fikrlarni guruhlarga ajratadilar;

❖ ularning o'zaro munosabatlarini chiziqlar yoki boshqa belgilar yordamida ko'rsatadilar.

1. Guruxda "Aqliy hujum" o'tkazasiz va mavzu bo'yicha barcha tushunchalarni yozib olasiz.

2. Biron-bir belgisi bo'yicha olingan ma'lumotlarni umumlashtiruvchi kategoriyalarni aniqlaysiz.

3. Kategoriyani qog'ozga yozing va olingan ma'lumotlarni ma'lum mezonlar bo'yicha taqsimlang.

4. Taqsimlash jarayonida biron-bir kategoriyaning nomini o'zgartirish yoki qo'shish mumkin.

## Kategoriya jadvalini tuzing

**Mavzu: Davlat xaridlarini amalga oshirishda G'aznachilikning o'rni**

Mavzu	Turlari/ko'rinishlari/xususiyatlari /sifati		
Kategoriya/belgilar	1	2	3
Davlat xaridlarini amalga oshirishda G'aznachilikning o'rni			
Davlat xaridlari tizimidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish			
G'aznachilik sharoitida davlat xaridini amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish			
Davlat xarajatlarining tasnifi			

### Baholash ko'rsatkichlari (ballda)

Guruh	Mavzuning echimi	Tushuntirish (aniqlik, mantiq)	Guruh faolligi (qo'shimchalar, savollar)	Jami ballar	Baho
	(1,2)	(1,2)	(0,6)	(3,0)	
1.					
2.					
3.					
4.					

### Muammoli amaliy mashg'ulotning boshqaruv dastaklari

**Boshlovchi** barcha vazifalarni o'ziga oladi - munozara bosqichlarini boshqarish, javoblarning asoslanishi va to'g'riligini tasdiqlash, qo'llangan termin va tushunchalarning aniqlash, munosabatlarni to'g'ri qo'llash va boshqalar. Taqdimotlarning taqsimotini to'g'ri boshqarish.

**Taqrizchi** - tomonlarning ma'ruzalarini yo'nalishlar bo'yicha belgilash va to'liq xarakterda baholash: dolzarbligi, ilmiy jihati, mantiqiyiligi va masalalarning aniq qo'yilganligi, xulosalarning aniq ko'rsatilishi.

**Raqib** - qabul qilingan tadqiqot o'rtasida raqobatchilik jarayonini shakllantiradi. U faqatgina ma'ruzachining asosiy holatini tanqid qilish emas, shu

bilan birgalikda, uning aytgan fikrlaridan zaif yoki xato tomonlarini topish hamda o'zining hal qiluvchi fikrlarini taklif qilishi ham mumkin.

**Ekspert** - barcha munozaralarning, jumladan, munozara qatnashchilari tomonidan aytilgan fikrlarning, qilingan xulosalarning, taklif va gipotezalarning maxsuldorligini baholaydi.

### Munozara reglamentini o'tkazish tartibi

1. Boshlovchi ma'ruza mavzusi va ma'ruzachilarning taqdimotlarini e'lon qiladi.
2. Ma'ruza 5 minut davom etadi.
3. Taqrizchi - 2 minut.
4. Raqib - ma'ruza mavzusi bo'yicha fikrlarini 1-3 minut taqdim etadi.
5. Jamoaviy muhokama - 5-10 minut.

### O'quv mashg'ulotini baholash mezon

Baholash mezon (ballarda)	So'zga chiquvchilar			
	1	2	3	4
<b>1. Doklad mazmuni: (1,0 ball)</b> - dolzarbligi; - ketma-ketlik, mantiqiyligi va aniqligi; - aniq xulosalar shakllantirilishi. <b>2. Foydanilayotgan axborotlarning yangiligi (0,5 ball).</b> <b>3. Axborotlarni taqdim qilishda vositalarni ishlatilishi. (0,4 ball).</b> <b>4. Reglamentga rioya qilish. (0,1 ball).</b>				
Jami				
	Taqrizchilar			
<b>Dokladga qo'shimchalar: (0,5 ball)</b> <b>Dokladning mustahkam va bo'sh joylarini ko'rsatilishi (1,5 ball)</b>				
Jami				
	Munozara qatnashchilari			
<b>Savollar:</b> -soni (xar biriga 0,1 ball) -mazmuni 0,3 ball <b>2. Qo'shimcha 0,5 ball</b>				
Jami				

## Bilimlarni kuchaytirish uchun mashqlar.

### G'aznachilik mexanizmining axborot tizimi

Mavzu	Turlari/ko'rinishlari/xususiyatlari /sifati		
Kategoriya/belgila	1	2	3
G'aznachilik faoliyatining modullari			
G'aznachilik dasturi			
G'aznachilik faoliyatida elektron hujjatlarning aylanishi			
G'aznachilik ning axborot tizimi boshqa axborot tizimlar bilan bog'lanishi			
Xorijiy davlatlarda g'aznachilik ning axborot tizimi faoliyati			

#### Takrorlash uchun savollar


1. G'aznachilik yagona axborot tizimining mazmuni, afzalliklari va ishlash printsiplarini tushuntirib bering.
2. Byudjet tashkilotlarida yagona buxgalteriya hisobini yuritishning kompyuter dasturini tadbiq etishning ijobiy tomonlari nimada?
3. Byudjet tasnifi nima, uning davlat byudjeti g'azna ijrosini samarali tashkil qilishdagi ahamiyati nimalarda namoyon bo'ladi?
4. Byudjet tasnifining turlari, ularning tarkibiy qismlarini tegishli me'yoriy hujjatlar asosida bayon qilib bering.
5. Byudjet tashkilotlarini pasportizatsiya qilishning mohiyati, zarurligi va ahamiyati nimalarda namoyon bo'ladi?



6. O'zbekiston Respublikasida G'aznachilik faoliyatini yana qaysi yo'nalishlarda takomillashtirish zarur, deb hisoblaysiz?

**T-jadval asosida mavzu bo'yicha bilimingizni tekshiring**

+ (ha)	-(yo'q)



**Amaliy topshiriq**

**Quyidagi iboralarni e'tibor bilan o'qib, uni to'g'ri yoki noto'g'riligini ayting va jadvalni to'ldiring.**

№	TASDIQLASH	TO'G'RI	NOTO'G'RI
1.	«Davlat budjeti ijrosining g'aznachilik tizimi» fani «Davlat moliyasini boshqarish» fani bilan bog'liq		
2.	G'aznachilik –Moliya vazirligi tarkibidagi boshqarma		
3	G'aznachilik organlari boshqarmalar va bulimlarga bulinadi		
4	G'aznachilik organlari maqalliy xokimiyat organlariga bo'ysinadi		

5	2010 yilda davlat maqsadli jamg'armalari g'aznachilik organlari tomonidan boshqarilmoqda		
6	2005 yilda g'aznachilik tizimi faoliyati tajriba sifatida Samarqand viloyatida sinab ko'rildi		
7	Budjet tashkilotlarining to'lov topshiriknomalari g'aznachilik organlarida besh kunda ko'rib chiqiladi		
8	G'aznachilik mahsulotlar etkazib beruvchilar bilan shartnomalar tuzadi.		
9	O'zbekiston Respublikasida tashqi audit Moliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi		
10	Moliyaviy nazorat - dastlabki, joriy, yakuniy nazorat g'aznachilik organlari tomonidan amalga oshiriladi		
11	Davlat budjeti ijrosi ikki usulda amalga oshiriladi.		
12	G'aznachilik organlari davlat budjeti loyihasini tuzadi		
13	O'zbekiston Respublikasida uzoq muddatli budjet qabul kilindi		
14	Ichki nazorat g'aznachilik organlari tomonidan amalga oshiriladi		
15	Davlat budjeti taqchiligini moliyalashtirish uchun tashkaridan va ichkaridan mablag jalb kilinadi		
16	Xarajatlar smetasi o'ttiz kunda moliya organlarida ro'yxatdan utkaziladi.		
17	G'aznachilik, moliya va soliq organlari o'rtasida xujjatlar elektron ko'rinishda aylanadi.		
18	G'aznachilik davlat budjeti to'g'risidagi xisobotni vazirlar maxkamasiga takdim etadi		
19	O'zbekiston Respublikasida besh xil budjet xarajatlari tasnifi mavjud		
20	G'aznachilik davlat xardini amalga oshiradi		

**Ichki nazorat va audit tizimining maksadi, vazifalari va takomillashtirish shartlarini davom ettiring**

<b>Maqsadi</b>	<b>Vazifalari</b>	<b>Shartlari</b>
Me'yoriy-qonuniy hujjatlarga rioya		Faoliyatni ma'muriy reglamentatsiya qilinadigan va boshqa

qilishni ta'minlash		hujjatlarni ishlab chiqish va amalga oshirish
Faoliyat samaradorligini oshirish	Amalga oshirilayotgan operatsiyalar va jarayonlarni samaradorligini, ishlatilayotgan moliyaviy va nomoliyaviy resurslarni aniqlash	Natijalar bo'yicha boshqarish tamoyillari va mexanizmlarini yaratish
Davlat funksiyalari bajarilishining sifatini oshirish	Amalga oshirilayotgan operatsiyalar va jarayonlarni maqsadga muvofiqligini aniqlash,	Ichki nazorat va auditni axborot bilan ta'minlash tizimini takomillashtirish
	Operatsiyalarni amalga oshirish va ularning hisobotda ifodalanilishiga, operatsiyalar va jarayonlarni boshqarish tartibiga, ma'muriy reglamentga, faoliyatni ma'muriy reglamentatsiya qilinadigan va boshqa hujjatlarga rioya qilinishini ichki nazorat qilish va audit o'tkazish	Ichki nazorat va audit tizimini zarur resurslar, jumladan, (mehnat resurslari) kadrlar bilan ta'minlash
	Faoliyat ko'rsatkichlari bilan xaqiqiy qo'rsatkichlar o'rtasidagi farqlarni tahlilini amalga oshirish, xato qilish sabablarini o'rganish, xatolar bo'yicha ularni ogohlantirish chora-tadbirlari to'g'risida takliflar berish	Ichki nazorat mexanizmi va auditni takomillashtirish
	Qonun hujjatlari, me'yoriy – huquqiy aktlarga rioya qilish, davlat funksiyalari bajarilishi, davlatning moliyaviy va nomoliyaviy resurslarini ishlatilishining samaradorligi to'g'risidagi ob'ektiv ma'lumotlarni taqdim etish	Halqaro amaliyotdan o'tgan tajribalar va tendentsiyalarni yoyish.

### **Guruh a'zolarining har biri**

- o'z sheriklarining fikrlarini xurmat qilishlari lozim;
- berilgan topshiriqlar bo'yicha faol, hamkorlikda va mas'uliyat bilan ishlashlari lozim;
- o'zlariga yordam kerak bo'lganda so'rashlari mumkin;
- yordam so'raganlarga ko'mak berishlari lozim;
- guruhni baholash jarayonida ishtirok etishlari lozim;
- "Biz bir kemadamiz, birga cho'kamiz yoki birga qutilamiz" qoidasini yaxshi bilishlari lozim.

### **Muhokama va xulosalar chiqarish uchun savollar**

1. G'aznachilik taraqqiyotining davlat moliya tizimiga ijobiy ta'sirini tushuntirib bering.
2. G'aznachilikda byudjet xarajatlarining ta'minlanishi xususiyatlariga tavsif bering.
3. O'zbekistonda davlat byudjeti daromadlarining g'aznachilikda ijrosini tashkil etishda qanday chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda?
4. Rivojlangan davlatlarda davlat byudjeti g'azna ijrosini joriy etish istiqbollari natijasida erishiladigan natijalarni ko'rsatib bering.

### **Baholar mezonlari va ko'rsatkichlari jadvali**

<b>Doklad qiluvchilar</b>	<b>Dokladdagi ma'lumotning to'liqligi 60%</b>	<b>Axborotning yangiligi 15%</b>	<b>Axborotni tasvirlashda vositalarning ishlatilishi 15%</b>	<b>Reglament 10%</b>	<b>Jami</b>
1					
2					
3					
4					
5					

<b>Oponentlar</b>	<b>Dokladga qilingan qo'shimchalar 40%</b>	<b>Munozarada qatnashganligi 20%</b>	<b>Savollar</b>		<b>Jami</b>
			<b>Miqdori</b>	<b>Sifati</b>	
1					
2					

3					
4					
5					

Diskussiya qatnashchilari	Savollar (0,1 har biri uchun)	Maqsadli ligi (0,3)	Qo'shimchalar (0,2 har biri uchun)	Jami
1				
2				
3				
4				
5				

### Bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish uchun masalalar

#### 1-guruh

1. Daftaringizda quyidagi jadvalni tuzing va to'ldiring.

#### Davlat byudjeti ijro turlarining xususiyatlari

Bank tizimi	G'aznachilik tizimi
1.	
2.	
3.	

2. Davlat byudjeti g'azna ijrosining maqsadini tushuntiring.
3. G'aznachilik tizimida byudjetlararo munosabatlar qanday amalga oshiriladi?

#### 2-guruh

1. G'aznachilikning istiqbol funktsiya va vazifalarini ko'rsating.

G'AZNACHILIK TIZIMINING VAZIFALARI
↓

↑
<b>G'AZNACHILIK XIZMATINING FUNKTSIYALARI ISTIQBOLLARI</b>

2. G'aznachilik tizimiga xarakteristika bering.
3. Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashkari mablag'lari qanday boshqariladi deb o'ylaysiz?

## VI. GLOSSARIY

### A

**Avtomatlashtirilgan axborot tizimi** – axborotlar yig‘indisi, axborotlarni ishlash va boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun yo‘naltirilgan matematik-iqtisodiy usullar, modellar, dasturlar, mexanizmlar, texnologik vositalar va mutaxassislar yig‘indisidir.

**Avtomatlashtirilgan ish joylari (ARM)** – mutaxassislarning bajaradigan funksiyalarini avtomatlashtirish uchun kerakli axborotlar, dasturlar va axborot resurslarining yig‘indisi.

**Avtomatlashtirilgan bank ma‘lumotlari** – avtomatlashtirilgan axborot tizimi, markazlashtirilgan holda saqlanadigan va birgalikda ishlatiladigan ma‘lumotlar.

**Amaldagi ish haqi** - pensiyani hisoblab chiqish uchun qo‘llaniladigan shaxsning amaldagi ish haqi.

**Analitik hisob-kitob** – hisob-kitobni aniqlashtirish va rivojlantirish maqsadida olib boriladigan xo‘jalik subyektlarining faoliyatini nazorat qilish, shuningdek, hisobotlar tuzish uchun zarur bo‘lgan xo‘jalik jarayonlari va mablag‘lari aylanishining buxgalteriya hisob-kitobi.

**Asosiy ish joyi** - ish beruvchi mehnat to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq xodimning mehnat daftarchasini yuritishi shart bo‘lgan ish joyi.

**Axborot resurslari** – tashkilot uchun qadr-qimmatga ega bo‘lgan moddiy zaxira sifatida qatnashadigan ma‘lumotlar yig‘indisi tushuniladi, ular jumlasiga ma‘lumotlar fayli, hujjatlar, matnlar, grafiklar, bilimlar, audio-video axborotlar kiradi.

**Ariza** – huquqlarni, erkinliklarni va qonuniy manfaatlarni amalga oshirishda yordam ko‘rsatish to‘g‘risidagi iltimos bayon etilgan murojaat.

**Ariza beruvchi** – davlat organiga so‘rov bilan murojaat etgan jismoniy yoki yuridik shaxs.

### B

**Band shaxs** - o‘zini ish bilan mustaqil ta‘minlaydigan va ish vaqtini hisobga olish mumkin bo‘lmagan jismoniy shaxs, tadbirkor, shu jumladan, yuridik shaxs tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi, bevosita qoramol o‘stiradigan hamda chorvachilik mahsulotlari va boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sotadigan shaxsiy yordamchi va dehqon xo‘jaligida band bo‘lgan shaxs, shuningdek, oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilik subyekti.

**Bola** – mehnatga layoqatli yoshda bo‘lmagan, ta’lim oluvchi hisoblanmaydigan jismoniy shaxs.

**Boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi** – boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi mehnatda mayib bo‘lish yoki kasb kasalligi tufayli vafot etgan boquvchining mehnatga qobiliyatsiz oila a‘zolariga, uning mehnat faoliyatining muddatidan qat’i nazar tayinlanadi, agar u boshqa sabablar natijasida vafot etgan bo‘lsa, shunga muvofiq keladigan umumiy mehnat stajiga qarab tayinlanadi, bunday mehnat stajining muddati sug‘urta qilingan xodimning vafot etgan kuniga qadar bo‘lgan yoshiga bog‘liq bo‘ladi.

**Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi** – fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti, ijtimoiy nafaqalar to‘lash, kompensatsiya to‘lovlari va boshqa to‘lovlar bo‘yicha xarajatlarni moliyalashtirishga yo‘naltiriladigan majburiy to‘lovlar, badallar, boshqa manbalardan tushadigan mablag‘lar jamlangan jamg‘arma.

**Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining daromadlari** – jamg‘arma daromadlari yagona ijtimoiy to‘lovning belgilangan miqdordagi tushumlari, fuqarolarning sug‘urta badallari, korxonalar va tashkilotlarning majburiy ajratmalari va boshqa daromadlar hisobidan shakllantiriladi.

**Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining xarajatlari** – jamg‘armaning mablag‘laridan ishlayotgan va ishlamaydigan pensionerlarga davlat pensiyalarini to‘lash, pensionerlarga davlat pensiyalarini to‘lash, davlat pensiya ta‘minoti huquqiga ega bo‘lmagan keksa va mehnatga qobiliyatsiz fuqarolarga, dafn etish marosimi uchun nafaqalar, belgilangan tartibda aniqlanadigan boshqa xarajatlar uchun foydalaniladi.

## **D**

**Davlat soliq xizmati organlari** - O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari, shuningdek, tumanlar, shaharlar va shahardagi tumanlar davlat soliq inspeksiyalari.

**Davlat xizmati** – ariza beruvchilarning so‘rovlariga ko‘ra amalga oshiriladigan, davlat organlarining vazifalarini bajarish bo‘yicha ular tomonidan ko‘rsatiladigan xizmat.

**Davlat ijtimoiy sug‘urtasi** – barcha xodimlar davlat yo‘li bilan ijtimoiy sug‘urta qilinishlari lozim. Davlat ijtimoiy sug‘urtasi uchun ish



beruvchilar, shuningdek, sug'urta qilingan xodimlarning o'zlari badal to'laydilar.

**Dafn etish majburiyatini zimmasiga olgan shaxs** - marhumning eri (xotini), ota-onasi, farzandlari va boshqa qarindoshlari yoki qonuniy vakili, bunday shaxslar bo'lmaga taqdirda esa – dafn etish majburiyatini zimmasiga olgan boshqa jismoniy shaxs.

**Dasturli ta'minlash** – avtomatlashtirilgan axborot tizimi boshqaruvidagi hisoblash jarayonlarini samarali tashkil qilishda foydalaniладigan dasturlar yig'indisi.

**Deponentlashtirish** – pul mablag'lari, qimmatli qog'ozlar va boshqa boyliklarni kredit tashkilotlariga saqlash uchun topshirish; xodimlarning o'z vaqtida olinmagan ish haqlarini pul mablag'lari qoldig'ini kredit muassasalariga topshirish.

**Deklaratsiya asosida soliq solinadigan daromadlar** – O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining quyidagi daromadlari kiradi: mulkiy daromadlar, agar bu daromadlarga to'lov manbayida soliq solinmagan bo'lsa; fan, adabiyot va san'at asarlarini yaratganlik hamda ulardan foydalanganlik uchun mualliflik haqi tariqasida olingan daromadlar; asosiy bo'lmagan ish joyidan olingan moddiy naf tarzidagi daromadlar; ikki yoki undan ko'p manbadan olingan soliq solinadigan daromadlar; O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqaridagi manbalardan olingan daromadlar; soliq agentlari bo'lmagan manbalardan olingan daromadlar.

**Dividendlar** – aksiyalar bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan daromad; yuridik shaxs tomonidan uning muassislari o'rtasida (ishtirokchilari, a'zolari o'rtasida ularning ulushlari, paylari, hissaları bo'yicha) taqsimlanadigan sof foydaning va (yoki) o'tgan yillardagi

taqsimlanmagan foydaning bir qismi; yuridik shaxs tugatilganda mol-mulkni taqsimlashdan olingan, shuningdek, muassis (ishtirokchi, a'zo) tomonidan yuridik shaxsda ishtirok etish ulushini (payini, hissasini) olgandagi daromadlar, bundan muassis (ishtirokchi, a'zo) ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa sifatida kiritgan mol-mulkning qiymati chegiriladi, taqsimlanmagan foyda ustav fondini (ustav kapitalini) ko'paytirish uchun yo'naltirilgan taqdirda, yuridik shaxs aksiyadorining, muassisining (ishtirokchisining, a'zosining) qo'shimcha aksiyalar qiymati, aksiyalar nominal qiymatining oshishi, ulush (pay, hissa) qiymatining oshishi tarzida olingan daromadlari.

## E

**Elektron pochta** – elektron hujjatlarni masofaga uzatish shakli.

**Elektron hujjatlarning aylanishi** – avtomatlashtirilgan axborot tizimida elektron hujjatlarning shakllantirilishi va uzatilishining tashkil qilish sxemasi.

**Emissiya** – pullarni va qimmatli qog‘ozlarni muomalaga chiqarish.

**Emitentlar** – qimmatli qog‘ozlarni chiqaradigan va moliya resurslarini jalb qiladigan yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanadi.

**Elektron davlat xizmati** – axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilgan holda ko‘rsatiladigan davlat xizmati.

**Elektron davlat xizmatining reglamenti** – elektron davlat xizmati ko‘rsatishga doir tartibni va talablarni belgilovchi normativ-huquqiy hujjat.

**Elektron hukumatning yagona identifikatorlari** – har bir jismoniy va yuridik shaxsga, kadastr va ko‘chmas mulk obektlariga, geografik va boshqa obyektlarga beriladigan, ularni elektron hukumatda identifikatsiya imkonini beruvchi noyob kodlar.

**Elektron hukumat** – davlat organlarining jismoniy va yuridik shaxslarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash yo‘li bilan davlat xizmatlari ko‘rsatishga doir faoliyatni, shuningdek, idoralararo elektron hamkorlik kilishni ta‘minlashga qaratilgan tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar va texnik vositalar tizimi hisoblanadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan foydalangan holda, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatida ochiqlik va oshkoralikni ta‘minlash, fuqarolar ehtiyojlarini hisobga olgan holda davlat xizmatlari ko‘rsatishga qaratilgan davlat boshqaruvining tashkiliy shaklidir.

**Elektron hukumat** – elektron hujjatdagi mazkur elektron hujjat axborotni elektron raqamli imzoning yopik kalitidan foydalangan holda maxsus o‘zgartirish natijasida hosil qilingan hamda elektron raqamli imzoning ochiq kaliti yordamida elektron hujjatdagi axborotda xatolik yo‘qligini aniqlash va elektron raqamli imzo yopiq kalitining egasini identifikatsiya qilish imkoniyatini beradigan imzo.

**Elektron mehnat daftari** – elektron mehnat daftaridagi yozuvlar mehnat staji to‘g‘risidagi ma‘lumotnomaga tenglashtiriladi. Elektron mehnat daftarlari quyidagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga oladi: xodimning pasport ma‘lumotlari; STIR (INN) va Shaxsiy jamg‘arma nafaqa hisobraqami (INPS); tahsil to‘g‘risidagi ma‘lumotlar; ishga qabul va mehnat shartnomasi bekor qilingani sanalar (ish joyi va mutaxassisligini ko‘rsatgan holda). O‘zbekistonda mehnat staji va ijtimoiy sug‘urta

badallari elektron hisobini yuritishga o‘tilishi munosabati bilan 2019-yil 1-yanvardan boshlab birinchi bor ishga joylashayotgan xodimlarga «qog‘oz» mehnat daftarchalari berilishi to‘xtatiladi.

## F

**Fiskal siyosat** – davlat xarajatlari va soliqqa tortish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rish orqali mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni yechishga qaratilgan siyosat. Fiskal siyosatning eng asosiy vazifasi – iqtisodiy-ijtimoiy siyosatni amalga oshirish uchun davlat pul jamg‘armalarini markazlashgan tarzda tashkil etish va ishlatish orqali iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashdir.

**Favqulodda holatlar** — taraflarning xohish-irodasi va harakatlariga bog‘liq bo‘lmagan, tabiat hodisalari (zilzila, ko‘chkilar, bo‘ron, qurg‘oqchilik va boshqalar), boshqa tabiiy ofatlar yoki ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlar (urush holati, qamal holati, davlat manfaatlarini ko‘zlab importni hamda eksportni taqiqlash va boshqalar) keltirib chiqargan muayyan sharoitlardagi favqulodda, oldini olib bo‘lmaydigan va kutilmagan holatlar bo‘lib, qabul qilingan majburiyatlar shular tufayli bajarila olmaydi.

**Foizlar** — har qanday turdagi qarz talablaridan olingan daromad, shu jumladan, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog‘ozlar, shuningdek, depozit qo‘yilmalar va boshqa qarz majburiyatlaridan olingan daromad.

**Fuqarolarning ayrim toifalari** – qonun hujjatlariga muvofiq to‘liq yoki qisman davlat ta‘minotidagi «Mehribonlik», «Saxovat», «Muruvvat» uylaridagi, jazoni o‘tash joylaridagi jismoniy shaxslar.

## H

**Hisob hujjatlari** – soliq solish obyektlari va soliq solish bilan bog‘liq obyektlarni aniqlash, shuningdek, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni hisoblab chiqarish uchun asos bo‘lgan birlamchi hujjatlar, buxgalteriya hisobi registrlari hamda boshqa hujjatlardan iborat.

**Hujjat bilan tasdiqlangan xarajatlar** – operatsiya sanasini, summasini, xususiyatini aniqlash va uning ishtirokchilarini identifikatsiya qilish imkonini beradigan hujjatlar bilan tasdiqlangan xarajatlar.

**Hujjatlar aylanishi** – xo‘jalik operatsiyalarini rasmiylashtirish va hisob-kitob ma‘lumotlarini ishlashda hujjatlarning belgilangan ketma-ketlikda o‘tishi.

**Hujjat bilan tasdiqlangan xarajatlar** – operatsiya sanasini, summasini, xususiyatini aniqlash va uning ishtirokchilarini identifikatsiya qilish imkonini beradigan hujjatlar bilan tasdiqlangan xarajatlar.

## I

**Idoralararo elektron hamkorlik qilish**—davlat organlari o‘rtasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida ma’lumotlar almashish.

**Identifikatsiya raqami** – tizim ichidagi obyektни aniqlaydigan kod yoki nom berilishidir. Ajratma, soliqlar va pensiya to‘lovlari bo‘yicha axborotlarni markazlashtirish uchun individual ijtimoiy kodlarga ehtiyoj tug‘iladi. Moliyaviy hujjatlashtirish bo‘yicha moliyaviy axborotlar ishonchliligi va doimiyligi ta‘minlash uchun, xalqaro andozalarga mos keluvchi buxgalteriya hisobining yangi andozalari qo‘llanilishi uchun individual ijtimoiy kodlarni qabul qilinishi taqozo etiladi.

**Ijtimoiy sug‘urta** - ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya sifatida milliy daromadni qayta taqsimlash munosabatlari tizimi bo‘lib, xodimlar va ish beruvchilarning majburiy sug‘urta badallari hisobiga maxsus sug‘urta jamg‘armalarini shakllantirish va mehnat daromadlarini qoplash yoki saqlash uchun foydalanishdan iborat.

**Indeksatsiya** ( lotin tilida *index* - ro‘yxat, reyestr, ko‘rsatkich ma’nosida ishlatiladi). Indeksatsiya iqtisodiyotda iste’mol narxlariga bog‘lagan holda kredit, ish haqi, pensiya, nafaqa, jamg‘arma, shartnoma summalarini inflyatsiyadan himoyalash vositasidir. Pensiyani indeksatsiyalash - birinchi navbatda, aholi turmush farovonligini oshirish maqsadida pensiya miqdorini oshirish tadbirlarini o‘z ichiga oladi.

**Investitsiya** – foyda (daromad) olish yoki ijtimoiy samaraga erishish maqsadida, davlat, yuridik va jismoniy shaxslar (investorlar) tomonidan cheklangan imkoniyatlardan samarali foylangan holda, cheklangan ehtiyojni qondirish uchun iqtisodiyotning turli sohalariga ma’lum muddatga sarflangan barcha turdagi boyliklardir.

**Investorlar** – qimmatli qog‘ozlarni sotib oladigan va bu bilan boshqalarning bo‘sh moliyaviy resurslarini joylashtiradigan yuridik hamda jismoniy shaxslar.

**Investitsiya loyihasi** – investitsiyaning yo‘naltirilgan maqsadini amalga oshirish uchun texnologik jarayonlarni, texnik va tashkiliy hujjatlashtirish jarayonini, obyektlarni barpo etish va ishga tushirish jarayonini, moddiy, moliyaviy, mehnat resurslarining harakatini, shuningdek, tegishli boshqaruv qarorlari va chora-tadbirlarni o‘zida mujassamlashtiruvchi tizim sifatida qarash mumkin.

**Inflyatsiya** – muomalda keragidan ortiqcha pul paydo bo‘lib, narx-navo o‘sib, pulning qadr-qiymati, ya’ni xarid qobiliyatining pasayishi, pulning obro‘sizlanishidir.

**Inflyatsion soliq** – hukumatning tovarlar va xizmatlarni sotib olishi uchun zarur mablag‘larni to‘plash, byudjet taqchilligini moliyalashtirish uchun, pul taklifini oshirish yo‘li bilan aholining pul mablag‘larini bilvosita olishi.

**Innovatsion faoliyat** – boshqarish va moliyalashtirishda yangi shakllarni qo‘llanilishiga asoslangan faoliyatdir.

**Indossament** – qimmatli qog‘oz ustidagi ushbu hujjat bo‘yicha huquqlarning boshqa shaxsga o‘tkazilganligini tasdiqlovchi o‘tkazma yozuv.

**Islahot** – isloh qilish, tubdan o‘zgartirish, qaytadan qurish, yangidan tashkil qilish. Mustaqillik munosabati bilan davlatimizda boshlangan tub o‘zgarishlarga nisbatan lotinchadan olingan “reforma” so‘zi o‘rniga qadimiy arabchadan kirib kelgan “islahot” so‘zi keng qo‘llanila boshlandi.

**Iste‘mol savatchasi** – muayyan vaqt davomida inson hayoti va uning salomatligini saqlash uchun zarur mahsulotlar va xizmatlarning eng kam to‘plamidir.

**Ish haqi** – bu yollanma xodim daromadining elementi, unga tegishli ishchi kuchiga bo‘lgan mulkchilik huquqini iqtisodiy jihatdan ro‘yobga chiqarish shaklidir.

**Ish staji** – mehnat daftarchasi va ish joyidan, xizmatdan, o‘qishdan yoki arxivdan berilgan boshqa hujjatlar bo‘yicha aniqlangan, ishdagi tanaffuslardan qat’i nazar, qonun hujjatlariga muvofiq pensiya ta’minoti huquqini beradigan mehnat faoliyati va boshqa faoliyatning umumiy davomiyligi.

**Ish beruvchi** – jismoniy shaxs bilan mehnat shartnomasi (kontrakti) yoki fuqarolik-huquqiy tarzidagi shartnoma tuzgan va qonun hujjatlariga muvofiq sug‘urta badallarini hisoblash va ushlab qolish majburiyati zimmasiga yuklatilgan yuridik shaxs.

**Ish bilan ta’minlanish** - fuqarolarning qonun hujjatlariga zid kelmaydigan, o‘z shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog‘liq bo‘lgan, ularga ish haqi (mehnat daromadi) keltiradigan faoliyatidir.

**Ishsizlar** – o‘n olti yoshdan to pensiya bilan ta’minlanish huquqini olishgacha bo‘lgan yoshdagi, haq to‘lanadigan ishga yoki daromad keltiradigan mashg‘ulotga ega bo‘lmagan, ish qidirayotgan va ish taklif

etilsa, unga kirishishga tayyor bo'lgan yoxud kasbga tayyorlashdan, qayta tayyorlashdan o'tishga yoki malakasini oshirishga tayyor bo'lgan mehnatga layoqatli shaxslar.

**Ishsizlik** – iqtisodiyotdagi turg'unlik (davriy), tarkibiy o'zgarishlar (tarkibiy), tabiiy omillar (mavsumiy), ijtimoiy omillar (friksiyali) kabi sabablar ta'sirida vujudga keladi. Umuman ishsizlikning asosiy shakllari quyidagilar hisoblanadi. Friksiyali ishsizlik – turli sabablarga ko'ra (yangi istiqomat qiladigan joyga ko'chish, kasbini o'zgartirish, farzandini parvarish qilish, yangi ish tanlash) vaqti–vaqti bilan ishsiz qolishdir. Bu ixtiyoriy ishsizlik, deb ham ataladi, odatda, bir oydan ortiqqa cho'zilmaydi. Tarkibiy ishsizlik – ishlab chiqarish tuzilmasi o'zgartirilgan sharoitda iqtisodiyotning eski tarmoqlarida ish bilan band bo'lganlarning yangi tarmoqlar talab etayotgan yangi kasb va ixtisosliklarni egallamagan davridagi ishsizlikdir. Mavsumiy ishsizlik – mavsumiy ish bilan band bo'lganlarning mavsum tugashi bilan ishsiz qolishidir. Davriy ishsizlik – iqtisodiy tanglik bilan bog'liq bo'lib, ishlab chiqarish hajmi keskin kamayib ketishi oqibatida ro'y beradigan ishsizlikdir, bu majburiy ishsizlik deb ataladi. Yashirin ishsizlik – rasman ish bilan band hisoblanganlarning qisman ish bilan bandligidir. Bu turdagi ishsizlikda xodim qisqartirilgan ish kunida ishlaydi yoki haq to'lanmaydigan ta'tilda bo'ladi. Yoshlar (ayollar) ishsizligi – yoshlarning ta'lim muassasalarini tugallaganlaridan so'ng, ayollarning o'z farzandlarini parvarish qilishlari va boshqa turli sabablarga ko'ra ish bilan band bo'lmasligidir.

**Ishsizlik nafaqasi** - Qonunga muvofiq ishsiz deb e'tirof etilgan shaxslarga tayinlanadi. Qaramog'ida uchtagacha kishi bo'lgan, o'ttiz besh yoshga to'lmagan ishsiz erkaklarga ishsizlik nafaqasi ular haq to'lanadigan jamoat ishlarida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda ishtirok etgan taqdirda tayinlanadi.

**Ish bilan bandlik darajasi** – bu iqtisodiy faol aholining qonun hujjatlariga muvofiq daromad keltiradigan faoliyatga ega bo'lishidir.

**Ish bilan band shaxs** – o'zini mustaqil ravishda ish bilan ta'minlagan jismoniy shaxs, tadbirkor, shu jumladan, yuridik shaxs tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan, yordamchi va dehqon xo'jaligida ish bilan band bo'lgan, bevosita mol o'stirish, chorvachilik hamda boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirish va sotishni amalga oshiradigan tadbirkor, ko'rsatib o'tilgan

toifadagi fuqarolarning ishlab chiqarishda qatnashuvchi oila a'zosi, shuningdek, oilaviy tadbirkorlik subyekti va hunarmand.

**Ish bilan band bo'lmagan shaxs** – qonun hujjatlariga muvofiq ishsiz sifatida rasman ro'yxatdan o'tkazilgan mehnatga layoqatli yoshdagi jismoniy shaxs, shuningdek, haq to'lanadigan ishga yoki mashg'ulotga ega bo'lmagan vaqtincha ish bilan band bo'lmagan mehnatga layoqatli shaxs.

**Ish vaqti** – xodim ish tartibi yoki grafigiga yoxud mehnat shartnomasi shartlariga muvofiq o'z mehnat vazifalarini bajarishi lozim bo'lgan vaqt ish vaqti hisoblanadi.

**Ishonchnoma** – bir shaxs (ishonch bildiruvchi) tomonidan ikkinchi shaxsga (ishonchli vakilga) uchinchi shaxslar oldida vakillik qilish uchun berilgan yozma vakolat ishonchnoma hisoblanadi. Ishonchli vakil o'ziga ishonchnoma bilan berilgan vakolatlarni doirasida ish olib boradi.

## J

**Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti** – fuqarolarni shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobraqamlaridagi mablag'lardan davlat pensiyasiga qo'shimcha ravishda pul mablag'lari bilan ta'minlash.

**Jamg'arib boriladigan majburiy pensiya badallari** – shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobraqamlariga majburiy tartibda kiritiladigan pul mablag'lari.

**Jamg'arib boriladigan ixtiyoriy pensiya badallari** – shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobraqamlariga ixtiyoriylik asosida kiritiladigan pul mablag'lari.

**Jamg'arib boriladigan pensiya badallarini kirituvchi** – jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlarini oluvchining foydasiga badallar kiritayotgan jismoniy shaxs yoki ish beruvchi yuridik shaxs;

**Jamg'arib boriladigan pensiya daftarchasi** – fuqaroning jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlarini olish huquqini tasdiqlovchi daftarcha fuqaroga shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'i ochilganidan keyin Xalq banki tomonidan beriladi.

**Jamg'arib boriladigan pensiya tizimida fuqarolarni hisobga olish** – majburiy tartibda ishtirok etuvchi fuqarolarni ish beruvchining talabnomasiga muvofiq mazkur fuqarolarning asosiy ish joyidagi Xalq banki filialida amalga oshiriladi.

**Jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlarini olish huquqi** – Jamg'arib boriladigan pensiya tizimida ishtirok etuvchi fuqarolar

pensiya to'lovlari oluvchi sifatida davlat pensiyasini olish huquqi yuzaga kelgan taqdirda olish huquqiga ega.

**Jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlarini olish huquqi to'g'risidagi guvohnoma** – Jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlarini oluvchining yashash joyidagi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'limi tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan shaklda beriladi.

**Jamoa shartnomasi** – bir tarafdin, xodimlar tomonidan kasaba uyushmalari yoki o'zlari vakolat bergan boshqa vakillik organlari orqali, ikkinchi tarafdin - bevosita ish beruvchi yoki u vakolat bergan vakillar tomonidan tuziladi.

**Jismoniy shaxs** – ish beruvchi bilan mehnat shartnomasi (kontrakti) yoki fuqarolik-huquqiy tarzidagi shartnoma tuzgan shaxs.

**Jismoniy shaxslar** – yuridik shaxslar maqomini olmasdan faoliyat ko'rsatayotgan yoki har xil sabablarga ko'ra ishlamayotgan pensionerlar, nafaqaxo'rlar va boshqalardir. Bunda shaxslarga O'zbekiston Respublikasi fuqarosi, fuqaroligi bo'lmaganlar va chet el mamlakatlari fuqarolari kiradi. Jismoniy shaxslarning jami daromadiga quyidagilar kiradi: mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar; mulkiy daromadlar; moddiy naf tarzidagi daromadlar; boshqa daromadlar. Jismoniy shaxslar - O'zbekiston Respublikasining rezidentlari hisoblab chiqarilgan daromad solig'ini xorijiy davlatda joylashgan bank hisobvarag'idan chet el valyutasida to'lashi mumkin. Bunda jismoniy shaxslardan olinadigan, milliy valyutada ifodalangan soliq jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i to'langan sanada O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs bo'yicha chet el valyutasida qayta hisoblab chiqiladi.

**Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i to'lovchilari** – Soliq Kodeksiga muvofiq soliq solinadigan daromadga ega bo'lgan jismoniy shaxslardir. O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromadlariga Soliq Kodeksining 182-moddasida nazarda tutilgan o'ziga xos xususiyatlar hisobga olingan holda va stavkalar bo'yicha soliq solinadi.

**Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblab chiqarish** – soliq stavkasini qo'llash maqsadida eng kam ish haqi miqdori yil boshidan ortib boruvchi yakun bo'yicha (yil boshidan tegishli davrning har bir oyi uchun eng kam ish haqlarining summasi) hisobga olinadi. Bunda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summasini, shuningdek, eng kam ish haqining karrali miqdorlarida



nazarda tutilgan imtiyozlarni hisoblab chiqarish uchun eng kam ish haqi miqdorining joriy yilning 1-yanvaridagi holati inobatga olinadi. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblab chiqarish va ushlab qolish ushbu bo'limda belgilangan soliq solinadigan baza hamda stavkalardan kelib chiqqan holda daromad hisoblanishiga qarab, yil boshidan ortib boruvchi yakun bo'yicha har oyda jismoniy shaxsning asosiy ish joyi bo'yicha soliq agenti tomonidan amalga oshiriladi. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining hisoblab chiqarilgan summasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda jismoniy shaxslarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga o'tkaziladigan har oylik majburiy badallar summasiga kamaytiriladi.

**Jismoniy shaxslarning boshqa daromadlari** – jumlasiga quyidagilar kiradi: pensiyalar va qonun hujjatlarida belgilangan nafaqalar; stipendiyalar; fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, hayriya va ekologiya jamg'armalari tomonidan jismoniy shaxslarga beriladigan nafaqalar hamda boshqa turlardagi yordam; donorlik uchun pul mukofotlari; alimentlar; hayvonlarni tirik holda hamda ularni so'yib, mahsulotlarini xom yoki qayta ishlangan holda, ipak qurti, chorvachilik, asalarichilik va dehqonchilik mahsulotlarini tabiiy va qayta ishlangan holda sotishdan olingan daromadlar; jismoniy shaxslardan tekin olingan mol-mulk yoki mulkiy huquqlar qiymati; musobaqalarda, ko'riklarda, tanlovlarda sovrinli o'rinlar uchun beriladigan sovrinlar, pul mukofotlari; yutuqlar; grant beruvchidan olingan grantlar, shu jumladan, chet davlatlar grantlari bo'yicha olingan summalar; yaratilgan fan, adabiyot va san'at asarlari uchun jismoniy shaxslar tomonidan olingan daromadlar; O'zbekiston Respublikasining davlat mukofotlari va davlat pul mukofotlariga sazovor bo'lgan jismoniy shaxslar olgan bir yo'la beriladigan davlat pul mukofoti yoki shunga teng bahodagi esdalik sovg'alarining qiymati, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida bir yo'la beriladigan pul mukofoti; xalqaro sport musobaqalarida sovrinli o'rinlarni egallaganligi uchun sportchilar olgan bir yo'la beriladigan pul mukofoti; xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilinganda mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq beriladigan ishdan bo'shatish nafaqasi va boshqa to'lovlar; moddiy yordam tariqasida: vafot etgan xodimning oila a'zolariga yoki oila a'zosi vafot etganligi munosabati bilan xodimga beriladigan to'lovlar; xodimga mehnatda mayib bo'lganlik, kasb kasalligi yoxud sog'liqqa boshqacha shikast etganligi bilan bog'liq to'lovlar; favqulodda

holatlar munosabati bilan beriladigan to'lovlar; maqsadli xususiyatga ega bo'lgan hamda xodimlar bilan yuz bergan shaxsiy tUSDagi voqealar, hodisalar va tadbirlar bilan bog'liq bo'lgan hamda bajariladigan ish natijalariga bog'liq bo'lmagan to'lovlar; qishloq xo'jaligi mahsulotlarini berish yoki ularni sotib olish uchun mablag'lar berish tarzidagi to'lovlar;

qonun hujjatlariga muvofiq uy-joy-kommunal xizmatlari haqini to'lash bo'yicha har oylik kompensatsiya pul to'lovlari; ishlamaydigan pensionerlarga yuridik shaxs tomonidan to'lanadigan to'lovlar; sug'urta to'voni summalari; ma'naviy zararni kompensatsiya qilish bo'yicha pul to'lovlari; jamg'arib boriladigan majburiy pensiya badallari, ular bo'yicha olingan foiz tarzidagi va boshqa daromadlar, jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlari.

## K

**Kameral nazorat** – soliq to'lovchi tomonidan belgilangan tartibda taqdim etilgan moliyaviy va soliq hisobotini, shuningdek, soliq to'lovchining faoliyati to'g'risida davlat soliq xizmati organidagi mavjud boshqa hujjatlarni o'rganish hamda tahlil etish asosida amalga oshiriladigan nazoratdir. Kameral nazorat soliq to'lovchining huzuriga bormasdan davlat soliq xizmati organi joylashgan erda amalga oshiriladi. Agar davlat soliq xizmati organi tomonidan kameral nazorat jarayonida soliq hisobotini to'ldirishda xatoliklarga yo'l qo'yilganligi yoki taqdim etilgan soliq hisobotidagi va davlat soliq xizmati organlaridagi ma'lumotlar o'rtasida ziddiyatlar borligi aniqlansa, bu haqda soliq to'lovchiga tegishli tuzatishlar kiritish talab qilingan holda yozma shaklda xabar qilinadi. Soliq to'lovchi aniqlashtirilgan soliq hisobotini taqdim etish uchun nazarda tutilgan tartibda tegishli soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha tuzatilgan soliq hisobotini yoxud aniqlangan tafovutlarning asosini talabnoma olingan kundan e'tiboran o'n kunlik muddatda taqdim etishi shart. Davlat soliq xizmati organlari boshqa majburiy to'lovlarni undirish vazifasini amalga oshirayotgan davlat organlari va tashkilotlari ustidan boshqa majburiy to'lovlarning to'g'ri hisoblab chiqarilishi, to'liq undirib olinishi hamda byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga o'z vaqtida o'tkazilishi bo'yicha nazoratni amalga oshiradi.

**Konsepsiya** – (lotincha tushuncha, tizim) ma'lum predmet, hodisa va jarayonlarni tushuntirish uslubi, predmet va boshqalarga qaratilgan bosh g'oya va ularning mohiyatini yoritib beradigan asosiy fikrni yoritishda qo'llaniladi.

**Kommunikatsiya** – aniq territoriyada axborotlarning distansion almashuvi jarayonlarini tashkil etish qoidalari va texnika vositalarining yig‘indisi.

**Kompyuter virusi** – hisoblash tizimi yoki tarmoq ishiga salbiy ta’sir qilish maqsadida tuzilgan maxsus dastur.

**Kredit** – bir shaxs tomonidan, masalan, davlat yoki korxonadan, vaqtinchalik foydalanish uchun, lekin qaytib berish va foiz to‘lash sharti bilan berilgan moliyaviy mablag‘lar.

**Kredit beruvchi** – xorijdan mablag‘ jalb qilish to‘g‘risidagi shartnoma bo‘yicha aktivlar bergan yoki aktivlar berish niyatida bo‘lgan xorijiy davlat yoki nerezident (xorijiy davlatlarning yuridik va jismoniy shaxslari). Agar nerezidentlar bir nechta bo‘lsa, u holda kreditorlar guruhidagi vakolatli boshqaruvchi vazifasiii bajaruvchi nerezident kredit beruvchi hisoblanishi mumkin.

**Kredit tashkilotlari** – tegishli litsenziyaga ega bo‘lgan banklar, kredit uyushmalari, mikrokredit tashkilotlari, lombardlar va boshqa kredit tashkilotlari.

**Kurs bo‘yicha farq** – milliy valyutaga nisbatan chet el valyutasi kursining o‘zgarishi munosabati bilan chet el valyutasida amalga oshirilgan operatsiyalarda vujudga keladigan (ijobiy, salbiy) farq. Kursdagi ijobiy farq -valyuta hisobvaraqlari bo‘yicha, shuningdek, chet el valyutasidagi operatsiyalar bo‘yicha kursdagi ijobiy farq buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq quyidagi hollarda daromadlar tarkibiga kiritiladi: chet el valyutasiga bo‘lgan mulk huquqi boshqa shaxsga o‘tayotgan sanada shu chet el valyutasi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kursdan yuqori bahoda sotilganda; chet el valyutasiga bo‘lgan mulk huquqi boshqa shaxsga o‘tayotgan sanada shu chet el valyutasi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kursdan past bahoda sotib olinganda; chet el valyutasi kursidagi o‘zgarish munosabati bilan balansning valyutaga oid moddalari tegishli hisobot davri uchun qayta baholanganda.

## L

**Lokal hisoblash tarmog‘i** – maxsus mutaxassislar o‘rtasida almashish uchun ma’lum territoriya chegarasida tashkil etilgan va kanallar bilan birlashtirilgan dasturlash va axborot uzatish resurslari.

## M

**Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar** – mamlakat iqtisodiyotidagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayon va xodisalarni o'lchash va baholash imkoniyatini beradigan ko'rsatkichlar. Masalan, YaIM, milliy daromad, iqtisodiy o'sish, ishsizlik, inflyatsiya va boshqalar.

**Majburiy to'lovlar** – Soliq Kodeksida belgilangan davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy pul to'lovlari, bojxona to'lovlari, shuningdek, vakolatli organlar hamda mansabdor shaxslar tomonidan yuridik ahamiyatga molik harakatlarni to'lovchilarga nisbatan amalga oshirish uchun, shu jumladan, muayyan huquqlarni yoki litsenziyalar va boshqa ruxsat beruvchi hujjatlarni berish uchun to'lanishi lozim bo'lgan yig'imlar, davlat boji tushuniladi.

**Majburiyat** – fuqarolik huquqiy munosabati bo'lib, unga asosan bir shaxs (qarzdor) boshqa shaxs (kreditor) foydasiga muayyan harakatni amalga oshirishga, chunonchi: mol-mulkni topshirish, ishni bajarish, xizmatlar ko'rsatish, pul to'lash va hokazo yoki muayyan harakatdan o'zini saqlashga majbur bo'ladi, kreditor esa — qarzdordan o'zining majburiyatlarini bajarishni talab qilish huquqiga ega bo'ladi.

**Maxsus ish staji** - xalq xo'jaligining muayyan tarmoqlarida, kasblar va lavozimlarda qonun hujjatlariga muvofiq imtiyozli pensiya ta'minoti huquqini beradigan mehnat faoliyatining davomiyligi.

**Ma'lumotlar** — fuqarolarning Pensiya jamg'armasiga hisoblangan sug'urta badallari to'g'risida ma'lumot;

**Ma'lumotlar bazasi** – tartiblashning umumiy tamoyillari ko'zda tutilgan holda aniq qonun-qoidalar asosida tuzilgan hamda himoya qilinadigan va saqlanadigan ma'lumotlar yig'indisi.

**Mehnat shartnomasi** - xodim bilan ish beruvchi o'rtasida muayyan mutaxassislik, malaka, lavozim bo'yicha ishni ichki mehnat tartibiga bo'ysungan holda taraflar kelishuvi, shuningdek, mehnat to'g'risidagi qonunlar va boshqa normativ hujjatlar bilan belgilangan shartlar asosida haq evaziga bajarish haqidagi kelishuvdir. Xodim va ish beruvchi mehnat shartnomasining taraflari bo'lib hisoblanadilar. Mehnat shartnomasini tuzish haqidagi kelishuvdan oldin qo'shimcha holatlar (tanlovdan o'tish, lavozimga saylanish va boshqalar) bo'lishi mumkin.

**Mehnat staji** - ish, xizmat, o'qish joyidan yoki ish stajiga ko'shib hisoblanadigan boshqa faoliyat amalga oshirilgan joydan, yoxud arxiv muassasalari tomonidan berilgan hujjatlar asosida aniqlanadi. Mehnat stajini tasdiqlovchi hujjatlar bo'lmasa (ish vaqtini hisobga olib bo'lmaydigan xodimlar bundan mustasno) ish davri guvoxlarning ko'rsatmasi asosida aniklanadi.

**Mehnat daftarchasi** - sug'urta badallari to'langanligini tasdiqlovchi ma'lumotnomalar va ish stajini tasdiqlovchi asosiy hujjatlar hisoblanadi.

**Mehnat uchun rag'batlantirish** – ishdagi yutuqlar uchun xodimga nisbatan rag'batlantirish choralari qo'llanilishi mumkin. Rag'batlantirish nisbatan rag'batlantirish choralari qo'llanilishi mumkin. Rag'batlantirish turlarini qo'llanish tartibi, afzallik va imtiyozlar berish jamoa shartnomalari, ichki mehnat tartibi qoidalari va boshqa lokal hujjatlarda, jamoa kelishuvlarida, intizom to'g'risidagi ustav va nizomlarda belgilab qo'yiladi.

**Mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar** – ish beruvchi bilan mehnatga oid munosabatlarda bo'lgan va tuzilgan mehnat shartnomasiga muvofiq ishlarni bajarayotgan jismoniy shaxslarga hisoblanadigan va to'lanadigan barcha to'lovlar mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar deb e'tirof etiladi: mehnatga haq to'lashning qabul qilingan shakllari va tizimlariga muvofiq ishbay narxlar, tarif stavkalari va mansab maoshlaridan kelib chiqqan holda haqiqatda bajarilgan ish uchun hisoblangan ish haqi; ilmiy daraja va faxriy unvon uchun qo'shimcha to'lovlar; rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar; ishlanmagan vaqt uchun haq; kompensatsiya to'lovlari. Mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlarga quyidagilar ham kiradi: predmeti ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish bo'lgan fuqarolik-huquqiy tusda tuzilgan shartnomalarga muvofiq jismoniy shaxslarga to'lovlar; yuridik shaxsning boshqaruv organi (kuzatuv kengashi yoki boshqa shunga o'xshash organi) a'zolariga yuridik shaxsning o'zi tomonidan amalga oshiriladigan to'lovlar; O'zbekiston Respublikasi mudofaa, ichki ishlar, favqulodda vaziyatlar vazirliklarining, O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchilariga, ichki ishlar organlarining oddiy askarlar, serjantlar va ofitserlar tarkibiga hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining xodimlariga xizmatni o'tashi (xizmat majburiyatlarini bajarishi) munosabati bilan to'lanadigan pul ta'minoti, pul mukofotlari va boshqa to'lovlar.

**Milliy valyuta**–O'zbekiston Respublikasi 1991 yilda mustaqillikka erishgach, oradan 3 yil o'tib muomalaga kiritilgan va ayni paytgacha o'zgaray kelayotgan milliy valyuta so'm respublikaning barcha hududida yagona to'lov vositasi sifatida amal qiladi.

**Moliyaviy tranzaksiya** – mablag'larni elektron ko'rinishdagi harakati tushuniladi.

**Moliyaviy hisobotni tayyorlash** – o‘z vaqtida g‘azna axborot tizimiga kiritilgan, byudjet tashkilotlariga yetkazilgan tovarlar va xizmatlar hajmini tasdiqlovchi hujjatlar, to‘lov hujjatlari va hududiy g‘azna bo‘limlariga topshirilgan byudjet tashkilotlarining oylik hisobotlari asosida barcha hududiy g‘azna bo‘limlari mahalliy byudjetlarni boshqarish uchun va ularning ijrosini nazorat qilish uchun kerakli hisobotlarni g‘aznachilikda o‘rnatilgan maxsus kompyuter dasturi orqali tezda umumlashtirish.

**Monitoring** – fuqarolarga atrof-muhitda noxush o‘zgarishlar bo‘lishi to‘g‘risida o‘z vaqtida axborot berish va boshqarish. Byudjet amaliyotida monitoring o‘tkazish - byudjetdan ajratilgan pul mablag‘lari ishlatilishining oxirgi bosqichigacha nazorat qilishdir.

**Mol-mulk** – egalik qilish, foydalanish, tasarruf etish predmetlari bo‘la oladigan moddiy obyektlar, shu jumladan, pul mablag‘lari va qimmatli qog‘ozlar hamda nomoddiy obyektlar. Obyektlarni mol-mulk jumlasiga kiritish fuqarolik qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

**Mulkiy daromadlar** – (jismoniy shaxslarning) tarkibiga foizlar, dividendlar, mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlar, jismoniy shaxslarga xususiy mulk huquqi asosida tegishli bo‘lgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan olingan daromadlar, sanoat mulki obyektlariga berilgan patent (litsenziya) sotilgan taqdirda, patent (litsenziya) egasi bo‘lgan jismoniy shaxs sotishdan olgan daromad, royalti, qimmatli qog‘ozlarni realizatsiya qilishdan tushgan daromadlar va yuridik shaxslarning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushini (payini) realizatsiya qilishdan olingan daromadlar, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar to‘laganidan keyin xususiy korxonalar mulkdori hamda fermer xo‘jaligi boshlig‘i, xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius ixtiyorida qoladigan foyda summasi kiradi.

## N

**Nafaqa oluvchi** – doimiy ravishda ijtimoiy nafaqa va boshqa nafaqa to‘lovlarini oluvchi, qonuniy vakil yoki qonun hujjatlariga muvofiq nafaqa summalarini olish huquqiga (vakolatiga) ega boshqa jismoniy shaxs.

**Nogironlik pensiyasi**– nogironlik pensiyasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda I va II guruh nogironlari deb topilgan, sug‘urta qilingan xodimlarga: mehnatda mayib bo‘lganligi yoki kasb kasalligiga chalinganligi tufayli – mehnat faoliyatining muddatidan qat‘i nazar;

boshqa sabablar tufayli–muddati sug‘urta qilingan xodimning nogironlik ro‘y bergan vaqtdagi yoshiga bog‘liq tegishli umumiy mehnat stajiga ega bo‘lgan taqdirda tayinlanadi.

## O

**Oila a‘zolari** – er (xotin), ota-onalar yoki farzandlikka oluvchilar va bolalar, shu jumladan, farzandlikka olinganlar.

**Operatsiya kuni** – moliya-kredit tashkilotlarining ish kunini bir qismi yoki mijozlarga xizmat ko‘rsatish va mijozlar bilash ishlash vaqti.

## O‘

**O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi** – soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni belgilash, joriy etish, hisoblab chiqarish hamda O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga va davlat maqsadli jamg‘armalariga to‘lash bilan bog‘liq munosabatlarni, soliq majburiyatlarini bajarish bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soladi.

**O‘zbekiston Respublikasi soliq to‘lovchilarining yagona reyestri** – soliq to‘lovchilarga oid davlat ma‘lumotlar bazasi tizimi.

## P

**Pensiya** - uni olish huquqi Qonunda belgilangan shartlarga va me‘yorlarga muvofiq aniqlanadigan hamda shaxslarga pensiya yoshiga to‘lish, nogironlik yoki boquvchisini yo‘qotganlik munosabati bilan beriladigan oylik pul to‘lovi.

**Pensioner** - pensiya yoshiga yetgan, boquvchisini yo‘qotgan, nogironligi tufayli doimiy ravishda pensiya to‘lovlarini oluvchi jismoniy shaxs.

**Pensiyaga oid hujjatlar yig‘majildi** - ular asosida pensiya so‘rab murojaat qilgan shaxsga pensiya tayinlangan hujjatlarning tikilgan turkumi.

**Pensiyaga oid hujjatlar yig‘majildi turadigan joy** – pensiya olish joyi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining tuman (shahar) bo‘limi.

**Pensiya tayinlashni so‘rab murojaat etish** – pensiya tayinlash, pensiya miqdorini qayta hisoblab chiqish, pensiyaning bir turidan boshqa turiga o‘tkazish, shuningdek, ilgari to‘xtatib qo‘yilgan (to‘xtatilgan) pensiya to‘lashni belgilangan tartibda tiklash (qayta tiklash) to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi

byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'limiga ariza berish.

**Pensiyaga oid hujjatlar yig'majildi** - ular asosida pensiya so'rab murojaat qilgan shaxsga pensiya tayinlangan hujjatlarning tikilgan turkumi.

**Pochta aloqasi obyektlari** – "O'zbekiston pochta" OAJning alohida bo'linmalari (pochtamtlar, pochta aloqasi bog'lamalari, bo'limlari, punktlari, shuningdek, boshqa bo'linmalar).

**Pochta aloqasi bo'limi** – foydalanuvchilarga pochta aloqasi xizmatlari, pochtaga ishlov berish va pochta almashinuvini amalga oshiruvchi boshqa xizmat turlarini ko'rsatuvchi pochta aloqasi obyekti.

**Pul mablag'larining pochta o'tkazmasi** – "O'zbekiston pochta" OAJning pochta aloqasi va telekommunikatsiya tarmoqlaridan foydalangan holda pul mablag'larini jo'natish va yetkazib berish (topshirish) bo'yicha xizmati.

**Pochta aloqasining mintaqaviy tashkiloti** – "O'zbekiston pochta" OAJning, birlashtirilgan hududdagi pochtamtlar, pochta aloqasi bog'lamalari, bo'limlari va punktlarining, shuningdek, boshqa bo'linmalarning ishlab chiqarish faoliyatini tashkil qiluvchi hududiy tarkibiy bo'linmasi.

## Q

**Qaydnoma** — pensioner va nafaqa oluvchining familiyasi, ismi va otasining ismi, yashash joyi, pasport ma'lumotlari, pensiya va nafaqa to'lov muddati hamda summasiga doir ma'lumotlar aks ettirilgan, pensiya va nafaqa to'lovi uchun tijorat banki filiali va pochta aloqasi obyektiga taqdim etiladigan hujjat.

**Qarzli moliyalashtirish** – davlat tomonidan olinayotgan qarzlarni davlat xarajatlarini moliyalashtirish uchun zarur bo'lgan pul mablag'larini moliya bozoridan qarz olish yo'li bilan mablag' jalb qilishdagi davlat faoliyatidir.

**Qarz oluvchi** – xorijdan mablag' jalb qilgan yohud xorijdan mablag' jalb qilish niyatini hujjat bilan tasdiqlagan O'zbekiston Respublikasi nomidan ish ko'ruvchi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi yoki rezident.

**Qonuniy vakil** – qonun hujjatlarida belgilangan tartibda shunday deb e'tirof etilgan farzandlikka oluvchi, vasiy yoki homiylik qiluvchi.

## R



**Rezident**– O‘zbekiston Respublikasida davlat ro‘yxatidan o‘tgan yuridik shaxs. O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan yoki joriy soliq davrida yakunlanayotgan har qanday ketma-ketlikdagi o‘n ikki oylik davr ichida jami bir yuz sakson uch kun va undan ortiq muddat O‘zbekiston Respublikasida turgan jismoniy shaxs.

## S

**Soliqqa tortish tizimi** – qonun chiqaruvchi idoralar tomonidan belgilangan va ijrochi idoralar tomonidan undiriladigan soliqlarning tashkil etish usullari, elementlari va tamoyillari yig‘indisiga aytiladi.

**Soliq munosabatlarining subyektlari** — soliq to‘lovchilar va vakolatli organlar soliq munosabatlarining subyektlaridir.

**Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi** – soliq solishning ayrim toifadagi soliq to‘lovchilar uchun belgilanadigan hamda ayrim turdagi soliqlarni hisoblab chiqarish va to‘lashning, shuningdek, ular yuzasidan soliq hisobotini taqdim etishning maxsus qoidalari qo‘llanilishini nazarda tutuvchi alohida tartibi.

**Soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining prinsiplari** – soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlari soliq solishning majburiylik, aniqligi, adolatliligi, soliq tizimining yagonaligi, soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining oshkoraligi va soliq to‘lovchining haqligi prezumpsiyasi prinsiplariga asoslanadi.

**Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar** – Soliq Kodeksida belgilangan, muayyan miqdorlarda undiriladigan, muntazam, qaytarib berilmaydigan va beg‘araz xususiyatga ega bo‘lgan, byudjetga yo‘naltiriladigan majburiy pul to‘lovlari tushuniladi. Davlat organlari va tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan ayrim turdagi boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha byudjetga tushumlarni hisobga olish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan belgilanadi.

**Soliq va boshqa majburiy to‘lovni hisoblab chiqarish tartibi** – soliq davri uchun soliq solinadigan bazadan, stavkadan, shuningdek, imtiyozlar mavjud bo‘lsa, shu imtiyozlardan kelib chiqib, soliq va boshqa majburiy to‘lov summasini hisoblash qoidalarini belgilaydi. Soliq va boshqa majburiy to‘lovlarni hisoblab chiqarish soliq to‘lovchi tomonidan mustaqil ravishda amalga oshiriladi.

**Soliq to‘lovchilar** – Soliq Kodeksiga muvofiq zimmasiga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash majburiyati yuklatilgan jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar va ularning alohida bo‘linmalaridir. Soliq

to'lovchi sifatida quyidagilar hisobga qo'yiladi: yuridik shaxslar - O'zbekiston Respublikasining rezidentlari o'zlari joylashgan erdagi (pochta manzilidagi) davlat soliq xizmati organida; yuridik shaxsning soliq majburiyatini Soliq Kodeksida mustaqil ravishda bajaradigan alohida bo'linmalari - alohida bo'linmaning joylashgan eridagi yoki faoliyatni amalga oshirayotgan joyidagi davlat soliq xizmati organida; jismoniy shaxslar - O'zbekiston Respublikasining rezidentlari jismoniy shaxsning yashash joyidagi davlat soliq xizmati organida; yuridik shaxslar - O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari - doimiy muassasaning joylashgan eridagi va (yoki) faoliyatni amalga oshirayotgan joyidagi davlat soliq xizmati organida; Kodeksga muvofiq mol-mulk solig'i va er solig'i to'lovchilar bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar - O'zbekiston Respublikasining norezidentlari - soliq solish obyekti joylashgan erdagi davlat soliq xizmati organida.

**Soliq to'lovchilar huquqi** – davlat soliq xizmati organlari va boshqa vakolatli organlardan amaldagi soliqlar, boshqa majburiy to'lovlar, soliq to'g'risidagi qonun hujjatlaridagi o'zgarishlar haqida axborot olish. Davlat soliq xizmati organlari byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga tushumlar hisobini soliq to'lovchining shaxsiy kartochkasida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning, shuningdek, penya va jarimalarning hisoblangan hamda to'langan summalarini aks ettirish orqali yuritadi.

**Soliq to'lovchining shaxsiy kartochkasi** – soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning har bir turi bo'yicha ochiladi. Soliq to'lovchining shaxsiy kartochkasini yuritish tartibi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilanadi.

**Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyati**– soliq to'lovchining muayyan soliq yoki boshqa majburiy to'lovni to'lash, shuningdek, Soliq Kodeksida nazarda tutilgan holatlar bo'lgan taqdirda, mavjud soliq qarzini uzish majburiyati hisoblanadi.

**Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlar**— Soliq Kodeksida, boshqa qonunlarda va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlarida nazarda tutilgan, boshqa soliq to'lovchilarga nisbatan ayrim toifadagi soliq to'lovchilarga beriladigan afzalliklar, shu jumladan, soliq va boshqa majburiy to'lov to'lamaslik yoxud ularni kamroq miqdorda to'lash imkoniyatidir.

**Soliq majburiyati** - Soliq to'lovchining soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq yuzaga keladigan majburiyati soliq majburiyati deb e'tirof etiladi. Soliq majburiyatini bajarish uchun soliq to'lovchi Kodeksda belgilangan hollarda davlat soliq xizmati organlarida hisobga turishi shart.

**Soliq agentlari** — Soliq Kodeksiga muvofiq zimmasiga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish, soliq to'lovchidan ushlab qolish hamda byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga o'tkazish majburiyati yuklatilgan shaxslardir. Davlat soliq xizmati organlari, bojxona organlari hamda zimmasiga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni undirish vazifasi yuklatilgan boshqa davlat organlari hamda tashkilotlari byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga tushumlar hisobini yuritishi kerak. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisobga olish byudjet klassifikatsiyasiga muvofiq yuritiladi. Davlat soliq xizmati organining soliq tekshiruvini o'tkazayotgan mansabdor shaxslari tekshirilayotgan soliq to'lovchidan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish, to'lash bilan bog'liq, tekshiruv maqsadlariga tegishli va tekshirilayotgan davrga taalluqli hujjatlarni talab qilib olishga haqli. Soliq agentlari jismoniy shaxsning talabiga binoan unga daromadlarining summalari va turlari haqida, shuningdek, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining ushlab qolingani summasi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadigan shaklda ma'lumotnoma berishlari shart. Jismoniy shaxslarning asosiy bo'lmagan ish joyidan olgan daromadlaridan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining yakuniy summasi jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to'g'risida taqdim etilgan deklaratsiyaning ma'lumotlari bo'yicha davlat soliq xizmati organi tomonidan hisoblab chiqariladi

**Soliq mexanizmi** – soliqqa tortish bilan bog'liq bo'lgan soliqlarning tashkil qilishning barcha elementlari, usullar va tamoyillar yig'indisi tushuniladi. Bunday elementlarga soliq obyekt, subyekt, manbai, stavkasi, to'lov muddatlari, soliq huquqi va hujjatlari kiradi.

**Soliq siyosati** – davlatning soliq sohasidagi barcha tadbirlarini rejalashtirish, qonun, farmon va qarorlar ijrosini ta'minlash hamda uni tashkil qilishdagi ishlab chiqilgan chora-tadbirlar yig'indisi.

**Soliq huquqi** – soliqlarni belgilash, amalga oshirish, undirish va ular bilan bog'liq bo'lgan ixtisoslashgan maxsus davlat nazoratini

amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy-huquqiy munosabatlar majmuyidir.

**Soliq to'lovchining vakillari** qonunga yoki ta'sis hujjatiga muvofiq soliq to'lovchining vakili bo'lishga vakolatli shaxslardir.

**Soliq qarzi** - soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha qarz summasi, Soliq Kodeksida belgilangan muddatida to'lanmagan moliyaviy sanksiyalar.

**Soliq davri** — soliq solinadigan baza aniqlanadigan hamda soliq yoki boshqa majburiy to'lov summasi hisoblab chiqariladigan davrdir. Soliq davri bir necha hisobot davriga bo'linishi mumkin bo'lib, ularning yakunlari bo'yicha hisob-kitoblarni taqdim etish hamda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'lanishi lozim bo'lgan summalarini to'lash majburiyati yuzaga keladi. Joriy to'lovlarni to'lash bo'yicha majburiyat yuzaga kelgan davr hisobot davri bo'lmaydi.

**Soliq nazorati** - soliq nazorati quyidagi shakllarda amalga oshiriladi: soliq to'lovchilarni hisobga olish; soliq solish obyektlarini va soliq solish bilan bog'liq obyektlarni hisobga olish; byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga tushayotgan tushumlarni hisobga olish; kameral nazorat; naqd pul tushumlari kelib tushishining xronometraji; soliq tekshiruvlari; fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalarini qo'llash; aksiz to'lanadigan ayrim turdagi tovarlarni markalash, ayrim korxonalarda moliya inspektori lavozimini joriy etish; davlat daromadiga qaratilgan mol-mulknii realizatsiya qilishdan tushadigan pul mablag'lari davlat daromadiga o'z vaqtida va to'liq tushishini nazorat qilish; boshqa majburiy to'lovlarni undirish vazifasini amalga oshiradigan davlat organlari va tashkilotlar ustidan nazorat qilish. Soliq nazorati amalga oshirilayotganda Soliq Kodeksi va boshqa qonun hujjatlarining qoidalarini buzgan holda soliq to'lovchi to'g'risida axborot to'plash, saqlash, undan foydalanish va uni tarqatish, soliq sirini oshkor qilishga yo'l qo'yilmaydi.

**Soliq tekshiruvi** - davlat soliq xizmati organlari tomonidan, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda esa, prokuratura organlari tomonidan amalga oshiriladigan soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining bajarilishini tekshirishdir. Soliq tekshiruvi soliq to'lovchining moliya-xo'jalik faoliyati tekshiruvi (taftishi) va qisqa muddatli tekshiruv shaklida amalga oshiriladi. Davlat soliq xizmati organlarining mansabdor shaxslari va soliq to'lovchi soliq tekshiruvlarining ishtirokchilaridir. Soliq tekshiruvlarida soliq to'lovchining vakili

ishtirok etishi mumkin. Soliq tekshiruvlari turlari: rejali soliq tekshiruvi; rejadan tashqari soliq tekshiruvi; muqobil tekshiruv.

**Soliq to'lovchining moliya-xo'jalik faoliyati tekshiruvi** – soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish maqsadida soliq to'lovchining buxgalteriya, moliya, statistika, bank hujjatlari hamda boshqa hujjatlarini o'rganish va taqqoslashdir. Qisqa muddatli tekshiruv soliq to'lovchining moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish bilan bog'liq bo'lmagan, uning ayrim operatsiyalarining soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiqligi tekshiruvidir.

**Sof foyda** – soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'langanidan keyin yuridik shaxs ixtiyorida qoladigan foyda.

**Stavka** – soliq solinadigan bazaning o'lchov birligiga nisbatan hisoblanadigan foizlardagi yoki mutlaq summadagi miqdorni ifodalaydi. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning stavkalari Soliq Kodeksida nazarda tutilgan bo'lmasa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan belgilanadi.

## Sh

**Shaxs** - pensiya va/yoki nafaqa olish huquqiga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasida doimiy yashaydigan va belgilangan tartibda istiqomat uchun berilgan guvohnoma olgan xorijiy fuqaro yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxs.

**Shaxsiy kartochka** — Pensiya jamg'armasi tuman (shahar) bo'limining pensiya tayinlash bo'yicha komissiyasi qarori asosida shaxsga tayinlangan pensiya va nafaqa to'g'risidagi ma'lumotlar qayd etiladigan va belgilangan shaklda rasmiylashtiriladigan hujjat.

**Shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobraqami** – fuqarolarning Xalq bankidagi egasi yozilgan shaxsiy hisobraqami bo'lib, badal kirituvchilarning jamg'arib boriladigan pensiya badallari va shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobraqamlaridagi mablag'larga hisoblab qo'shilgan foizlar ana shu hisobraqamga kelib tushadi va unda hisobga olinadi.

**Shaxsiy hisobraqam** – korxonalarining hisob-kitob operatsiyalari ko'rsatishga mo'ljallangan alohida ta'minotchilar, sotuvchilar va javobgar shaxslar bilan, shuningdek, kredit muassasalarining mijozlar, moliyaviy organlar va soliq to'lovchilar bilan analitik hisob-kitob yuritish bo'yicha hisobraqami.

**Shikoyat** – buzilgan huquqlarni, erkinliklarni tiklash va qonuniy manfaatlarini himoya qilish to‘g‘risidagi talab bayon etilgan murojaat.

## T

**Tadbirkorlik** yoki biznes – (ingliz tilida – *business*) deb har qanday qonuniy tijorat faoliyatiga aytiladi, tadbirkorlik bilan shug‘ullanuvchi shaxs tadbirkor deyiladi.

**Tadbirkorlik subyekti** – yuridik shaxs ixtiyoriy tugatilgan taqdirda, unga soliq davri boshlanganidan yuridik shaxslarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organ tugatish tartib-taomili boshlanganligi haqida xabardor qilingan sanagacha bo‘lgan muddat uchun alohida soliq hisoboti tuzadigan subyekt.

**Ta’lim oluvchi** – qonun hujjatlariga muvofiq umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar, oliy yoki oliy ta’limdan keyingi ma’lumotga ega bo‘lish maqsadida ta’lim muassasasida o‘qiyotgan, ishlovchi hisoblanmaydigan jismoniy shaxs.

**TMEK** – hayot faoliyati cheklanganligini ekspertizadan o‘tkazish, nogironlik guruhi, sabablari, boshlangan vaqti va muddatlarini aniqlash bo‘yicha tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari.

**Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushum** - realizatsiya qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun olingan (olinishi lozim bo‘lgan) mablag‘lar summasi, shu jumladan, realizatsiya qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun haq to‘lash yoki qarzni uzish hisobiga tushadigan mol-mulk qiymati.

**To‘lov manbayi** - soliq to‘lovchiga to‘lovlarni amalga oshiruvchi yuridik shaxs;

**To‘lov toshiriqnomasi** – muassasani boshqa shaxsning hisobraqamiga pul o‘tkazishi ko‘rsatiladigan va ushbu muassasaga xizmat ko‘rsatadigan bankka bergan topshirig‘i mazmuniga ko‘ra tayyorlangan hisob-kitob hujjati.

**To‘lov manbayi** – soliq to‘lovchiga to‘lovlarni amalga oshiruvchi yuridik shaxs.

## U

**Umidsiz qarz** – sud qaroriga binoan majburiyatlarning tugatilishi, qarzdorning bankrotligi, tugatilishi yoki vafot etishi oqibatida yoxud da’vo qilish muddati o‘tishi oqibatida uzish mumkin bo‘lmagan qarz.

## V

**Valyuta bozori** – chet el valyutasining oldi-sotdisini, chet el valyutasidagi qimmatli qog‘ozlarni hamda valyutaviy kapitalni

investitsiya qilish munosabatlarini, shuningdek, iqtisodiy munosabatlarni amalga oshiruvchi markaz.

**Verifikatsiya** – hujjatning haqiqiylikini belgilash jarayoni.

## X

**Xalqaro hisob-kitoblar** – turli mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalar natijasida yuzaga keladigan pullik talablar va majburiyatlar yuzasidan to'lovlarni amalga oshirish tizimi. Hozirgi kunda mamlakatlarning yuridik va jismoniy shaxslari tomonidan keng xalqaro hisob-kitoblarning turli shakllari qo'llaniladi.

**Xalq banki** – ish beruvchi tomonidan to'lov topshirig'i va xodimlarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'iga badallar reyestri taqdim etilgandan keyin besh ish kuni mobaynida to'lov topshirig'ida ko'rsatilgan summani va reyestrda ko'rsatilgan badallarning yakuniy summasini solishtiradi hamda yil choragida kamida bir marta fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'iga badallar summasi to'g'risidagi ma'lumotlarni kiritadi, bir vaqtning o'zida ma'lumotlarni shaxsiy hisobga olish yagona ma'lumotlar elektron bazasiga joylashtiradi. Shaxsiy ma'lumotlarda xatolar yoki tafovutlar aniqlangan taqdirda belgilangan muddatlarda ish beruvchilarga aniqlangan xatolar va tafovutlarni tuzatish uchun solishtirish dalolatnomalarini yuboradi. Ixtiyoriy tartibda jamg'arib boriladigan tizimda qatnashuvchi fuqarolardan tushgan shaxsiy hisobga olish ma'lumotlari tekshiriladi va Xalq banki filialiga murojaat qilingan kunda shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'iga kiritiladi.

**Xodim** – ish beruvchi bilan mehnat shartnomasi tuzgan mehnat munosabatlari subyekti, shu jumladan, ishlaydigan pensioner yoki davlat ijtimoiy nafaqasi oluvchi ishlovchi.

**Xodimning qaramog'idagi oila a'zosi** – «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 19-moddasida tilga olingan xodimning qaramog'ida bo'lgan mehnatga layoqatsiz oila a'zosi.

## Y

**Yakka tartibdagi tadbirkor** – tadbirkorlik faoliyatini yuridik shaxs tashkil etmagan holda, mustaqil ravishda, xodimlarni yollash huquqsiz, o'ziga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan mol-mulk negizida, shuningdek, mol-mulkka egalik qilish va (yoki) undan foydalanishga yo'l qo'yadigan o'zga ashyoviy huquq asosida amalga oshiruvchi jismoniy shaxsdir. Yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan

sodir etilgan soliqqa oid huquqbuzarlik uchun moliyaviy sanksiyalar yuridik shaxslar uchun nazarda tutilgan tartibda qo'llaniladi. Soliqlar, boshqa majburiy to'lovlar va penya materiallar sudga berilgan kundan e'tiboran o'ttiz kun ichida ixtiyoriy ravishda to'langan taqdirda tadbirkorlik subyekti - soliq to'lovchi o'ziga nisbatan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lamaganligi uchun jarimalar qo'llanilishidan ozod qilinadi.

**Yakka tartibdagi hisobga olish** — davlat ijtimoiy sug'urtasi, shu jumladan, davlat pensiya ta'minoti maqsadlari uchun ish beruvchi tomonidan har bir jismoniy shaxs bo'yicha taqdim etiladigan ma'lumotlar asosida elektron hisobni yuritish.

**Yashash joyi** - turar joy, kvartira, xizmat turar joyi, ixtisoslashtirilgan uylar (yotoqxona, pansionat, yolg'iz keksalar uchun maxsus uy, nogironlar, faxriylar uchun internat uy va boshqalar), shuningdek, pensiya uchun murojaat qilgan jismoniy shaxs ijaraga olish shartnomasi, ijara shartnomasi yoxud qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa asoslar bo'yicha mulkdor sifatida doimiy yashaydigan (doimiy ro'yxatdan o'tgan) boshqa turar joy, doimiy yashash joyi mavjud bo'lmagan (doimiy ro'yxatdan o'tmagan) taqdirda - vaqtincha yashash (vaqtincha ro'yxatdan o'tish) joyi. Soliq to'lovchilar daromadlar bo'yicha jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiyani doimiy yashash joyidagi davlat soliq xizmati organiga hisobot yilidan keyingi yilning 1 apreldan kechiktirmay taqdim etadi. Deklaratsiya qilinishi shart bo'lmagan daromadlarni olgan soliq to'lovchilar doimiy yashash joyidagi davlat soliq xizmati organiga jami yillik daromadlari to'g'risidagi deklaratsiyani ixtiyoriy ravishda taqdim etishi mumkin.

**Yaqin qarindoshlar** – er, xotin, ota-ona, bolalar, tug'ishgan hamda o'gay aka-uka va opa-singillar, bobolar, buvilar, nevaralar.

**Yetkazib berish uchastkasi** - shaharlar, shaharchalar, qishloqlar yoki ovullar hududining bitta pochtalon tomonidan xizmat ko'rsatilishi mo'ljallangan qismi.

**Yetkazib berish (topshirish) davri** - pensiyalar va nafaqalarni yetkazib berish (topshirish) amalga oshiriladigan joriy to'lov oyining 4-dan 28-sanasigacha bo'lgan davr.

**Yoshga doir pensiya** – yoshga doir pensiya sug'urta qilingan xodimlarga umumiy asoslarda: erkaklar – oltmish yoshga to'lgan bo'lib, umumiy mehnat staji yigirma besh yildan kam bo'lmagan taqdirda, ayollar – ellik besh yoshga to'lgan bo'lib, umumiy mehnat staji yigirma yildan kam bo'lmagan taqdirda tayinlanadi. Pensiya sug'urta qilingan



xodimlarning ayrim toifalariga pensiya yoshi kam bo'lganda, tegishli hollarda esa – mehnat staji kam bo'lganda ham tayinlanadi.

**Yuridik shaxs** – deb o'zining ixtiyorida, qaramog'ida, foydalani-shida mulkka ega bo'lgan, o'zining majburiyatlarini shu mulk bilan qaytara oladigan, buxgalteriya balansi hamda bankda hisobraqamiga ega bo'lgan shaxslarga aytiladi. O'zbekiston Respublikasining davlat byudjetiga to'lanadigan soliq va yig'implarning hal qiluvchi qismini yuridik shaxs soliqlari va boshqa to'lovlari tashkil etadi. Statistika organlarida ularning o'z faoliyat kodlari ko'rsatiladi. Yuridik shaxs O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq tashkil etilgan, o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, mustaqil balansiga yoki smetasiga ega bo'lgan, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan hamda ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot.

## VII. ADABIYOTLAR RO'YXATI

### Asosiy adabiyotlar:

1. Tuychiyev A.J., Toshmuxamedova D.A. G'aznachilik. Darslik. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”. 2019. – 840 b.
2. Toshmuxamedova D.A. Byudjet g'azna ijrosi. O`quv qo`llanma. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”. 2019. – 430 b.
3. Toshmuxamedova D.A. G'aznachilik asoslari. O`quv qo`llanma. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”. 2018. – 260 b.
4. Xazanovich E., Yunusov L., Yunusov I. Mejdunarodnie finansi. Uchbenik. – M.: “KnoRus”, 2017. – 334 s.
5. Eskindarov M., Zvonova E. Mirovie finansi. Uchebnik. – M.: “KnoRus”, 2017. – 424 s.

### Qo'shimcha adabiyotlar

1. Mehmonov S., Karimova Z., Tursunov A. Byudjet tizimi. Darslik. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2018. – 544 b.
2. Malikov T.S. Byudjet-soliq siyosati. O`quv qo`llanma. –T.: “Iqtisod-moliya”, 2018. - 420 b.
3. Nurmuxamedova B.I. Davlat byudjeti. O`quv qo`llanma. –T.: “Iqtisod-moliya”, 2018. -576 b.
4. Jiyanova N., Tashmatova R. Byudjetno-nalogovaya politika: uchebnoe posobie. – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2019. – 216 s.
5. Jiyanova N. Upravlenie gosudarstvennimi finansami: uchebnoe posobie. – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2019. – 384 s.

### Axborot manbalari:

1. [www.gov.uz](http://www.gov.uz) – (O'zbekiston Respublikasi hukumat portali).
2. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) – (O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi).
3. [www.mf.uz](http://www.mf.uz)- (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining rasmiy sayti)
4. [www.stat.uz](http://www.stat.uz)- (O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'sitasi rasmiy sayti)
5. [www.publicfinance.uz](http://www.publicfinance.uz) – (O'zbekistonda Byudjet islohotlari loyihasi)
6. [www.ach.gov.uz](http://www.ach.gov.uz) – (O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining rasmiy sayti)
7. [www.openbudget.uz](http://www.openbudget.uz)-(O'zbekiston Respublikasi “Ochiq Byudjet” portali)
8. [www.ipsasb.org](http://www.ipsasb.org)- (Davlat sektorida buxgalteriya hisobi standartlari bo'yicha xalqaro tashkilot)